O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

4.2023

научно-теоретический, методический журнал
Издаётся с 2001 года

Urganch – 2023

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

TAHRIR HAY’ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, mas’ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva unversiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),
SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori (UrDU),
SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari, (UrDU),
YAKUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),
O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN●JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI●2023 4 (190)

MUASSIS: Urganch davlat universiteti●Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan●**GUVOHNOMA № 1131.**

MATEMATIKA

Saidov Doniyor Yusupovich (O‘zbekiston Milliy universiteti;doniyorsaidov86@gmail.com);
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti), To‘xtaboyev Qudrat (O‘zbekiston Milliy universiteti)

“TASODIFIY O‘RMON” ALGORITMINING TURLI TOIFALI ALOMATLAR FAZOSIDA QO‘LLANILISHINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. *“Tasodifiy o‘rmon” algoritmining turli toifali alomatlar fazosida qo‘llanilishining o‘ziga xosligi ko‘rib chiqilgan. Alomat qiymatlarini o‘zaro kesishmaydigan oraliqlarga ajratishning rekursiv usuliga asoslangan tegishlilik funksiyasidan foydalangan holda alomatlar fazosini unifikatsiya qilish taklif etilgan. Bu turli toifali alomatlar fazosidan bir xil o‘lchov shkalasiga ega bo‘lgan miqdoriy alomatlar fazosiga o‘tish va ushbu yangi fazoda mashinali o‘rgatishning standart usullarini qo‘llash imkonini beradi. Shu jumladan, turli xil o‘rgatuvchi tanlanmalarda daraxt tuzilmali modelga asoslangan TO‘ algoritmi turli toifali alomatlar fazosida tahlil qilingan.*

Аннотация. *В работе рассматриваются особенности применения алгоритма “случайный лес” для разнотипных признаков. Предлагается унификация признакового пространства на основе функции принадлежности с использованием рекурсивного метода разбиения значений на непересекающиеся интервалы. Это позволяет перейти из пространства разнотипных признаков в пространство количественных признаков в котором используется стандартные методы машинного обучения. В том числе был проанализирован алгоритм “случайный лес” на основе древовидной модели на обучающих выборках в разном признаковом пространстве.*

Annotation. *The peculiarities of using the “random forest” algorithm for different type features is considered. It is proposed the unification of the features space using the belonging function on the base of recursive method of splitting values into non-intersecting intervals. It allows us to move from the space of different type features to the space of quantitative features, and use the standard machine learning methods on it. Including the “random forest” algorithm based on the tree-structured model was analyzed on training samples in different feature spaces.*

Kalit so‘zlar*: turli toifali alomatlar, tasodifiy o‘rmon algoritmi, tegishlilik funksiyasi, intervallarga ajratish, obyektlarni tanib olish.*

Ключевые слова*: разнотипные признаки, алгоритм случайного леса, функция принадлежности, разбиение на интервалы, распознавание объектов.*

Key words*: different type features, random forest algorithm, belonging function, division into intervals, object recognition.*

Kirish. TO‘ – bu obrazlarni anglash muammolarini hal qilish uchun ishlatiladigan algoritmlar ansambli hisoblanadi. Tasodifiy o‘rmon algoritmi birinchi marta Breiman tomonidan taklif qilingan [1]. Ushbu usul so‘ngi o‘n yil ichida, asosan, qo‘llashning amaliy jihatdan soddaligi va ko‘p o‘lchamli berilganlar to‘plami bilan ishlay olish qobiliyati tufayli faol o‘rganilgan. TO‘ algoritmini amalga oshirishning qulayligi uning kuchli tomonlaridan biri bo‘lib, keng qo‘llanilishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, ishonchli bashoratni olish uchun ushbu algoritmning turli xil parametrlarini to‘g‘ri sozlash shart emas. Bu TO‘ algoritmini ko‘p sohalarda katta va turli xil berilganlar to‘plamlari bilan ishlash uchun tayyor yechimga aylantiradi [2].

Ansambl usuli sifatida u tayanch tasniflovchilar to‘plamini (bu holda qaror daraxtlari) hosil qiladi va ularni bashorat qilish uchun birlashtiradi. Dastlabki berilganlar to‘plamidan bir nechta turli daraxtlarni yaratish uchun daraxt qurish jarayonini tasodifiylashtirishni talab qiladi, masalan, berilganlar to‘plamini qayta tanlash kabi. Shu sababli daraxtlar qanday yaratilganiga va tanlanma tarkibini tasodifiylashtirish qanday kiritilganiga qarab, turli xil TO‘lar mavjud. Bu ishda ansamblni shakllantirish uchun qoplash usuli (bagging) qo‘llanilgan. Har bir daraxt uchun dastlabki tanlanmadan tasodifiy ravishda qism tanlanma hosil qilinadi. Qism tanlanma hosil qilish jarayoni tasodifiy bo‘lganligi uchun dastlabki tanlanmaning ba’zi obyektlari takroriy tanlanishi mumkin. Odatda, qism tanlanmaning o‘lchami dastlabki tanlanmaniki kabi bo‘ladi. Lekin ba’zi obyektlarning takroriy tanlangani hisobiga undagi unikal obyektlar soni nisbatan kamroq bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu qism tanlanma asosida binar daraxt qurish jarayonida daraxtning har bir tuguni uchun dastlabki alomatlar to‘plamidan tasodifiy ravishda qism alomatlar to‘plami tanlanadi. Bu, o‘z navbatida, har bir daraxt unikal bo‘lishini va o‘rmon tasodifiyligini ta’minlaydi.

Ushbu qaralayotgan tadqiqot ishida TO‘ algoritmining turli toifali alomatlar fazosida qo‘llanishi tahlil qilingan. Odatda, mashinali o‘rgatishning aksariyat usullari miqdoriy alomatlar bilan ishlashga mos-

lashgan. Shu singari TO‘ algoritmi ham miqdoriy alomatlar bilan ishlashga mo‘ljallangan. Agar alomatlar fazosi turli toifali bo‘lsa, sifat alomatlardan miqdoriyga o‘tish uchun dastlabki qayta ishlashlar amalga oshiriladi. Nominaldan miqdoriyga o‘tishning turli usullari mavjud bo‘lib, masalan [3], ishda turli toifali alomatlardan binar alomatlarga, ishda esa nochiziqli almashtirishlarga asoslangan ierarxik aglomerativ guruhlash usuli orqali latent fazoga o‘tilgan (4). Yoki shunchaki label-encoding va one-hot-encoding kodirovkalaridan foydalanib miqdoriy alomatlarga o‘tish amalga oshirilgan. Undan keyingina TO‘ algoritmi qo‘llanilgan.

Masalaning qo‘yilishi. Obrazlarni anglash masalasining standart qo‘yilishi qaraladi. O‘zaro kesishmaydigan K_1 va K_2 sinflarga tegishli bo‘lgan $E_0 = \{S_1, ..., S_m\}$ obyektlar to‘plami berilgan deb hi-soblanadi. Har bir obyekt *n* ta turli toifali alomatlar bilan ifodalanib, ulardan ξ tasi intervalli shkalada, *n* - ξ tasi esa nominalda o‘lchanadi. *I* va *J* orqali ruxsat etilgan $X = (x_1, ..., x_n)$ obyektlarni tavsiflash-dagi mos ravishda miqdoriy va nominal alomatlar to‘plami belgilanadi va $|I| + |J| = n$.

Talab qilinadi:

1) obyeklar tavsifidagi dastlabki alomatlar to‘plamini (alomatlar tabiatidan qat’iy nazar) yangi alomatlar to‘plamiga almashtirish va yangi alomatlar to‘plamidagi barcha alomatlar o‘lchov shkalasi bir xil bo‘lishini ta’minlash;

2) almashtirishdan oldin va undan keyin TO‘ algoritmining aniqligini hisoblansh.

Alomatlar fazosini almashtirish uchun [5] tomonidan taklif qilingan usuldan foydalaniladi. [5]ga ko‘ra har bir miqdoriy alomat uchun interval shunday tanlash kerakki, uning chegaralarida K_1 yoki K_2 sinf obyektlari qiymatlari ustuvor bo‘ladi. Buning uchun *c*–alomat ($c \in I$) qiymatlarini o‘sib borish bo‘yi-cha tartiblash amalga oshiriladi:

$$r_{c_1}, r_{c_2}, ..., r_{c_m}. \quad (1)$$

Quyida aniqlangan mezonga asosan, (1) ketma-ketlik τ_c ta o‘zaro kesishmaydigan $[r_{c_u}, r_{c_v}]^i$, $1 \le u, u \le v \le m$, $i = \overline{1, \tau_c}$ oraliqlarga bo‘linadi. Alomatning $[r_{c_u}, r_{c_v}]^i$ oraliqda yotgan qiymatlari, keyinchalik, nominal alomat gradatsiyasi sifatida qaraladi.

Aytaylik, $d_1^i(u,v)$, $d_2^i(u,v)$, mos ravishda, K_1, K_2 sinf vakillarining $[r_{c_u}, r_{c_v}]^i$ oraliqdagi miqdori bo‘lsin. r_{c_u}, r_{c_v} qiymatlarni tanlashning rekursiv usulida quyidagi mezondan foydalaniladi:

$$\left| \frac{d_t^i(u,v)}{|K_t|} - \frac{d_{3-t}^i(u,v)}{|K_{3-t}|} \right| \to \max. \quad (2)$$

(1) – ketma-ketlikdagi birinchi oraliqning $[r_{c_u}, r_{c_v}]^1$ chegaralari (2) mezonning maksimumi bo‘yicha hisoblanadi [7-10]. Xuddi shu tarzda (1) ketma-ketlik qiymatlarida $[r_{c_u}, r_{c_v}]^1, ..., [r_{c_u}, r_{c_v}]^{p-1}$ ga kirmagan $[r_{c_u}, r_{c_v}]^p$, $p > 1$ uchun chegaralar aniqlanadi. Ushbu usulning to‘xtash sharti sifatida (1) qiymatlari o‘zaro kesishmaydigan oraliqlar bilan qoplanishi olinadi.

Har bir $[r_{c_u}, r_{c_v}]^i$, $i = \overline{1, \tau_c}$ oraliq uchun (2) bo‘yicha optimal bo‘linish natijalarini $\eta_{1i} = \frac{d_1^i(u,v)}{|K_1|}$, $\eta_{2i} = \frac{d_2^i(u,v)}{|K_2|}$ deb belgilaymiz. $[r_{c_u}, r_{c_v}]^i$ oraliq bo‘yicha *c* – alomatning K_1 sinfga tegishlilik funksiyasi qiymatini quyidagicha aniqlaymiz:

$$f_{ci} = \frac{\eta_{1i}}{\eta_{1i} + \eta_{2i}}. \quad (3)$$

Agar alomat sifat alomati (nominal) bo‘lsa, ya’ni, $c \in J$, u holda (3) dagi η_{1i}, η_{2i} qiymatlar alomatning i – gradatsiyasining mos ravishda K_1, K_2 sinflardagi miqdori sifatida qarash mumkin.

Hisoblash eksperimenti. Hisoblash eksperimenti sifatida alomatlar fazosi turli xil bo‘lgan bir nechta o‘rgatuvchi tanlanmalardan olindi (11). O‘rgatuvchi tanlanmalar parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘rgatuvchi tanlanmalar ro‘yxati

№	Tanlanma nomi	Obyektlar soni	Alomatlar soni, shu jumladan	
			Sifat (nominal)	Miqdoriy
1	Chulist	42	-	6
2	Gipertaniya	147	-	29
3	Australian	690	-	14
4	Echocord.	108	2	9
5	German	1000	13	7
6	Spect Heart	80	22	-

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko‘rish mumkinki, tanlanmalarning alomatlari toifalari turlicha bo‘lgan holatlar tahlil qilingan. Dastlabki 3 ta tanlanmaning barchasi miqdoriy alomatlardan tashkil topgan bo‘lsa, 4 va 5 – qatorlardagi tanlanmalar alomatlari toifasi aralash va oxirgi 6 – qatordagi tanlanma esa faqat sifat alomatlardan tashkil topgan.


Quyidagi 2-jadvalda barcha tanlanmalar dastlabki xom alomatlar fazosida va (2) mezon orqali miqdoriy alomatlarga o‘tilgandagi holatlar tahlil qilingan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, dastlabki xom alomatlar fazosida sifat alomatlar qiymatlari label-encoding orqali son qiymatlarga almashtirilgan.

2-jadval

TO‘ algoritmining (2) mezon bo‘yicha alomatlarni almashtirishdan oldin va keyingi holatlardagi aniqligi

№	O‘rgatuvchi tanlanma	Label-encoding bo‘yicha					(2) mezon bo‘yicha almashtirishdan keyin				
		Daraxtlar soni va unga mos algoritm aniqligi (%)									
		5	10	20	50	100	5	10	20	50	100
1	Chulist	90.0	97.5	90.0	92.5	92.5	92.5	92.5	90.0	95.0	95.0
2	Gipertaniya	93.7	96.5	95.8	94.4	97.2	99.3	99.3	98.6	99.3	99.3
3	Australian	86.6	84.7	86.8	86.9	85.9	87.2	87.1	87.1	88.5	87.8
4	Echocord.	82.8	88.5	90.4	89.5	90.4	89.5	92.3	94.2	92.3	91.4
5	German	74.3	74.3	74.5	77.5	76.0	74.4	75.7	77.1	78.7	79.3
6	Spect Heart	72.0	70.0	67.5	70.0	70.0	70.0	70.0	72.5	73.8	75.0

2-jadvaldagi natijalardan ko‘rish mumkinki, (2) mezon orqali yangi miqdoriy alomatlar fazosiga o‘tilganda TO‘ algoritmining aniqligi sezilarli darajada oshadi. Tasodifiy ormon algoritmida daraxtlar soni 50 va 100 bo‘lgan holatlarda ayniqsa buni yaqqol sezish mumkin. Yuqoridagi barcha tanlanmalarda algoritm aniqligi oshganligini ko‘rish mumkin.



1-rasm. Barcha alomatlari miqdoriy bo‘lgan tanlanmalarda label-encoding va (2) mezon orqali almashtirishdagi TO‘ altoritmi aniqligi.

1-rasmda alomatlar turlari faqat miqdoriy bo‘lgan tanlanmalarda label-encoding va (2) mezon orqali almashtirishdagi TO‘ algoritmi aniqligi keltirilgan. Natijalardan ko‘rish mumkinki (2) mezon orqali almashtirish nafaqat nominaldan miqdoriyga o‘tish usuli hisoblanadi, balki dastlabki xom fazodagi miqdoriy alomatlar uchun qo‘llanganda algoritm aniqligini yanada oshiradi.

Odatda, tasodiy o‘rmon algoritmi qo‘llashda tasniflash aniqligini oshirish, meyoridan ortiq o‘rgatib yuborishni oldini olish, yoki yetarlicha o‘rgatmaslikka yo‘l qo‘ymaslik uchun daraxtlar soniga cheklov qo‘yilgan. sklearn kutubxonasida kiritilgan TO‘ (RandomForest) algoritmida tasniflash daraxtlari sonining kelishuv bo‘yicha qiymati 100 deb olingan (sklearn kutubxonasida 0.22 versiyasidan boshlab random forest algoritmida amalga oshirilgan (12).

Bundan tashqari, TO‘ algoritmini alomat turi nominal bo‘lgan holatlarda ikki xil (label-encoding, one-hot-encoding) almashtirishlardan birini qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Undan keyingini hamma alomatlar miqdoriy deb olinib, keyin algoritm ishlatiladi. Ushbu ikki almashtirishlarning ham kamchiliklari mavjud bo‘lib, label-encoding orqali nominaldan miqdoriyga o‘tilganda obyekt tavsifidagi nominal alomat qiymatini ifodalovchi gradatsiyalariga qandaydir butun sonlar mos qo‘yiladi. Natijada, masalan, “oq”, “qora”, “sariq”,”qizil” kabi qiymatlarni solishtirish imkoniga ega bo‘lamiz. Lekin boshqa tarafdan, bu gradatsiya qiymatlarni birining boshqasidan katta yoki kichikligi mantiqan nomaqbul natijalarga olib kelishi mumkin va bu uning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Ikkinchi one-hot-encoding orqali nominaldan miqdoriyga o‘tilganda ushbu nominal alomatdagi har bir gradatsiya qiymati uchun bitta alohida alomat hosil qilinadi. Masalan, 4 ta gradatsiyali bitta nominal alomat o‘rniga, 4 ta alohida binar qiymatli alomatlar hosil qilinadi. Endi bu o‘tishda biz bemalol alomatlarni bir-biri bilan solishtirsak mantiqan to‘g‘ri bo‘lsa ham, doim yaxshi natija olavermaymiz. Chunki alomatlar fazosi o‘lchami keskin oshib ketishi, o‘z navbatida obyektlar orasidagi munosabatlarning yuvilib ketishiga olib keladi va bu uning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Ushbu ishda nominaldan miqdoriyga o‘tishning yuqorida sanab o‘tilgan ikki xil o‘tishdan farqli (2) mezon asosida boshqa usul taklif etilgan. Quyidagi 3-jadvalda mazkur 3 ta almashtirishlarning bitta tan-lanmadagi tahlili natijalari keltirilgan.

3-jadval

TO‘ algoritmining Spect-Heart tanlanmasida 3 xil almashtirishlardagi aniqligi

№	Almashtirish turi (kodirovka)	Daraxtlar soni va unga mos algoritm aniqligi (%)				
		5	10	20	50	100
1	Label encoding	72.5	70.0	67.5	70.0	70.0
2	One hot encoding	68.7	75.0	62.5	71.2	76.2
3	Encoding by (2)	70.0	70.0	72.5	73.8	75.0

3-jadvaldagi natijalardan ko‘rish mumkinki, (2) mezon bo‘yicha nominaldan miqdoriyga o‘tish nisbatan yaxshi natija bergan. Ushbu holatda TO‘ algoritmi aniqligi Spect Heart tanlanmasidagi 80 ta obyekt bo‘yicha sirpanuvchi nazorat (cross validation) usuli orqali hisoblangan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, [11]dagi tanlanma ikki qismdan iborat. 80 ta obyektdan iborat o‘rgatuvchi tanlanma va 187 ta obyektdan iborat test tanlanmasi. Quyidagi 4-jadvalda TO‘ algoritmini o‘rgatuvchi tanlanmaga qo‘llash orqali olingan qonuniyatni test tanlanmasidagi aniqligi keltirilgan.

4-jadval

TO‘ algoritmining Spect Heartning test tanlanmasi bo‘yicha 3 xil almashtirishlardagi aniqligi

№	Almashtirish turi (kodirovka)	Daraxtlar soni va unga mos algoritm aniqligi (%)				
		5	10	20	50	100
1	Label encoding	80.7	74.3	81.2	76.4	78.0
2	One hot encoding	75.9	79.6	78.6	76.4	79.6
3	Encoding by (2)	91.9	91.9	91.9	91.9	91.9

Yuqoridagi 4-jadvaldagi natijalardan ko‘rish mumkinki, (2) mezon bo‘yicha nominaldan miqdoriyga o‘tish juda yaxshi natija bergan. Ya’ni, shuni takidlash kerakki, ushbu tanlanmada [6] ishda mualliflar tomonidan qo‘llanilgan CLIP3 algoritmi 84,0% aniqlikdagi qoidalarni yaratgan. Ushbu ishda nominaldan miqdoriyga o‘tishda (2) mezon bo‘yicha almashtirishdan keyin TO‘ algoritmi aniqligi 91.9%ni tashkil etdi.

Xulosa. Ushbu ishda qaralgan turli toifali alomatlar fazosidan bir xil o‘lchov shkalasiga ega bo‘lgan miqdoriy alomatlar fazosiga o‘tish va ushbu yangi fazoda TO‘ algoritmi aniqligining oshishini hisoblash eksperimentlari orqali turli tanlanmalarda ko‘rsatib berildi. (2) mezon orqali alomatning obyekt tavsifidagi qiymatlarini ustunlik intervallari orqali o‘zaro kesishmaydigan oraliqlarga bo‘lish va (3) tegishlilik funksiyasi yordamida yangi qiymatlarga almashtirish nafaqat dastlabki miqdoriy alomat balki sifat alomatlarda ham qo‘llanganda TO‘ algoritmi aniqligini oshishi ko‘rsatildi. Boshqa tarafdan, label-encoding va one-hot-encoding kabi almashtirishlarga nisbatan tasniflash daraxtlari soni yetarlicha katta bo‘lganda (50, 100 ta) yaxshi natija berishi aniqlandi. Shuning bilan birga, (2) mezon orqali nominaldan miqdoriyga o‘tilganda ortiqcha hisoblash murakkabligi yuzaga kelishi mumkin, bu esa, o‘z navbatida, tanlanma berilganlari (obyektlari) soni yetarlicha katta bo‘lganda hisoblash murakkabligi tufayli samarasiz bo‘lishi mumkin. Buni ushbu usulning asosiy kamchiliklari sifatida e’tirof etish mumkin. Hisoblash murabbakligini kamaytirish uchun qandaydir optimal algoritmlarni qurish keyingi tadqiqodlarda qarash ko‘zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.Breiman. Random forests. Machine Learning, 45, p. 5 – 32, 2001.
2. M.Fern´andez-Delgado, E.Cernadas, S.Barro and D.Amorim. Do we need hundreds of classifiers to solve real world classification problems. Journal of Mm achine Learning Research, 15.3133 – 3181, 2014.
3. Игнатьев Н.А., Рахимова М.А. Формирование и анализ наборов информативных признаков объектов по парам классов. Искусственный интеллект и принятие решений. 4.18 – 26, 2021.
4. Saidov Doniyor Yusupovich. Data Visualization and its Proof by Compactness Criterion of Objects of Classes. I.J. Intelligent Systems and Applications. 8.51–58, 2017.
5. Н.А.Игнатьев. Обобщенные оценки и локальные метрики объектов в интеллектуальном анализе данных. Монография. Ташкент, “Университет”, 2014, 72 pages.
6. Kurgan L.A., Cios K.J., Tadeusiewicz R., Ogiela M.&Goodenday L.S. Knowledge Discovery Approach to Automated Cardiac SPECT Diagnosis. Artificial Intelligence in Medicine, vol. 23.2, p. 149 – 169, 2001.
7. N.A.Ignatyev, Sh.F.Madrakhimov, D.Y.Saidov. Stability of object classes and selection of the latent features, International journal of engineering technology and sciences. 4 (1), p. 61 – 71, 2017.
8. Н.А.Игнатьев, Д.Ю.Саидов. Анализ данных и принятие решений с помощью логических закономерностей в форме полуплоскостей. Известия Самарского научного центра Российской академии наук, 19 (4–2), p. 294 – 299, 2017.
9. Sh.F. Madrakhimov, D.Y.Saidov. Stability of the objects of classes and grouping the features, Проблемы вычислительной и прикладной математики, с. 50 – 54, 2016.
10. Ш.Ф.Мадрахимов, Д.Ю.Саидов. Группировка признаков по критерию устойчивости объектов классов, Актуальные проблемы прикладной математики, информатики и механики, с. 93 – 95, 2016.
11. https://archive.ics.uci.edu/ml/datasets
12. https: //scikit - learn.org/

Bozorov Suxrob Baxodirovich (Guliston davlat universitetining tayanch doktoranti; suxrobbek_8912@mail.ru)

OLDINDAN SILLIQLANGAN RELATIV-RISK FUNKSIYASI ASOSIDA O‘NG TOMONDAN TASODIFIY SENZURLANISHLI MODELDA TAQSIMOT FUNKSIYASINI NOPARAMETRIK BAHOLASH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘ng tomondan tasodifiy senzurlanishli modelini qarashimiz sababi, ushbu modelni metodik jihatdan tushuntirish juda qulay bo‘lganligi uchun ko‘rib chiqiladi. Senzurlanishning bir nechta turlari mavjud (o‘ngdan, chapdan, har ikkala tomondan, konkurent risk bilan aralashtirilgan va boshqalar. Bunday modellar meditsina, biologiya, sug‘urta ishi, demografiya va sanoat tajribalarida, umuman olganda, amaliyot bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab sohalarda uchrab turadi. Oldindan silliqlangan relativ-risk funksiyasi asosida o‘ng tomondan tasodifiy senzurlanishli modelda taqsimot funksiyasini noparametrik baholash muhokama qilinadi.*

Аннотация. *В этой статье рассматриваются данные о времени жизни, подвергающиеся правильной случайной цензуре. Обсуждается непараметрическая оценка функции распределения, основанная на концепции предварительной оценки функции относительного риска. Доказана сильная равномерная аппроксимация оценки взвешенной суммой случайных функций. В результате устанавливается сильная однородная согласованность и асимптотическая нормальность оценки.*

Annotation. *In this article, we will observe the random right-censored model because it is very convenient to explain this model methodologically. There are several types of censoring (right, left, both sides, mixed with competing risk, etc. Such models are generally related to practice in medicine, biology, insurance work, demography, and industrial experiments. nonparametric estimation of the distribution function in a random right-censored model based on a pre-smoothed relative-risk function is discussed.*

Kalit so'zlar: *tasodifiy senzura, PHM – proporsional intensivlik modeli, asimptotik effektiv, integral intensevlik, relativ-risk funksiyasi, yadroviy-silliqlangan regressiya, senzurlanish darajasi.*

Ключевые слова: *случайная цензура, предел продукта, относительный риск, предварительно согласованные, пропорциональные опасности, асимптотическое представление, строгая согласованность, асимптотическая нормальность.*

Key words: *random censorship, product-limit, relative risk, presmoothed, proportional hazards, asymptotic representation, strong consistency, asymptotic normality.*

1.Kirish. Demak, o'ng tomondan tasodifiy senzurlanishli modeli quydagicha aniqlanadi. $X_1, X_2, ...$ va $Y_1, Y_2, ...$ bog'liq bo'lmagan bir-xil taqsimlangan tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi bo'lib, ularning taqsimot funksiyalari, mos ravishda, uzluksiz *F* va *G* lar bo'lsin. Bu yerda biz *X* ning taqsimot funksiyasi *F* ni baholashimiz kerak. Ammo *Y* o'zining *G* taqsimot funksiyasi bilan bizga xalaqit beradi. *F* ni baholashimiz uchun quyidagicha tanlanma tuzib olamiz:

$$C^{(n)} = \left\{ \left(Z_j, \delta_j \right), 1 \le j \le n \right\},$$

bu yerda n–tanlanma hajmi, $Z_j = min\left(X_j; Y_j \right)$ va $\delta_j = I\left(X_j \le Y_j \right) = I\left(Z_j = X_j \right)$ – ($I(A)$– *A* hodisaning indikatori). Tanlanmaning tuzilishidan tushunarliki:

♦agar $X_j \le Y_j$ bo'lsa, $Z_j = min\left(X_j; Y_j \right) = X_j$ ga teng bo'lganda, $\delta_j = 1$ ga teng bo'ladi va bu holatda biz *X* ni kuzata olamiz;

♦aks holda, $Y_j \le X_j$ bo'lsa, u holda $Z_j = min\left(X_j; Y_j \right) = Y_j$ ga teng bo'lganda, $\delta_j = 0$ bo'ladi, bu esa senzurlanishli holat bo'ladi.

Shu sababli manashu kuzatilayotgan $C^{(n)}$ tanlanmada bizni qiziqtirayotgan X_j larning soni tasodifiy bo'ladi, ya'ni, $\nu_n = \delta_1 + \delta_2 + ... + \delta_n$ tasodifiy sondagi 1 larning yig'indisi bu *Binomial* taqsimotga ega bo'lgan tasodofiy miqdor.

Masalaning qo'yilishi shundan iboratki, $\left(Z_j; \delta_j \right)$ juftliklardan iborat bo'lgan $C^{(n)}$ tanlanmada *F* ni baholash.


Kaplan va Meier [1] birinchi bo'lib *F* ning *product – limit* (PL) bahosini taklif qilgan:

$$F_n^{PL}(t) = \begin{cases} 1 - \prod\limits_{\left\{ j: Z_{(j)} \le t \right\}} \left(1 - \dfrac{\delta_{(j)}}{n - j + 1} \right), & t \le Z_{(n)}, \\ 1, & t > Z_{(n)}, \quad \delta_{(n)} = 1, \\ aniqlanmagan, & t > Z_{(n)}, \quad \delta_{(n)} = 0, \end{cases} \tag{1}$$

Bu yerda **PL –** baho tasodifiy miqdorlarning ko'paytmasi ko'rinishida, $Z_{(1)} \le Z_{(2)} \le ... \le Z_{(n)}$, $Z_{(j)}$ – tartiblangan statistika, $\delta_{(j)}$ – har bir $Z_{(j)}$ ga mos kelgan $\left\{ \left(Z_{(j)}; \delta_{(j)} \right); 1 \le j \le n \right\}$.

PL–bahoning boshqa ko'rinishlari ham mavjud. Biroq, bu bahoning kamchiliklaridan biri Z_j eng katta qiymatida senzurlanish bo'lsa, ular bir-biriga mos kelmaydi. PL-bahoning bir nechta xususiyatlarini o'rganish va ularni statistik masalalarda qo'llash borasida juda ko'plab ishlar qilingan. Ayniqsa, bevosita tasodifiy senzurlanish holatida.

Endi yuqoridagi (1) bahoning qay darajada ekanligini o'rganish maqsadida kompyuter modellashtirish yordamida ushbu model bo'yicha tanlanma beradigan dastur tuzib, bahoni chizib ko'ramiz (1-rasm):



1-rasm. Kaplan-Meier bahosi (Eksponensial taqsimot ($\lambda = 1$).

Biroq PL baho yagona baho emas. A.A.Abdushukurov *F* uchun boshqa, relativ-risk power bahosini taklif qilgan [2, 3]:

$$F_n^{RR}(t) = 1 - \left(1 - H_n(t)\right)^{R_n(t)} = \begin{cases} 0, & t < Z_{(1)}, \\ 1 - \left(\dfrac{n-j}{n}\right)^{R_n(t)}, & Z_{(j)} \le t < Z_{(j+1)}, \quad 1 \le j \le n-1, \\ 1, & t \ge Z_{(n)}, \end{cases} \tag{2}$$

bu yerda $H_n(t) = \dfrac{1}{n}\sum_{j=1}^{n} I\left(Z_j \le t\right)$, $t \in \mathbb{R}^1 \equiv (-\infty; +\infty)$ empirik taqsimot funksiya. $H(t) \equiv P(Z \le t) = 1 - P(Z \ge t) = 1 - P(X \ge t)P(Y \ge t) = 1 - \left(1 - F(t)\right)\left(1 - G(t)\right)$ minimumlardan iborat taqsimot funksiyasi. $H_n(t)$ baho $H(t)$ ning empirik bahosi bo‘ladi. $R_n(t) = \left(\Lambda_n(t)\right)^{-1} \cdot \Lambda_{1n}(t)$ va $R(t) = \left(\Lambda(t)\right)^{-1} \Lambda_1(t), t \in \mathbb{R}^1$. $R_n(t)$ baho $R(t)$ ning relativ-risk funksiyasi bahosi. Endi biz ushbu $R(t) = \dfrac{\Lambda_1(t)}{\Lambda(t)}$, $t \in \mathbb{R}^1$ relativ-risk funksiyasini qaraymiz.

Bu yerda *H, G* va *F* taqsimot funksiyalariga mos kelgan Λ, Λ_0 va Λ_1 integral intensivlik funksiyalari quyidagicha topiladi:

$$\Lambda(t) = \int_{-\infty}^{t} \frac{dH(u)}{1 - H(u-)} = \Lambda_0(t) + \Lambda_1(t),$$

$$\Lambda_0(t) = \int_{-\infty}^{t} \frac{dG(u)}{1 - G(u-)} = \int_{-\infty}^{t} \frac{dH_0(u)}{1 - H(u-)}, \tag{3}$$

$$\Lambda_1(t)=\int_{-\infty}^{t}\frac{dF(u)}{1-F(u-)}=\int_{-\infty}^{t}\frac{dH_1(u)}{1-H(u-)},$$

$R(t)$ va (3) formulalardan tushunarliki, $R(t)=\dfrac{\Lambda_1(t)}{\Lambda(t)}=\dfrac{\Lambda_1(t)}{\Lambda_0(t)+\Lambda_1(t)}\in[0;1],t\in(-\infty;+\infty)$ funksiya chegaralangan.

$H(t)-$Z ning taqsimot funksiyasi bo‘lib, $H(t)=H_0(t)+H_1(t),t\in\mathbb{R}^1,$

bu yerda $H_0(t)=P(Z_j\le t,\delta_j=0)=\int_{-\infty}^{t}(1-F(u-))dG(u),$

$H_1(t)=P(Z_j\le t,\delta_j=1)=\int_{-\infty}^{t}(1-G(u-))dF(u).$


(3) dagi integral intensivlik funksiyalarining mos baholari quyidagilar:

$$\Lambda_n(t)=\int_{-\infty}^{t}\frac{dH_n(u)}{1-H_n(u-)}=\Lambda_{0n}(t)+\Lambda_{1n}(t),$$

bu yerda: $\Lambda_{kn}(t)=\int_{-\infty}^{t}\frac{dH_{kn}(u)}{1-H_n(u-)},\quad k=0,1;\quad H_{kn}(t)=\frac{1}{n}\sum_{j=1}^{n}I(Z_j\le t,\ \delta_j=k)$

$H_k(t),k=0,1$ ning $H_{0n}(t)+H_{1n}(t)=H_n(t),t\in\mathbb{R}^1$ empirik taqsimotidir.

Endi yuqoridagi (2) bahoni qay darajada ekanligini o‘rganish maqsadida kompyuter modellashtirish yordamida ushbu model bo‘yicha tanlanma beradigan dastur tuzib, bahoni chizib ko‘ramiz (2-rasm).



2-rasm. Relativ-Risk Power bahosi.


[2–4] da ikkala baho (1) va (2) ning bir xil cheklovchi Gasson jarayoniga o‘xshash asimptotik xususiyatlarga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Shunga qaramay, relativ-risk power bahosi PL-bahoga nisbatan ba’zi kichik afzalliklarga ega. Masalan, relativ-risk power bahosi so‘nggi kuzatilgan $Z_{(n)}$ nuqtaning

senzurla-nishiga ta'sirchan emas, zero, $F_n^{RR}\left(Z_{(n)}\right)=1$ va u quyidagi model bilan aniqlanadi: $\left(1-F_n^{RR}(t)\right)\left(1-G_n^{RR}(t)\right)=1-H_n(t), n\geq 1, t\in\mathbb{R}^1,$ bu yerda *G*(t) taqsimot funksiyasining mos bahosi $G_n^{RR}(t)=1-\left(1-H_n(t)\right)^{1-R_n(t)}$ mavjud. [4] da bu bahoning konkurent risklarining tugallanmagan kuzatishlari bilan aralash shakldagi umumlashgan bir nechta kengaytirilgan ko'rinishlari taklif etilgan (2). Ushbu baholar ba'zi statistik xossalari keng tadqiq etilgan. Bu yerdan oson tushunish mumkinki, (2) baho yaxshi tanish bo'lgan ACL (Abdushukurov-Cheng-Lin) bahosining tabiiy umumlashmasi ekanligini ko'rishimiz mumkin:


$$F_n^{ACL}(t)=1-\left(1-H_n(t)\right)^{p_n}, t\in\mathbb{R}^1,$$

bu yerda: $p_n=\frac{\nu_n}{n}$ ifoda $p=P\left(\delta_j=1\right)$ ehtimollikning bahosi bo'lib, relativ-risk funksiyasi $R(t)\equiv p$ o'zgarmas bo'lgan holidir $\left(p=\frac{\Lambda_1(t)}{\Lambda(t)},\ t\in\mathbb{R}^1\right)$. Abdushukurov [5] va Chen Lin [6] taklif qilgan va mustaqil tadqiq etilgan F_n^{ACL} (ko'proq ma'lumot olish uchun, Csörgő [7] ga murojaat qiling). Ushbu baho ko'plab boshqa mualliflar tomonidan o'rganilgan, kengaytirilgan va qo'llanilgan. PHM (proporsional intensivlik modeli) ning asosiy xususiyati $\{Z_1,...,Z_n\}$ va $\{\delta_1,...,\delta_n\}$ larning bir biriga bog'liq emasligidir. Ushbu xossa biror β musbat son uchun $1-G(t)=\left(1-F(t)\right)^{\beta}, t\in\mathbb{R}^1$ kabi ifodalanishiga teng kuchlidir. PHMda $p=\frac{1}{1+\beta}$ bo'lib, β –senzurlanish darajasini aniqlaydi. PHMda F_n^{ACL} baho F_n^{PL} ga nisbatan asimptotik effektivdir (2, 5, 7).

Endi yuqoridagi ACL bahoni qay darajada ekanligini o'rganish maqsadida kompyuter modellashtirish yordamida ushbu model bo'yicha tanlanma beradigan dastur tuzib, bahoni chizib ko'ramiz (4- va 5-rasmlar).



4-rasm. ACL-bahosi (Weibull taqsimoti (c=2).



5-rasm. ACL – bahosining turg‘unligi (B-robasligi, robust) (Weibull taqsimoti (c=2).

Quyida senzurlanishga uchramagan tanlanmalarning qiymatini hisobga olgan holdagi shartli ehtimolligi

$$p(t) = P(\delta_j = 1 / Z_j = t) = \mathrm{E}[\delta_j / Z_j = t], \quad t \in \mathbb{R}^1, \tag{4}$$

muhim funksiya bo‘lib, bu PHM da o‘zgarmas $p(t) = \frac{1}{1+\beta}$, $t \in \mathbb{R}^1$ bo‘ladi. Qolaversa, (4) funksiya integral intensevlik funksiyasi Λ_1 ni Λ orqali ifodalanishida muhim rol o‘ynaydi: $\Lambda_1(t) = \int_{-\infty}^{t} p(u)\, d\Lambda(u)$, $t \in \mathbb{R}^1$, yuqoridagini e’tiborga olgan holda quyidagi ko‘rinishdagi relativ-risk funksiyasiga ega bo‘lamiz:

$$R(t) = \frac{\Lambda_1(t)}{\Lambda(t)} = \frac{\int_{-\infty}^{t} p(u)\, d\Lambda(u)}{\Lambda(t)}, \quad t \in \mathbb{R}^1. \tag{4}$$

ehtimollik Z_j ning δ_j ga regressiyasidir. Shunday ekan, uni ba’zi regressiya statistikalari yordamida baholab olinishi mumkin. Biz quyidagi Nadaraya [8] va Uotson [9] ning noparametrik regressiya bahosini qo‘lladik:


$$p_n(t) = \left[\frac{1}{nh(n)}\sum_{j=1}^{n} k\left(\frac{t - Z_j}{h(n)}\right)\right]^{-1} \cdot \left[\frac{1}{nh(n)}\sum_{j=1}^{n} \delta_j k\left(\frac{t - Z_j}{h(n)}\right)\right], \tag{5}$$

bu yerda: $p_n(t)$ baho $p(t)$ ning yadroviy-silliqlangan regressiya bahosini aniqlaydi. $k(t)$ – biror tanlangan zichlik funksiyasi va $\{h = h(n), n \geq 1\}$ – manfiy bo‘lmagan va $n \to \infty$ da nolga intiluvchi son-lar ketma-ketligidir (oyna kengligi). (4) tenglikdagi ehtimollikni noma’lum parametrga bog‘liq bo‘lgan holida biz uni parametrik baholab olishimiz mumkin (Dikta [10]).

[11] da PL – bahoning oldindan silliqlangan bahosi taklif etilgan bo‘lib, u (1) dagi $\delta_{(j)}$ ni (5) ning berilgan nuqtadagi qiymati bilan almashtirish natijasida olingan:

$$F_n^{\,p}\left(t\right)=1-\prod_{\left\{j:Z_{(j)}\le t\right\}}\left(1-\frac{p_n\left(Z_{(j)}\right)}{n-j+1}\right),\quad t\in\mathbb{R}^1. \tag{6}$$

Endi yuqoridagi (6) bahoni qay darajada ekanligini o‘rganish maqsadida kompyuter modellashtirish yordamida ushbu model bo‘yicha tanlanma beradigan dastur tuzib, bahoni chizib ko‘ramiz (6-rasm).




6-rasm. $F_n^{\,p}$ **– bahosi.**

(6) bahoning ba’zi asimptotik xossalari [11, 12] adabiyotlarda tadqiq qilingan. (2) bahoning (1) bahoga nisbatan ba’zi afzalliklarini inobatga olgan holda, biz yangi ko‘rinishdagi oldindan silliqlangan relativ-risk power bahosini taklif qilamiz (PRRP):

$$F_n^{\,PR}\left(t\right)=1-\left(1-H_n\left(t\right)\right)^{R_n^p(t)}=\begin{cases}0, & t<Z_{(1)},\\ 1-\left(\dfrac{n-j}{n}\right)^{R_n^p(t)}, & Z_{(j)}\le t<Z_{(j+1)},\ 1\le j\le n-1,\\ 1, & t\ge Z_{(n)},\end{cases} \tag{7}$$

bu yerda $R_n^p\left(t\right)=\left(\Lambda_n\left(t\right)\right)^{-1}\cdot\Lambda_{1n}^{\,p}\left(t\right)=\left(\Lambda_n\left(t\right)\right)^{-1}\cdot\int_{-\infty}^{t}p_n\left(u\right)d\Lambda_n\left(u\right),t\in\mathbb{R}^1$, $R_n\left(t\right)$ bahosining qisman oldindan silliqlangan analogi. (4) funksiya o‘rniga uning silliqlangan (5) bahosini olish natijasida kelib chiqdi. Biroq (7) bahoning o‘zi silliq emas. (7) baho ham senzurlanishning hech bir shartisiz butun son o‘qida aniqlangan.

Endi yuqoridagi (7) bahoni qay darajada ekanligini o‘rganish maqsadida kompyuter modellashtirish yordamida ushbu model bo‘yicha tanlanma beradigan dastur tuzib, bahoni chizib ko‘ramiz (7-rasm).



7-rasm. $F_n^{PR}-$ **bahosi.**

2. PRRP bahosining asimptotik xossalari. $r(n)=h^2(n)+\left(nh(n)\right)^{-1/2}\left(\log n\right)^{1/2}$ ga aniqlik kiritib olamiz. Baho (7) ning xossalarini tadqiq qilish maqsadida bizga quyidagi shartlar zarur bo‘ladi:

$(C1)$ $(F,G)\in K=\left\{(F,G):N_F\cap N_G\neq\varnothing, P(X_j\leq Y_j)\in(0,1)\right\}$, bu yerda $N_F=\left\{t:0<F(t)<1\right\}$ va $N_G=\left\{t:0<G(t)<1\right\}$;

$(C2)$ Sonlar α,β va γ quyidagilar kabi

$\min\left\{H(\alpha),1-H(\beta)\right\}\geq\gamma(0,1)$, $\alpha>\tau_H=\sup\left\{t:H(t)=0\right\}$ va $\beta<T_H=\inf\left\{t:H(t)=1\right\}$, $[\alpha,\beta]\neq\varnothing$;

$(C3)$ Barcha $n\geq 1$ uchun $P(0<\nu_n<n)=1$ o‘rinli bo‘ladi;

$(C4)$ k simmetrik bo‘lib, ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi va kompakt to‘plamli variatsion zichlikka ega;

$(C5)$ Zichlik $q(t)=H'(t)$ mavjud bo‘lib, $t\in[\alpha,\beta]$ va $\sup\limits_{\alpha\leq t\leq\beta}q(t)>0$ da to‘rt marta uzluksiz differensiallanuvchi hisoblanadi;

$(C6)$ $p(t)$ esa $t\in[\alpha,\beta]$ kesmada to‘rt marta differensiallanuvchi;

$(C7)$ $n^{1-\varepsilon}\cdot h(n)\to\infty$ ba’zi $\varepsilon>0$, $\sum\limits_{n=1}^{\infty}h^{\lambda}(n)<\infty$ uchun hamda ba’zi $\lambda>0$ uchun va $h^2(n)=o\left(\left(nh(n)\right)^{-1/2}\cdot\left(\log\left(\frac{1}{h(n)}\right)\right)^{1/2}\right)$ uchun.

Tasodifiy funksiyalarni inobatga olgan holda, $\varphi_1(t;z)=\dfrac{p(t)}{1-H(t)}\left(I(Z\leq t)-H(t)\right)$,

$$\varphi_2(t;z)=\int_{-\infty}^{t}\frac{I(Z\le u)-H(u)}{1-H(u)}p'(u)\,du,\qquad \varphi_3(t;z,\delta)=\int_{-\infty}^{t}k\left(\frac{u-Z}{h}\right)\cdot\frac{(\delta-p(u))}{1-H(u)}du.$$

Keyingi teoremalarda, biz PRRP bahosi *t* dagi mustaqil va bir xil taqsimlangan tasodifiy funksiyalar yig‘indisi orqali $n\to\infty$ da nolga teng bo‘lgan qoldiq qiymatini ko‘rsatamiz.

1-teorema. Agar $(C1)-(C7)$ shartlar bajarilgan bo‘lsa, unda

$$F_n^{PR}(t)-F(t)=(1-F(t))\Omega_n(t)+Q_n(t) \tag{8}$$

$\sup_{\alpha\le t\le\beta}|Q_n(t)|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\max\left\{\left(r(n)\log\right)^2,\frac{\log n}{n}\right\}\right)$, bilan ifodalanadi,

bu yerda $\Omega_n(t)=\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}\left[\varphi_1(t;Z_i)-\varphi_2(t;Z_i)+\varphi_3(t;Z_i,\delta_i)\right]$ ga teng.

Quyidagi Lemmalar bizga **1-teorema**ni isbotlash imkonini beradi.

1-lemma. (12 dagi 3.2 lemmadan olingan xulosa). Faraz qiling, $(C1)-(C7)$ shartlari bajarilgan bo‘lsin. Shunda quyidagi baho

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\Lambda_{1n}^{p}(t)-\Lambda_1(t)\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(r(n)\log n\right). \tag{9}$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi.

2-lemma. (*12 dagi 3.4-teorema*). Faraz qiling, $(C1)-(C7)$ shartlari bajarilgan bo‘lsin. Unda $t\in[\alpha,\beta]$ uchun quyidagi ifoda haqiqiy hisoblanadi

$$\Lambda_{1n}^{p}(t)-\Lambda_1(t)\overset{a.s.}{=}\Omega_n(t)+\mathrm{O}\left(r^2(n)\right). \tag{10}$$

3-lemma. (Dvoreski-Kifer-Volfovis tengsizligi bilan $d=2$, to‘lqinli o‘zgarmas, qarang: Massart [13]). Barcha $n\ge 1$ uchun, ba’zi $\gamma>0$ va $\varepsilon=\left((1+\gamma)(2n)^{-1}\log n\right)^{1/2}$ quyidagi baho

$$P\left(\sup_{-\infty<t<\infty}\left|H_n(t)-H(t)\right|>\varepsilon\right)\le 2n^{-(1+\gamma)}\ . \tag{11}$$

dan iborat bo‘ladi.

4-lemma. (*53-betdagi lemma [14]*). $\gamma>0$ uchun quyidagi baho haqiqiy hisoblanadi

$$P\left(\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\int_{-\infty}^{t}\frac{(H_n(u)-H(u))\,d(H_n(u)-H(u))}{(1-H(u))^2}\right|>\mathrm{A}(1-H(\beta))^{-2}n^{-1}\log n\right)\le \mathrm{B}n^{-(1+\gamma)}\ , \tag{12}$$

bu yerda $\mathrm{A}=\mathrm{A}(\gamma)$ va B musbat o‘zgarmas sonlardir.

5-lemma. 1. Agar $(C1)-(C3)$ shartlari bajarilgan bo‘lsa, unda baho quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi

(a) $\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\frac{\Lambda(t)}{\Lambda_n(t)}-1\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\left(\frac{\log n}{n}\right)^{1/2}\right)$;

(b) $\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\frac{\Lambda_1(t)}{\Lambda_n(t)}-R(t)\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\left(\frac{\log n}{n}\right)^{1/2}\right)$;

2. Agar $(C4)-(C7)$ shartlari qo‘shimcha bajarilishi talab qilinsa, unda quyidagicha baholanishi zarur

(c) $\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|R_n^{P}(t)-R(t)\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\max\left\{r(n)\log n,\left(\frac{\log n}{n}\right)^{1/2}\right\}\right)$.

5-lemmaning isboti. Quyidagicha kuzatiladi:

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\frac{\Lambda(t)}{\Lambda_n(t)}-1\right|\le \sup_{\alpha\le t\le\beta}\left(H_n(\alpha)\right)^{-1}\cdot\left|\Lambda_n(t)-\Lambda(t)\right|\le$$
$$\le 3\left[H_n(\alpha)\left(1-H_n(\beta)\left(1-H(\beta)\right)\right)\right]^{-1}\sup_{-\infty<t<\infty}\left|H_n(t)-H(t)\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\left(\frac{\log n}{n}\right)^{1/2}\right), \tag{13}$$

bu yerda so‘nggi tenglama (11) va Borrel-Kantelli lemmasidan kelib chiqqan. Shunga ko‘ra, (13) va quyidagidan ketma-ketlik (b) aniq ko‘rinib turibdiki,

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\frac{\Lambda_1(t)}{\Lambda_n(t)}-R(t)\right|=\sup_{\alpha\le t\le\beta}R(t)\cdot\left|\frac{\Lambda(t)}{\Lambda_n(t)}-1\right|\le\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\frac{\Lambda(t)}{\Lambda_n(t)}-1\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\left(\frac{\log n}{n}\right)^{1/2}\right)$$

(c) uchun bizda quyidagi ifoda bor:

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|R_n^p(t)-R(t)\right|=\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|R_n^p(t)-\frac{\Lambda_1(t)}{\Lambda_n(t)}\right|+\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\frac{\Lambda_1(t)}{\Lambda_n(t)}-R(t)\right|\le$$
$$\le\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left(\Lambda_n(t)\right)^{-1}\left[\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\Lambda_{1n}^p(t)-\Lambda_1(t)\right|+\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\Lambda_n(t)-\Lambda(t)\right|\right]\overset{a.s.}{=}$$
$$\overset{a.s.}{=}\left(H_n(\alpha)\right)^{-1}\cdot\left[\mathrm{O}\left(r(n)\right)+\mathrm{O}\left(\left(\frac{\log n}{n}\right)^{1/2}\right)\right]\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\max\left\{r(n)\log n,\left(\frac{\log n}{n}\right)^{1/2}\right\}\right),$$

bu yerda biz 1-lemmani qo‘lladik va shunga ko‘ra baholadik (13). Natijada Lemma 5 isbotlandi.

1-teoremaning isboti. $F_n^{PR}(t)-F(t)$ differensiali uchun ikkihadli Teylor kengaytmasi bilan quyidagini aniqladik

$$F_n^{PR}(t)-F(t)=\left(1-F(t)\right)M_n(t)+L_n(t), \tag{14}$$

bu yerda $M_n(t)=-\left[R_n^p(t)\log\left(1-H_n(t)\right)R(t)\log\left(1-H(t)\right)\right]$, $L_n(t)=\frac{1}{2}M_n^2(t)\exp\left(-\chi_n(t)\right)$, $\chi_n(t)$ bu yerda $\log\left(1-F_n^{PR}(t)\right)$ va $\Lambda_1(t)=-\log\left(1-F(t)\right)$ o‘rtasida yotadi. $M_n(t)$ uchun bizda quyidagi ifoda mavjud

$$M_n(t)=\left(\Lambda_{1n}^p(t)-\Lambda_1(t)\right)\cdot\frac{\Lambda(t)}{\Lambda_n(t)}-\left(\Lambda_n(t)-\Lambda(t)\right)\cdot\frac{\Lambda_1(t)}{\Lambda_n(t)}+\left[-\log\left(1-H_n(t)\right)+\log\left(1-H(t)\right)\right]\cdot R_n^p(t). \tag{15}$$

Endi esa biz (15) dagi birinchi qo‘shiluvchi asosiy ekanligini va qolgan ikkita qo‘shiluvchi ($n\to\infty$ da) nolga intilishini ko‘rsatamiz. Birinchi hadni quyidagicha yoyishimiz mumkin:

$$\left(\Lambda_{1n}^p(t)-\Lambda_1(t)\right)\frac{\Lambda(t)}{\Lambda_n(t)}=\left(\Lambda_{1n}^p(t)-\Lambda_1(t)\right)+S_n(t), \tag{16}$$

bu yerda $S_n(t)=\left(\Lambda_{1n}^p(t)-\Lambda_1(t)\right)\cdot\left(\frac{\Lambda(t)}{\Lambda_n(t)}-1\right)$. Shunday ekan, (9) va 5-lemma yordamida ((a) sharti) bilan, quyidagini hosil qilamiz:

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|S_n(t)\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(r(n)\left(\log n\right)^{3/2}n^{-1/2}\right). \tag{17}$$

So‘ngra (10), (16) va (17) dan biz barcha $t\in\left[\alpha,\beta\right]$ uchun quyidagini hosil qilamiz:

$$\left(\Lambda_{1n}^p(t)-\Lambda_1(t)\right)\frac{\Lambda(t)}{\Lambda_n(t)}\overset{a.s.}{=}\Omega_n(t)+\mathrm{O}\left(r_1(n)\right).$$

Boshqa ikki had (15) uchun quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$-\left(\Lambda_n(t)-\Lambda(t)\right)\frac{\Lambda_1(t)}{\Lambda_n(t)}+\left[-\log\left(1-H_n(t)\right)+\log\left(1-H(t)\right)\right]=$$

$$= R_n^p(t)\left\{-\left(\Lambda_n(t)-\Lambda_1(t)\right)+\left[-\log\left(1-H_n(t)\right)+\log\left(1-H(t)\right)\right]-\left(\Lambda_n(t)-\Lambda(t)\right)\left(\frac{\Lambda_1(t)}{\Lambda_{1n}^p(t)}-1\right)\right\}=$$

$$= R_n^p(t)\left[A_n(t)+B_n(t)+C_n(t)\right]. \tag{18}$$

Demak, (9) va (13) orqali biz quyidagini hosil qilamiz:

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta} R_n^p(t)\cdot\left|C_n(t)\right|\le \sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|C_n(t)\right|\le$$

$$\le \sup_{\alpha\le t\le\beta}\left(\Lambda_{1n}^p(t)\right)^{-1}\cdot\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\Lambda_n(t)-\Lambda(t)\right|\cdot\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\Lambda_{1n}^p(t)-\Lambda_1(t)\right| \overset{a.s.}{=} \mathrm{O}\left(r(n)\left(\log n\right)^{3/2}n^{-1/2}\right). \tag{19}$$

Endi esa oddiy algebraik amallar va $\mathrm{A}_n(t)$ uchun bo‘laklab integrallash formulasidan foydalanib hamda $\mathrm{B}_n(t)$ uchun Teylorning yoyilmasidan foydalanib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\mathrm{A}_n(t)+\mathrm{B}_n(t)=-\left(\Lambda_n(t)-\Lambda(t)\right)+\left[-\log\left(1-H_n(t)\right)+\log\left(1-H(t)\right)\right]=$$

$$=-\left[\int_{-\infty}^{t}\frac{dH_n(u)}{1-H_n(u-)}-\int_{-\infty}^{t}\frac{dH(u)}{1-H(u)}\right]+\left[\frac{H_n(t)-H(t)}{1-H(t)}+\frac{1}{2}\frac{\left(H_n(t)-H(t)\right)^2}{\theta_n^2(t)}\right]=$$

$$=\left\{-\left[\int_{-\infty}^{t}\frac{dH_n(u)}{1-H_n(u-)}-\int_{-\infty}^{t}\frac{dH_n(u)}{1-H_n(u)}\right]-\left[\int_{-\infty}^{t}\frac{dH_n(u)}{1-H_n(u)}-\int_{-\infty}^{t}\frac{dH(u)}{1-H(u)}\right]+\right.$$

$$\left.+\left[\frac{H_n(t)-H(t)}{1-H(t)}+\frac{1}{2}\cdot\frac{\left(H_n(t)-H(t)\right)^2}{\theta_n^2(t)}\right]\right\}=\left\{-\left[\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)dH(u)}{\left(1-H_n(u)\right)\left(1-H(u)\right)}+\right.\right.$$

$$+\frac{H_n(t)-H(t)}{1-H(t)}-\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)dH(u)}{\left(1-H(u)\right)^2}+\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)d\left(H_n(u)-H(u)\right)}{\left(1-H_n(u)\right)\left(1-H(u)\right)}-$$

$$\left.\left.-D_{1n}(t)\right]+\left[\frac{H_n(u)-H(u)}{1-H(u)}+D_{2n}(t)\right]\right\}=-\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)dH(u)}{\left(1-H_n(u)\right)\left(1-H(u)\right)}+$$

$$+\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)dH(u)}{\left(1-H(u)\right)^2}+\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)d\left(H_n(u)-H(u)\right)}{\left(1-H_n(u)\right)\left(1-H(u)\right)}+D_{1n}(t)+D_{2n}(t), \tag{20}$$

bu yerda: $D_{1n}(t)=\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H_n(u-)\right)dH_n(u)}{\left(1-H_n(u-)\right)\left(1-H_n(u)\right)}$, $D_{2n}(t)=\frac{1}{2}\cdot\frac{\left(H_n(t)-H(t)\right)^2}{\theta_n^2(t)}$,

$$\theta_n(t)\in\left[\min\left\{H_n(t),H(t)\right\},\max\left\{H_n(t),H(t)\right\}\right].$$

Modomiki, (11) ni qo‘llab, quyidagini oldik:

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|D_{1n}(t)\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\frac{1}{n}\right),\qquad \sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|D_{2n}(t)\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\frac{\log n}{n}\right). \tag{21}$$

Tenglamani inobatga olgan holda,

$$\frac{1}{1-H_n(u)}=\frac{1}{1-H(u)}+\frac{H_n(u)-H(u)}{\left(1-H_n(u)\right)\left(1-H(u)\right)} \tag{22}$$

va uning integral ko‘rinishida ifodalab oldik:

$$\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)dH(u)}{\left(1-H_n(u)\right)\left(1-H(u)\right)}=\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)dH(u)}{\left(1-H(u)\right)^2}+\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)^2dH(u)}{\left(1-H(u)\right)^2\left(1-H_n(u)\right)}. \tag{23}$$

Uchinchi va birinchi integrallardagi (20) dan (22) va (23) larni qo‘llagan hamda (21) ni inobatga olgan holda, quyidagini hosil qilamiz:

$$\mathrm{A}_n(t)+\mathrm{B}_n(t)\overset{a.s.}{=}-\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)^2 dH(u)}{\left(1-H(u)\right)^2\left(1-H_n(u)\right)}+\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)^2 d\left(H_n(u)-H(u)\right)}{\left(1-H_n(u)\right)\left(1-H(u)\right)}+$$

$$+\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)d\left(H_n(u)-H(u)\right)}{\left(1-H(u)\right)^2}+\mathrm{O}\left(\frac{\log n}{n}\right). \tag{24}$$

(11) bahosini birinchi va ikkinchi integrallar hamda (24) dagi uchinchi integralga (12) olib borib qo‘yib, quyidagi olinadi:

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|-\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)^2 dH(u)}{\left(1-H(u)\right)^2\left(1-H_n(u)\right)}\right|\le\left[\left(1-H(\beta)\right)^2\left(1-H_n(\beta)\right)\right]^{-1}\cdot\left[\sup_{-\infty<t<\infty}\left|H_n(u)-H(u)\right|\right]^2\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\frac{\log n}{n}\right), \tag{25}$$

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)^2 d\left(H_n(u)-H(u)\right)}{\left(1-H_n(u)\right)\left(1-H(u)\right)}\right|\le 2\left[\left(1-H(\beta)\right)\left(1-H_n(\beta)\right)\right]^{-1}\cdot\left[\sup_{-\infty<t<\infty}\left|H_n(u)-H(u)\right|\right]^2\overset{a.s.}{=}$$

$$\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\frac{\log n}{n}\right), \tag{26}$$

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|\int_{-\infty}^{t}\frac{\left(H_n(u)-H(u)\right)d\left(H_n(u)-H(u)\right)}{\left(1-H(u)\right)^2}\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\frac{\log n}{n}\right). \tag{27}$$

Shunday ekan, (18), (19) va (24) – (27) ni qo‘shish orqali, biz quyidagini hosil qilamiz:

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|M_n(t)\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\max\left\{r(n)\log n,\ \frac{\log n}{n}\right\}\right)$$

va natijada

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|L_n(t)\right|\le\left[\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|M_n(t)\right|\right]^2\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\left[\max\left\{r(n)\log n,\ \frac{\log n}{n}\right\}\right]^2\right). \tag{28}$$

Nihoyat, kutilgan natija (8) dan keyin (15)–(17) va (28) davom etadi. Isbot o‘z tasdig‘ini topadi. Endi esa biz natija sifatida PRRP bahosining kuchli asosli barqarorligini ko‘rsatishimiz mumkin.

2-teorema. *1-teorema bajarilgan bo‘lsin. Unda* $n\to\infty$ *da quyidagicha ifodalanadi:*

$$\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|F_n^{PR}(t)-F(t)\right|\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\max\left\{r(n)\log n,\left(\frac{\log n}{n}\right)^{1/2}\right\}\right). \tag{29}$$

2-teoremaning isboti. $|u-v|\le|\log u-\log v|, o<u,v\le 1,$ tengsizligini qo‘llab, biz quyidagi munosabatlar zanjiriga ega bo‘lamiz: $\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|F_n^{PR}(t)-F(t)\right|\le\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|-\left(1-F_n^{PR}(t)\right)+\log\left(1-F(t)\right)\right|$

$$=\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|-R_n^{P}(t)\log\left(1-H_n(t)\right)+R(t)\log\left(1-H(t)\right)\right|$$

$$\le\left(1-H(\beta)\right)^{-1}\left[\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|R_n^{P}(t)-R(t)\right|+\left(1-H(\beta)\right)^{-1}\sup_{\alpha\le t\le\beta}\left|H_n(t)-H(t)\right|\right]\overset{a.s.}{=}\mathrm{O}\left(\max\left\{r(n)\log n,\left(\frac{\log n}{n}\right)^{\frac{1}{2}}\right\}\right),$$

bu yerda so‘nggi tenglama 3-lemma va 5 (c) sharti) hamda 2-teoremaning to‘liq isbotini qo‘llash orqali hosil qilindi.

1-teoremadagi $\Omega_n(t)$ tasodifiy funksiyaning normal yig‘indisi appromaksiyalanish ketma-ketligining oldindan silliqlab baholab olingan PL-baho (6) uchun yig‘indisi hisoblanadi. Shu tariqa, [12] dagi teorema 3.7 dan PRRP bahoning asimptotik normalligi ifodasining bir qismi ko‘rinishida yuz beradi (8).

3-teorema.*1-teorema to‘liq bajarilgan deb faraz qilinsin va*

$(C8)$, $nh^2(n)(\log n)^{-6} \to \infty$, $nh^8(n)(\log n)^4 \to 0$ va $h^3(n)(\log n)^5 \to 0$ da $n \to \infty$ ixtiyoriy $t \in [\alpha, \beta]$: *Shunda, bu yerda*

1. Agar $nh^4(n) \to 0$, unda $n^{1/2}\left(F_n^{PR}(t) - F(t)\right) \xrightarrow{d} N\left(0, \sigma^2(t)\right)$,

2. Agar $nh^4(n) \to C^4$, unda $n^{1/2}\left(F_n^{PR}(t) - F(t)\right) \xrightarrow{d} N\left(b(t), \sigma^2(t)\right)$,

ifoda ko‘rinishida bo‘lsin, bu yerda

D.Laertskiyning yozishicha, Antisfen “Diogen uchun bukilmaslik, Kratet uchun o‘zini idora etish, Zenon uchun qat’iyatlik namunasi edi... U Suqrotning qat’iyatligi va epchilligini qabul qilib, unga qat’iy amal qilib, kinizmni boshlab berdi”.[2] Bunday misollarni Diogen, Monim, Onesikrit, Kratet, Metrokol, Gipparxiya, Menipp, Menedam, Kerkid, Bion va Dion hayotidan, fikrlaridan ham keltirish mumkin.[3] Biz uchun muhim jihati shundaki, kiniklar o‘zining kuchli irodasini hayot tashvishlariga, atrofdagi bedillikka, manmanlik va g‘ofillikka qarshi qo‘ydilar. To‘g‘ri, ularni jamiyat ochiq quchoq bilan qarshi olmagan, ko‘p kishilar ulardan hazar qilgan, jirkangan, ammo ular matonat va sabr bilan ko‘pchilikni chulg‘ab olgan o‘tkinchi tashvishlardan mag‘rur voz kechib, ular ustidan kulib, yashaganlar. O‘ta sodda, ochiq va kamtarona yashash tarzi, noodatiy qarashlari bilan ular zamondoshlaridan farq qilganlar, zamondoshlarini boylik, davlat va shon orttirishga emas, balki ma’naviy axloqiy komillikka intilib, adolat va haqiqatni izlab yashashga da’vat etishgan. Ular haqiqatni izlab yashashdan zavq olganlar, tashqi muhitga bog‘lanishni qoralaganlar, aql-u zakovatini kuchli irodasi bilan uyg‘unlashtirib ezgulik tantanasiga ishonganlar. Aynan ushbu jihatlari kiniklar falsafasini ibrat maktabiga aylantirgan. Ular iroda to‘g‘risida alohida traktat yozmaganlar, biroq o‘zining hayot va fikrlash tarzi, sabri va matonati bilan o‘z fikrlarini himoya qilishi, odatiy qarashlarga qarshi o‘z qarashlarini mardlik bilan qarshi qo‘yishi ulardagi kuchli iroda mahsullaridir. Stoitsizm falsafasining asoschisi bo‘lgan Zenon (er.avv.334–262-yillar atroflarida yashagan), Apolloniya Tirskiy, Xrisipp, Persey, Timokrat, Gekton, Antigon Karitskiy, Ksenofont, Eratosfen, Timon va D. Laertskiyning xabarlariga ko‘ra, oriq, uzun bo‘yli, bukrisifat, oyoqlari yo‘g‘on, baquvvat, eski va titilib ketgan xiton kiyib yuradigan, mulozamatli, bahschi, xo‘mraygan, goho odamovi shaxs bo‘lgan. Yerlarini sotib, pullarini dengizga uloqtirgan, mulksiz, daydi va erkin yashashni ixtiyor etgan. Kinik Kratetga shogird tushgan, keyinchalik, o‘zi mustaqil izlanishga o‘tgan. D.Laertskiy-ning keltirishicha, Zenon “Davlat”, “Tabiatga monand hayot haqida”, “Vajohat yoki inson tabiati haqida”, “Ehtiroslar haqida”, “Majburiyatlar haqida”, “Qonun haqida”, “Ellincha tarbiya haqida”, “Nuqtayi nazar haqida”, “Yaxlitlik haqida”, “Belgilar haqida”, “Pifagor masalalari haqida”, “Umumbutun masalalar”, “So‘z haqida”, “Homer masalalari” (5 kitobdan iborat), “Poeziyani o‘qish haqida”, “Darslik”, “Yechimlar”, “Inkorlar” (2 kitobdan tashkil topgan), “Kratet haqida xotiralar”, “Etika” kabi asarlar yozgan. Ushbu asarlar nomidan ma’lum bo‘ladiki, Zenon inson xarakteri, ichki kechinmalari, affektlar va jamiyat hayoti muamolari bilan qiziqqan. Ular ichida etika va tarbiya alohida o‘rin tutadi. Undan qolgan turli fikrlar ham insonning xarakteri va tarbiyasi bilan bog‘liqdir. “Ezgulik kuchda emas, kuch – ezgulikda” aforizmi turli ko‘rinishlarda to hanuzgacha iste’molda. “Takabburlikdan ham nomunosib narsa yo‘q, ayniqsa yosh kishilarda”. U, yoshlar qadam tashlashida, tashqi suratida va kiyinishida tartibni bilishi lozim, deb hisoblagan. Ilm fan sirlarini o‘rganishda eng zararli narsa o‘z fikrini to‘g‘ri deb bilish, eng zaruri esa–vaqt. Do‘st kim, degan savolga “Ikkinchi men” deb javob bergan. “Insonga eshtish uchun ikki quloq, gapirish uchun esa bitta og‘iz berilgan”, “Ezgulik mayda-chuyda narsa emas, ammo unga mayda-chuydalar orqali erishiladi” degan iboralar

[1] Лаэртский Д. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. Москва, “Мисль”, 1979, с. 235 – 237.
[2] O‘sha asar. 234-bet.
[3] Antishenis fragmenta. Coll. F.D.Gaizzi. Milano, 1966; Bion of Borysthenes a collection of fragments with introduction and commentary. Uppsala, 1954; Diogenes Leartius. Livies of eminent philosopers. London; Cambridge, 1979; Diechl E. Antologia Lyrica Graeca. Fasc. 3, Leipzig, 1954.

ham Zenonga tegishlidir.[1] Zenon irodani ruh, aqlu idrok, ezgulik bilan bog‘liq voqelik deb biladi”. Ruhning ulug‘vorligi san bilan nima, yaxshimi yoki yomon ro‘y berishidan qat’iy nazar bilish va o‘zini idora etishdir. O‘zini cheklash – to‘g‘ri aql belgilagan me’yordan oshmaslik, o‘zini idora etish esa hech qanday lazzat yengolmas narsadir. Qat’iyat – nimani tutish mumkinu nimani hech qanday holda ham tutmaslik kerakligini bilish va cheklanishdir. Dadillik keragini darrov topishga yordam beradigan cheklashdir. Xush iroda – naf keltirish uchun nimani va qanday qilish zarurligini bilish uchun qarashdir”.[2] Bu o‘rinda irodaning sinonimlari yoki unga yaqin bo‘lgan fazilatlar – qat’iyat, o‘zini cheklash, o‘zini tiyish, o‘zini idora etish, me’yorni bilish, dadillik tilga olinadi,ular ruh ulug‘vorligidan darak beradi. Zenon xush iroda borligini bildirar ekan, uning antipodi bo‘lgan bad iroda ham bo‘lishini aytadi. Bad iroda yomonlik, yovuzlik, birovlarga zarar keltirish, e’tiqodsizlik tarzida ifoda etiladi. Nimaki salomatlik, kuch-quvvat, farovonlik, zarar ko‘rmaslik, go‘zallik kabi qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ular xush irodaga taalluqli hisoblanadi.

Stoitsizm falsafasining asoschisi bo‘lgan Zenon (er.avv.334–262-yillar atroflarida yashagan), Apolloniya Tirskiy, Xrisipp, Persey, Timokrat, Gekton, Antigon Karitskiy, Ksenofont, Eratosfen, Timon va D.Laertskiyning xabarlariga ko‘ra, oriq, uzun bo‘yli, bukrisifat, oyoqlari yo‘g‘on, baquvvat, eski va titilib ketgan xiton kiyib yuradigan, mulozamatli, bahschi, xo‘mraygan, goho odamovi shaxs bo‘lgan. Yerlarini sotib, pullarini dengizga uloqtirgan, mulksiz, daydi va erkin yashashni ixtiyor etgan. Kinik Kratetga shogird tushgan, keyinchalik, o‘zi mustaqil izlanishga o‘tgan. D.Laertskiyning keltirishicha, Zenon “Davlat”, “Tabiatga monand hayot haqida”, “Vajohat yoki inson tabiati haqida”, “Ehtiroslar haqida”, “Majburiyatlar haqida”, “Qonun haqida”, “Ellincha tarbiya haqida”, “Nuqtayi nazar haqida”, “Yaxlitlik haqida”, “Belgilar haqida”, “Pifagor masalalari haqida”, “Umumbutun masalalar”, “So‘z haqida”, “Homer masalalari” (5 kitobdan iborat), “Poeziyani o‘qish haqida”, “Darslik”, “Yechimlar”, “Inkorlar” (2 kitobdan tashkil topgan), “Kratet haqida xotiralar”, “Etika” kabi asarlar yozgan. Ushbu asarlar nomidan ma’lum bo‘ladiki, Zenon inson xarakteri, ichki kechinmalari, affektlar va jamiyat hayoti muamolari bilan qiziqqan. Ular ichida etika va tarbiya alohida o‘rin tutadi. Undan qolgan turli fikrlar ham insonning xarakteri va tarbiyasi bilan bog‘liqdir. “Ezgulik kuchda emas, kuch – ezgulikda” aforizmi turli ko‘rinishlarda to hanuzgacha iste’molda. “Takabburlikdan ham nomunosib narsa yo‘q, ayniqsa yosh kishilarda”. U, yoshlar qadam tashlashida, tashqi suratida va kiyinishida tartibni bilishi lozim, deb hisoblagan. Ilm fan sirlarini o‘rganishda eng zararli narsa o‘z fikrini to‘g‘ri deb bilish, eng zaruri esa vaqt. Do‘st kim, degan savolga “Ikkinchi men” deb javob bergan. “Insonga eshtish uchun ikki quloq, gapirish uchun esa bitta og‘iz berilgan”, “Ezgulik mayda-chuyda narsa emas, ammo unga mayda-chuydalar orqali erishiladi” degan iboralar ham Zenonga tegishlidir.[3]

Boshqa o‘rinda u irodani ezgu hissiyotlar qatoriga kiritadi. “Ezgu ehtiroslar uchta, deb yozadi u, quvonch, ehtiyotkorlik va iroda... Iroda istakning aksi va u aqlona jonlanishdir... Irodaga ezgu tilak, ezulik qilishga moyillik, bog‘lanish kabilar kiradi”[4]. Shu tariqa, Zenon ezgulikni irodaning mohiyatiga singdiradi, xush iroda ezgulik qilishga qaratilgani uchun qadrlanadi. Zenon irodani ruh, aql-idrok, ezgulik bilan bog‘liq voqelik deb biladi”. Ruhning ulug‘vorligi san bilan nima, yaxshimi yoki yomon ro‘y berishidan qat’iy nazar, bilish va o‘zini idora etishdir. O‘zini cheklash to‘g‘ri aql belgilagan me’yordan oshmaslik, o‘zini idora etish esa hech qanday lazzat yengolmas narsadir. Qat’iyat – nimani tutish mumkinu nimani hech qanday holda ham tutmaslik kerakligini bilish va cheklanishdir. Dadillik keragini darrov topishga yordam beradigan cheklashdir. Xush iroda–naf keltirish uchun nimani va qanday qilish zarurligini bilish uchun qarashdir”.[5]

Bu o‘rinda irodaning sinonimlari yoki unga yaqin bo‘lgan fazilatlar – qat’iyat, o‘zini cheklash, o‘zini tiyish, o‘zini idora etish, me’yorni bilish, dadillik tilga olinadi, ular ruh ulug‘vorligidan darak beradi. Zenon xush iroda borligini bildirar ekan, uning antipodi bo‘lgan bad iroda ham bo‘lishini aytadi. Bad iroda yomonlik, yovuzlik, birovlarga zarar keltirish, e’tiqodsizlik tarzida ifoda etiladi. Nimaki salomatlik, kuch-quvvat, farovonlik, zarar ko‘rmaslik, go‘zallik kabi qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ular xush irodaga taalluqli hisoblanadi. Boshqa o‘rinda u irodani ezgu hissiyotlar qatoriga kiritadi. “Ezgu ehtiroslar uchta, deb yozadi u, quvonch, ehtiyotkorlik va iroda... Iroda istakning aksi va u aqlona jonlanish-

[1]Лаэртский Д. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. Москва, “Мисл”, 1979, с. 275 –277.
[2] O‘sha asar. 297-bet.
[3] O‘sha asar. 275 – 277-betlar.
[4] O‘sha asar. 304-bet.
[5] O‘sha asar. 297-bet.

dir... Irodaga ezgu tilak, ezulik qilishga moyillik, bog‘lanish kabilar kiradi”.[1] Shu tariqa Zenon ezgulikni irodaning mohiyatiga singdiradi, xush iroda ezgulik qilishga qaratilgani uchun qadrlanadi.

Ametov Axmet Qulametovich (Nukus davlat Pedagogika instituti)

O‘ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHNING FALSAFIY-AXLOQIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada inson huquqlarini ta’minlashda axloqiy va huquqiy munosabatlarning dialektik aloqasi tahlil qilingan. Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlashning falsafiy asoslari tarixi o‘rganib chiqilgan bo‘lib, yunon va sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari bayon etilgan.*

Аннотация. *В статье анализируется диалектическая взаимосвязь нравственных и правовых отношений в обеспечении прав человека. Также изучена история философских основ обеспечения прав человека, описаны общественно-политические взгляды греческих мыслителей и мыслителей.*

Annotation. *The article analyzes the dialectical relationship of moral and legal relations in the provision of human rights. Also, the history of the philosophical foundations of the provision of human rights has been studied, and the socio-political views of the Greek thinkers and commentators have been described.*

Kalin so‘zlar: *huquq, axloq, inson huquqlari, huquqiy ong, axloq normalari, huquq normalari, falsafiy asoslar, yunon falsafasi, sharq falsafasi.*

Ключевые слова: *право, этика, права человека, правосознание, нравственные нормы, правовые нормы, философские основания, греческая философия.*

Key words: *law, ethics, human rights, legal consciousness, moral norms, legal norms, philosophical foundations, Greek philosophy, philosophy of commentary.*

Bugun mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini takomillashtirish jarayonlarini keng jabhada amalga oshirilayotgan islohotlar asosida inson huquq va erkinliklarini ta’minlash asosiy o‘rinlardan biri bo‘lib, milliy qonunchilikni takomillashtirish, ushbu yo‘nalishda muhim ahamiyat ega. Shu o‘rinda, mamlakatimizda fuqoralarning ijtimoiy hayot shakli axloqiy normalari, madaniy meros hamda ideallarni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotdagi tutgan o‘rni va inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan.

Jamiyatda huquqiy ong masalasini o‘rganishga qaratilgan ilmiy adabiyotlarda zamonaviy jamiyatda huquqiy, madaniy, ya’ni, qonunga itoatkorlik unga rioya qilish sabablari quyidagilardan iborat: davlatda qonun ustuvorligi, jazoning muqarrarligi, elitalarning korrupsiyasi va milliy mentalitetning salbiy jihatlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Fuqarolarni Konstitutsiya moddalarining va mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog‘lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida belgilab qo‘yilgani hamda bu masalada ta’lim jarayonini umuminsoniy va milliy qadriyatlarni uyg‘un holda, dialektik aloqadorlikda rivojlantirishni ta’minlaydi.

Inson huquqlarini ta’minlashda axloq normalari ikki xil ko‘rinishda, axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi va axloqiy ong shakllarida namoyon bo‘ladi. Axloq normalarining birinchi shakli ko‘pchilik kishilarning bir xildagi xatti-harakatlari tufayli kelib chiqqan, keyinchalik, barcha uchun bajarilishi shart qoidalar tusini olgan axloqiy qoidalardir. Ikkinchi xil axloqiy norma inson ongida o‘z aksini topgan muayyan qoida sifatida namoyon bo‘ladi (masalan, “o‘ldirma”, “o‘g‘irlama” va h.k.), ya’ni unda buyruq mayli xususiyati ko‘zga tashlandi. Bunda, agar axloq tamoyillar – umumlashgan axloqiy tushunchalar bo‘lsa, axloqiy normalar ularni aniqlashtirishga xizmat qiladi, ya’ni, axloqiy prinsiplarga rioya qilish uchun qanday axloqiy xislatlar zarurligini, bunda kishi irodasi qay tarzda namoyon bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi.

Jamiyatimizda “axloq normalari nafaqat elementar axloqiy ong, balki, shu bilan birga, kishilarni harakatga undovchi motiv hamdir. Ular ma’naviy va amaliy hodisalarning tahlili sifatida nima qilish mumkin-u, nima mumkin emasligi, u yoki bu sharoitda qanday harakat qilish kerak, nimadan o‘zimizni

[1] O‘sha asar. 304-bet.

tiyishimiz lozimligini ko‘rsatgan holda, xulqimizni yo‘lga soladi, ya’ni, mumkin va nomumkinlik me’yorini belgilab beradi”.[1]

Demak, huquq normalari bu davlat tomonidan kafolatlangan, tashkilotlar va fuqarolarning erkinlik-ozodlik me’yorini ko‘rsatuvchi, jamoatchilik bilan munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy, majburiy, rasmiy ravishda belgilangan xulq-atvor qoidalar majmuidir. Hamma huquq normalari birgalikda obyektiv huquqni yaratadi va faqat ma’lum bir ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasi hisoblanadi. Yo‘nalishlar ichida normalar subinstitutlar va institutlar ko‘rinishida ham guruhlanadi. Normativlik – bu cheksiz tarzda jami insonlar uchun majburiy qoida hisoblanadi.

Inson huquqlarini ta’minlashda fuqorolarning axloqiy munosabatlari bevosita ularning huquqiy munosabatlarida namoyon bo‘lishini bilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir, deb hisoblanadi. Chunki inson huquqlarining shakllanishida ularning qonunda ko‘rsatilgan huquq va burchlarini amalga oshirish yuzasidan barcha fuqarolar bilan bo‘ladigan aloqalariga aytiladi. Binobarin, huquqiy munosabat, birinchi navbatda, yuridik normalarni amalga oshirishning natijasidir. Huquq aynan huquqiy munosabatlar orqali amal qiladi.

Axloqiy va huquqiy munosabatlar o‘zaro uzviy birlikda bo‘lib, bir-birini doimo to‘ldirib boradi. Bu birlik axloqiy munosabatlar talabining hayot sinovlaridan o‘tib, huquqda o‘z aksini topganligi hamda har qanday huquqiy munosabatlarning chuqur xalqchil axloqiy mazmun kasb etgan holda, xalqning kundalik turmush tarzida va hayotidan o‘rin olishida namoyon bo‘ladi.

Inson huquqlarini ta’minlashning falsafiy asoslari uzoq qadimdan boshlangan bo‘lib, insonlarga xos bo‘lgan mas’uliyatning paydo bo‘lishi zaruriy sharti sifatida inson erkinligining amalda namoyon bo‘lishi bilan birga, uni his etish bilish va axloqiy xususiyatlar bilan uyg‘unlashtirish jarayonlari vujudga kelgan. Masalan, qadimgi yunon falsafasi an’analarida erkinlik va mas’uliyatni tushunish tanlov va iroda erkinligi g‘oyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Antik davrda ya’ni, Platonning fikricha, polislar (hududlar) aholisining erkinligi va mas’uliyatli munosabati o‘z burchini anglashda va o‘z mas’uliyatini bajarishda namoyon bo‘ladi. Aristotel bu an’anani davom ettirib, inson huquqlari, mas’uliyatni inson erkinligining nazariy va amaliy sharti sifatida taqdim etadi. Yunon donishmandining “Kishi bilimlari tufayli o‘zining asosiy insonlik mohiyatini amalga oshiradi, bu uning barcha eng elementar xatti-harakatlaridayoq namoyon bo‘lib turadi, degan fikrlari bunga misol bo‘la oladi.

Platonning qarashlarida insonning ijtimoiy mas’uliyati va faolligi uning ongli va mulohazali ravishda ijtimoiy hayot mazmuni bilan tanish bo‘lishi bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi: “Bizga xush keladigan va har bir odam uchun qonun sifatida ixtiyoriy qabul qilsa bo‘ladigan hamda shu qatori yoqimli, dilxush, eng yaxshi va zebo, odamlar erisha oladigan, saodatmand yashasa bo‘ladigan qancha hayot turlari bor? Ushbu hayot turlari – mulohazali (ongli), oqil, mardona, sog‘lom hayot. Bu to‘rt turga to‘rttasi qarama-qarshidir: mulohazasiz (ongsiz), bebosh, qo‘rqoq, nosog‘lom. Kimki mulohazali hayot bilan tanish bo‘lsa, u har jihatdan osoyishta kechadi: uning dardlari osoyishta, huzurlari ham osoyishta, unda bo‘shashtiruvchi ehtiroslar ham, junbushga keluvchi hohishlar ham yo‘q. Aksincha, bebosh hayot qo‘polliklarga to‘la”.[2]

Aristotel o‘zining “Siyosat” asarida inson ijtimoiy mas’uliyatini uning erkin yashash huquqi, jamiyatning adolat va qonunlar asosida tashkil etilishi orqali ta’minlanishini ta’kidlaydi. Mazkur asarda fuqarolik madaniyati xususida to‘xtalib, “uch omil, ya’ni, tabiat, odat va aql uyg‘unligi odamlarni yaxshi va ezgu xislatli qilishini ta’kidlaydi. Inson tirik mavjudod sifatida tabiatdan tashqarida yashay olmaydi va shu sababli tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishi kerak. Inson o‘zi mansub bo‘lgan xalqning odatlarini o‘zlashtirmasdan jamiyat a’zosi bo‘la olmaydi. Aqlni inson belgilamaydi, balki aql insonni belgilaydi, faqat aql huzur-halovat va azob-uqubatni bir-biridan ajratadi, ehtiroslarni tiyadi, yomon odatlarning rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaydi”.[3]

Aristotel bu yerda «fuqaro» tushunchasini ham izohlab, davlat fuqarolar yig‘indisi, ularning jamoasi ekanligini ta’kidlaydi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari va siyosat arboblarining qarashlarida ham inson takomili va uning jamiyatdagi mas’uliyati borasidagi fikrlar aks etgan. Abu Rayhon Beruniy qarashlarida ham fuqarolik mas’uliyatining ba’zi elementlari va xususiyatlari mavjud edi. Mutafakkir o‘z davrida fuqarolarning yagona g‘oya va maslak atrofiga jipslashishi, ularning jamiyat umumiy ishi va uning rivoji

[1] Rustambayev M.X., Muhammadiyev N.E., Abduxaliqov S.O. Milliy gvardiya xizmatchilari (xodimlari)ning kasb etikasi. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnika insituti, 2020, 87-bet.
[2] Aflotun. Qonunlar. T., “Yangi asr avlodi”, 2008, 143-bet.
[3] Аристотель. Политика. Ч. Ш, М., 1965, с. 5.

asosidagi tegishli chora-tadbirlarini amalga oshirishda jamuljam bo‘lib, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi lozimligi to‘g‘risida aytgan edi.

Darhaqiqat, yoshlarning huquqiy, iqtisodiy faolligi oshib borar ekan, ushbu faollik ustidan ijtimoiy nazoratni kuchaytirish, ularda mavjud milliy qonunchilik tizimiga nisbatan hurmat ruhini shakllantirish zarurdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy sohani takomillashtirish maqsadida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish kerak. Birinchidan, jamiyatda voyaga yetmaganlar uchun odil sudlovni o‘rnatish jarayonini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ikkinchidan, huquqiy ta’lim-tarbiya masalalarini tartibga soluvchi yangi me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.

Yangi O‘zbekiston sharoitida huquqiy-demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda «yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik proflaktikasini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik qilish» zarur.[1] Darhaqiqat, faqat qonun ustuvorligi o‘z fuqarolariga to‘laqonli ijtimoiy siyosatni, nafaqat butun jamiyat, balki har bir alohida insonlar huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydi. Chunki aynan huquqiy davlatning asosi nafaqat qonunlarda, balki har bir inson ongida ham ildiz otadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy omillarning kishilar dunyoqarashini shakllantirishga ta’sirini hisobga olgan holda, avvalo, quyidagi ijtimoiy omillarni insonlar huquqiy ongi va madaniyati shakllantirish jarayoniga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlash zarur:

a) yashash va mehnat sharoitlari;

b) o‘qitish va tarbiyalashning uyushgan tizimi;

d) xavfsiz ommaviy axborot vositalari.

Shu bilan birga, insonlarning huquqiy ongidagi hukmron qarashlar dinamikasi jamiyatda paydo bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat bilan bevosita bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, ushbu dinamikaga jamiyat uchun kerakli bo‘lgan yo‘nalishda tubdan ta’sir faqat ijtimoiy taraqqiyotdagi aniq ijobiy o‘zgarishlar sharoitida yaqqol namoyon bo‘ladi. Aks holda, yoshlarning huquqiy ongi osongina deformatsiyalanishi mumkin. Shunday qilib, huquqiy ong ijtimoiy hodisa sifatida uning ikkita holati paydo bo‘lishi mumkin: ijobiy va salbiy deformatsiyalangan. Ular, asosan, huquqiy voqelikning aks etishi va tashuvchilarining amaldagi qonunga, odil sudlov hamda qonuniylikka bo‘lgan munosabati bilan farqlanadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, inson huquq va erkinliklariga oid milliy qonunchilik tizimining shakllanishi bilan bir qatorda, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator ishlar ham mavjud: Xususan, yoshlarning huquqiy ongi va savodxonligini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish va Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar ma’naviy xavfsizligining muhim ijtimoiy omillari (qadriyatlar tizimi, huquqiy nigilizm, etnoegoizm, mafkuraviy tarbiya, demografik portlash) va yangi ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etuvchi individual (ijtimoiylashuv, o‘zini-o‘zi anglash, qadriyatlar va shaxsiyatdagi qarama-qarshiliklar) xususiyatlari aniqlangan.

Xudayberdieva Huriyat Karimberdievna (Samarqand davlat Chet tillar instituti Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi tadqiqotchisi, falsafa doktori (PhD)

YOSHLARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA VATANPARVARLIKNING MA’NAVIY-AXLOQIY ASOSLARI

Annotatsiya*. Maqolada hozirgi kun yoshlarining kreativ fikrlashini shakllantirishda vatanparvarlikning roli va undagi ijtimoiy jarayonlarning o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Unda kreativlikni oshirishga doir ma’naviy-axloqiy g‘oyalarning yoshlar ongiga ifodalanishi bilan bog‘liq ijtimoiy, axloqiy, ilmiy qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati tahlil etilgan.*

Аннотация*. В статье с научно-теоретической точки зрения объясняется роль патриотизма и социальных процессов в формировании творческого мышления современной молодежи. Анализируется философское содержание социальных, нравственных, научных воззрений, связан-ных с выражением духовно-нравственных идей о повышении творческого потенциала в сознании молодежи.*

Annotation*. In the article, the role of patriotism and the role of social processes in forming the creative thinking of today's youth is explained from a scientific and theoretical point of view. It analyzes*

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2021, 260-bet.

the philosophical content of social, moral, scientific views related to the expression of spiritual and moral ideas on the increase of creativity to the minds of young people.

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, yoshlar, ma’naviyat, jamiyat, inson, axloq, kreativ tafakkur, tasavvur, qaror, globallashuv.*

Ключевые слова: *патриотизм, молодежь, духовность, общество, человек, этика, творческое мышление, воображение, решение, глобализация.*

Key words: *patriotism, youth, spirituality, society, human, ethics, creative thinking, imagination, decision, globalization.*

Zamonaviy jamiyat va inson hayotining turli sohalarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, asosan, shaxsning ma’naviy va axloqiy sohasidagi o‘zgarishlar jarayonini o‘rganish bilan bog‘liq holda yorqin namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy-gumanitar fan sohasi, xususan, falsafaning ham tadqiqot doirasi kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Jumladan, bugungi falsafiy tadqiqotlar yo‘nalishlarida yoshlar dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy fazilatlari, intellektual madaniyati va boshqa shu kabi muammolarni hal etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “Davlat xizmatiga yuksak intellektual salohiyat va yangicha tafakkurga ega, mustaqil fikrlovchi, vatanparvar va o‘z xalqiga sodiq, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishga qaratilgan kadrlar siyosatini davom ettiramiz” [1.101]. Mana shunday siyosat orqali zamonaviy yoshlarning kreativ tafakkurini shakllantirish, birinchi navbatda, hozirgi davrning ma’naviy-axloqiy jihati, ikkinchi navbatda, yoshlar intellektual-ijodiy faoliyatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun yoshlar ma’naviy-axloqiy va intellektual fazilatlarini o‘rganish, vatanga va o‘z xalqiga xizmat qilishga tayyor professional kadrlarni tayyorlashda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik atamasi birinchi marta XX asrning 50-yillari oxirida G‘arb psixologiyasida paydo bo‘lgan bo‘lib, u odamning yangi tushunchalar yaratish va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyatini anglatishi asoslangan. Kreativlik shaxsning yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratuvchanlik xislatidir. Bu tushuncha o‘z ichiga mavjud yoki yangi muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, muhim voqeliklarni g‘ayrimantiqiy anglash jarayoni, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, bashorat qilish kabilarni qamrab oladi. Har bir insonning kreativ tafakkur sohibi ekanligi uning fikrlash tarzida, ijodiy muloqotida, his-tuyg‘ularini munosib boshqarish namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsning yaxlit muhim xususiyatlarini tavsiflash bilan bir qatorda, o‘ziga xos zehni o‘tkirlik va iqtidorning muhim omili sifatida ham talqin qilinadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash-emotsional holat ta’sirida yuz beradi. “Kreativlik” uning sifatini bildirsa, “tafakkur” esa fundamental xususiyatini aks ettiradi. Shuningdek, kreativlik keng ma’noda kishining voqea va hodisalarning o‘ziga xos mohiyatini ijodiy anglashga asoslangan faoliyat hisoblanadi, kreativ tafakkur esa insonning ijodiy tafakkurini nazarda tutadi. Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi ta’riflarda ham ikki tushuncha bir-biridan sifat va miqdor jihatidan farqlanadi.

Qadimda yunon faylasuflari bu masala yuzasidan turli xil qarashlarni o‘rtaga tashlaganlar. Shuningdek, ular insonning kreativ tafakkur qobiliyati bilan donishmandlik o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik mexanizmi tahlil qilishga harakat qilganlar. Ularning fikriga ko‘ra, insonning amaliy faoliyatini undagi qobiliyatlarga qarab, ikki turga bo‘lish mumkin: fahm-farosatga asoslanib amalga oshirilgan xatti-harakat va fikr-mulohaza imkoniyatlariga tayanib bajarilgan faoliyat. Aqliy faoliyat, shubhasiz, fikr-mulohaza yuritishga asoslanadi. Fikr-mulohaza yuritish jarayonini yagona uslubga, yagona qolipga solish bilan inson hech qachon yuksaklikka ko‘tarila olmaydi. Aqliy yuksaklikka ko‘tarilish uchun nafaqat fahm-farosatga, balki fikr-mulohaza imkoniyatlariga tayanmoq ham darkor. Chunki fikr-mulohaza yordamida inson olamni yaxlit tasavvur qiladi, unda sodir bo‘layotgan sifat o‘zgarishlari, o‘zaro aloqadorlik, o‘zaro ta’sirning natijasi ekanligini payqab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Qadimda yunon faylasufi Suqrot kreativlikni ijodiy tafakkurning o‘rtacha holati inson amaliy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi ichki qoidalarni yaratish borasidagi qobiliyati deb tushunadi. Suqrotning shogirdi Aflotunning fikriga ko‘ra, kreativlik insonning turli tushunchalar yaratishga qaratilgan mushohada yuritish qobiliyati bo‘lsa, kreativ tafakkur esa uni kundalik amaliy faoliyatga tatbiq etish uchun zarur bo‘ladi. Antik falsafaning bir guruh vakillari (eleatlar, platonchilar) kreativlikni sof holdagi ijod, idrok, zehn sifatida e’tirof etiladi. Ularning fikricha, kreativlik bu birdan-bir ishonchli bilimdir. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, kreativlik Geraklit, Suqrot va Aflotunning nuqtayi nazariga ko‘ra, xuddi eleatlar ta’kidlaganidek, hissiy bilishdan hamda amaliyotdan metafiziklarcha ajratib qo‘yilgan sof ijodiy aql, ya’ni birdan-bir ishonchli bilimga olib boruvchi vosita emas. Balki u muayyan ijodiy fikr-mulohaza imkoniyatlariga tayanib bajariladigan ijodiy faoliyat turidir. Umuman olganda, antik falsafiy tafakkur kreativlik mazmuniga ikki xil mavqedan turib yondoshadilar: 1) kreativlikni aynan kosmoontologik tushuncha

ekanligi; 2) individual xususiyatga ega bo‘lgan biosotsial tushuncha sifatida e’tirof etadilar. Kosmoontologik mazmunga ega bo‘lgan “kreativlik”, asosan, Platon va Arastu asarlarida olamiy yohud dunyoviy ijodiy aql mahsuli ko‘rinishida sinkritek holda uchraydi, lekin bundan yunon mutafakkirlari kreativlikning individual xususiyatlarini inkor etadi, degan fikr kelib chiqmaydi.

Kishilar jamiyat o‘z taraqqiyotini doimo ma’lum bir nazariy, gipotetik modellar, utopik g‘oyalar va ijtimoiy idellar tarzida idrok etib, izohlab kelganlar. Ilmiy izlanishlardagi modellarning ko‘rinishlari va xususiyatlarini tadqiq etgan AQSHlik faylasuf M.Vartofskiy har qanday analogiya, faraz, taxmin, qiyos model bo‘lavermasligini, balki ilmiy falsafa u boshqacha talqin qilishini ta’kidlaydi. “Model, deb yozadi u, allaqanday obyektni yoki ish holatini abstrakt tasavvur etish yoki abstrakt reprezentatsiyalashdir. Demak, modelda tadqiqotchi tomonidan o‘rganiladigan obyekt haqidagi, uning xususiyatlari borasidagi o‘zining manfaat va qiziqishlariga muvofiq keladigan simvol tarzda tasavvur etishidir” [2.31].

Agar gap jamiyatning ma’naviy-madaniy taraqqiyoti to‘g‘risida ketsa, demak, biz ushbu taraqqiyotni ma’lum bir model yoki nazariya tarzida tasavvur etishimiz, ushbu tasavvurlarimizda, iloji boricha, obyektning barcha xususiyatlarini, tomonlari va aloqalarini ifodalashimiz darkor. To‘g‘ri, insonnning bilish imkoniyatlari cheklangan, ilmi nisbiy, shu bois uning modellar haqidagi qarashlari, miyasida shakllantirgan modellari ham ana shu belgilarga mos bo‘ladi. Ammo jamiyat taraqqiyoti kabi rang-barang sohalarni, turli munosabatlar, etnosotsial, etnomadaniy aloqalarni o‘z ichiga oluvchi, goho ziddiyatlardan iborat voqeliklarni to‘laligicha o‘rganish, idrok etish uchun ilm-fanda nazariy tasavvurlar, modellardan foydalanish keng tarqalgan.

Zamonaviy yoshlar kreativ tafakkurini shakllantirish muammolarni o‘rganish barcha sohalardagi ijtimoiy va ma’naviy barqarorlikni ta’minlashga, jamiyat taraqqiyotini mustahkamlashga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, ularning kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish, ijodiy kreativ qarorlar qabul qilish qobiliyatlari va ko‘nikmalarini shakllantirish, ekstremal sharoitlarda vazifalarni bajarishda yuqori professional harakatchanlik, ijtimoiy va psixologik barqarorlikni namoyon etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bugungi globallashgan jamiyatda yoshlar kreativ tafakkurini shakllantirish istiqbollarini aniqlash muhimdir. Bu vazifani aniq va amaliy yechish qiyin, lekin uni falsafiy, prognostik dunyoqarash jihatidan bog‘lab kerakli fikr-mulohazalar, nazariyalar va konsepsiyalarni ishlab chiqish mumkin. Ushbu tadqiqot muammosini hal qilish ijtimoiy-falsafiy tahlil metodologiyasidan foydalanishni o‘z ichiga oladi, uning asosini quyidagi tamoyillar tashkil etadi: antropotsentrizm, fenomenologik yondashuv va aksiologik baholash usullari va boshqalar shular jumlasidandir.

Kreativ tafakkur har doim ham izchil fikrlashning o‘ziga xos tuzilishi emas, bunday munosabat bu muammoni atroflicha o‘rganishga to‘sqinlik qiladi. Fikrlash jarayonida har qanday harakat va ko‘p yo‘nalishli munosabat bir xil ma’no-mazmunga ega bo‘lmaydi. Bu jarayonda bir vazifadan ikkinchisiga o‘tish majburiy ravishda ketma-ket bo‘lishi shart emas. Fikrlash jarayonining qismlariga bo‘linish, natijada bu qismlarning yig‘indisi bitta birlikka birlashtirilishi mumkin. Bu yerdagi asosiy muammo qismlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish bilan belgilanadi. Jarayonning eng muhim xususiyatlari sifatida ma’lum bir fikrlash jarayonlarining tuzilishini belgilash muhim hisoblanadi. Bunday talablardan biri tayyor yangi mahsulot shaklida ifodalangan intellektual faoliyatning ma’lum bir natijasini shakllantirishdir.

Kreativ tafakkur, ilgari faoliyat mavzusiga noma’lum bo‘lgan maqsadlarga yangi yo‘llarni qo‘yishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘llarni mutlaqo yangi fikr elementlaridan to‘qish, shuningdek, allaqachon duch kelgan tuzilmalardan yangilangan zanjirlarni tizimlashtirish mumkin bo‘ladi. Kreativ tafakkur o‘zi ichiga aqliy va intellektual harakatlarning konsentratsiyasini oladi. Shuningdek, faoliyat subyekti ma’lum bir kasbiy bilim va tajribaga ega. Shu boisdan ham zamonaviy boshqaruv tizimida ijodiy xatti-harakatlarning ma’lum bir tizimi quyidagicha rivojlanib boradi.

1. Tayyorlash. Axborot yig‘ish. Hisob-fakturani tahlil qilish, ma’lumotlarni umumlashtirish, ko‘rsatkichlarni taqqoslash va boshqalar. Ushbu bosqich odatda analitik protsedura shaklida namoyon bo‘ladi.

2. Konsentratsiya. Aqliy harakatlarni muammoga, individual faktlarga, faktlar tizimiga qaratish. Ruhiy tushkunlik fenomenining paydo bo‘lishi, ya’ni aqliy mehnat qiyinchiliklari. Bunday qiyinchiliklar to‘sig‘ini yengib o‘tish istagi uning ijodkorlik qobiliyatining qanchalik darajada yuqori ekanligi bilan belgilanadi. Natijada buyuk ijodiy g‘oyalar oqimi paydo bo‘ladi.

3. Fikrlarni inkubatsiya qilish. Aqliy konsentratsiya jarayonida yuzaga keladigan barcha fikrlar yangi bilimlar sifatida uzatiladi. U yerda bunday yangi bilimlar o‘z uslubiy asoslariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi. Shaxsiy senzura, birinchi navbatda, bu g‘oyalarning axloqiy, insonparvar va foydali jihatlarini baholashga katta yordam beradi.

Kreativ tafakkur obyektning xilma-xil xususiyatlarini aks ettirish jarayonini o‘z ichiga oladi, uning o‘ziga xos xususiyati uning rivojlanishi davomida aks ettirilgan xususiyatlarning muhimlik darajasi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, alohida olingan obyektlar va ularning xususiyatlariga emas, balki tafakkur shakllaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratiladi.

Kreativ tafakkur mantiqiy fikr-mulohazalarni amalga oshirilishini anglatadi. Ammo nominal kreativ tafakkurni o‘rganishning murakkabligi shundan iboratki, tizimlashtirish jarayonini o‘rganish va allaqachon tayyor elementlarning kombinatsiyasini bilish bilan birga, bilimlarni shakllantirish jarayonida “yangi” narsani aniqlash jarayonlarini o‘rganish bu yerda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kreativ tafakkur egasi, asosan, quyidagi xislatlari bilan alohida ajralib turadi:

1. Perseptiv xususiyatlar (g‘aroyib ma’no-mazmunga ega bo‘lgan diqqatning jamlanishi, ta’sirchanlik, ko‘ngilchanlik), intellektual xususiyatlar (intuitsiya, fantaziya, o‘ylab chiqarish, oldindan ko‘rish qobiliyati, keng dunyoqarash), xarakterli xususiyatlar (bir qolipda ishlamaslik, originallik, qunt, yuqori darajadagi o‘z-o‘zini tashkillashtirish va mehnatga layoqatlilik) [3.480].

2. Bilish motivatsiyasining dominantli o‘rni, tadqiqiy ijodiy faollik, subyektning yangilikni topishga bo‘lgan qobiliyatida va muammolarni yechishdagi o‘ziga xoslikda namoyon bo‘ladi. Masalan, original yechimlarni topish va prognozlash ehtimolligi, yuqori baholarni ta’minlaydigan estetik, axloqiy va intellektual ideallar etalonlarini yaratish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandir [4.718].

3. O‘zida aqliy va motivatsion omillarni integratsiya qiluvchi intellektual faollik [5.172].

4. Oddiy hodisalar doirasidan chiquvchi, ammo tabiat qonunlariga zid bo‘lmagan harakatlarni amalga oshirish, kelajakda bo‘ladigan narsani his qilish, boy fantaziya va intuitsiya, yangilik va noyob narsalarga katta qiziqish [6.176].

Kreativ tafakkur muammolarini hal qilishda ijodkorlik ta’limi samaradorligini oshirishga imkon beradigan alohida masaladir. Bu jarayon quyidagi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi: 1) ijodiy tayyorgarlik; 2) ijodiy anglash; 3) inkubatsiya davri; 4) ijodiy yuksaklik. Ushbu ijodiy bosqichning barchasini har qanday kasbiy faoliyat sohasida samarali qo‘llash mumkin, chunki bu bosqich har doim muammoni o‘z vaqtida hal qilishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, yoshlar faoliyatining har qanday sohalarida kelgusida mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun ijodiy algoritmni ishlab chiqish muhim o‘rinni egallaydi.

Hozirgi kunda kreativlik yoshlarning yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashtirish mexanizmidir. Iqtisodiy va siyosiy sohalarda jamiyat rivojlanishining dinamikasi odamlarning ma’naviy hayotida sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Zamonaviy voqelikka ichki moslashish uchun yoshlarda nafaqat turli vaziyatlarga moslashishi, balki ularni rivojlantira olishlari kerak. Shu sababli ijodiy faoliyat, ijodiy fikrlash va tasavvur mexanizmini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar bugungi kun jamiyatshunos olimlarda alohida qiziqish uyg‘otmoqda.

Asrlar sinovidan o‘tgan ma’naviy-axloqiy madaniyatimiz yoshlarda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Chunki bugungi globallashgan jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qayta tahlildan o‘tkazish va qayta baholash kreativliklikni asosiy komponentidir. Jamiyatimiz taraqqiyoti, ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti shu jamiyatda yashab ijod etuvchi insonlarning ma’naviy-axloqiy madaniyati, aqliy barkamolligi, mahoratiga bog‘liq. Bugungi kunda ijodiy qobiliyatlar, eng avvalo, mustaqil fikrga ega bo‘lish, original va nostandart muammolarni o‘z vaqtida hal etish zaruratini namoyon etadi. Shu munosabat bilan, yoshlarning ijodiy kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhim va dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu jarayonda simmetriya va asimmetriya g‘oyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan ham U.R.Bekpo‘latov ta’kidlaganidek, “Zamonaviy fan va falsafada simmetriya g‘oyalari – kooperativ hamkorlik, murosasozlik, muqobillik, fraktallik kabi ko‘plab tamoyillar bilan yanada mazmundorlik kasb etib, olamni, odamni bilish va anglash jarayonida, nochiziqli jarayonlarning kelajagini bashorat qilishda muhim metodologik tamoyil bo‘lib xizmat qilmoqda. Asimmetriya esa simmetriyaning yuqoridagi barcha holatlariga qarama-qarshi bo‘lgan xossa sifatida ifodalangan. Shunday bo‘lsa-da, ko‘plab tadqiqotlarda simmetriyaning o‘zgarishini anglatuvchi asimmetriya va dissimmetriya tushunchalari mazmunini anglashdagi, ifodalashdagi metodologik muammolarning saqlanib qolayotganligi, bu tushunchalarni konseptual tahlil etish orqali ularga obyektiv mazmun va mohiyat berishni talab etmoqda” [7.12].

Ma’lumki, fan inson yaratgan ma’naviy qadriyatlarning eng oliysi bo‘lib, u o‘ziga xos tarzda taraqqiy etmoqda. O‘z navbatida, bu jarayon kishilarning kreativ tafakkurini yanada rivojlantirib, ularning ratsional bilimlarini miqdor va sifat darajalarining tobora oshib borishida vosita sifatida hozirgi davr jahon sivilizatsiyasining yangi bosqichga o‘tishi uchun zamin yaratadi. Bunday o‘zgarishlar bir qancha ijo-

biy holatlar bilan birgalikda jiddiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun ham yoshlarning kreativ tafakkurini yuksaltirishda ma’naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor bermoq lozim. Bunday faoliyat nafaqat vatanni himoya qilish, mudofaa tizimidagi ma’naviyat sohasini, balki jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalariga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi hamda insonni ezgu maqsadlarga asoslangan tub o‘zgarishlarning yanada takomil bosqichiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021.
2. Вартовофский М. Модели. Репрезентация и научное понимание. Москва, “Прогресс”, 1988.
3. Пономарев Я. Психология творения. Избранные психологические труды. М., Воронеж, Московский психолого-социальный институт, МОДЭК, 1999.
4. Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. Ростов-на-Дону, изд-во Ростовского ун-та, 1983.
5. Матюшкин А.М. Мышление, обучение, творчество. М., Воронеж, “МОДЭК”, 2003.
6. Туник Е.Е. Диагностика креативности. Тест Торренса Е. Адаптированный вариант. Руководство. Стимульный материал. Коробка. СПб., “Речь”, 2006.
7. Бекпўлатов У.Р. Симметрия ва асимметрия (замонавий фалсафий таҳлил). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Самарқанд, 2018.

Qodirov Fazliddin Yuldoshovich (QarDU Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi; Fazliddin3210@umail.uz)

SHAXS FUQAROLIK MADANIYATINING NAZARIY MODELI

Annotatsiya. *Maqolada shaxs fuqarolik madaniyatining yuzaga kelishi, rivojlanishi hamda tarkibiy tuzilishiga doir turli tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari o‘rganilgan. Shuningdek, shaxs fuqarolik madaniyatining nazariy modelining muhim jihatlari va tarkibiy elementlari atroflicha tahlil qilingan. Shaxs fuqarolik madaniyatining nazariy modeli fuqarolik ongi va fuqarolik faoliyatining o‘zaro uyg‘unligining mahsuli sifatida talqin etigan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются мнения различных исследователей о возникновении, развитии и структурной схеме гражданской культуры личности, а также подробно анализируются важные аспекты и структурные элементы теоретической модели гражданской культуры личности. Теоретическая модель гражданской культуры личности трактуется как продукт взаимной гармонии гражданского сознания и гражданской деятельности.*

Annotation. *The article examines the opinions of various researchers on the emergence, development and structural structure of individual civil culture. Also, the important aspects and structural elements of the theoretical model of personal civil culture are thoroughly analyzed. The theoretical model of civic culture of a person is interpreted as a product of mutual harmony of civic consciousness and civic activity.*

Kalit so‘zlar: *shaxs fuqarolik madaniyati, nazariy model, Vatan, xalq manfaatlari, gumanizm, Vatan oldidagi burch, milliy g‘oya, millat, davlat, fuqarolik ongi, fuqarolik faoliyati, Vatan tuyg‘usi, ijtimoiy bilimlar, gumanistik g‘oyalar, fuqarolik qadriyatlari, fuqarolik mas’uliyati, fuqarolik burchi, ijtimoiy faollik.*

Ключевые слова: *гражданская культура личности, теоретическая модель, Родина, интересы народа, гуманизм, долг перед Родиной, национальная идея, нация, государство, гражданское сознание, гражданская активность, чувство Родины, социальное знание, гуманистические идеи, гражданские ценности, гражданская ответственность, гражданский долг, общественная активность.*

Key words: *personality civic culture, theoretical model, Motherland, people's interests, humanism, duty to the Motherland, national idea, nation, state, civic consciousness, civic activity, sense of the Motherland, social knowledge, humanistic ideas, civic values, civic responsibility, civic duty, social activism.*

Xalqparvar davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda aholini huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyatini keng ommaga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va amal qilish hissini shakllantirish – bog‘cha va maktabdan tortib oliygohgacha, barcha ta’lim muassasalarining, har bir oilaning birinchi navbatdagi vazifasi bo‘lishi kerak [1].


Shuningdek, ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladigan vazifalarni bajarish uchun jamiyat a’zolari fuqarolik madaniyatini ham rivojlantirish taqozo qilinmoqda. Chunki shaxs fuqaro sifatida shakl-

lanmas ekan, jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatlarini anglab yetmaydi, ularni ijro etishga astoydil kirishmaydi, ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni bajarishga hissa qo‘shmaydi. Shaxs fuqarolik madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq dolzarb masalalarni hal etish uchun esa, eng avvalo, uning nazariy modeliga doir falsafiy bilimlarni yaxlit tizimga keltirish zarur.

Shaxs fuqarolik madaniyati nazariy modeli fuqarolik ongi va fuqarolik faoliyati o‘ziga xos birligidir.



O‘z navbatida, ushbu tarkibiy qismlarning har biri turfa elementlardan tarkib topadi. Shaxs fuqarolik madaniyatining mag‘zini fuqarolik ongi tashkil etadi. “Fuqarolik ongi – fuqarolik va jamiyat taraqqiyoti istiqbollari haqidagi tasavvurlar yig‘indisi, uning taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bo‘lib, bularning barchasi ijtimoiy faoliyat umumiy yo‘nalishini muvofiqlashtiruvchi oliy tartib dispozitsiyasini vujudga keltiradi. Zotan, fuqarolik ongi xususiy guruhlar manfaatlari emas, mamlakat, butun xalq manfaatlarini anglab yetish bilan bog‘liq, deb ta’kidlovchi mutaxassislar fikriga qo‘shilish darkor” [2.19].




O‘z Vatani oldida doim qarzdor ekanligini chuqur his qilgan shaxsgina fuqaro sifatida voyaga yetadi. Vatan tuyg‘usi yuksak darajada qaror topgan shaxs uning haqqini tugal ado etishga shay bo‘ladi.

Biroq inson o‘z Vatanini shunchaki chuqur his qilgani bilan asl fuqaro bo‘lib qolavermaydi. Ayni damda, u Vatan manfaatlariga xizmat qilish, uning oldidagi mas’uliyatlarini ado etish imkonini beradigan bilimlar tizimiga ham ega bo‘lmog‘i darkor. Ana shunday imkoniyatni vujudga keltiruvchi bilimlarning eng muhimi ijtimoiy bilimlar tizimi bilan bog‘liq.

Shaxs fuqarolik ongining yana bir muhim elementi gumanistik g‘oyalardir. “Gumanizm (humanus) – lotincha ibora bo‘lib, insoniylik tomon intilish yoki insonning insondek yashashi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish degan ma’noni bildiradi. Inson qachon o‘zi haqida, o‘zining olamdagi o‘rni, o‘z tabiatining mohiyati va o‘zining nimalarga qodirligi, o‘z borlig‘ining ma’nosi va maqsadi haqida o‘ylay boshlasa, ana o‘shanda gumanizm sodir bo‘ladi” [3.12]. Gumanistik g‘oyalarni chuqur o‘zlashtirgan

shaxs nafaqat inson qadr-qimmatini yaxshi tushunadi, balki uning osoyishta va farovon turmushi Vatan barqarorligi va ravnaqi bilan bog‘liq ekanligini ham anglab yetadi.

Nihoyat, shaxs fuqarolik ongi fuqarolik qadriyatlarini o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilidagi ilmiy manbalarda ushbu tushuncha ko‘p uchramaydi. Barcha davlatlarda asosiy fuqarolik qadriyatlari mamlakat Konstitutsiyasida qayd qilinadi. Masalan, O‘zbekistonda fuqarolik qadriyatlari mamlakat Konstitutsiyasining 6 va 7-boblarida qayd qilingan [4.10–13]. Shaxs mazkur qadriyatlarni o‘zlashtirgani sayin fuqaro sifatida shakllana boradi. Fuqarolik faoliyati – insonning fuqaro sifatida ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni hal qilish jarayoniga ongli ishtirokidir. Bunday ishtirok davomida fuqaro voqea va jarayonlarga maqsadga muvofiq tarzda ta’sir ko‘rsatishga, ularni o‘z dunyoqarashi, ehtiyoj va manfaatlariga mutanosib ravishda o‘zgartirishga intiladi.



Shaxs fuqaro sifatida ijtimoiy va siyosiy tadbirlarda, saylov jarayonlarida ishtirok etishi uchun, avvalo, unda fuqarolik mas’uliyati yuksak darajada shakllangan bo‘lmog‘i darkor. “Mas’uliyatli fuqaro ijtimoiy voqelikka tanqidiy munosabatda bo‘ladi, zamonaning dolzarb muammolarini va ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlarini tushunadi” [5.180].

Fuqarolik mas’uliyatining yuksalishi shaxs ijtimoiy faolligi uchun zamin yaratadi. Jamiyatda barqarorlikni ta’minlash, mavjud muammolarni bartaraf etishda o‘zining shaxsiy javobgarligini anglab yetgan inson sodir bo‘layotgan voqea va jarayonlarga faol qatnasha boshlaydi. Ijtimoiy faollik shaxs tashabbuskorligida ham yaqqol o‘z ifodasini topadi. Insonning turfa muammolarni hal etish borasidagi tashabbuslariga qarab, uning faolligi darajasini aniqlash mumkin.

Har qanday faollik muayyan manfaat negizida vujudga keladi. O‘z Vatanini qadrlay olgan, uning tabiati, madaniyati, tarixi, dini, tili, urf-odatlari va an’analarini chuqur bilgan insongina fuqaro sifati-dagi faoliyatini Vatan manfaatlariga yo‘naltira oladi. Vatanparvar insongina yurt manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishga qodirdir. Shu boisdan yuksak fuqarolik madaniyatini aynan fuqarolik faoliyati vatanparvarlik bilan yo‘g‘rilgan shaxsdan izlamoq darkor.

Fuqarolik faoliyatining yana bir elementi milliy g‘oyaga sodiqlik bilan bog‘liq. Ma’lumki, “milliy g‘oya – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuyi. U millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi” [6]. O‘z millati eng ezgu g‘oyalarini puxta o‘zlashtirgan shaxsgina o‘zining fuqaro sifatidagi faoliyatini uning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish sari safarbar qila oladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, shaxs fuqarolik madaniyati uning siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, iqtisodiy, ekologik va boshqa madaniyatlari xarakterini, shaxs tasavvurlari va qadriyatlari, o‘zlashtir-

gan bilim va g‘oyalari, faoliyati normalarining Vatan va jamiyat manfaatlariga mos qismini o‘zida jamlovchi tushunchadir. Uning nazariy modeli fuqarolik ongi va madaniyati sintezidan tarkib topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. “Xalq so‘zi”, 2021, 7-noyabr.

2. Горшков М.К. Гражданское общество и гражданское сознание в современной России. “Гуманитарий Юга России”, 2013, № 1. с. 19.

3. Choriyev A., Choriyev S. Renessans davri Yevropa falsafasi. T., “Tafakkur qanoti”, 2015, 12-bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2019, 10 – 13-betlar.

5. Садчикова Т.А. Содержание понятия гражданской ответственности личности, критериии и показатели её сформированности. Вестник Тамбовского университета. Серия гуманитарные науки, 2009, № 6, с. 180.

6. Milliy g‘oya.//qomus.info.

Boltayev Abdurahim Amonovich (Buxoro davlat universiteti dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi)

IBN ARABIY TA’LIMOTIDA INSON VA UNING KAMOLOTI MASALASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tasavvufdagi bosh masalalardan biri komil inson, uning sifatlari va mohiyat to‘g‘risida Ibn Arabiyning talqini va qarashlari tahlil qilingan.*

Аннотация. *В данной статье анализируются взгляды Ибн Араби по поводу толкования одного из главных вопросов в суфизме, в частности, проблема совершенного человека, его качество и сущность.*

Annotation. *This article analyzes the interpretation and views of Ibn Arabi about one of the main issues in Sufism, the perfect person, his qualities and essence.*

Kalit so‘zlar: *Ibn Arabiy, komil inson, ilohiy mohiyat, falsafiy ta’limotlar, “aqli kull”, “aqli avval”.*

Ключевые слова: *Ибн Араби, совершенный человек, Божественная сущность, философские учения, “акль-и-кулль”, “акль-и-авваль”.*

Key words: *Ibn Arabi, perfect human being, divine essence, philosophical teachings, “aqli kull” (all mind), “aqli awwal” (first mind).*

Kirish. Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o‘rni falsafiy muammolar tizimida muhim o‘rin tutadi. Turli falsafiy ta’limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo‘lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o‘zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro‘yobga chiqarishga intilaveradi.

Tasavvuf ta’limotida komil inson muammosi asosiy tadqiqot obyekti hisoblanib, unda bu masala juda chuqur va keng tahlil etilgan. Tasavvuf ta’limoti uchun bu nazariya emas, balki amaliy masala bo‘lgan va tariqatlarda insonning kamolotga yetish yo‘li va uslublari ixtiro etilgan. Zero, mutasavviflarning ta’kidlashicha, komil insonning siyrat va suratida ilohiylik va insoniylik mujassamdir, zotan ilohiylikni insoniylikdan va insoniylikni ilohiylikdan ajratib tasavvur etib bo‘lmaydi. Tasavvufdagi komil inson tushunchasi ilohiylik va insoniylik tajalliysining mukammal va oliy darajasi, barcha inson zoti yagona ilohiy javharning shu’lasi, tajalliysidir. Shuning uchun borliqdagi barcha mavjudotlar uni hurmat-ehtirom qilmoqlari, unga xizmat qilmoqlari zarur.

Asosiy qism. Komil inson tushunchasi birinchi marta Shayxi Kabir nomi bilan mashhur bo‘lgan Muhyiddin Ibn Arabiy tomonidan muomalaga kiritilganini qayd etmoq joiz. Ibn Arabiy nazdida “komil inson-bu aqli avval yoki nafsi avval, aqli kul” [1.145] tushunchalari bilan ma’nodoshdir. Chunki Tangri taolo ilohiy nurdan ilk marta Aqli avvalni yaratdi va uning suratu shaklini komil inson qiyofasida zuhur ettirdi.

Mutasavvifning “Tahzib ul-axloq” risolasi bevosita inson va uning komillik darjalariga bag‘ishlangan bo‘lib, muallif asarni doimgidek barcha olamlar Rabbisi bo‘lgan Allohga hamdlar hamda Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga va uning oilasi, sahobalariga ko‘plab salovot, durudlar aytish bilan boshlagan.

Ibn Arabiy insonni tahlil qilib quyidagi fikrni keltiradi:

إعلم أن الإنسان من بين سائر الحيوان ذو فكر و تمييز و هو أبدا يحب من الأمور أفضلها و من المراتب أشرفها و من المقتنيات أنفسها

“Bilginki, inson boshqa jonzotlar orasida aql va farosati bilan farqlanadi. U agar farosatidan ayrilmagan bo‘lsa va maqsadiga erishishda hoyu havasiga berilmasa, hamisha ishlarning afzalrog‘ini, martabalarning oliyrog‘ini, buyumlarning nafisrog‘ini sevadi” [2.9].

Ibn Arabiy ta’limotida inson o‘zi uchun qiladigan eng to‘g‘ri ishi bu o‘zining komil bo‘lish g‘oyasiga yetishda to‘xtamasligi, ishni oxiriga yetkazmasdan tinchimasligi kerak [2.9].

Inson o‘z-o‘zini anglashi, o‘zini topishi va o‘zini kashf etishi insonning Yaratuvchisi bilan munosabatiga bog‘liq bo‘lib, inson ruhiyati kashfini uning o‘zidan boshqa hech kim topa olmaydi. Bu masalaga har bir shaxs individual yondashadi. Buning sababi din va e’tiqod, ilohiy mohiyatni tanish hamda anglash qalbning ishi ekani bilan izohlanadi.

Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashidadir. Shu ma’noda buyuk yunon faylasufi Suqrotning: “O‘zing-o‘zingni bil”, degan da’vati ham insonning o‘z nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat va majburiyatini anglashga qaratilgan chaqiriqdir.

Ibn Arabiy shu ma’noga dalolat qilib, insonning axloqda kamolga yetganining belgisini aytib o‘tgan:

و من تمام الإنسان و كماله أن يكون مرتاضا بمكارم الأخلاق و محاسنها و متنزها عن مساويها و مقابحها و آخذا في جميع أحواله بقوانين الفضائل عادلا في كل أفعاله عن طريق الرذائل

Insonning kamolga yetganligi belgisi bu faqatgina yaxshi axloqqa rozi bo‘lishi va husni, xulqni va go‘zal fazilatlarni o‘zining barcha holida namoyon qilishi, uning teskarisi bo‘lgan xulqlardan kechishi hamda barcha ishlarida razil fe’llardan qaytishidir [2.9].

Allohning inson ruhini o‘z huzuridan puflagani “Sod” surasining 71–72-oyatida eslatilgan: “Albatta, men loydan bir odam Yaratguvchidirman. Bas, qachon uni tiklab, unga O‘z ruhimdan puflab kirgizganimdan so‘ng unga sajda qilgan hollaringizda yiqilinglar!” Allohning qudrati bilan ruh (Haq nafasi) va tana (to‘rt unsur: suv, tuproq, havo, olov)dan tashkil topgan inson barcha yaratiqlardan a’lo martabaga ega bo‘ldi va jannatni maskan tutdi. Insonning ilohiy amrni buzishi natijasida Allohning g‘azabiga uchradi. Bu “Baqara” surasining 36-oyatida “Bas, ularni shayton yo‘ldan ozdirib maskanlaridan chiqardi va: “Tushingiz (jannatdan Yerga). (Sizlar) bir-biringizga dushmansiz. Endi (ma’lum vaqtgacha) Yerda maskan tutib yashaysiz” deyilgan. Bundan anglashiladiki, insonning azaliy maskani (jannat)ga qaytishi uning avvalgi martabasi, ya’ni tubanlikdan ruhan va ma’nan komil inson darajasiga ko‘tarilishi bilan bog‘liq.

Ibn Arabiy “Tahzib ul-axloq” risolasini quyidagi sakkizta faslga bo‘ladi:

1. Yomon xulqlar. 2. Yaxshi xulqlar. 3. Shahvoniy nafs. 4. G‘azabiy nafs. 5. Notiqa nafs. 6. Axloqning turlari va qismlari. 7. Xulqlarni o‘zlashtirish yo‘llari. 8. O‘zida barcha yaxshi xulqlarni jamlagan komil insonning sifatlari.

Ibn Arabiy fikricha, yomon xulqlarga xasislik, qo‘rqoqlik, zolimlik va yomonlik qilish kabi yomon sifatlar kiradi. Ko‘p kishilarda bu odatga aylanib, ularni mag‘lub qilgan va ularni boshqaradi. Juda kam insonlar esa yomon xulqlar va ayblardan xalos bo‘lganlar. Ular boshqalardan afzaldirlar.

“Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiati bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi”, deydi Forobiy [3.189].

Ibn Arabiy ta’limotiga ko‘ra, tabiatida yaxshi xulqlar jibilliy bo‘lganlar kamchilik bo‘lib, ularning tabiatida yaxshilik boshqa yaxshi xulq egalaridan ko‘ra ustun bo‘ladi.

و كذلك في الأخلاق المحمودة قد تختلف الناس و يتفاضلون إلا أن المجبولين علي الأخالق الجميلة قليلون جدا و أما المجبولون علي الأخلاق السيئة فأكثر الناس لأن الغالب علي طبيعة الإنسان الشر

Tabiatida yomon xulqlar ham jibilliy bo‘lganlar bor va ular ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ularning tabiatida yomonlik ustun bo‘ladi [2.13].

Tasavvuf keng ko‘lamli ijtimoiy faollikka ega bo‘lib, irfon ahlining aksariyati ijtimoiy faol hayot tarzini afzal ko‘rishgan, irfoniy suhbatlar uyushtirishgan, odamlarni o‘z-o‘zi bilan, oilasi bilan, jamiyat bilan, sultonlar bilan murosaga keltirishgan. Ilohiy dastur asosida inson axloqidagi qusurni fazilatga aylantirish yo‘llarini ko‘rsatishgan. Yomon xulqli kishilarni jazolashdan ko‘ra, hidoyatga chorlashni afzal bilishgan.

و ذلك الإنسان إذا استرسل مع طبعه و لم يستعمل الكر و لا التمييز الحياء و لا التحفظ كان الغالب عليها أخلاق البهائم لأن الإنسان إنما يتميز عن البهائم بالكر و التمييز و إذا لم يستعملها كان مشاركا للبهائم و الشهوات مستولية عليه و الحياء غائب عنه و الغضب يستنفره و السكينة غير حاضرة له و الحرص و الأحقاد ديدنه و الشر لا يفارقه

Agar inson fikr, farosat, hayo va ibo kabi xulqlarsiz faqat tabiatiga ergashsa, unda hayvonlik xulqi g‘olib bo‘ladi. Negaki, inson hayvonlardan tafakkur qilishi va farosati bilan ajralib turadi.

Inson yaxshi xulqlardan foydalanmasa, hayvonlarga sherik bo‘lib qoladi. Unda shahvat ustunlik qilib, hayo yo‘qoladi, sakinat o‘rniga g‘azab keladi, hirsu hasad va yomonlik undan ayrilmaydi [2.13].

Valiy va oriflar Alloh Rasulining “Alloh xulqlari bilan xulqlaningiz” [4.251] hadisini o‘z hayotlari mazmuniga aylantirishgan. Ularning ibratli so‘zlari, xatti-harakatini ko‘rgan yoxud eshitgan kishi qusur-kamchiliklarini tuzatishga intilgan. Xalq nazarida alohida xislatli kishilar hisoblanishgani uchun ham barchaga axloqiy poklik, ruhiy qudrat, zakiylik, kishilar qalbiga yo‘l topish, islomiy ahkomlarni bajarish, haqgo‘ylikda namuna ko‘rsatishgan.

فأما الأخلاق المحمودة فإنها و إن كانت في بعض الناس عزيزة فليست في جميعهم و إن الباقين قد يمكن أن يصيروا إليها بالتدرب و الرياضة و يترقوا إليها بالاعتياد و الألفة و مع هذا الحال فقد يكون في الناس من لا يقبل طبعه العادات الحسنة و لا خلق الجميل و ذلك يكون لرداءة جوهره و خبث عنصره

Ibn Arabiy ta’limotida yaxshi xulqlar ba’zi odamlarda jibilliy bo‘lsa, qolganlar uni harakat qilib, intilish va riyozat chekish orqali egallashlari mumkin. Biroq odamlar orasida shundaylar ham bo‘ladiki, ular harakat bilan ham o‘zlashtirolmaydilar. Ularning javhari yomon va unsuri buzuq bo‘ladi [2.15].

Tasavvuf ma’rifati va ma’naviyatining mezoni hadisda ta’kidlaganidek, go‘zal va pok axloqdir. Horis Muhosibiy go‘zal xulq (birovga aziyat yetkazmaslik, g‘azablanmaslik, xotirjamlik)ni “tarozini bosuvchi eng og‘ir narsa” deb ta’riflagan.

Axloq ruhiy kamolot hosilasi sifatida insonni tanazzul va halokatdan salomat saqlashga xizmat qiladi. Inson ruhiyatini yuksaltirishda axloq masalasiga deskriptiv e’tibor qaratilishining sababi ham shu yerda anglashiladi, ya’ni, irfon, ma’rifat va hikmat inson axloqini go‘zallashtirish, jilolantirish va Alloh axloqi bilan xulqlanishga yo‘llasa, irfon ilmining asosi bo‘lgan Qur’on har bir inson uchun axloq kodeksi vazifasini o‘taydi.

Ibn Arabiy xulqlarning har xil bo‘lishining sababi sifatida inson nafsini ko‘rsatadi:

فأما العلة الموجبة لإختلاف الأخلاق و هي النفس فللنفس ثلاث قوي و تسمي أيضا نفوسا وهي النفس الشهوانية و النفس الغضبية و النفس الناطقة و جميع الأخلاق تصدر عن هذه القوي فمنها ما يختص بإحداهن و منها ما يشترك فيه قوتان و منها ما يشترك فيه القوي الثلاث

“Insonlarning xulqi har xil bo‘lishiga nafs sababchidir. Nafs uch xil quvvatga ega bo‘ladi: shahvoniy nafs, g‘azabiy nafs va notiqa nafs.

Barcha xulqlar ana shu uch nafsdan sodir bo‘ladi. Bu nafslarning ba’zisi yakka holda, ba’zisi ikkitasini birlashtirib, ba’zisi uchovini ham birlashtirib keladi” [2.15].

Ibn Arabiy yuqorida aytib o‘tgan uch xil nafsning har biriga alohida fasl bag‘ishlaydi. “Shahvoniy nafs to‘g‘risida”gi faslda shahvoniy nafsning nima ekanligini ochib beradi:

أما النفس الشهوانية فهي للإنسان و لسائر الحيوان و هي التي يكون بها جميع اللذات و الشهوات الجسمانية كالإقدام إلي المآكل و المشارب و المباضعة و هذه النفس قوية جدا متي لم يقهرها الإنسان و يهذبها ملكته فاستولت عليه فإذا هي استولت عليه خسة تهذيبها و صعب قمعها و تذليلها فإذا تمكنت هذه النفس من الإنسان و ملكته و انقاد لها كان بالبهائم أشبه من بالناس لأن أغراضه و مطلوباته و همته تصير أبدا مصروفة إلي الشهوات و اللذات فقط

Shahvoniy nafs insonda va boshqa barcha jonzotlarda bo‘ladi. U yeyish, ichish va ko‘payishga rag‘bat kabi jamiki jismoniy lazzat va shahvatlarda namoyon bo‘ladi. Bu quvvat juda kuchli bo‘lib, inson uni o‘ziga bo‘ysundirmasa, u insonni qo‘liga oladi va boshqaradi. Agar u insonni boshqarsa, uni bo‘ysundirish va tarbiyalash qiyin bo‘ladi. Bu nafs insonni o‘ziga makon qilib olib, uni boshqarsa, inson odamdan ko‘ra hayvonga o‘xshab qoladi. Inson hamisha turli shahvat va lazzatlarni istaydigan va barcha himmatini shunga erishishga sarflaydigan bo‘lib qoladi [2.17].

Ibn Arabiy nafsini jilovlay olmaganlarning holida qanday o‘zgarishlar bo‘lishini aytib o‘tadi: “inson shahvoniy nafs sifatlariga ega bo‘lgani sari unda hayo kamayadi, hirs ko‘payadi. Fazilat egalaridan qochadi va xilvatga moyil bo‘ladi. Turli ko‘ngilochar ishlarga rag‘bat paydo qilib, ilm ahlidan nafratlana boshlaydi. Taqvodorlarni yomonlab, fisq-u fujur ahlini maqtaydi. Fahsh ishlarni sevadigan, ularni ko‘p eslaydigan, eshitsa lazzat oladigan bo‘ladi. Yengiltak odamlar bilan aloqasidan xursand bo‘lib, hazilni va o‘yin kulgini yoqtiradigan bo‘ladi. ”Shu holida ko‘p gunohlar qiladi, fahshga ega bo‘ladi va haromdan tiyilmaydigan bo‘lib qoladi.

Xulosa. Mutasavvif so‘fiyning o‘zligini anglashi va uni boshqarishda nafs tarbiyasiga aloqador hikoya va ibratomuz rivoyatlarning o‘rni va ahamiyati katta ekanligini ta’kidlaydi.

Ibn Arabiy ta’limoticha, inson nafsi boshqa insonlar nafsining kamchiliklarini ko‘ra oladi. Biroq, o‘zining kamchilik va ayblari undan parda bilan to‘silgan. Shu sababli ko‘p insonlar o‘z qusurlarini ko‘rmay, boshqalarga hukm chiqaradilar. Bu esa nafsning tabiatidagi isyonkorlikdan kelib chiqadi, deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. T., “Yozuvchi”, 1996, 145-bet.
2. Ibn Arabiy. Tahzib ul-axloq. Kuvay, “Olam ul-fikr”, 1986, 154-bet.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993, 186-bet.
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. 4 hadis, Al-Jomi’ as-Sahih. Ishonarli to‘plam. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. Professor Ne’matulloh Ibrohimov va shoir Mirzo Kenjabek tahriri ostida. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1996, 251-bet.

Юсупова Феруза Зойировна (Навоийский государственный Горно-технологический университет, старший преподаватель; e-mail: effm@mail.ru)

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОГО ИДЕАЛА В ДЖАДИДИЗМЕ

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlari uchun o‘ziga xos ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy asosga ega yangi davlat barpo etishda muqobil yo‘l ochib bera oladigan milliy g‘oyani shakllantirishda jadidlar ijtimoiy-ma’naviy idealining ustuvor yo‘nalishlari ijtimoiy-falsafiy tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье приводится социально-философский анализ приоритетов социально-духовного идеала джадидов в формировании национальной идеи, которая могла открыть для народов Средней Азии альтернативный путь к созданию нового государства с собственной социальной, политической и экономической основой.*

Annotation. *This article provides a socio-philosophical analysis of the priorities of the socio-spiritual ideal of the Jadids in the formation of a national idea that could open an alternative path for the peoples of Central Asia to create a new state with its own social, political and economic basis.*

Kalit so‘zlar: *ideal, jadidchilik, jamiyat islohoti, ta’lim, ma’rifat, erkinlik, innovatsion jarayonlar.*

Ключевые слова: *идеал, джадидизм, реформирование общества, образование, просвещения, свобода, инновационные процессы.*

Key words: *ideal, Jadidism, society reform, education, enlightenment, freedom, innovation processes.*

Движение джадидизма, которое вошло в историю как движение за обновление и реформацию общества, способствовало росту национального самосознания и сыграло существенную роль в становлении и развитии идеологии в Центральной Азии. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в своем выступлении на торжественном собрании, посвященном Дню учителей и наставников, подчеркнул: «Как и многие представители интеллигенции, я с большим сожалением думаю о том, что в XX веке наши выдающиеся предки – джадиды-просветители могли бы осуществить в стране Третий Ренессанс. Ведь эти глубоко образованные, самоотверженные личности посвятили себя идее национального возрождения, направили все свои силы и возможности на то, чтобы вывести страну из тьмы и отсталости, освободить нацию от оков невежества. И ради этой великой цели жертвовали собственной жизнью» [1].

Действительно, движение джадидов выражало наиболее прогрессивное направление в сложном переплетении политических сил общества конца XIX – начала XX столетия. Базировалось на мировых гуманитарных и национальных ценностях, отвечало назревшим потребностям общественного развития и интересам коренного населения края.

Осознание джадидами глубины кризисного состояния народа, его возрастающее отставание от общемировых процессов, повсеместное подавление свободолюбивых устремлений, застой в духовной сфере явились побудительным толчком к рождению в их среде идей настоятельного реформирования общества. При этом движение прошло сложный, исторически неоднозначный путь. Джадидизм стал ареной столкновения разных философий и мировоззренческих подходов к перспективам развития нации [2].

Благодаря трудам философов, писателей, поэтов, общественных деятелей идеал справедливости стал прочной национальной ценностью в сознании узбекского народа. Джадиды формировали национальную идею, которая могла открыть для народов Средней Азии альтернативный путь к созданию нового государства с собственной социальной, политической и экономической осно-

вой. Они были великими продолжателями вековых традиций гуманизма, свободолюбия и справедливости, утвердившихся в общественной мысли узбекского народа. Программа джадидов сводилась к трем главным принципам – хуррият, муссават, адолат (свобода, равенство, справедливость).

Если справедливость была традиционно утвердившейся идеей в общественном и национальном сознании народа, то свобода и равенство были выдвинуты уже самими джадидами. Под свободой подразумевалось создание свободного и суверенного государства на всей территории Средней Азии. Равенство было общим понятием, связанным с традиционными представлениями, широко распространенными в обществе, где равенство казалось вполне достижимым.

Джадиды видели Туркестанский край свободным и независимым государством, в котором частная собственность находится под защитой государства и охраняется законом, где уважительно относятся к любой религии, обеспечивают свободу и права всем жителям страны. Они хотели, чтобы Туркестанский край стал передовым государством на уровне высокоразвитых государств Европы и Азии.

Общее, что объединяло джадидов была открытая поддержка и защита просвещения, свободы, совершенствование норм нравственности и морали, борьба за цивилизованные формы жизни, стремление к улучшению жизни народа.

Многие из последователей джадидов посещали зарубежные страны и могли сравнивать уровень образования, культуры и науки. Их главной мечтой стало распространение достижений мировой цивилизации в Туркестанском крае в области образования, науки и культуры.

Джадиды боролись за нравственное совершенствование народа: осуждали употребление наркотических веществ и алкоголя, курение табака и выступали за полное равенство прав мужчин и женщин. Целями джадидизма являлись децентрализация и широкое самоуправление, создание правового государства с равноправием всех граждан и равенством религии.

Одним из специфических черт джадидизма являлось признание просвещения и образования в качестве критерия прогресса. Идеалом для прогрессивной части мусульманского общества являлись достижения мировой цивилизаций, прежде всего западноевропейских стран. Социально-экономическая модель западной цивилизаций в плане поступательного движения по восходящей линии базировалась на критериях развития способа производства, то есть на идее прогресса, которая отождествлялась с уровнем техногенного развития, товарно-денежных отношений.

В работе «Комментарии на сборники изречений» просветитель-джадид Р.Фахретдинов отмечал: «Нет никакого вреда в том, что некий человек или мусульманин изобретает пароход, железную дорогу, телефон, телеграф, и, подчинив себе силы природы, изобретает невиданные новшества, которые к религии не относятся. Так и строительство мектебов и медресе, возведение минаретов и мечетей, издание книг есть дела мирские» [3].

В целях прогресса башкир, татар и других мусульманских народов, философ предлагал заимствовать современные достижения в производстве: «Обрабатывай свой хлеб с помощью машины, сено коси машиной и убирай машиной, коси и молоти хлеб машиной! Так как эти дела легче делать машиной, чем вручную. Письмо пиши на машинке, печатай книги в типографии. Если есть возможность, для передвижения купи велосипед, автомобиль... Если много дел в городе, поставь в доме телефон, если расход не покажется обременительным, проведи в дом электричество... Форму одежды выбирай, чтобы было легче одевать и снимать, и в соответствии со своей работой» [3].

Инновационные процессы во всех сферах жизнедеятельности общества сопровождались идеей освоения достижений, норм, традиции мировой культуры, усилением контактов, развитием путей сообщения, средств связи. Они становятся объективной необходимостью, тем самым актуализируя деятельность сторонников джадидизма, направленную на поиск новых, конструктивных способов в интересах социального прогресса. В целях социальной мобильности от человека требовалось наличие профессиональной подготовки, следовательно, получение светского образования.

По мнению философа Х.С.Ашуровой, «движение джадидов было нововведением для своего времени» [4.13]. «В целом джадиды осознали необходимость новаторских идей в развитии национального самосознания для достижения свободы и независимости. Посредством этих идей они призвали к национальному пробуждению, то есть к модернизации общества. Педагоги-джадиды подчеркивали, что национальная система образования могла бы соответствовать требованиям времени и стать реальным ресурсом развития, преодолев ее кризис, изменив содержание образования, формы и методы его организации, создав совершенно новое технологическое обеспечение образовательного процесса [4.15].

Джадидизм был детерминирован социально-экономическими предпосылками. Социально-экономический фактор, в свою очередь, определял критерий надстроечных институтов: право, государственность – в политике; грамотность, образованность, просвещенность–в духовно-культурной сфере.

В повышении общественного сознания периодические издания занимают не менее важное место, чем новометодные школы. Прогрессивные интеллектуалы призывают мусульманское население «к образованию, к приобретению практических познаний как в области ремесел и промышленности, так и в изучении иностранных языков, дабы оно (население) было культурно и богато».

В рамках общефилософского критерия человек, джадидизм производит переоценку критериев общественного прогресса в морали, науке, эстетике, религии, философии. Тем не менее в качестве приоритета духовного идеала джадидов необходимо выделить достижения европейского Просвещения, следовательно, идеологами джадидского движения в качестве основного критерия прогресса утверждается развитие сфер образования и просвещения.

В плане прогресса произошли значительные общественные преобразования: ликвидация неграмотности, введение всеобщего школьного образования, доступ к обучению детей всех сословии, приобщение широких масс к духовным богатствам – не посредством религии, а через художественную культуру.

Социальное развитие – общее свойство и главнейший признак джадидизма. Причем это не простое изменение материальных объектов, а изменение общественного сознания. Основным источником джадидского движения является противоречие способов производства. Джадидизм представлял собой реакцию на развитие индустриального общества. Эволюция способа производства способствовало изменению структуры мусульманского общества. Социальная стратификация выявляет противоречие общественных интересов.

В целях социально-культурного развития Средней Азии в новом направлении джадидистские лидеры предложили ряд реформ в области образования, историографии, литературы, печати, религии и искусства. Они выступили с идеями переоценки и усовершенствования этики, веры, правосудия, здравоохранения, улучшения положения женщин, всех сторон общественной жизни.

Лучшие представители джадидизма служили народу и родине. Вся их жизнь была отдана великой исторической миссии – просветить угнетённый народ, показать ему дорогу к счастливой и зажиточной жизни, воспитать в нем чувство собственного достоинства, чувство хозяина той земли, на которой жили его предки, и на которой он живёт поныне. Джадиды были во всех отношениях передовыми людьми своего времени [2].

Концептуальные идеи просветителей стали фундаментальной духовной основой современной практики в воспитании подрастающего поколения, принимаемых стратегий и курса широкомасштабных реформ в Новом Узбекистане.

Использованная литература:

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественном собрании, посвященном Дню учителей и наставников. 01.10.2020//https://www.uzdaily.uz/ru/post/55576

2. Агзамходжаева С. Просвещение – единственно верный путь к прогрессу.-https://yuz.uz/ru/news/prosveenie-edinstvenno-verny-put-k-progressu

3. Басыров А.Х. Джадидизм: социально-философский анализ. Диссертация ...кандидата философских наук, 09.00.11, Уфа, 2009, 140 с.

4. Ашурова Х.С. Самарқанд жадидларининг ижтимоий-сиёсий қарашлари (XX асрнинг биринчи чораги). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати, Самарқанд, СамДЧТИ нашр-матбаа маркази, 2020.

TILSHUNOSLIK

Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinovna (QDPI professori, f.f.d. (DSc),
Tillaboeva Xavasxon Zoxidjon qizi (2-bosqich magistranti)

TERMINOLOGIK TIZIM XUSUSIYATLARI VA MOHIYATI

Annotatsiya. *Maqolada terminlar muammosi, terminlarning o‘rganilishi sistem-struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e’tibor lisoniy hodisalar o‘rtasidagi munosabat turlarini belgilash va shu asosda har bir lisoniy hodisa ortida yashiringan mohiyatni ko‘rsatishga qaratilganligi ilmiy jihatdan asoslangan. Tilshunoslikning turli zamonaviy yo‘nalishlarining rivojlanishi terminologik tizimning kengayishiga olib kelishi maqola doirasida yoritilgan.*

Аннотация*. В статье рассматривается проблема терминов, изучение терминов с точки зрения системно-структурной лингвистики. Научно обосновано, что основное внимание в исследованиях, проводимых в этом направлении, направлено на определение типов отношений между языковыми явлениями и на этой основе выявление сущности, скрытой за каждым языковым явлением. Развитие различных современных направлений языкознания приводит к расширению терминологической системы.*

Annotation. *The article examines the problem of terms, the study of terms from the point of view of system-structural linguistics. It is scientifically based that the main attention in the researches carried out in this direction is aimed at determining the types of relations between linguistic phenomena and on this basis, showing the essence hidden behind each linguistic phenomenon. The development of various modern directions of linguistics leads to the expansion of the terminological system.*

Kalit so‘zlar: *terminlar, sistem tilshunoslik, lug‘aviy birliklar, mazmuniy uyalar, paradigmatik, sintagmatik, lisoniy hodisa, lingvistik birlik.*

Ключевые слова: *термины, систематика языкознания, лексические единицы, семантические гнезда, парадигматика, синтагматика, языковой феномен, языковая единица.*

Key words: *terms, systematic linguistics, lexical units, semantic nests, paradigmatic, syntagmatic, linguistic phenomenon, linguistic unit.*

XX asr dunyo tilshunosligining eng katta yutug‘i tilni tizim sifatida o‘rganishni boshlab berganligida edi. XIX asr oxiri–XX asr boshlarida shakllangan, “xususiyliklardan umumiyliklarga” tamoyiliga amal qiluvchi sistem-struktur tilshunoslik tilga xos xususiyliklarni, alohidaliklarni ajratish, ularni bir-biriga qiyoslash va eng umumiy belgilarni aniqlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e’tibor lisoniy hodisalar o‘rtasidagi munosabat turlarini belgilash va shu asosda har bir lisoniy hodisa ortida yashiringan mohiyatni ko‘rsatishga qaratildi. Jumladan, F.de Sossyur tilshunoslar diqqatini lisoniy birliklar orasidagi munosabatni ochishga qaratib, munosabatning paradigmatik va sintagmatik turlari mavjudligini ko‘rsatdi” [1.1].

Ma’lumki, lug‘aviy birliklarni umumiy ma’nolari asosida paradigmatik qatorlarga birlashtirish, ularning mazmuniy uyalarini hosil qilish masalasiga, dastlab, sharq tilshunosligida jiddiy e’tibor qaratilgan. Keyinchalik, XIX asrda lingvistik birliklarni mazmuniy guruhlarga birlashtirish yoki butunni ma’lum mazmuniy guruhlarga ajratish g‘oyasi Yevropada ham avj oldi. Shunga ko‘ra, bu nazariya Yevropa tilshunosligi, ayniqsa, F.de Sossyur qarashlari bilan uzviy bog‘lanib qoldi.

F.de Sossyur tilning sistema ekanligini asoslar ekan, quyidagilarni qayd etdi: “Aslida, olam yaxlit bir sistemadan iborat. U beadad narsa-hodisalar, voqealar va shaxslarning muayyan maydonlar ichida zamona zayli bilan harakatlanishi, voqe bo‘lishi asosiga qurilgan. Ular bir-birini taqozo qilgan holda bir-birisiz yashay olmaydi. Osmon quyoshsiz, oysiz, quyosh va oy yersiz, yer insonsiz, inson esa tilsiz, zabonsiz yashay olmaydi. Ularning har biri ulkan sistema ichida harakatlanuvchi o‘ziga xos supermakrosistemalar sanaladi. Shuning uchun til sistemalar sistemasi sifatida talqin qilinadi” [2.2].

Bugungi kunda lingvistik terminologiya ichki va tashqi omillar ta’sirida boyib bormoqda. Tilshunoslikning turli zamonaviy yo‘nalishlarining rivojlanishi terminologik tizimning kengayishiga olib keldi. Natijada til sathlarini dinamik aspektda o‘rganishga ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. Shunga qaramay, terminologlarning ta’kidiga ko‘ra lingvistikaning metatil sohasining tadqiqiga qaraganda aniq fanlar terminologiyasi bo‘yicha qilingan ishlar kamida ikki baravar ko‘pdir.

Terminologik tizim ma’lum tartibga ega. Terminologik tizimni tartibga solish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo qiladi:

1) nutqda terminlarni ishlatishning real holatini o‘rganish;

2) tilda yangi hosil bo‘lgan terminlarni aniqlash, ularni tartibga tushirish va terminologik lug‘atlarga kiritish;

3) milliy terminlarni ikki yoki ko‘p tilli terminologik lug‘atlarga kiritish.

Terminologik tizimda ilmiy terminlar asosiy o‘rinni egallaydi. Ilmiy terminologiya ham ichki bo‘linishga ega:

1) aniq tushunchalarni anglatuvchi terminlar mikrotizimi (o‘simliklar, hayvonlar nomlarini anglatuvchi terminlar);

2) mavhum tushunchalarni anglatuvchi terminlar mikrotizimi (huquqiy, iqtisodiy, sotsial-siyosiy, pedagogik yo‘nalishlarda qo‘llanuvchi terminlar).

Terminlar tilning umumiy leksik fondidan o‘rin oluvchi alohida tizimni tashkil qiladi. Terminlar til tizimi mikroelementi ekan, tizim shu kabi mikroelementlar yig‘indisidan iborat butunlik hisoblanadi. Butunlik ichida esa mikroelementlar shartlangan munosabatda bo‘ladi. Y.A.Kulikovaning ta’kidlashicha, tizimlilik terminologik leksikaning asosiy belgisidir” [3.3].

Terminlar ma’lum fan, texnika yoki kasbga xos tushunchalarni ifodalash uchun maxsuslashtirilgan, foydalanish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan birliklardir. Ko‘pchilik olimlar terminlarga xos quyidagi belgilarni ajratishadi:

1) differensiyaning mavjudligi;

3) podsistemada, ya’ni ma’lum fan, kasb doirasida monosemalikka intilish tendensiyasi;

4) ekspressiyaning yo‘qligi;

5) uslubiy betarafligi.

M.Aliyeva ham “O‘zbek milliy gazlama dizaynerligi terminlarining semantik-grammatik tadqiqi” nomli tadqiqot ishida yuqorida berilgan xulosani tasdiqlaydi: “Termin tilning umumiy leksik sistemasiga konkret terminologik sistema (terminologiya) orqali kiradi. Termin maydon birligi bo‘lib, u ma’lum fan, texnika yoki kasbga xos tushunchalarni ifodalash uchun maxsuslashtirilgan, foydalanish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki birikma. Lingvistik termin maydonida terminning o‘ziga xos xususiyati sifatida ko‘pchilik olimlar tomonidan quyidagi belgilar ajratiladi:

1) sistemaviylik, differensiyaning mavjudligi;

3) o‘zining terminologik maydoni, ya’ni ma’lum fan, kasb doirasida monosemiklikka intilish tendensiyasi;

4) ekspressiyaning yo‘qligi;

5) uslubiy betarafligi.

Terminning bu xususiyatlari faqat terminologik maydon ichidagina amal qiladi. Terminologik maydondan tashqari yuqoridagi xususiyatini yo‘qotadi” [4.4].

Terminlarga nazar tashlansa, yuqoridagi sanalgan xususiyatlardan monosemantiklik va uslubiy betaraflik belgilarining lingvistik terminlar uchun markaziy (barqaror) belgi emasligi ko‘zga ko‘rinadi. Chunki ayrim lingvistik terminlar polisemantik xususiyatga ega. Masalan, toponimika termini quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi:

1) “leksikologiyaning geografik nomlarini o‘rganuvchi bo‘limi”; 2) “ma’lum bir territoriyadagi geografik nomlar majmuyi” [5.5].

Lingvistik terminologiya (lot. terminus “chegara”, logos “ta’limot”) tilshunoslik fani doirasida maxsus lingvistik tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llaniluvchi so‘z va birikmalar majmuyi. Lingvistik terminlar lingvistik metatilni hosil qiladi. Til obyekti va metatil o‘zaro munosabatda, ular tashqi tomondan bir-biriga to‘la mos keladi, ya’ni tashqi tomondan bir tilning o‘zidir. Ayni paytda tildagi so‘zlar metatilda maxsuslashtirilganligi, metatildagi ayrim so‘zlarning til–obyektda, umuman, qo‘llanilmasligi ham kuzatiladi. Shu sababdan terminlarni ilmiy o‘rganish nafaqat terminshunoslarning, balki kompyuter lingvistlarini ham qiziqtirib kelmoqda.

Turli yo‘nalishdagi ilmiy maktablarning faoliyati natijasida zamonaviy lingvistikaning asosiy terminologik korpusi shakllanib boradi. Terminlarning asosiy qismi yo metatildan olingan yoki erkin yaratilgan. Inson kognitiv faoliyatining rivojlanishi, qadimgi tushunchalarni qayta ko‘rib chiqish, mental faoliyatlarning integratsiyasi va detalizatsiyasi, xususiylik, konkretlilik va abstraklilikning bir-biriga bog‘liqligi hamda bir-biriga o‘tishi, denotatga nisbatan munosabatning ifodalanishi kabilar til leksik tarkibining dinamik rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Ma’lumki, tilning boshqa sohalariga nisbatan terminologiyada me’yorlashtirish masalasi muhim o‘rin tutadi. Terminologik me’yor professional (kasb-hunar) me’yorga to‘g‘ri kelishi kerak. Bu mutanosiblik terminni adabiy til me’yorlariga to‘g‘ri keladigan leksik birlik sifatida qabul qilishda ham, ishlatili-

shi ma’lum chegaralangan funksional paradigma diapazonida harakat qilishida ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tilshunoslikda terminosistema atamasi keng qo‘llaniladi. Bu atamaning keng va tor tushunilishi kuzatiladi. Keng ma’noda terminosistema har qanday terminlarning yig‘indisi sifatida tushunilsa, tor ma’noda korreksiyadan o‘tgan, tanlangan terminlar majmuyini anglatadi. Bizningcha, terminosistema atamasini keng ma’noda tushunmoq kerak, chunki bu butunlik o‘zaro shartlangan va bir-birini taqozo qiluvchi elementlar yig‘indisidir. Bunday tushunishda sistema va struktura terminlarining farqi aniq namoyon bo‘ladi. Struktura shartlangan elementlar yig‘indisini tashkillash usulidir. Demak, terminosistema atamasining ikkinchi talqini sistemani emas, balki strukturani anglatadi.

Aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, terminologik tizim til tizimi ichiga kiruvchi, uning boshqa mikrotizimlari bilan chambarchas aloqaga kirishuvchi butunlik sanaladi. Demak, o‘z navbatida, uning o‘zi ham tizimdir. U diskretlik (bo‘linuvchanlik) xossasiga ega. Shu bilan birga, terminologik tizim elementlari o‘zaro va til tizimining o‘zi bilan aloqadorlikda harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Соссюр Ф.Де. Заметки по общей лингвистике. М., “Прогресс”, 1990, с.. 91–92.

2. Куликова И.С., Салмина Д.В. Введение в металингвистику (системный, лексикографический и коммуникативно-прагматический аспекты лингвистической терминологии). СПб., “Сага”, 2002.

3. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. М., 1987.

4. Алиева М. Семантико-грамматическая проработка терминов узбекского национального газового оформления. Филол. наука. высокий фальшивый док. (доктор философии) ... дисс., Фергана, 2018, с. 13.

5. Ходжиев А. Толковый словарь лингвистических терминов. Ташкент, “Учитель”, 1985, с. 93.

Xaitbayeva Nazokat Adilbek qizi (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universitetining o‘qituvchisi; e-mail: nazokatxaitbayeva@bk.ru)

AKADEMIK YOZUV FANIGA OID MATNLARNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Akademik yozuv”fanidagi matnlarning psixolingvistik tahlili hamda matnlarning talabalar yozma nutqini takomillashtirishdagi o‘rni, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, darslarga jalb qilish usullari haqida fikr yuritilgan. Ta’lim jarayoni sifatli va mazmunli qilish, talablarning bilim qobiliyatini o‘stiruvchi asosiy ma’lumotlar berilgan.*

Аннотация. *В данной статье проведен психолингвистический анализ текстов в «Академическом письме» и письменной речи студентов по текстам обсуждаются роль в совершенствовании, развитии устной и письменной речи, методы привлечения их на занятиях. Приведена основная информация о том, как сделать образовательный процесс качественным и содержательным, повысить требования к знаниям.*

Annotation. *In this article, the psycholinguistic analysis of the texts in the subject “Academic writing” and the students’ written speech of the texts the role in improvement, the development of oral and written speech, and the methods of involving them in classes are discussed. Basic information on making the educational process high-quality and meaningful, increasing the knowledge of the requirements is provided.*

Kalit so‘zlar: *matn, til va nutq, psixolingvistik yondashuv, texnika, mexanizm, tafakkur so‘zlovchi va tinglovchi, nutqni anglash.*

Ключевые слова: *текст, язык и речь, психолингвистический подход, методика, механизм, мышление говорящего и слушающего, понимание речи.*

Key words: *text, language and speech, psycholinguistic approach, technique, mechanism, thinking speaker and listener, speech understanding.*

Matnlarni tahlil qilish hozirgi kunga kelib keng tarqaldi. Talabalarning “Akademik yozuv” faniga oid matnlarni psixolingvistik aspektda tahlil qilish orqali lingvistik bilimlarini oshirish hamda og‘zaki va yozma nutqlarini takomillashtirish asosiy vazifalardan biridir. Matn yaratilishining asosi real vaziyatlardan tashqarida bo‘lishi, mualliflarning matn ortidagi vaziyatlarga turlicha munosabatini aks ettirishi mumkin. Badiiy matn til yordamida borliqni aks ettiradi. “Badiiy matn borliqni va harakatlanuvchi, fikrlovchi, his qiluvchi insonni uni o‘rab turgan muhiti bilan birga tasvirlaydi”. Hozirgi zamon psixolingvistikasi uchun Boduen de Kurtene qarashlarining eng muhim tomoni uning “nutq faoliyatidagi aniq qiymat odamdan ajratilgan til emas, balki odamdir” degan fikri edi.

“Havoda uchib yuruvchi qandaydir tillar emas, aksincha, til va tafakkurga ega bo‘lgan odamlar mavjud”. Shu bilan birga, u tilda individuallik bilan umumiylikning ajralmasligini, individual xususiyatda bir vaqtning o‘zida umumiy umuminsoniylik mavjud ekanligini bayon qiladi. U insoniyat ijtimoiy guruhlar majmuasi ekanligini e’tirof etadi. Til tizimi tilshunoslar tomonidan til materialidan chiqarib yuboriladi. Nutqiy faoliyat ham til materialini ishlab chiqaradi, ham til tizimiga o‘zgartish kiritadi. Shu bilan birga, til hodisalarining barcha uch jihati bir-biri bilan chambarchas bog‘langan”.[1]

Psixolingvistikaga qiziqish bildirgan tilshunoslarning maxsus adabiyotlar bilan tanishish jarayonida o‘ziga xos psixik to‘siqlarga duch kelishi, tabiiy. Chunki muayyan “ilmiy paradigma” doirasida “tarbiyalangan” tilshunosning boshqa “ilmiy paradigma”ga kirishi, yangi terminologiya, tushunchalar, materiallar va noan’anaviy vazifalarni qabul qilishi qiyin kechadi. Shunda tilshunos o‘zi uchun qulay bo‘lgan yondashuvdan kelib chiqqan holda shunday xulosaga keladi: “Psixolingvistika shug‘ullanadigan masalalar juda qiziqarli bo‘lishi mumkin. Lekin bu tilshunoslik emas!” Bu o‘rinda psixolingvist L.V. Saxarniy tomonidan qayd qilingan zamonaviy nazariy tilshunoslikning quyidagi ziddiyatini keltirish o‘rinli bo‘ladi: “Tilshunos tilni kishilarning aloqa qilishi va fikrlash vositasi ekanligini e’lon qiladi, biroq tilni tadqiq etishda til egalarining, umuman, keragi bo‘lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikning ziddiyati shundaki, inson tilini o‘rganayotgan tilshunoslik insonsiz ish ko‘radi”.[2.] Til tizimli bo‘lganligi sababli yozma nutq muayyan vaziyatda ma’lum vositalarni tanlaydi. Bu tilning aloqa jarayo-nidagi oddiy qo‘llanish emas.

Bugungi kunda ko‘plab tadqiqotchilar XXI asrni fanlar integratsiyasi asri deb hisoblamoqdalar. Muayyan obyekt mohiyatini yoritishda fanlararo hamkorlik o‘z natijalarini bermoqda. Bu kabi yondashuvdan murakkab mavjudot bo‘lgan shaxs fenomenining nutqiy faoliyatini tadqiq etishda ham foydalanish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Zero, inson nutqi uning o‘zi kabi murakkab va ko‘p qirrali hodisa hisoblanadi. Bu borada tilshunoslik sohalarining hamkorligi o‘z samaralarini berishi shubhasizdir. Aytish lozimki, XXI asrning dastlabki yillarida o‘zbek tilshunosligida matn lingvistikasi yo‘nalishida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi: matn lingvopoetikasi, mazmuniy persepsiyasi, uning pragmatik, derivatsion va psixolingvistik xususiyatlari, matn modalligi va temporalligi haqida monografik aspektdagi ishlar yuzaga keldi. Tilshunos olim N.A.Arutunova ta’biri bilan aytganda, “...bir maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy faoliyat turi, kishilarning o‘zaro munosabatlarida va ular ongining mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)da qatnashuvchi nutq; voqelik bilan munosabatda olingan matn” muammosini hamda lisoniy ta fakkur egasi bo‘lgan shaxs faoliyatini o‘zaro aloqadorlikda tadqiq etish o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik tahlil tamoyillarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, matnni uning yuzaga kelishi, idrok etilishi va tushunilishi nuqtayi nazaridan o‘rgani sh matn haqidagi nazariy qarashlarni yanada chuqurlashtiradi. Diskursiv faoliyat egasi bo‘lgan shaxs intellekti va fikrlash tarzining matn shakliga kirish jarayoni mexanizmlarini tadqiq etish esa tafakkur modellarining o‘zbek tilidagi in’ikosiga xos xususiyatlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi. Psixologik yo‘nalish vakillarining bevosita jonli nutqqa e’tibor qaratishlarida ham V. fon Humboldtning ta’siri kuzatiladi. V.fon Humboldt til va nutqni farqlagan holda, jonli nutqni o‘rganish jarayonida, garchi ma’lum bir til vakillari bir umumiy tilda gaplashsalar ham, ular, ayni paytda o‘z tillariga egadir, degan xulosaga keladi. Shuning uchun joni nutqni va ayrim paytda, individlar nutqini o‘rganish lozim, degan g‘oyani olg‘a tashlaydi. Psixolingvist psixolog sifatida personajlarning ruhiy holatlarini tahlil qilish bilan birgalikda, ana shu holatni yuzaga keltirgan lingvistik faktorlarga asosiy e’tibor qaratishi lozim bo‘ladi. Murakkab olam manzarasini ixcham matnga joylashtirishning eng samarali usuli modellashtirishdir. Modellashtirish metodi masal janrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Yozish motivatsiyasi bolada og‘zaki nutqning motivlaridan farqli ravishda keyinchalik paydo bo‘ladi.[3]

Yozma nutq og‘zaki nutqdan farqlanuvchi o‘ziga xos qurilshga va uslubiy sifatga ega. Uning turli ko‘rinishlari ijtimoiy (ekstralingvistik) omillar: nutqning maqsadi, vazifasi, aloqa sohasi sharoiti, ifoda mazmunining hamda fikrlash tarzining o‘ziga xosligi kabi omillar bilan belgilanadi. Bu jihatdan u faol tadrijiy jarayon hisoblanadi. Til vositalarining ishlatilishi, jamiyat a’zolarining faoliyati sohalarida tildan foydalanish xususiyatlariga ko‘ra, bir-biridan farqlanadi. Umumiy olganda Turli faoliyat sohalari va ularga mos nutqiy aloqa sohalaming mavjudligi ulaming har bin uchun xos bolgan ichki kommunikativ umumiylik darajasining mavjudligini, ichki aloqaviy esa kommunikativ umumiylikning tabiiy doirasi bu milliy til tizimi hisoblanadi: bu umumiylikning darajalanishi yozma nutqning xilma-xil ko‘rinishi va shakl-

[1] Глухов В.П. Основы психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов, М., “Астрель”, 2008, с. 15.
[2] Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. Л., изд-во Ленинградского ун-та, 1989, с. 6.
[3] Xudaybergenova G. “Eksperimental psixologiya” bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmuasi, Nukus, 2012.

larda bo‘lishini ko‘rsatadi. Til tarixan o‘zgaruvchan. Lekin og‘zaki nutq va yozma nutq yanada o‘zgaruvchandir. Tildagi barcha o‘zgarishlar dastlab og‘zaki nutqda, so‘ngra yozma nutqda yuz beradi. Yozish malakasini egallashning dastlabki bosqichlarida har bir alohida operatsiya – yoziladigan tovushni tahlil qilish, har bir harfni topish, bu harfni yozish – alohida, mustaqil ongli harakatdir. So‘z yozish bola uchun bir qator vazifalarga – harf bilan belgilanishi kerak bo‘lgan tovushni ajratish, shu zarur harfni eslab qolish, uni to‘g‘ri tasvirlash kabilarga bo‘linadi. Bundan tashqari, hatto har bir harfning imlosi ham boshida alohida harakatlar qatoriga ajratiladi. Harflarni tashkil etuvchi alohida elementlarni yozish, o‘qish va yozishni o‘rganishni boshlagan o‘quvchi har bir harf elementining to‘g‘ri yozilishi uchun qayg‘uradi. Y.V. Guryanovning tadqiqotida ko‘rsatilishicha, mana shunday alohida ongli harakatlarning kombinatsiyasi butun harfni yozishga olib keladi. Malakaning rivojlanib borishi bilan yozuvning psixologik tuzilishi o‘zgaradi.

Xulosa. Akademik yozuv faniga oid matnlarning psixolingvistik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida turli metofdlar orqali amalga oshiriladi. Bir xil matnni tushunish turli xil shaklda amalga oshadi. Ayni matnning qabul qilinishidagi variantlilikni qator psixologik sabablar bilan izohlash mumkin. Bunga birinchi galda shaxsning motivatsion, kognitiv va emotsional sferasini, ya’ni, kishining mazkur matnga murojaat qilishga undagan ehtiyojlari, motiv va maqsadlari, matnni qabul qilish vaqtidagi emotsional holati, xabarni qabul qilishdagi diqqatining jamlash darajasi va hokazoni kiritish mumkin. Shuningdek, matnni anglashda individ, albatta, o‘zining dunyo haqidagi bilimlariga, tasavvurlariga suyanadi.

Abuzalova Mehriniso Kadirovna (BuxDU O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori, f.f.d.),
Radjabova Dilnoza Anvarovna (BuxDU mustaqil tadqiqotchisi, TATU katta o‘qituvchisi)

XREMATONIMLAR ONOMASTIKA FANINING ASOSIY BIRLIGI SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada qimmatbaho tosh va ma’dan nomlari shakllanishining ayrim nominatsion-motivatsion, semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Bu, o‘z navbatida, mineralogiya soha leksikasining taraqqiy etishi, mazkur sohaning alohida terminosistemasida faol qo‘llaniladigan qimmatbaho tosh va ma’dan nomlari tizimini ilmiy jihatdan atroflicha tadqiq qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.*

Аннотация. *В статье анализируются некоторые номинативно-мотивационные, семантические особенности образования названий драгоценных камней и минералов. Это, в свою очередь, является развитием лексики области минералогии, уникальной для этой области. Это создает потребность в научном исследовании системы наименований драгоценных камней и минералов, которая активно используется в терминосистеме.*

Annotation. *The article analyzes some nominative-motivational, semantic features of the formation of the names of precious stones and minerals. This, in turn, is the development of a mineralogy vocabulary that is unique to this area. This creates a need for a scientific study of the system of names of precious stones and minerals, which is actively used in the terminological system.*

Kalit so‘zlar*: xrematonim, qimmatbaho tosh, ma’dan nomlari, nominatsion-motivatsion, semantik xususiyatlar, mineralogiya, soha leksikasi, terminosistema, onomasiologiya.*

Ключевые слова: *хрематоним, драгоценный камень, названия минералов, номинативно-мотивационные, семантические признаки, минералогия, отраслевая лексика, терминология, ономасиология.*

Key words: *chrematonym, precious stone, names of minerals, nominative-motivational, semantic features, mineralogy, sectoral vocabulary, terminology, onomasiology.*

Biz kundalik hayotda har kuni atoqli otlarga duch kelamiz. Atoqli otlar insonlarni, geografik va kosmik jismlarni, hayvonlar, ma’naviy va moddiy madaniyatning turli obyektlarini nomlash uchun xizmat qiladi. Atoqli otlarning funksional va lingvistik o‘ziga xosligi tilshunoslikning alohida bo‘limi–onomastikaning shakllanishiga olib keldi. Atoqli otlarning qiziqarli jihati shundaki, ularda lingvistik va ekstralingvistik omillar eng yaqin aloqada bo‘ladi.

O‘zbek tilshunos olimi B.Yo‘ldoshev fikriga ko‘ra, har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi onomastika bo‘lib, tilshunoslik sohalari ichida nihoyatda qimmatli tadqiqot sohasi hisoblanadi. Onomastika fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi [3.12].

Onomastika fani atoqli otlarning mohiyati, ularning funksional o‘ziga xosligi, kelib chiqishi, rivojlanishi, tilning barcha darajalari bilan bog‘liqligini o‘rganadi. Shuningdek, bu soha onomastika fanining amaliy va nazariy ahamiyati, uning boshqa fanlar bilan aloqalarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Ono-

mastika tarixiy, geografik, etnografik, madaniy, sotsiologik komponentlarni o‘z ichiga oladi, gumanitar fanlar, yer va koinot fanlari majmuasi bilan chambarchas bog‘liq.

Onomastika sohasi bo‘yicha bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O.H.Vostokov, Y.K.Grot, A.M.Selishchev, A.I.Sobolevskiylar tilshunoslikning bu bo‘limi haqida qiziqarli tadqiqot ishlarini nashr etishgan. Biroq, onomastikaning zamonaviy shaklda vujudga kelishi va uning tilshunoslikning eng rivojlangan sohalardan biriga aylanishi XX asrning 50–60-yillariga to‘g‘ri keladi. O‘tgan asrning 70-yillarida rus olimlaridan A.A.Beletskiy, A.V.Superanskaya, V.A.Nikonova, Y.A. Karpenko va boshqalar onomastika sohasini tadqiq etishgan.

Oxirgi yillarda o‘zbek tilshunosligining alohida bo‘limi bo‘lgan “Onomastika” (“Nomshunoslik”)-da ham talab va zaruriyat sabab yangi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va bu sohada ancha yutuqlarga erishildi. O‘zbek onomastikasi fani, uning tarkibiy qismlarining rivojlanishida H.Hasanov, B.Ahmedov, S.Qorayev, E.Begmatov, T.Enazarov, N.Husanov, T.Nafasov, T.Rahmatov, N.Uluqov, O.Begimov, N. Begaliyev, A.Turobov kabi olimlarning hissasi katta. Biroq, onomastika sohasida amalga oshirilgan yirik ilmiy va amaliy ishlarga qaramasdan, o‘z tadqiqini kutayotgan bir qator masalalar mavjud. Shu kunga qadar o‘zbek onomastikasida xrematonimlar, mifonimlar, gemeronim, faleronimlar, geonim, dokumentonimlar, oronim, patronom, digtonim, ergonimlar kabi bir qator onomastik birliklar maxsus to‘planmagan yoki kam tahlil qilingan. Bunday onomastik birliklarni tadqiq etish o‘zbek nomshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir [7.300].

Rus tilshunosligida A.V.Superanskaya onomastik birliklarni o‘rganilayotgan obyektiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi tarmoqlarga ajratadi va ularni quyidagicha izohlaydi:

– antroponimlar (shaxs nomi);
– zoonimlar (hayvon nomi);
– toponimlar (geografik joy nomi);
– xronimlar (tarixiy zamon va davrlar nomlari);
– xrematonimlar (qimmatbaho tosh, qurollarning nomlari);
– fitonimlar (o‘simlik nomlari).

Shuningdek, boshqa tilshunos olimlarning tadqiqot ishlarida onomastikaning:

– etnonimlar (xalq va qabila nomlari);
– karabonimlar (kema, qayiq nomlari);
– pragmatonimlar (odamlar amaliy faoliyati natijalari va tovar nomlari)ni kiritishadi;
– teonimlar (turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar nomlari);
– kosmonimlar (fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktika, burj nomlari);
– realionimlar (avval va hozir mavjud bo‘lgan obyektlarning nomlari);
– mifonimlar (to‘qima obyektlarning nomlari) kabi bo‘limlarini uchratish mumkin.

Xrematonimlar onomastikaning eng qiziqarli bo‘limlaridan biri bo‘lib, tilshunoslikning ushbu sohasi moddiy madaniyat obyektlari (qimmatbaho toshlar, ma’danlar, qurollar, musiqa asboblari)ga berilgan nomlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

“Xrematonim” atamasi turlicha talqin etiladi. Chex filologi Milan Garvalikning ta’kidlashicha, slavyan onomastik terminologiyasida bu “ma’lum bir hududga bog‘liq bo‘lmagan, inson tomonidan yaratilgan narsaning nomi” deb ta’riflanadi [2.8].

Ingliz filologi A.Rum (Room. 2006) xrematonimlarni «ma’lum bir qiymatga ega bo‘lgan yagona madaniy obyektlar» (unique cultural objects of value) deb ta’riflaydi.

Olim V.D.Bondaletov xrematonimlar tarkibiga moddiy madaniyat buyumlari nomlari, fan va texnika obyektlarining nomlari (musiqa asboblari, qimmatbaho tosh, zargarlik buyumlari, paroxodlar, kosmik kemalar), shuningdek, ma’naviy madaniyat asarlari nomlari (kitoblar, jurnallar, musiqiy dasturlar va boshqalar)ni kiritadi [1.224].

A.V.Superanskayaning onimlarga bergan tasnifi tilshunoslikda yaxshi ma’lum bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, xrematonimlar qurol nomlari, idishlar, qimmatbaho tosh va zargarlik buyumlari, musiqa asboblari nomlari va boshqalarni o‘rganadi [5.368].

Tilshunos olim N.V.Podolskaya o‘zining “Rus onomastik atamalari lug‘ati”da atoqli otlarni tasnif qilar ekan, xrematonimlarni (grekcha narsa, buyum+onim narsalarning nomlanishi) pragmatonimlar tarkibiga kiritadi [4.196].

Xrematonimlar – moddiy madaniyat predmetining nomini, shu jumladan, qurol, musiqa asbobi, zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, idishlar nomini, korxona, muassasa, tashkilotlar, tarixiy voqealar, bayramlar, matbuot organlari, adabiyot va san’at asarlari, poezdlar, teatrlar, do‘konlarni nomlaydigan

onimlar bo‘limidir. Bu ma’lum bir (moddiy yoki intellektual) qiymatga ega bo‘lgan, inson tomonidan yaratilgan yagona madaniy obyektning atoqli nomi. Ba’zi bir tadqiqotchilarning asarlarida onimlarning bu guruhini tasvirlashda “ktematonim” atamasi ishlatiladi. (yunon tilidan ktematos – “mulk, boylik”).

E.Xofman va boshqa bir qator olimlar onomastikaning xrematonim bo‘limiga alohida e’tibor berib, uni onomastikaning eng samarali bo‘limlaridan biri deb hisoblashadi. Ularning fikricha, xrematonimlar yangi nomlarni shakllantirish va ulardan keyinchalik foydalanish uchun til vositalarini jalb qilish bo‘yicha ajralib turadi [6.93].

Qizig‘i shundaki, mazkur sohaning dastlabki rivoji Abu Rayhon Beruniy nomi bilan bog‘liq. Uning qalamiga mansub «Mineralogiya» asari Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropada shu soha bo‘yicha eng nodir manba hisoblanadi. Beruniy bu asarni Hindiston va Afg‘onistonda yashagan davrida yozgan. «Mineralogiya» asarida 30 dan ziyod qimmatbaho tosh, metall, ma’dan nomlarining har tomonlama tavsifini bergan va izohlash jarayoniga qarab, mumtoz shoirlarining qimmatbaho tosh va metall, ma’dan nomlari haqida yozilgan she’rlaridan parchalar ham keltirgan. She’riy misralar badiiyatini ko‘tarishda foydalanganligini izohlab o‘tgan. “Beruniyning bu asarida minerallar va ma’danlarning o‘z davridagi narx-navosi, ba’zilarining shifobaxshlik xususiyatlari, nodir tosh va metallar bilan bog‘liq ayrim qiziqarli etnografik ma’lumotlarni bayon etganki, bular mazkur kitobning muhim tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi”, deya ta’kidlaydi F.Ro‘ziyeva [9].

Xrematonimlar tarix fani bilan uzviy bog‘liq. Moddiy madaniyatga tegishli har bir jism yoki narsa nomining tarixi tarixshunos olimlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u jamiyat hayotining tarixiy,etnik, geografik va boshqa qatlamlariga ta’sir qiladi. Ko‘pincha, ularning tarixi dalillarga va taxminlarga asoslanadi. Misol uchun, “Orlov” olmosi tarixiga nazar solaylik. Hind podshohi taxtidan g‘oyib bo‘lgan olmos Yevropadagi bozorlardan birida “paydo bo‘ladi” va uni Yekaterina II ning sevimli grafi Orlov sotib oladi. Olmos Yekatirina II ga sovg‘a qilinadi. Keyinchalik, bu olmos Orlov nomi bilan atala boshlanadi.

Yana bir misolga murojaat etaylik. Manbalarda yozilicha, ”Kohinor” yoki “Kohinur” nomli olmos bir vaqtlar dunyodagi eng katta va qimmatbaho tosh bo‘lgan. ”Kohinor” fors tilidan “yorug‘lik tog‘i” deb tarjima qilinadi. Dastlab, uning egalari Hindiston hukmdorlari bo‘lib, bugungi kunda bu olmos Britaniya qirollik oilasining qimmatbaho tojining bir qismiga aylangan. Bu olmos ilk marta XII asr yilnomalarida qayd etilgan, keyin esa 1526-yilda u buyuk mo‘g‘ullar xazinalarida qayd etilgan. Olmos o‘zining hozirgi nomini 1739-yilda Hindistonning bo‘lajak hukmdori fors shohi Nodir qo‘liga tushganidan keyin oldi. Kohinor 1849-yilda Sharqiy Hindiston kompaniyasining mulkiga aylanishidan oldin, Panjobda ham, Af-g‘onistonda ham bo‘lgan. Keyin olmos buyuk Britaniya qirolichasi Viktoriyaga sovg‘a qilingan [8].

“Yorug‘lik tog‘i”ga Bobur “Tamomi olamning ikki yarim kunlik sarfiga barobar” perifrazasini ishlatgan bo‘lsa, Boburiylar bu olmosni “Boburiylar olmosi” deb atashgan, o‘z davrida Nodirshoh Ko‘hinurni “Agar bir odam beshta tosh olib, birini sharqqa, birini g‘arbga, birini shimolga, birini janubga va beshinchisini osmonga otib, toshlar yetgan manzil oralig‘ini oltin, marvaridlar bilan to‘ldirsa, ko‘hinur qiymatiga teng boylik bo‘ladi” deya ta’riflab mubolag‘alashtirgan. Ko‘rinib turibdiki, olmos qadrlangani uchun qayta-qayta badiiy nomlanavergan.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, atoqli otlar tabiat va jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga tezda munosabat bildiradi, shu sababli atoqli otlar matnlar, tarixiy va arxeologik joylarning xronologizatori bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Atoqli otlar tilning o‘zlari yaratilgan davrdagi qadimgi holatini saqlab qoladilar va faqat lingvistik usullar bilan olinishi mumkin bo‘lgan til doirasidagi va tildan tashqari ma’lumotlarni o‘z ichiga oladilar. Xrematonimlar tarixiy dalillarni qo‘llash orqali atoqli otlarni tahlil qiladi va bu dalillardan tadqiqot uchun qimmatli ma’lumot manbayi sifatida foydalanadi. Umuman olganda, xrematonimlar guruhiga mansub qimmatbaho tosh va ma’dan nomlari, atamalarda mavjud semantik mu-nosabatlar, uni kashf etgan kishilar nomi bilan atalishi, turli xossalariga ko‘ra nomlanishlari, grammatik tarkibini qardosh bo‘lmagan tillar kesimida tadqiq etish o‘zining yechimini kutayotgan hamda sohalararo fan rivoji uchun xizmat qiladigan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бондалетов В.Д. Русская ономастика. Учебное пособие для студентов пед. ин-тов, М., “Просвещение”, 1983, с. 224.

2. Гарвалик М. К вопросу о современной ономастической терминологии. “Вопросы ономостики”, № 4, 2007.

3. Yo‘ldoshev B. “O‘zbek onomastikasi masalalari” tanlanma fanidan uslubiy qo‘llanma. Samarqand, 2011, 12-bet.
4. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. М., “Наука”, 1988, с. 196.
5. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. Отв. ред. А.А.Реформатский. Изд. 3-е, испр. М., Книжный дом «Либроком», 2009, с. 368.
6. Хоффман Э. Имена политических событий и их онимизация в средствах массовой информации (электронный ресурс). “Вопросы ономастики”, № 5, 2008.
7. Xusanova M.N. Sodda dignitonim va ularning izohli tahlili. “So‘z san’ati” xalqaro jurnali, 4-jild, 4-son, T., 2021, 300-bet.
8. https://sunlight.net/wiki/chem-izvesten-kamen-kohinor.html
9.https://einfolib.uz/index.php/2020/09/30/berunij-asarlarining-bibliografik-talqini/

Sarimsokov Sirojiddin Shoyzoqovich (Samarqand davlat
Chet tillar instituti katta o‘qituvchisi; sarimsokovsirojiddin@gmail.com)

PUBLITSISTIK MATNDA ASPEKTUAL HODISALARNING PRAGMATIK VAZIFALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matn tarkibida aspektual semantik voqea-hodisalar ketma-ketligini vaqtga, zamonga nisbatan bir butun voqelikni bog‘lagan holda o‘rganiladi. Shu bois so‘zlovchilarning maqsadli xatti-harakatlari so‘zlovchi va tinglovchilar tomonidan almashtirilgani aniq yoki yashirin ma’-lumotlarning barchasi lingvistik shakllarga ega bo‘lib, ulardan foydalanish usullarini tahlil qilish uchun juda muhimdir. Bu matndagi fe’llarni aspektual semantikasini o‘rganishda muloqotning o‘zaro ta’siri ta-moyillarini, so‘zlashuv va an’anaviy imo-ishora qoidalarini, turli xil so‘zlar bilan ifodalangan nuqtayi nazarni va boshqalarni hisobga olishni talab qiladi.*

Аннотация. *В данной статье изучается аспектуально-смысловая последовательность событий в тексте, связывающая всю действительность по отношению ко времени. Таким образом, явная или неявная информация о том, что говорящий и слушатели обмениваются предполагаемыми действиями говорящих, имеет языковые формы и очень важна для анализа способов их использования. При изучении аспектуальная семантики глаголов в тексте необходимо учитывать принципы коммуникативного взаимодействия, правила речи и традиционных жестов, точку зрения, выражаемую разными словами и другие.*

Annotation. *This article studies the aspectual semantic sequence of events in the text, linking the entire reality in relation to time. Thus, explicit or implicit information that the speaker and listeners are exchanging the expected actions of the speakers has linguistic forms and is very important for the analysis of the ways of their use. When studying the aspectual semantics of verbs in a text, it is necessary to take into account the principles of communicative interaction, the rules of speech and traditional gestures, the point of view expressed by different words, and others.*

Kalit so‘zlar: *aspektualizator, lingvistik birliklar, matn, presuppozitsiya, pragmatik tahlil.*

Ключевые слова: *аспектуализатор, языковые единицы, текст, пресуппозиция, прагматический анализ.*

Key words: *aspectualizer, linguistic units, presupposition, text, pragmatic analysis.*

Matnda gapning tashqi tuzilishi tahlili doirasida qator qurilmalarning sintaktik va grammatik tarkiblanishi muhim omil sifatida qaraladi. Matndagi alohida birliklar tahliliga pragmatik yondashuv har qanday lingvistik birliklarni vazifaviy o‘rni, mazmunan qo‘llanilishi, uning maqsadiga ko‘ra lingvistik birliklarning muloqot matnidagi faollashuvini tushuntirishga qaratiladi. Turli xil jumlalar, matnlar nutqning shaxslararo munosabatlarini ta’minlovchi vositalar sirasiga kiradi. Ushbu jumla va matn tushunchasi turli xil tilshunoslar tomonidan turlicha talqin etib kelingan. Ularning ba’zilari mantiqiy yondashuvni afzal ko‘rishsa, boshqalari struktur jihatdan baholashadi. Shuning uchun tilni tahlil qilishda muntazam qo‘llaniladigan tahlil usullaridan foydalanishning samarali tomonlari isbotlangan. Ushbu usullar sirasiga predikatlarni semantik ifodalanish variantlarini aniqlash, ular orasidagi nozik tafovutlarni ajratish juda samarali natijalar berishi isbotlangan. Bunda matnlarda ifodalanadigan voqeliklarning aspektual semantikasini farqlash, ushbu semantik farqlarni ta’minlovchi birliklarni ajratish, ularning matn mazmuni bog‘liqligini ta’minlovchi jihatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Gap shundaki, ma’lum lingvistik birliklar ifodalanadigan to‘liq ma’noga ko‘makchi vazifasini bajarsa, boshqalari matn uzviyligini ta’minlovchi vositalar sifatida ishtirok etadi, ba’zilari esa presuppozitsiya vazifasini bajaradi. Ayrim lisoniy unsurlar, ya’ni, aspektual ma’noni ta’minlovchi birliklar alohida tahlilga tortilish muhimligini ko‘rsatadi. Bu esa qo‘llaniladigan har bir so‘z predikat semantikasiga, matn

bog‘liqligiga ta’sir etadigan natijalarga olib keladi. Ifodalangan mazmun, semantik jihatdan davomiylik, rivojlanish, boshlanish, yakun kabilarga e’tibor qaratilsa, pragmatik nuqtai nazardan ifodalanadigan voqea-hodisalarning bog‘liqligini ta’minlovchi lisoniy vositalar belgilanadi. Nutqda so‘zlovchi tomonidan yetkazilgan xabar va tinglovchi tomonidan o‘rganilgan ma’lumotlarga qaraganda, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan ilgari surilgan bilim sifatida qaralishi mumkin. Qo‘llanilgan har bir ibora, lisoniy birliklarning har bir gapga mos tarzda tanlanishi matn semantikasini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, semantik tushuncha yoki pragmatik tushuncha sifatida, mantiqiy shakllarni tahlil qilish vositasi sifatida yoki tilda qo‘llaniladigan turli xil jumlalarida ifodalangan mazmunni bog‘lovchi lisoniy birliklarni aniqlashda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan vositalar borasida juda ko‘p munozaralar mavjud. Ba’zilar jumlalarni (“ideallashgan tuzilmalar”) tabiiy ravishda paydo bo‘lgan nutqning asosini tashkil qiladi [Langacker. 1999] degan taxminlarni ilgari surishsa, ikkinchi guruh matnni tahlil qilish uchun barcha til vositalari mos keladi, degan fikrda [Prince. 1978]. Shuningdek, og‘zaki va yozma nutq tahlili borasida haligacha kelishmovchiliklar mavjud. Bu qisman jumlalarning rasmiy yoki mantiqiy tuzilmalar tashkil qilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ushbu nutqdagi so‘zlarni ifodalash usullari bilan bog‘liqligi nazarda tutiladi.

So‘zlovchining maqsadi va ushbu maqsadni tinglovchilar tomonidan qabul qilingan ma’nolari pragmatik jihatdan belgilanadi. Bu muayyan maqsadlarni yetkazish usullari haqidagi umumlashmalarni pragmatik tahlil qilish bilan aniqlash keng tarqalgan. Ammo ma’lum tushunchalar tahlili o‘zaro bog‘liq holda olib borilishi lingvistik jihatdan qo‘yilgan maqsad va yo‘nalishlarga bevosita bog‘liqdir [Morgan. 1977, 278]. Gapning qo‘llanilishida kontekst va implikatura haqida gapirish mantiqan to‘g‘ri keladi. Lekin ma’lum jumlalarning kontekstga ta’siri borasida gapirishda implikatura ma’nosi aniq emasligi ko‘zga tashlanadi. Gapning presuppozitsiyasi va moslashishini aniq tasvirlash uchun butun paragraf mazmuni e’tiborga olinishi zarur bo‘ladi. Bunda presuppozitsiya vazifasida qo‘llanilgan jumla yoki gapning keyingi gapga ta’siri, har birining mazmunan bog‘lanishi va oxir oqibat tugallangan matn sifatida baholash nazarda tutiladi. Xususan, Keenan mazkur presuppozitsiya vazifasidagi gaplarni aspektualizatorlar atamasi bilan nomlaydi [Keenan. 1971]. Har bir lavhada aspektualizatorlarning vazifalari aniq voqelikni ifodalashini nazarda tutadi. Aspektualizatorlar sifatida baholanadigan gaplar bevosita verbal operatorlar mazmuni bilan bog‘liq sanaladi. Ta’kidlash joizki, presuppozitsion fe’llar bilan qo‘llanilgan gaplar voqea-hodisa borasidagi aniq temporal dalillarga ega bo‘lishadi. G‘.Mirsanovning ta’kidlashicha, axborotda beriladigan ma’lumotlar voqea-hodisalar jarayonlarini ifodalashda ma’lum til tzimiga asoslangan holda voqelanadi. Bu esa grammatik, leksik tanlovlarning uyg‘unligini ta’minlashni taqoza etadi. Ushbu uyg‘unlik matndagi aspektual ma’lumotlarni moslashuvini ta’minlash uchun xizmat qiladi [Mirsanov. 2018, 70–71]. Pragmatik jihatdan esa ushbu voqea-hodisalardagi temporal faktlarning bajarilishi, voqea-hodisalarning kishi tomonidan amalga oshirilishi muhim sanaladi.

Presuppozitsiya vazifasidagi gaplar turli tildagi ma’lumotlarni ifodalab kelishi mumkin. Bu ular har doim ham aspektualizator vazifasini bajaradi, degan g‘oyadan yiroqlikni ko‘rsatadi. Gap shundaki, ushbu fe’llar ma’lum kontekst doirasida yoki ularga qo‘shimchalar qo‘shilganda tahlilga tortilgan voqealar to‘g‘risida alohida vaqtinchalik faktlarni va ushbu voqealarni kim amalga oshirayotgani to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qamrab olishi mumkin. Bu kabi matn turli tildagi ma’lumotlarni qamrab olishi mumkin. Ma’lum kontekstda bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar aspektual mazmunga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Matn ushbu shakllarning turli xil voqea-hodisalarni ifodalashi bilan bog‘liq da’volar aniq tahlillar orqali amalga oshirilishi darkor. Buning uchun matndagi presuppozitsiyalar va oqibatlar xuddi shu matnda yuzaga keladigan aspektualizatorlardan boshqa narsalarga bog‘liq emasligini tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: Few writers have published and been damned with quite the ferocity Julie Myerson was back in 2009 for her memoir the lost child. The book, which included descriptions of her 17-year-old son Jake’s cannabis addiction and her painful decision to lock him out of the family home, was debated everywhere from Mumsnet to newspaper opinion pages –“a betrayal of motherhood itself”– and even the house of commons.

Extended family members were door stepped and Jake was approached by a tabloid to sell his story at a time when he was extremely vulnerable. “a little bit of me broke”, the novelist says, looking back. She was no longer able to drive, and certainly wasn’t able to do live radio or TV (she had been a regular commentator on the BBC’s News night Review). “It was terrible. My anxiety reached peaks that were just unmanageable. It was so shameful for me. I felt I had brought terrible things on my family through my work”. Now she has written another book about parents struggling with a teenager’s drug addiction. Narrated by a writer, it is called Nonfiction: A Novel. Why has she returned to a subject that left her so badly scalded? (The Guardian. 21.05.22. Saturday, 7).

Keltirilgan lavha publitsistik matnga tegishli bo‘lishi bilan bir qatorda narrativ mazmunga ega. Narrativ matnda “aspektual va temporal birliklar lavha tarkibidagi vaziyatlar ketma-ketligini tizimli tarkiblash” uchun xizmat qiladi [Mirsanov. 2018, 29]. Shunday ekan, ushbu lavhadagi have published, been damned predikatlari informativ mazmunga ega bo‘lib, asosiy voqea-hodisalarga nisbatan pretsuppozitsiya vazifasini bajargan. Lavhadagi was back, was debated predikatlari bir-biriga aloqador bo‘lgan voqea-hodisalarning zamonda voqealanishini ta’minlagan.

Jumladan, Keenan tilda ikki xil presuppozitsiya [Keenan. 1971, 51], mavjud deb ta’kidlaydi. Jumladan, muloqot jarayonida so‘zlovchi aldash niyatida gapirayotgan bo‘lsa yoki u hazil qilib gapirayotgan bo‘lsa, tinglovchidan uning so‘zlariga ishonish shart emasligini ta’kidlaydi. Ammo, shuni yodda tutish zarurki, bunday hollarda tinglovchi asoslarga ishonishi yoki ma’lumotlarni qabul qilishi kerak va so‘zlovchi hech bo‘lmaganda ularga ishongan yoki qabul qilgandek harakat qilishi kerak. Boshqa hollarda, Keenan noto‘g‘ri bo‘lgan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri mulohazalar chizig‘iga amal qilishiga ishonilmagan yoki “dalil uchun” presuppozitsiyalar qo‘llanilishini ta’kidlaydi [Keenan. 1971, 51]. Shunday qilib, qat’iy “haqiqat” yoki “e’tiqod” qabul qilinadigan bayonotlar uchun zarur ma’lumot vazifasini bajarishi mumkin.

Presuppozitsiyada so‘zlovchi tomonidan yetkazilayotgan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan jumlalarning dastlabkisi keyingi gaplar uchun kiritma yoki asosiy manba vazifasini o‘tashi nazarda tutiladi. Bunda keyingi ketma-ketlikdagi gaplar dastlabki faktlarni ifodalovchi jumladir. Bu "oldingi bilim" ga teng ishonilgan, qabul qilingan yoki haqiqiy va aytilishi kerak bo‘lgan hukm uchun mavjud (yoki mavjud deb hisoblangan) oldingi shartlardan farqlanishi kerak. Garchi bu noan’anaviy farq bo‘lsa-da, bu so‘zlovchi tomonidan ifodalanadigan ma’lumot borasidagi bilimini xarakterlovchi hodisa sifatida qaraladi. Bunda so‘zlovchi va tinglovchining axborot borasidagi bilimi qaysi so‘zning mos qabul qilinishi yoki mos emasligini belgilaydi. Masalan: The “we” he’s talking about is one of his firms, Cassava Technologies, which is based in London. Its subsidiary, Liquid Intelligent Technologies, has dug more than 60,000 miles of trenches alongside potholed highways and dust roads from South Africa through the whole of sub-Saharan Africa to Egypt. More than 10,000 African telecoms companies and large businesses in more than 20 countries rent bandwidth on the network, generating revenues of $800 million a year. Liquid is also the biggest data centre provider across Africa (The Sunday Times Magazine. May 22.2022).

Ushbu lavhadagi hes talking about, which is based predikatlari tarkiblangan presuppozitiv gap keyingi ma’lumotlarga nisbatan kirish so‘z vazifasini bajargan. Mazkur lavhada perfekt shakllarini ketmaket qo‘llanilishi aynan pretsuppozitsiyaning hozirgi zamonga tegishli qo‘llanilishi va shu ma’lumotga aloqador bo‘lgan hodisalar tasvirlanganligi bilan bog‘lash mumkin.

Bu yerda presuppozitsiya sifatida Its subsidiary axboroti qaraladi. Karttunen so‘zlovchi va tinglovchiga ma’lum bo‘lgan ushbu oldingi bilimlarni “umumiy taxminlar to‘plami” deb ataydi [Karttunen. 1975]. Ma’lum jumlalar matnda pretsuppozitsiya vazifasini bajaribgina qolmasdan aspektualizator vazifasini ham bajarishi mumkin. Bunda aspektualizatorlar sifatida matndagi voqea-hodisalar bog‘liqligini ta’minlovchi fe’l mazmuni bilan chambarchas bog‘liq sanaladi. Masalan: Geoff, the former head of Scottish Athletics, later said: “It was surreal watching him win gold. I was thinking: I know that guy. He has a familiar look”. If anyone wants to know about Jake‘s desire to win, they should just ask his identical twin brother Sam about what happened to his running spikes (The Times. Thursday July 21.2022, thetames. co.uk, № 73841).

Mazkur lavhadagi I was thinking gapi aspektualizator sifatida oldingi va keyingi voqea-hodisalarni bog‘lash uchun xizmat qilgan.

Matndagi ketma-ketlik ma’lum lingvistik tarkibga ega gaplardan tashkil topgan, mazmunan bog‘liq hodisa sanaladi. Boshqa o‘zaro bog‘liq tushunchalar bilan solishtirganda, matndagi ketma-ketlikning qo‘llanilishi odatda aspektual hodisalarga yaqinroqdir. Ammo presuppozitsiyada bo‘lgani kabi, aspektuallikda ham harakatlar, voqea-hodisalar ketma-ketligini ta’minlovchi leksik-grammatik vositalar bilan bir qatorda mazmun to‘liqligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga qaramay, ikkala lingvistik sathdagi foydalanish amaldagi masalalarni yoritishda qo‘l kelishi mumkin. Buning natijasi so‘zlovchi tomonidan yetkazilayotgan axborotlarning nutq momentiga aloqadorlik jihati ham pragmatik, ham aspektual presuppozitsiya asosiy manba vazifasini o‘tashi nazarda tutiladi. Bunda keyingi ketma-ketlikdagi gaplar dastlabki ta’siri matn mazmuni uzviyligida ko‘rib chiqish uchun mo‘ljallangan. Biroq aspektual jihatda presuppozitsiya grammatik vositalarning to‘g‘ri qo‘llanishi nuqtayi nazaridan baholanadi.

Gapni ataylab noo‘rin ishlatganda, ya’ni, presuppozitsiyalar suhbatdoshning oldingi bilimlariga mos kelmasa, agar maxsus ko‘rsatma bo‘lmasa, aksariyat ona tilida so‘zlashuvchilar bu so‘zni joylashtirishga va nima uchun maqbulligini tushuntirishga harakat qilishadi. Ushbu tadqiqot ushbu fe’llarni o‘z

ichiga olgan jumlalar orasida presuppozitsiya va natija munosabatlaridan olinishi mumkin bo‘lgan semantik faktlar bilan bir qatorda, aspektual vositalar bilan bog‘liq ba’zi sintaktik hodisalarni tahlilini yoritishga qaratiladi. Tahlil uchun markaziy bo‘lgan bir qator semantik xususiyatlar birlashib, aspektualizatorlarning ishlatilishini izchil tushuntirib beradi. Har xil fe’l muhokama qilinganda, u leksik-semantik guruhdagi boshqa har qanday fe’l bilan taqqoslanadi, bu, ayniqsa, ma’no jihatidan unga yaqin bo‘lgan fe’llar misolida keng amalga oshiriladi. Buning asosiy usullaridan biri bu o‘xshash matnda fe’llarning ma’no va mazmun xususiyatlarini taqqoslash sanaladi. Ba’zi hollarda, ma’lum bir matnda u yoki bu fe’lning ishlatilishi mumkin emasligi, odatda u bilan bog‘liq bo‘lgan lingvistik kontekst va oqibat munosabatlarining va ko‘rib chiqilayotgan muayyan matnning mos kelmasligi bilan bog‘liq. Umuman olganda, fe’l bilan bog‘liq bo‘lgan lisoniy vositalar va mazmunga va u sodir etgan kontekstga ko‘ra tavsiflanishi mumkin bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, matn tarkibida aspektual semantik voqea-hodisalar ketma-ketligini vaqtga, zamonga nisbatan bir butun voqelikni bog‘lashda muhim o‘rin tutadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, so‘zlovchilarning maqsadli xatti-harakatlari so‘zlovchi va tinglovchilar tomonidan almashtirilgani aniq yoki yashirin ma’lumotlarning barchasi lingvistik shakllarga ega bo‘lib, ulardan foydalanish usullarini tahlil qilish uchun juda muhimdir. Bunda faqat vaqtiga bog‘liq hodisalar nazarda tutilmasdan, harakat kechimiga ham e’tibor qaratiladi. Bu aspektual fe’llarni o‘rganishda muloqotning o‘zaro ta’siri tamoyillarini, so‘zlashuv va an’anaviy imo-ishora qoidalarini, turli xil so‘zlar bilan ifodalangan nuqtayi nazarni va boshqalarni hisobga olishni talab qiladi. Ehtimol, ulardan foydalanish ushbu fe’llarning semantikasiga oid masalalarni to‘liqroq yoritish imkoniyatini yaratadi.

Presuppozitsiya vazifasidagi gaplar turli tildagi ma’lumotlarni ifodalab kelishi mumkin. Bu ular har doim ham aspektualizator vazifasini bajaradi, degan g‘oyadan yiroq ekanligini ko‘rsatdi.

Matn tarkibidagi aspektual semantika voqea-hodisalar ketma-ketligini vaqtga, zamonga nisbatan bir butun voqelikni bog‘lashda muhim o‘rin tutishi ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirsanov G‘.Q. Diskurs tarkibida aspektual va temporallik mazmun ifodasi. Monografiya, T., “Navro‘z”, 2018, 156-bet.
2. Chomsky N. Lectures on government and binding. Dordrecht, Holland, Cinnaminson [N.J.], Foris Publications, 1981, 371 p.
3. Karttunen L. Presuppositions and Linguistic Context. Theoretical Linguistics 1. 1974, p. 181 – 194.
4. Keenan E. Two kinds of presupposition in natural language. Studies in Linguistic Semantics. Reinhart and Winston, New York, 1971, p. 45 – 54.
5. Langacker R.W. Grammar and conceptualization. Berlin, New York, 1999, p. 67 – 92.
6. Morgan J.L. Conversational Postulates Revisited. Language, vol. 53, № 2, 1977, p. 277 – 284.
7. Nowak L. The Structure of Idealization: Towards a Systematic Interpretation of the Marxian Idea of Science. Springer, 1979, p. 284.
8. Prince E.F. A comparison of WH-clefts and it-clefts in discourse. Language 54. 1978, p. 883 – 906.
9. Prince E. The function of existential sentences in discourse. In Papers from the 14th Regional Meeting, Chicago Linguistic Society. University of Chicago. 1978, p. 362 – 376.

Sabirova Nasiba Ergashevna (filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, Xorazm viloyati PYMO‘MM Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri)

XIX–XX ASRLARDA XORAZM BAXSHICHILIK SAN’ATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so‘z baxshichilik san’atining so‘nggi taraqqiyoti haqida boradi. Shuningdek, o‘zbek dostonchiligining ildizlari juda qadimga borib taqalsa ham, uning muayyan sifat o‘zgarishiga uchrashi XIX–XX asrga kelib, yangi o‘zbek eposiga asos solinishi xususida ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, maqolada Muhammad Rahimxon I davrida dostonchilikning faolligini, baxshichilik san’ati rivojlanishining alohida bir bosqichga ko‘tarilganligini rus olimlarning tadqiqotlari asosida tahlil qilib o‘tilgan.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются последние достижения в искусстве бахши. Также отмечается, что корни узбекского дастанного творчества уходят в очень древние времена, в XIX–XX веках он претерпел определенные качественные изменения, и был основан новый узбекский эпос. В частности, в статье анализируется деятельность эпического творчества в период правления Мухаммада Рахимхана I, развитие искусства бахши до особого этапа на основе исследований российских ученых.*

Annotation. *This article is about the latest developments in the art of giving. It is also reported that although the roots of Uzbek epic poetry go back to ancient times, it underwent a certain qualitative change in the 19^{th}–20^{th} centuries, when a new Uzbek epic was founded. In particular, the article analyzes the activity of epic poetry in the time of Muhammad Rahimkhan I, the development of the art of bakhshi on a special stage on the basis of research by Russian scholars.*

Kalit so‘zlar: *baxshichilik san’ati, jirov-baxshi, qissa-doston, shoir, jirov, oqin, sannovchi, oxун, sozchi, baxshi kitobi.*

Ключевые слова: *искусство бахши, жиров-бахши, эпос, поэт, жырау, акин, плакальщик, ахун, музыкант, книга бахши.*

Key words: *the art of bakhshi, jirov-bakhshi, short story, poet, jirov, aqin, sannovchi, akhun, sozchi, Bakhshi book.*

Epos xalq ijodiyotida eng murakkab janr hisoblanadi. Shu sababli uni faqat professional ijrochigina kuylay oladi. Binobarin, dostonlar o‘z ijrochisi bilan tirikdir. Ularni xalqqa yetkazish baxshilar zimmasiga tushadi. Eposni kuylash, baxshilar ijrosi haqida yozma manbalar juda kam. Eposshunos To‘ra Mirzayevning ta’kidlashicha [1], Xorazm baxshichilik san’ati ildizlari ham juda qadimiylik kasb etadi. Ayrim tadqiqotlarda bu an’ananing miloddan avvalgi 6–5-asrlarda paydo bo‘lganligi qayd qilinadi [2]. Bu davrlarda, asosan, “Avesto”ning “Yasht” kitobidagi Xudolar va qahramonlarga bag‘ishlangan alqovlar, dostonlar kuylangan. X–XI asrlarga kelib Xorazm shohlar saroyida mashshoqlar, sozanda va go‘yandalar juda ko‘p bo‘lgan [3].

“Xorazm poytaxti Ko‘hna Urganch shahridagi ma’mur va obod zamonlarda Chingizxon harb qilmasdan burun bu shaharda sokin bo‘lg‘on odamlarning aksariyati musiqiyni o‘zlarina bir hunar va kasb ittixos qilg‘onlar. Muning orqasida o‘z oilalarining o‘ngishiqlarini ta’min etgandurlar. Hatto mazkur asarlarning mubolag‘a bilan ko‘rsatganlariga qaraganda yolg‘iz Ko‘hna Urganch shahrinda dutor sozina eshak (harrak) yo‘nib sotib o‘ngishiqlarini shul hunarlari birla o‘tkaradurg‘on kishilarning miqdori bir mingga yetishdi” [4].

Ushbu satrlar rivoyatga o‘xshab ketsa-da, uning zamirida katta haqiqat yotadi. San’at rivojlangan joyda adabiyot, shu jumladan dostonchilik ham taraqqiy etadi. Albatta Xorazm san’ati Chingiz bosqinidan so‘ng tushkunlikka yuz tutdi. Muhammad Rahimxon I davriga kelib, saroyda maqomchilar, mashshoqlarni to‘plash an’anasi davom etdi. Saroyda Niyozjon xo‘ja, Mahdumjon qozi, Muhammadjon Sandiqchi degan maqom ustalari yetishib chiqdi [5]. O‘sha davrdan boshlab xon saroyida baxshi saqlash an’anasi yana davom etdi.

1819-yilda Xivaga rus zobiti N.N.Muravyev tashrif buyuradi. Xon saroyidagi baxshilar ijrosi bilan tanishadi. U baxshilar shaxsi haqida konkret ma’lumot bermasa-da, ularning ijrosi haqida ba’zi bir mulohazalarni bildirgan. Jumladan, u baxshilar haqida shunday yozadi: “Kuylovchilar ovozlari, tana harakatlari bilan o‘zlaridan oldin o‘tgan avlodlarning epchilliklarini, qo‘rqmasliklarini g‘ayrat hamda jasoratlarini ko‘rsatishga harakat qiladilar... ularning qo‘shiqlari ayrim hollarda tun bo‘yi davom etadi. ular baland va xirillagan ovoz bilan kuylashadi [6]. N.N.Muravyevning bergan ma’lumotiga qaraganda, u ting-

lagan baxshilarning jirov ekanligi sezilib turadi. Chunki o‘sha davrda xonlikni Qo‘ng‘irot sulolasiga mansub o‘zbeklar boshqargan va ular jirov-baxshilarni o‘zbeklar toifasidan tanlab saroyga keltirishgan. Ular o‘sha davrlarda jirov va baxshi san’atini birgalikda qo‘shib davom ettirishgan, qo‘bizda ham, dutorda ham doston qo‘shiqlarini ijro etishgan. Muravyev jirov ijrosini tinglagan bo‘lsa kerakki, baxshilarning “baland va xirillagan ovozda” kuylaganliklarini aytib o‘tadi. N.N.Muravyov xon saroyida bo‘lib, maqomchilar, turli xonandalarni ham tinglagan. Shu sababli o‘z asarida xivaliklarning musiqani juda sevishlarini va qadrlashlirini, xonandalar qo‘shiq matnlariga alohida e’tibor bilan qarab, ularni eng talantli shoirlar ijodidan tanlab olishlarini yozib qoldirgan [7].

Ayniqsa, doston kuylagan baxshilar unda yaxshi taassurot qoldirgan. Shu sababli ijrochilarning musiqa asboblari xususida ham ayrim ma’lumotlarni keltirgan: “Ularning musiqa asbobi ikki torli balalaykadan iborat bo‘lib, yarim oy shaklidagi qutiga o‘xshab ketadi. Uni noxun yoki qalamcha bilan chalishadi. Ulardagi yana bir cholg‘u asbobi to‘rt torli, nihoyatda yoqimsiz tovush chiqaradigan asbob bo‘lib, pastdan chiqqan o‘qini yerga tirab, skripkaga o‘xshab chalinadi”. Rus missionerining tasviriga qaraganda, birinchi cholg‘u asbobo tanbur, ikkinchisi esa qo‘bizdir.

Demak, o‘sha paytlarda xon saroyida qo‘biz chalib doston kuylaydigan baxshilar bir emas, bir necha bo‘lgan. Muhammad Rahimxon I davrida dostonchilikning faolligini Muravyovning yana bir yozuvidan bilish mumkin. U Xivaga kelishda mamlakatning g‘arbidagi “Shohsanam qal’asi”ga duch keladi va mahalliy aholidan ushbu joy haqidagi afsonani yozib oladi. Uning yozib olgan tafsilotlari “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining sujetiga mos keladi. Unda G‘aribning yetti yil darbadar kezishi, onasining ko‘r bo‘lib qolishi, Shohsanamning to‘yi ustiga kelishi, o‘z sevgilisining visoliga yetishi kabi voqealar tasvirlangan bo‘lib, hozirgi sujetdan birmuncha farq qiladi. Albatta, davr o‘tishi, ijtimoiy tuzum o‘zgarishi bilan doston voqealari ham o‘zgarishi mumkin. Eng asosiysi, doston bor joyda baxshi ham bo‘ladi.

Demak, o‘sha davrda mazkur doston talantli baxshilar tomonidan ijro qilib yurilgan. “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining Xorazmda mashhur bo‘lganligini Muravyovning ushbu esdaliklari, ya’ni bir bor isbotlaydi. Xorazm baxshilari haqida ayrim qaydlar H.Vamberi asarlarida ham ko‘zga tashlanadi. Biroq, sharqshunos olim birorta konkret baxshi haqida ma’lumot bermasdan, ular haqida yuzaki tarzda so‘z yuritadi. Masalan. U shunday yozadi: “...mazkur xrestomatiyada, asosan, baxshilar tomonidan aytiluvchi, ularning o‘zlari yaratgan yoki tarjima qilgan shimoliy turk xalqlarining barchasiga tanish, ular sevgan, ularning tili, fikri va o‘ylarini aks ettiruvchi materiallar bor... Ular o‘zbek xalqi va ularning xonliklari bilan qo‘shni yashovchi qirg‘izlar orasida keng tarqalgan va hamma joyda dutor yoki qo‘biz jo‘rligida bir xil kuylanadi [8].

H.Vamberi xrestomatiya kitobiga yozgan ushbu so‘zboshisidagi fikrlari ilmiy jamoatchilik uchun nihoyatda qimmatli bo‘lishi bilan birga, olimning ayrim fikrlarini tuzatib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Chunonchi, ushbu so‘zboshida olim baxshilar haqida so‘z yuritib, “baxshilar tomonidan aytiluvchi, ularning o‘zlari yaratgan yoki tarjima qilgan... materiallar” degan iborani ishlatdiki, bu fikr uning o‘zbek baxshilari haqida to‘la tasavvurga borib yetmaganini ko‘rsatadi. Negaki, eng avvalo, baxshilar xalq ijodiyotiga mansub bo‘lgan terma va dostonlarni ijro qilishadi. Ularning repertuaridagi asarlar, asosan, ustozdan shogirdga o‘tadi. Ular dostonni qardosh xalqlar baxshilari repertuaridan olganda ham H.Vamberi aytganday, “tarjima qilib” emas, balki ijodiy qayta ishlash orqali o‘zlashtiradilar. Shuningdek, uning o‘zbeklar orasida tarqalgan dostonlar qo‘shni qirg‘iz va boshqa xalqlar orasida bir xil kuylanadi, degan fikriga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki dutor jo‘rligida doston kuylash bilan qo‘buz jo‘rligidagi ijro bir-biridan keskin farqlanadi.

Demak, H.Vamberi Xorazm doston ijrochilari haqida so‘z yuritsa-da, mazkur an’ana haqida to‘la ilmiy tavsif bera olmagan. Biroq, uning qo‘ng‘irotlik Mulla Is’hoq bilan qo‘lyozma dostonlar to‘plashi, “Baxshi kitoblari” haqida ma’lumot berishi, ko‘plab dostonlarni G‘arb kitobxonlariga tarjima orqali yetkazgani muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Herman Vamberi Xivaga kelgan davrda xonlik bo‘hron girdobida qolgan, madaniy-ma’rifiy ishlar rivoji sustlashgan edi. Muhammad Rahimxon I davrida taraqqiyot sari yuzlangan san’at va adabiyot Muhammad Aminxon davriga kelib yanada rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Baxshichilik, qissaxonlik faollashdi. Maqom san’ati esa gullab-yashnadi. Usta Xudoybergan etikchi, undan Pahlavonniyoz Mirzoboshi Komillar Shashmaqom nig‘malarini to‘la o‘zlashtirib olishadi. Bu maqom ustalarining obro‘si shu qadar yoyiladiki, hatto Qo‘qon xoni Muhammad Umarxon saroy sozandalariga maqom o‘rgatish uchun Xivadan Xudoybergan etikchini o‘z saroyiga chaqirtirib oladi. Keyingi hukmdor Madalixon esa Xudoybergan ustozning maslahati bilan uning shogirdlari Solihbek va Mo‘minbeklarni ham Qo‘qonga oldiradi va bu san’atkorlar o‘sha joyda muqim bo‘lib qolishadi [9]. Binobarin, Muhammad Aminxon davridagi madaniy hayotning yuksalishi baxshichilik san’atiga ham ijo-

biy ta’sir o‘tkazganligi, tabiiy. Ammo Muhammad Aminxonning fojiali o‘limidan so‘ng xonlikda yuksalayotgan madaniy-ma’rifiy hayot tushkunlikka yuz tuta boshladi.

Keyingi Xiva xonligi taxtiga o‘tirgan Abdullaxon va Qutlimurodxonlarning har ikkalasi 6 oydan taxtda o‘tirib fojiali tarzda halok bo‘lishdi. 1855-yilda taxtga o‘tirgan Sayyid Muhammadxon davrida madaniy hayot yana izga tusha boshladi. Xonning o‘zi ham musiqaga ishtiyoq qo‘ygan bo‘lib, dutor, g‘ijjak kabi sozlarni ustalik bilan chalish qobiliyatiga ega edi. Shu sababli saroyga yana san’atkorlarni, xos baxshilarni yig‘a boshladi. Biroq, adabiyot, san’at ilgariga avjda davom etishi qiyin edi. Bu davrda kitobxonlik negizida qissaxonlik muayyan darajada rivojlandi. Xuddi shu davrda vohaga Herman Vamberi tashrif buyurgan edi. Uni Sayyid Muhammadxon yaxshi kutib olib, xonlik hududida bemalol yurishga ruxsat berdi. H.Vamberi yuqorida qayd qilganimiz mulla Is’hoq bilan xonlik hududida yurib, dostonlar yig‘a boshlaydilar. Ular Amudaryo orqali Qo‘ng‘irot shahriga yo‘l olishadi. Qo‘ng‘irot yaqiniga kelganda ziyolilar bilan suhbatlashib, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining nasriy bayonini yozib olishadi. Mulla Is’hoqning quyidagi she’riy parchalari ularning baxshi va qissaxonlar bilan uchrashib katta materiallar to‘plaganliklarini isbotlaydi.

Nasib tortib bizlar bu ela keldik,
El-u xalqning izzat-hurmatin ko‘rdik,
Qissa, doston yig‘nab, uyga jo‘nadik,
Bizlarni siyladi Mo‘ytan elinda.

Safarda yo‘ldoshim bul Rashid hoji,
Aning Qo‘ng‘irotda bitdi muhtoji,
Paytonga yuk bo‘ldi kitoblar, vaji,
Qissa, doston sovg‘a qilganlar, xo‘sh endi [10].

Ushbu to‘rtliklardagi “qissa-doston” so‘zlariga razm solinsa, o‘sha davrda kitobat qilingan qissa-dostonlarning nihoyatda ko‘pligiga qanoat hosil qilish mumkin. H.Vamberining “Chig‘atoy tili darsligi” asari tarkibiga kirgan folklor namunalari, ayniqsa, qimmatlidir. Uning “Xrestomatiya” qismiga birinchi marta “Yusuf Ahmad”, “Oysanam-Shohsanam”, “Hurliqo-Hamro”, “Oshiq Oydin”, “Xirmondali” kabi Xorazm dostonlari kiritilgan. Mazkur asarga kiritilgan “Baxshi kitobi” bizga o‘sha davrdagi doston ijrochilari haqida muayyan darajada ma’lumotlar bera oladi. Bu haqda Vamberining o‘zi shunday yozadi: “U o‘ziga xos she’rlar to‘plami bo‘lib, o‘rgatuvchi shogird-baxshilarning yonida olib yuriladigan kichik kitobchadir. Bu to‘plamdagi she’rlarning mazmuni auditoriyaga, el-ulus didiga, saviyasiga qarab o‘zgarishga uchrab turadi. Lozim paytda baxshilar unga o‘zgartishlar kiritib kuylashadi. Mening qo‘limdagi nusxa eng ommaviy, hammaga tushunarli she’rlardan tashkil topgan. Ularni men o‘zbeklar va turkmanlar orasida ko‘p tingladim. Biroq, bu she’rlar uslub jihatdan sodda bo‘lsa-da, ularni ko‘pchilik kishi bilmaydi. Shu sababli ular ashula yoki deklamatsiya tarzida aytilishi nuqtayi nazaridan, G‘arbiy Osiyo xalqlariga notanishdir. Ijro ohangiga qaraganda, ularning eroniylar ijodidan olinganlik ehtimoli bor. Ammo hozirda Eronda kuylanadigan qo‘shiqlarga ularning aloqasi yo‘q” [11].

H.Vamberining “Baxshi kitobi”ga bergan ushbu tavsifi har jihatdan e’tiborga loyiqdir. Chunki Xorazm baxshilarida keyingi davrlarda ham doston va qo‘shiq matnlaridan iborat maxsus qo‘lyozmalar bo‘lgan. Muhammad Rahimxon – Feruz davriga kelib, doston matnlarini o‘zgartirmasdan ijro qilish haqida farmoyish berilgan. Hatto bir kuni Feruzxon Suyav baxshiga “Go‘ro‘g‘li” dostonini kuylashni buyurgan va o‘zi dostonning kitob qilingan shakliga qarab o‘tirgan. Suyav baxshi birorta so‘zda ham yanglishmay “imtihon”dan muvaffaqiyatli o‘tgan [12].

H.Vamberining “Baxshi kitobi”dagi “deklamatsiya” shaklidagi ijro haqida ma’lumot berib, bu usul Xorazmga Erondan o‘tgan, degan farazi ham qiziqish tug‘diradi. Bu yerda H.Vamberi ijrochilarning qiroat (rechitativ) ohangida o‘qilgan she’rlarni nazarda tutgan.Venger olimi “deklamatsiya” tarzidagi ijroni qissaxonlar orqali tinglagan bo‘lsa kerak. Chunki ilgarigi davrlarda she’riy asarlar to‘la ravishda qiroat bilan qo‘shiq ohangida ijro etilgan. Buning asosiy sabablaridan biri “Ibtidoiy davrning vokal musiqasi ritm va rechitativdan iborat bo‘lgan. Kuy esa ancha keyinroq paydo bo‘lgan [13]. Ma’lumki, baxshichilik san’atida an’anaviylik barqaror saqlanib kelgan. Shu sababli qiroatxonlik XX asr boshlarigacha o‘z kuchini yo‘qotmagan. Qiroatxonlik xalfalar ijrosida haligacha davom etib kelmoqda. Xullas, Vamberining nigohi tushgan “Baxshi kitobi” faqat Xorazm baxshi, xalfa va qissaxonlarigagina xos bo‘lgan alohida bir an’anadir. H.Vamberi “Baxshi kitobi”dagi bir qancha she’rlarni “Xrestomatiya”siga kiritgan. Unda “Sanobar” dostonidan olingan 5 bandlik she’riy parcha bor. Bu to‘rtliklar dostonning bizgacha yetib kelgan qo‘lyozma variantidagi muqobiliga solishtirganda, juz’iy o‘zgarishlargina ko‘zga tashlanadi. Chunki yoz-

ma nusxalar orqali yetib kelgan doston matnlari barqaror saqlanish xususiyatiga ega. Faqat ularni qayta ko‘chirgan kotib yoki xattotlar matnga ayrim o‘zgarishlar kiritganini kuzatish mumkin. “Baxshi kitobi”da “Oysanam-Shohsanam”, “Oshiq Oydin”, “Huriliqo-Hamro”, “Temim sahoba”, “Ko‘ro‘g‘li”, “Xirmondali”, “Zarqum shoh”, “Yusuf Ahmad” va boshqa qator dostonlardan parchalar berilgan.

Bizga ma’lum bo‘lgan “Avesto” shakllanib, uning gohlari mutaxassis kohinlar tomonidan ijro etilgan. Ular ezgu g‘oyalarni ishontirish usuli bilan ommaga yetkazishgan. Kohinlar shomonlarning dastlabki ko‘rinishlaridir. Kohin va shomonlar qadimdanoq ilohiy shaxslar sifatida tasavvur qilingan. Ularga, ko‘p hollarda, aql-idrok, talant tushida ato etilgan. Xorazmda tarqalgan parixon-po‘rxonlar ham shomonlarning bir ko‘rinishidir. Shomonlik esa baxshichilik san’atining shakllanishida dastlabki bosqichlardan hisoblanadi. Soz va so‘z ustasi bo‘lgan baxshilarda, dastlab, tabiblik, afsungarlik kasblari ham sintezlashgan. Hatto Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ham “qo‘shkochlik” vazifasini bajargan.

Alisher Navoiy yashagan davrda baxshi atamasi kotib, mirzo ma’nolarida ham qo‘llangan. Bu atamaning Respublikaning turli hududlarida *shoir, jirov, oqin, sannovchi, oxun, soqi, sozchi* tarzida qo‘llanilishi ham uning sinkretik ma’noga egaligi bilan izohlanadi. Baxshi atamasining kelib chiqishida turli fikrlar mavjud bo‘lib, V.V.Bartold uni sanskritcha “bhikshu” so‘zidan kelib chiqqanligini ta’kidlaydi. A.N.Samoylovich ham ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi va bu so‘z negizida “muallim” ma’nosi mavjudligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T. Эпос и сказитель. 41–43 с.
2. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarhal sahifalari. Urganch, “Xorazm”, 1999, 8-bet (52).
3. Ro‘zimboyev S. Xalq ijodining noyob durdonalari. “Oshiqnoma”, 6-kitob, Urganch, “Xorazm”, 2013, 4-bet (3–12)
4. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqa tarixchisi. T., “Yozuvchi”, 1998, 7-bet (48).
5. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Ko‘rsatilgan asar. 7 – 8-betlar.
6. Muravyov N. Путешествие в Туркмению и в Хиву в 1819 – 1820. М., 1822, с. 122.
7. Muravyov N. Ko‘rsatilgan asar. 131-bet.
8. Vamberi H. Chig‘atoy tili darsligi. Leypsig, 1867, 43-bet.
9. Xorazm musiqiy tarixchasi. 43-bet.
10. Ro‘zimboyev S. Mulla Is’hoq. Urganch, “Universitet”, 2005, 58-bet (24).
11. Chig‘atoy tili darsligi. 33 – 34-betlar.
12. Ayimbetov Q. Xaliq danalig‘i. Nөkis, “Qaraqalpaqstan”, 1988, 132-bet (491).
13. Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyat taraxidan ocherklar. 180-bet.
14. Sabirova N. Xorazm baxshichilik va xalfachilik an’analari. Toshkent, 2021, 121-bet.

Kurbanova Saida (UrDU dotsenti), Ibragimova Yorqinoy (UrDU magistranti)

MAQOLANING JANR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy publitsistika janrilaridan biri bo‘lgan maqolaning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Maqolaning xos belgilar X.Do‘stmuhammad maqolalari asosida ochib beriladi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются специфические свойства жанра статьи, который считается жанром художественной публицистики. Характерные черты статьи исследуются на материале статей Х.Достмухамада.*

Annotation. *This article analyzes the specific properties of the genre of the article, which is considered a genre of artistic journalism. The characteristic features of the article are studied on the basis of articles by H.Dostmukhamad.*

Kalit so‘zlar: *badiiy publitsistika, maqola, yozuvchi maqolasi, shaxs, jamiyat, hodisa, munosabat.*

Ключевые слова: *художественная публицистика, статья, статья писателя, человек, общество, событие, отношение.*

Key words: *artistic journalism, article, writer’s article, person, society, event, attitude.*

Maqola badiiy publitsistikaning asosiy janrlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, qisqa xabarlarni istisno qilganda, barcha janrlarga mansub materiallarning hammasini maqola deb atalishi ham tasodifiy emasdir. Lekin “maqola” degan muayyan janr haqida gap borganda (bu so‘zning tor ma’nosi) u yoki bu jarayonlar, vaziyatlar, hodisalarni hamda ularning negizida yotgan qonuniy aloqalarni, mazkur hodisalarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yoki boshqa ahamiyatini ko‘rsatish, ushbu hodisa va jarayonni barta-

raf etish yoki qo‘llab-quvvatlash uchun qanday pozitsiyada turish maqsadini ko‘zlovchi, tahlil qiluvchi jarayon e’tiborga olinadi.

Maqolaga janr sifatida yanada aniqroq ta’rif beriladigan bo‘lsa, u dolzarb, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlar, hodisalar va vaziyatlarni hamda ularni boshqaruvchi qonuniyatlarni tahlil qilish uchun mo‘ljallangan janr hisoblanadi. Maqolada fikr yuritilayotgan mavzu shunday tahlil qilinishi kerakki, o‘quvchi undan o‘zini qiziqtirgan masala yuzasidan aniq ma’lumot olib bilsin. Shundan kelib chiqib, maqola janri o‘ziga xos quyidagi vazifalarni maqsad qiladi:

1) o‘quvchiga dolzarb jarayonlar, vaziyatlar, hodisalarning ijtimoiy yoki shaxsiy ahamiyatini tushuntiradi;

2) jarayonlar va hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini ko‘rsatib beradi;

3) o‘quvchilar diqqat-e’tiborini bayon qilingan vaziyatlar bilan bog‘liq ravishda yuzaga keluvchi muammolarga qaratadi;

4) mazkur vaziyatlarning u yoki bu ishtirokchilarining qanday manfaatlari borligini ko‘rsatadi;

5) dolzarb vaziyat haqida real tasavvur hosil qiladi;

6) vaziyat va hodisalar yuzasidan amaliy chora-tadbirlarni qabul qilishga olib keluvchi g‘oyalarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

To‘liq va to‘g‘ri maqola har doim muayyan xarakterdagi voqea-hodisani, predmetni tasvirlashi bilan ahamiyat kasb etadi. Maqola janrining predmetini dolzarb vaziyatlar va jarayonlarda yuzaga keladigan ziddiyatlar va muammolarda ham, ulardan kelib chiqadigan vazifalar hamda ularni hal etish va tartibga solishning shart-sharoitlari, ijtimoiy rivojlanishning ular bilan bog‘liq tamoyillari, istiqbollari, qonuniyatlarida ham kuzatish mumkin.

Bugungi o‘zbek badiiy publitsistikasida yozuvchi maqolasi muhim o‘rin tutadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yozuvchi maqolasi sof ilmiy yoki sof publitsistik maqolalardan ajralib turadi. To‘g‘ri, yozuvchi maqolasida ilmiy masalalar, siyosiy, ijtimoiy, falsafiy, ma’naviy, axloqiy mavzular qalamga olinsa-da, unda badiiylik unsurlari bilan publitsistik jo‘shqinlik qorishiq holda aks etadi. O‘zbek badiiy-publitsistikasi taraqqiyoti, uning janr ko‘rinishlarini tadqiq etgan publitsist olim O.Tog‘ayev yozuvchi maqolasining publitsistik materiallardagi emotsionallik xususiyatining badiiy vositalaridan keng foydalangan holda yanada kuchaytirilishi asosida vujudga kelgan yangi janrligini ta’kidlab, unda yozuvchi mantiqiy tafakkur usulidan foydalanganligi tufayli publitsistik materiallarga yaqin turishini, ikkinchi tomondan esa, poetik vositalardan keng foydalanganligi sababli lirik va publitsistik poeziyaga yaqin turadigan, poeziya bilan siyosiy publitsistika oralig‘idagi janr, deb baholaydi.[1] Yozuvchi maqolasiga xos janr xususiyatlarining kundan kunga takomillashib borishi bu janrning yanada rang-barang qilib, publitsistik jo‘shqinligi va ommabopligini oshirmoqda. Yozuvchi ma’naviy, axloqiy, siyosiy, ijtimoiy, diniy, falsafiy, maishiy, iqtisodiy, ma’rifiy mavzularda jamiyatning katta-kichik muammolari haqida mulohaza yuritib, bu sohalardagi yutuq va kamchiliklar to‘g‘risida qalam tebtarmoqda. Demak, yozuvchi maqolasida qalamga olingan muammolarning o‘zini mazmunan adabiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, axloqiy, falsafiy, diniy, tarixiy muammolarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Davrimizning iste’dodli yozuvchilaridan biri Xurshid Do‘stmuhammadning publitsistik ijodiga nazar tashlasak, uning publitsistik g‘oyani pafos darajasiga ko‘tara olgan adib ekanligiga amin bo‘lamiz. Uning maqolalarida publitsist shaxsiyatini ijtimoiy shaxs sifatida anglab, shu bilan birga, jonli inson sifatida his etamiz. Chunki publitsist “Azozilga aldanmaydigan avlod”, “Oilaning qo‘sh qanoti” kabi maqolalarida o‘zi talqin etayotgan jamiyatdagi turfa ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy muammolarga subyektiv munosabatini ochiq namoyon etadi. Bu subyektiv munosabat yozuvchining quvonchi, nafrati, tarafkashligi, betarafligi, xullas, uning tuyg‘ulari, ichki kechinmalari orqali maydonga keladi. Zero, “publitsistikada muallif obrazi poeziyada shoir obrazi singari markaziy o‘rinda turadi”.[2]

Yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning “Azozilga aldanmaydigan avlod” maqolasida bugungi kun yoshlarining ma’naviy saviyasi, iste’dod miqyosi haqidagi mulohazalari e’tiborga loyiq. Adib publitsistik maqolalarida kutilmagan, noyob faktlar, hayotiy va badiiy misollarni keltirishga juda ham usta hisoblanadi. Bu, shubhasiz, adibning ko‘p izlanishi, mutolaa qilishining samarasidir. Yozuvchi-publitsist avangard adabiyotining vakillaridan bo‘lmish A.Savinioning ijod usulini misol keltirib, uni maqola sarlavhasiga ham chiqargan hisoblanadi. Savinioning yozishicha, gunohlariga tavba qilish harakatiga tushgan qadimgi yahudiylar ko‘ngillarida kechgan afsus-nadomat va tavba-tazarrulardan xotirjam tortmay,

[1] Тоғаев О. Адиблар ва жанрлар. Тошкент, ”Адабиёт ва санъат”, 1976, 21 – 22-бетлар,.

[2] Тоғаев О. Ўзбек бадиий публицистикаси. Тошкент, ”Фан”, 1973, 22-бет.

ularning barini echkiga – o‘sha echki Azozil deb atalgan – aytib solganlar-da, jonivorni sahroga haydaganlar (“Kozyol otpusheniya” degan ibora shundan qolgan. – ta’kid X.Do‘stmuhammadniki). Va ular shu tariqa yengillashganlar. A.Savinio “Odatda, odam sof g‘oyalar bilan ish ko‘rolmaydi, binobarin, u g‘oyalarni amaliy tadbirga aylantiradi”, deb xulosa qiladi. Ushbu noyob fikrni X.Do‘stmuhammad quyidagicha ifodalaydi: “...botiniy kechinmalar in’ikosi bo‘lmish tuyg‘ularning ko‘r-ko‘rona tadbirini – Azozilni sahroga quvish hodisasini yozish san’atda ustunlik qildi. Zohiriy voqeani emas, botiniy kechinmalar haqida yozilgan asar badiiy asar qatoriga qo‘shilmadi”.[1]

Azozilga aldanmaydigan avlod shakllanishi uchun nima qilish kerak, degan savolga X.Do‘stmuhammad shunday javob qiladi: “Navqiron qalamkash tabiatan ijodkor bo‘lib dunyoga kelgan bo‘lsa, bas, buyog‘i uning mehnatiga, izlanishlariga bog‘liq. Mehnat va izlanish – yozish malakasini egallash va mutolaa doirasini kengaytirishdan iborat. Hamonki, o‘zbek farzandi ekanmiz, biz uchun Qodiriydan yaqin adib yo‘q, biroq hamonki, hozirgi dunyoni, zamondosh insonning murakkab ruhiy olamini badiiy tadqiq etish yo‘lida urinib-surinib yurgan ekanmiz, biz uchun misol tariqasida aytsam, Lev Tolstoy yoki Flobernіng yaqinligi Qodiriynikidan kam emas. ...F.Kafkaning “Eng yomon yozuvchilar mahalliy asarlarga taqlid tufayli paydo bo‘ladilar”, degan achchiq ta’nasini unutmaydi, balki oyog‘ining ostidan naridagi javohirlarga ham ko‘zini ochib qaraydi, ulardan bahramand bo‘ladi. Har bir asar o‘ziga qadar hukm surgan badiiy ko‘nikmalardan qoniqmaslik ekanini yodda saqlaydi. Azozilga aldanmaydigan aba-diy avlod shundagina tug‘iladi!..”.[2]

Ko‘rinadiki, Xurshid Do‘stmuhammad maqolalarida hayotiy faktlar qiyosidan tashqari, adabiy, tarixiy faktlar muqoyasasi, muallifning erkin, yuqori intellektual darajadagi tafakkuri namoyon bo‘ladi.

Yozuvchi maqolalarini tahlil qilar ekanmiz, ularda faktlarning istifoda etilish darajasi boshqa publitsistik janrlarga nisbatan ancha kengroq ekanligini ko‘ramiz. Odatda, maqolada har bir fikr, fakt va hujjatlar izchil joylashtiriladi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki maqola kompozitsiyasini tashkil etgan fakt va mantiqiy-hissiy fikrlar oqimi biri ikkinchisini to‘ldiradi. Fanda qo‘llaniladigan analiz, sintez, induksiya, deduksiya kabi tahlil usullari maqola kompozitsiyasida ham muhim o‘rin egallaydi.

Atadjanova Yulduzxon Dilshadovna (Mustaqil tadqiqotchi)

“MUVOZANAT” ROMANIDA XALQ HAYOTINING BADIIY TASVIRI

Annotatsiya. *Maqolada yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida muayyan tarixiy davrda o‘zbek xalqi hayotining badiiy tasviri aks etilgani haqida so‘z boradi. Asarning bosh g‘oyasi – muvozanat buzilgan joyda tabiiylik qonuni o‘z kuchini yo‘qotishi, barcha mezonlar izdan chiqishi kabi jihatlar asar qahramonlarining hayoti misolida ochib berilgani tahlil qilingan.*

Аннотация. *В статье говорится о художественном изображении жизни узбекского народа в определенный исторический период в романе «Равновесие» писателя Улугбека Хамдама. Проанализировано, что на примере жизни героев произведения раскрывается основная мысль произведения о том, что закон природы теряет свою силу при нарушении равновесия, и о том, что утрачиваются все критерии.*

Annotation. *The article talks about the artistic depiction of the life of the Uzbek people in a certain historical period in the novel “Balance” by the writer Ulugbek Hamdam. It was analyzed that the main idea of the work – that the law of nature loses its power when the balance is disturbed, and the fact that all criteria are lost, is revealed in the example of the life of the heroes of the work.*

Kalit so‘zlar: *muvozanat, avtobiografik, estetik zavq, iqtisodiy qiyinchiliklar, Yusuf, Amir, o‘tish davri, oliy qadriyat.*

Ключевые слова: *баланс, автобиографичность, эстетическое наслаждение, экономические трудности, Юсуф, Амир, переходный период, высшая ценность.*

Key words: *balance, autobiographical, aesthetic pleasure, economic difficulties, Yusuf, Amir, transition period, supreme value.*

Bugungi kunda o‘zbek miliy nasri yangi pog‘onaga ko‘tarildi, deb bemalol aytish mumkin. X. Do‘stmuhammad, N.Eshonqul, I.Sulton, L.Bo‘rixon va yana ko‘plab ijodkorlar tomonidan yaratilayotgan asarlar borki, ular istiqloldan oldingi asarlardan tubdan farq qiladi. Mavzu va g‘oya jihatdan bir xil asar-

[1] Дўстмуҳаммад Х. Азозилга алданмайдиган авлод. ”Ёшлик”, 1991, 1-сон, 39-бет.
[2] O‘sha manba.

larda ham yozuvchining “men”i ko‘rinib turishi, yangicha badiiy tafakkurning shakllanganligidan dalolat beradi. Bu esa, shubhasiz, milliy nasrimizning yutug‘idir.

Ulug‘bek Hamdam ham ana shu adabiy avlodga mansub ijodkorlardan biri. Uning “Muvozanat” romani e’lon qilinishi bilanoq, shov-shuvga sabab bo‘ldi. Tabiiyki, munaqqid va adabiyotshunoslar asarga turlicha munosabat bildirdilar. O.Sharafiddinov: “Romanni o‘qib chiqar ekanman, bugungi kun odamini tasvirlashda hali realizmning ochilmagan imkoniyatlari ko‘p ekaniga imon keltirdim”, deb yozgan edi. Roman yozilgan paytda aholining aksariyat qatlami iqtisodiy qiyinchiliklar qurshovida qolgan, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tish davri edi va yozuvchi real shu hayotni qalamga olgandi. Odamlarning miyasida kechayotgan, qalbida to‘lqinlanayotgan voqelikni qalamga olishning o‘zi yozuvchidan juda katta kuch talab qiladi. Odatda, yozuvchilar yo bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lishi kutilayotgan voqelikni tasvirlashadi, negaki, voqelikning ichida turib uni to‘liq his qilish va yakuniy xulosa aytish qiyin. Narsaning qanaqa ekanligi undan uzoqlashgandan keyin aniq bo‘lganidek, voqelikni to‘g‘ri idrok etish uchun undan tashqarida bo‘lish lozim. Professor Dilmurod Quronov izohlashicha: “Muvozanat” mavzu jihatidan g‘oyat dolzarb, muhimi, bir paytlari o‘z vaqtida yozilgan roman sifatida dunyoga keldi. Masalaning ikkinchi tomoni dolzarb mavzuning qanday yoritilgani. Roman ko‘p jihatdan avtobiografik xarakterga ega. Ulug‘bek Hamdam asarning ko‘p o‘rinlarini yig‘lab yozgan, yurak-bag‘rini burda-burda qilib, matnga singdirib yuborgan. “Muvozanat”ning bir o‘tirishda yozilgandek (M.Qo‘shjonov) taassurot qoldirishi, hatto asarni yoki muallifini uncha xushlamaydiganlar ham uning samimiy yozilganini beixtiyor e’tirof etishlari shundan”.

“Muvozanat”da kechagi kunimiz, o‘tish davridagi xalqning kundalik turmush tarzi, maishiy va ijtimoiy hayotdagi keskin o‘zgarishlarning omma ruhiyatiga ko‘rsatgan ta’siri va uning oqibatlari, ya’ni muvozanatsizlik tasvirlangan. Muvozanatini yo‘qotgan har qanday narsa qulashi, unga biror shikast yetishi muqarrar. “O‘tish davri” har doim xavfli ekanligi ma’lum, bu keng ma’noda tushuniladigan fikr. Jumladan, yangi tuzumning oyoqqa turgan boladek depsinishlari bo‘ladi, go‘dakka hali ko‘p narsa tushunarsiz, u o‘z yaqinlaridan boshqa kishilarni tanimaydi, o‘zi uchun harakat qilishga intilsa ham, lekin o‘z ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi. O‘tish davrida paydo bo‘lgan iqtisodiy qiyinchiliklar badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishni susaytirgani, odamlarning asosiy e’tibori iqtisodga qaratilgani, haqiqat. Adabiyotga e’tibor susaygan joyda ruh xira tortadi, qadriyatlar poymol bo‘ladi, iymon, e’tiqod, halollik, shukrona, ilmparvarlik, mehr-oqibatning o‘rnini boshqa tuyg‘ular, aniqrog‘i, nafs, o‘tkinchi orzu-havas egallay boshlaydi. “Muvozanat” qahramonlari misolida xuddi mana shu holatlar turli rakurslarda ko‘rsatilgan. Badiiy adabiyotimiz uchun mutlaqo yangi bo‘lgan mavzuni keng ko‘lamda yorita olganligi asarning juda tez ommalashgani va adabiy jamoatchilik bir-biriga qarama-qarshi fikrlar uyg‘otganida ham ko‘rish mumkin.

Muallif badiiy ijodda muvozanat tushunchasiga o‘z nuqtayi nazaridan yondashgan. “Demak, gap bu yerda realizmda yoki modernizmda ham emas. Gap san’atkorda, uning tafakkurida va mahoratida. Adabiy asar esa chinakam asar namunasi bo‘lmog‘i uchun, realizmga mansub bo‘ladimi, romantizm uslubida yozilgan bo‘ladimi yoki qandaydir boshqa modernistik uslubga amal qiladimi, baribir, yana takror aytib o‘tmoq joiz, uning markazida inson turmog‘i kerak, kitobxon insonning taqdiri, tabiati, hayoti haqida muayyan axborot olish bilan birga bu asardan estetik zavq ham ola bilsin”. Bir qarashda oddiydek tuyulgan muvozanat tushunchasi asar davomida nihoyatda katta va keng ko‘lamli mohiyat kasb etadi. U turmushning, hayotning, inson ma’naviyatining har bir jabhasida o‘z bo‘yini ko‘rsatadi. Asarda yozuvchi istiqlolga erishganimizdan keyingi davrni, muhitni yoritib berishda ayni tushunchani asosiy mezon sifatida asarning bosh g‘oyasi, mavzusi bilan bog‘laydi. Asar kompozitsiyasi va syujeti ham ana shu asosda tuziladi.

“Muvozanat”da bosh qahramon – Yusuf. Asardagi barcha voqealar bevosita yoki bilvosita unga borib ulanadi. Garchi barcha voqealarda uning o‘zi ishtirok etmasa ham, uning taqdiriga, jamiyatga, o‘sha davr kishilariga daxldor voqealarda qahramon va davr o‘rtasidagi ziddiyatlar aks etgan. Yozuvchi Yusuf obrazi orqali o‘zining hayot falsafasini, insonning murakkab ichki olamini ochib beradi, inson falsafasi va uning asosi bo‘lgan omillarni turli rakurslarda kuzatadi.

Yusufning hayoti shaharda va qishloqda kechadi, yozuvchi o‘tish davridagi shahar va qishloq hayotini, o‘sha davrdagi kishilar ong-tafakkuridagi o‘zgarishlarni ko‘rsatish uchun qahramonni turli toifa va ijtimoiy qatlamlar orasiga olib boradi. Yusuf, uning do‘stlari siymosida baxt va baxtsizlik, boylik va qashshoqlik, muhabbat va nafrat, sadoqat va xiyonat singari qadriyatlarning aksini ko‘rish mumkin. Kimdir shaxs sifatida yemirilsa, yana kimdir hayotning kutilmagan zarbalarini matonat bilan yengadi.

Yusuf oliy m’lumotli, ziyoli, oliy ta’limda tarixdan saboq beradi. U o‘z millatini sevadigan olim, ajdodlar qoldirgan boy madaniy merosni, davlatchilik tarixini, millat ruhiyatini teran biladigan inson. U o‘z xalqi va uning tarixi bilan g‘ururlanadi. Uning tabiatida halimlik, beg‘uborlik, nekbinlik bor, ayni shu xislatlar Mirazimning onasi vafot etganida, u xiyonat qilganida, o‘zining Zahro bilan bo‘lgan munosabatlariga, bozorda uzum sotib olayotganida, qabristonda qazishma ishlari olib borayotganida bo‘rtib ko‘rinadi. U hayotning o‘tkinchiligini anglagani barobarida, ertangi kunga umid bilan qaraydi, yaxshi kunlar kelishiga ishonib yashaydi, hammaga yaxshilik sog‘inadi. Kechayotgan kun garchi ijtimoiy ahvolga to‘g‘ri kelmasa-da, Yusuf eng qiyin damlarda muvozanatni saqlab qola oladi. Bu uning fitratidagi e’tiqod, toza ruh, asllikning natijasi deyish mumkin.

U o‘zining oilasi, do‘stlarining hayotidagi qiyinchiliklar uchun jamiyatni ayblamaydi, uningcha, inson hayotining qanday kechishi o‘zining harakatlari natijasi. Inson o‘zidan rozi bo‘lishi, o‘zini baxtli his qilishi uchun, avvalo, ma’naviy ehtiyoj bilan bog‘liq. Baxtsizlikni, muammoni qanday qabul qilish o‘sha mummoning darajasini belgilaydi. Inson o‘z boshiga tushadigan kulfat, musibatni tan olishi yoki o‘sha girdobda cho‘kishi va yoki uni tan olmasdan olg‘a yurishda davom etishi mumkin. Demak, bu insonning sabr-matonati, irodasi va ruhiyati bilan bog‘liq jarayon. Yusuf tabiatida ana shu azaliy haqiqat mujassamlashgan, yozuvchi o‘z qahramonini eng og‘ir iqtisodiy holatlarda hayot qiyinchiliklariga ro‘baro‘ qiladi. Uni mashaqqatli sinovlarga to‘qnashtiradi, insonlikning oliy mezonlarida sobit tura olishini ko‘rsatadi.

Nochorlik sabab kiyim-kechak do‘konida ishlagan Yusuf moddiy jihatdan o‘zini tiklagach, yana o‘z kasbiga qaytadi. Biroq ana o‘sha paytda do‘sti Mirazimga xiyonat munosabatlarning axloq mezonlaridan chiqib ketadi.

Hazarat Ali haddan tashqari kambag‘allik odamni dindan chiqarishi uqdirganlar. Shu bilan birga, me’yoridar ortiq boylik ham ba’zan odamga baxt emas, falokat keltirishi mumkin. Bunga tarixda misollar juda ko‘p. Odatda, boylik o‘zidan keyin katta musibatlar olib kelishi sir emas. Yusufning, Mirazimning, Zahroning qismatida ham shu haqiqatning tasdig‘ini ko‘ramiz. Yusuf moddiy qiyinchiliklar oldida bir muddat esankirab qolsa-da, o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydi. Zahro bilan rishtalarni uzib, fanga, ilmga qaytadi. Asar qahramonlari siymosida tarixiy davr kishilarining o‘y-qarashlari, fikr-kechinmalari, umuman, o‘tish davri kishilarining ruhiyati yorqin aks etgan.

Inson qismati uning amallariga bog‘liq va hamma muammoning yechimi insonning o‘zida. Aslida, olam inson qalbining moddiy shakli, olam insonning aksdir va har kim nimani istasa o‘sha narsani ko‘radi. Yusuf o‘z botininga nazar solishga kuch topadi va o‘zini-o‘zi so‘roq qiladi. Oqibatda xatolarini to‘g‘rilab, adolatni mezon bilib yashashda davom etadi. Fizika-matematika fanlari nomzodi Ergash esa hayot qiyinchiliklariga dosh berolmay, ichkilikka beriladi. Irodasizlik, haqiqatdan qochish, muammolar yechimini boshqalardan izlash uni ham moddiy, ham ma’naviy jihatdan xarob qiladi. Alaloqibat, muvozanatni yo‘qotgan Ergash, Mirazim singari qahramonlar zavolga yuz tutadi.

Albatta, “Muvozanat”ning markazida inson, asosiy qahramon Yusufning taqdiri, uning iztirobli izlanishlari turganini hech kim inkor qilmas. “Muvozanat” o‘quvchisi asar badiiy voqeligini muallif nigohi orqali ko‘radi, unda qahramonlar bilan birga yashab ko‘radi, his qiladi, yozuvchi bilan birga ularning taqdiri, o‘zaro munosabatlarini muhokama qiladi, fojialari ildizini anglashga intiladi, qo‘yilgan muammolar yechimini izlaydi va muayyan xulosalarga keladi. Shularning bari estetik zavqdir. Ya’ni, estetik zavq asarning o‘z-o‘zicha namoyon bo‘luvchi obyektiv xossasi emas, balki o‘quvchi ongi-yu qalbida kechuvchi ma’naviy-ruhiy jarayondir. Shu bois ham badiiyat hodisasi o‘qish jarayonidagina mavjud, u hamisha yozuvchi, asar, o‘quvchi birligida namoyon bo‘ladi. Demak, badiiyat hodisasining voqe bo‘lishi asarning o‘zigagina emas, o‘quvchiga, uning ijodiy tasavvur imkoniyatlari, umumma’rifiy va madaniy saviyasi, o‘qish malakasi, emotsional holati, niyati kabi qator omillarga ham bog‘liqdir.

Yusuf asarning boshidan to oxiriga qadar bir narsa uchun–oliy qadriyat uchun kurashdi. U hayotda, atrofida nimalar yuz bergan va berishi mumkin bo‘lgan bo‘lmasin, baribir, insonni tutib turgan oliy qadriyat –muvozanatdan, unga erishish mashaqqatidan yuz o‘girmadi. Ammo bu shunchaki muvozanat emas edi. Ushbu muvozanatning bir ildizi insonning o‘zidan boshlanib, ikkinchisi muhaqqaq ravishda u yashayotgan jamiyatning bag‘ridan suv ichadi. Bas, shunday ekan, istiqlol va yurt obodligi masalasi Yusuf nazarda tutgan va o‘zi romanning boshidan oxirigacha intilgan ulug‘ Muvozanatning ajralmas halqalaridir.

Yusuf oliygohda bir maqsad bilan o‘qidi, undan so‘ng oliy o‘quv yurtida ishladi. U faqat halol yo‘ldan bordi. Oilasini oylik maoshi bilan boqdi. Lekin shaharda bugina pul bilan kun ko‘rish qiyin edi. Turmush qiyinchiligi tobora o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ijarama-ijara ko‘chib yurish, moddiy qiyinchilik uning Oygul bilan munosabatlari keskin tus olishiga sabab bo‘ldi. Oila qanchalik oqibatli, ittifoq bo‘lmasin

moddiy qiyinchilik baribir o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Orada muvozanat susaydi. U o‘g‘lidan ayrilayotganida muvozanatni yo‘qotadi.

Yusuf obrazi – millatparvar, vatanparvar, ko‘tarinki ruhiyatga ega inson. Romandagi tarixchi Muhammadjon aka davri o‘tgan odam obrazidir. U o‘zining yolg‘on asosga qurilgan hayotini tushunib yetadi. Shuning uchun ko‘zi ochiq ketadi. Qushlarning qafasdan chiqarib yuborilishida inson erkiga ramziy ishoralar beriladi. Muhammadjon aka o‘zi sevgan qushlarini ozodlikka qo‘yib yuborar ekan: “Bu yerda bog‘lar ham qolmadi, tog‘lar ham. Hammasini yakson qilib, bag‘rini tilib, paxtazorga aylantirishdi bular!.. Bor, qushim, uch, endi, uch!” Anglashiladiki, davr ruhiyati inson kechinmalariga ta’sir ko‘rsatmoqda va inson o‘zi bilan o‘zi kurashib qilgan ishlarini anglab yetmoqda.

Asardagi eng yirik, ta’sirchan obraz – Amir mavjud o‘tmish davrining xos kishisi. Amir ruhi va tani sog‘ bo‘lishiga qaramasdan, jinnixonaga tashlanadi. Amir sog‘lom bo‘la turib, o‘zini jinnilikka solishga majbur bo‘ladi. Jinnilar qo‘lidagi pati yulib tashlangan musicha qiyofasida ramziy ma’noda u o‘zini ko‘radi. Amir o‘zi yashayotgan hayotda o‘z orzulariga erisha olmagach, qondirilmagan mayllar – o‘z orzusidagi hayot, erishilmagan muhabbat – uning keyingi qismatida o‘z izini qoldirdi. Amir obrazi bilan bog‘liq tasvirlarni kitobxon ruhiy qiynoqlar va betizgin savollarsiz-u befarq o‘qiy olmaydi.

Amir qismati, fojiasi nihoyatda ta’sirli va muhim umumlashmaga ega. Uning xatti-harakati, tutgan ishidan bitta o‘zi ozor topmaydi, balki uch bolasi, kasalvand xotini, keksa ota-onasi, umuman olganda, butun qarindosh-urug‘i iztirob chekadi. Amir uchun bu dunyo yolg‘on dunyo, haqiqiy chin dunyo narigi dunyo. U o‘zini narigi dunyo saodatiga muyassar bo‘lishga tayyorlaydi. Lekin kishi bu dunyo saodatiga erishsa, narigi dunyo saodat eshigi ochilishini anglashga aqli noqislik qiladi.

Jahon adabiyoti tarixida bo‘lgani singari, ko‘p ming yillik o‘zbek adabiyotida ham badiiy psixologizm ildizlari turkiy mifologiya, o‘zbek xalq folklori: epos, xalq qissachiligi, mumtoz qissachilik an’analaridan kelib chiqadi. Badiiy psixologizm qator manbalarda yozuvchi – personaj-o‘quvchi yoki ijodiy jarayon – badiiy asar – o‘quvchi ichki olami formulasiga bo‘ysunishi aytiladi. Haqiqatdan ham, badiiy psixologizm shu uchlik doirasida zamon, makon va individual ijodkor munosabatining hosilasi o‘laroq, takomillashib boradi. O‘zbek romanlarida badiiy psixologizmning kuchayishi, voqea-hodisalar tasviridan inson ongi, psixologik olami takomili natijasida milliy romanchiligimiz tadrijiy o‘sgan. Xususan, realistik roman an’analarini o‘ziga xos rivojlantirgan U.Hamdamning “Muvozanat” romanida shaxs va jamiyat muammosining badiiy-psixologik tahlili yetakchilik qiladi. Bunda yozuvchi voqelikni idrok qilishning an’anaviy tamoyillarini badiiy sintezlash yo‘lidan borgani roman tafakkuridagi yangilanishlar uchun estetik asos vazifasini bajargan.

U.Hamdam asarlarida bosh qahramon, odatda, ko‘ngilga yuz burgan, o‘z “men”i bilan bahslashayotgan, o‘zi bilan o‘zi olishayotgan, jamiyat bilan murosa qilolmayotgan, mavjud tartiblardan qanoatlanmaydigan, olamning tarhi, ommaning yashash tarziga ko‘nika olmayotgan kishilar. Millat va xalq hayotida alohida o‘rin tutadigan, kelajakka avlodlar ma’naviy-axloqiy qarashlarining shakllanishida muhim vazifani bajaradigan shaxslarning bosh qahramon sifatida tanlanishi yozuvchining falsafiy konsepsiyasi bilan bog‘liq.

Ulug‘bek Hamdam “Muvozanat” romani bilan XX asr o‘zbek adabiyotida an’anaviylik vositasida ham yangi badiiy-estetik tafakkurni ifodalash mumkinligini to‘la isbotladi. Ayniqsa, asardagi Amir obrazi o‘zbek adabiyotiga butunlay yangi timsol bo‘lib kirib keldi. Uning vositasida insonni kashf etishda adabiyotning ochilmagan qirralari, muammolari borligi ayon bo‘ldi. Asardan shunday xulosaga kelish mumkinki, butun olam muvozanat qonuni asosida turgan bo‘lsa, jamiyat ham, uning asosini tashkil qilgan insonlar ham ayni muvozanat tufayli barqarordir. Muvozanat buzilgan zahoti hayotda, demak, uning a’zolari orasida har xil kutilmagan o‘zgarishlar, hatto izdan chiqishlar boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. Т., “Маънавият”, 2000.
2. Ozod Sharafiddinov. Modernizm – jo‘n hodisa... emas. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2002-yil 23 – 24-sonlari.
3. Улуғбек Ҳамдам. Руҳни уйғотгувчи сўз. Илмий ва публицистик мақолалар, тақризлар, суҳбатлар. Т., “Turon zamin ziyo”, 2017.
4. Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. “Шарқ”, Тошкент, 2007
5. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ozbek-adibi-va-adabiyotshunosi-ulugbek-hamdam-ijodiga-chizgilar.html

Sharopov Azizjon Azim o‘g‘li (Termiz davlat Pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili, magistranti),
Qodirova Muqaddas Tog‘ayevna (TerDPI, PhD)

ILMIY-TEXNIKAVIY MATNLARNI TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matn va uning turlari hamda tarjima haqidagi umumiy ma’lumotlar va bu sohada faoliyat yuritgan olimlar va ularning ishlari haqida qisqacha malumotlar berib ketilgan. Shuningdek, ilmiy-texnikaviy matnlarning qolgan matnlardan farqlari va bu turdagi matnlarni tarjima qilishda uchraydigan muammolar yoritilgan.*

Аннотация. *В данной статье приведены общие сведения о тексте, его видах и переводе, а также краткие сведения об ученых, работавших в этой области, и их работах. Выделены отличия научно-технических текстов от других текстов и проблемы, возникающие при переводе текстов данного типа.*

Annotation. *This article is dedicated to provide general information about the text and its types and translation, as well as brief information about the scientists who worked in this field and their work. Also, the differences of scientific and technical texts from other texts and the problems encountered in the translation of this type of texts are highlighted.*

Kalit so‘zlar: *matn, tarjima, tarjima muammolari, ilmiy-texnikaviy matnlar.*

Ключевые слова: *текст, перевод, проблемы перевода, научно-технические тексты.*

Key words: *text, translation, translation problems, scientific and technical texts.*

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar bilan iqtisodiy, ilmiy, tibbiy, fan va texnika sohalarida tengma-teng raqobat qilish va bu sohalarda ajoyib natijalarga erishgan davlatlarning natijalarini o‘rganish va yurtimizga tatbiq qilish uchun bugungi kunda ilmiy texnikaviy sohaga tegishli bo‘lgan matnlarni tarjima qilish va bu matnlarni haqiqiy ma’no-mazmunini tarjimada to‘g‘ri chiqara olishga bo‘lgan ehtiyoj va e’tibor ortib bormoqda.

Tilshunoslikda matn atamasi keng doirada, jumladan, og‘zaki nutq namunalarida ham qo‘llaniladi. Matnni idrok etish matn lingvistikasi va psixolingvistika doirasida o‘rganiladi. I.R.Galperin matn xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tar ekan, unga quyidagicha ta’rif beradi: “Matn bu yozma hujjat shaklida obyektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma’lum bir xususiyatga ega bo‘lgan yozma xabardir“ [1.67].

Matnlarning mazmun va mohiyatiga ko‘ra, ilmiy, texnik, badiiy, axborot, lirik, argumentativ, tasviriy, huquqiy, hikoya kabi turlari mavjud.

Texnik matn – bu aniq va aniq matn bo‘lib, uning maqsadi ilmiy bilimlarni qo‘llash uchun metodologiya va jarayonlar to‘g‘risida ma’lumot berish, shuningdek, ish qurollarini osonlashtirishdir. Masalan, kataloglar, qo‘llanmalar, ko‘rsatmalar va boshqalar.

Ilmiy matn – bu nazariyalar va tushunchalar ishlab chiqilgan va qo‘shimcha ravishda har xil ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha qat’iy tuzilish orqali erishilgan yutuqlardir. Ular faqat ilmiy yangiliklardan ajralib turadigan ixtisoslashgan texnik tillardan foydalanishga moyildirlar. Ular eksperimental natijalarni taqdim etish va gipotezalarni shakllantirish kabi aniq elementlarni kiritishdan tashqari, tavsiflovchi, argumentativ yoki tushuntirish matni elementlarini birlashtirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Soha sifatida 1960-yildan beri texnik tarjima tan olingan, o‘rganilgan va rivojlangan. Ushbu soha haqida so‘z yuritar ekanmiz, dastavval, “Tarjima” tushunchasiga ilmiy adabiyotlarda berilgan turli xil ta’riflarga e’tiborimizni qaratsak. Tarjima – bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko‘ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko‘rinishlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Tarjima qadim davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og‘zaki turi hozirda ham saqlanib qolgan. Tarjima umuman nazariya va amaliyot ta’sirida bo‘lgan san’at va fanning muvozanatidir [2].

Texnik tarjima professional tarjimaning turli xil turlaridan faqat bittasi bo‘lsa-da, bu natijaga kelsak, bu eng katta to‘plamdir. Hozirda professional tarjima qilingan ishlarning 90%dan ortig‘i texnik tarjimonlar tomonidan amalga oshiriladi [3]. Tillarning lingvistik sifatlarini to‘g‘ri tarjima qilish madaniyati mavzusi va texnik tarjima sohasida o‘ziga xos madaniy xususiyatlar qanday o‘tkazilishi va yetkazilishi muhim. Aslida, madaniy tarkibiy qismlarni o‘zaro tushunish texnik tarjimada lingvistik bilimlar singari

muhimdir. Bu texnik tarjima bilan ishlashning murakkab xususiyatini ta’kidlaydi. Ikkala madaniyat bir xil maqsadli til bilan ishlayotgan bo‘lsa ham, turli madaniyatlar aloqa qanday sodir bo‘lishida keskin farqlarni ko‘rsatishi mumkin. Rossiyalik hamkasblar bilan ishlaydigan bitta kanadalik texnik tarjimon va maslahatchi Shimoliy Amerika ingliz va global ingliz tillari bilan ishlashdagi qiyinchiliklarni batafsil bayon qildi. Ritorik yozuv strategiyasidagi nomuvofiqliklarga, ohanglaring farqlanishiga, hujjatlarni formatlash masalalariga va muhandislik hisobotlari uchun qarama-qarshi konseptual maqsadlarga duch kelganda, muallif texnik tarjimada to‘g‘ri muloqotga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan madaniy amaliyotlarni lingvistik shakllarning to‘g‘ridan to‘g‘ri doirasidan tashqarida ta’kidlaydi [4].

Texnologiyalar qulaylik va tezkor aloqani kengaytirishga imkon beradigan davrda, texnik tarjimon madaniyatning odamlar texnologiya bilan o‘zaro munosabati va ulardan foydalanishda qanday rol o‘ynashi va ushbu madaniy bog‘liq tushunchalar aloqa qilingan xabarlarga qanday ta’sir qilishi mumkinligini tushunishi kerak. Tarjimalar vaqt cheklovlari va tarjima tajribalarga qarash, qadamlar orasida oldinga orqaga sakrashlari mumkin. Masalan, ular tarjimon qilish bilan bir vaqtda qayta ko‘rib chiqishi mumkin. Tarjimon ham ulardan o‘tishi mumkin ma’lumotnomalar va tadqiqot matn turi bilan qanchalik tanish ekanliklariga qarab [5]. Ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish jarayonida quyidagi talablarga amal qilinishi lozim: tarjima ekvivalentiga, tarjima aniqligiga, tarjima ma’lumotlar sifatiga, tarjima mantiqiyligiga va uning yoritilish sifatiga. Ilmiy-texnik matn sifatli tarjimaga ega bo‘lishi uchun tarjimon quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:

– chet tili nazariyasi, tilning fonetikasiga, leksikasiga va grammatik tuzilishi haqida bilimga ega bo‘lishi lozim;

– ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish xususiyatlar ko‘nikmasi amalyotiga;

– lingvistik amaliy bilimga (tarjima usullari, transformasiya, so‘zlar ekvivalentini almashtirish ko‘nikmasi, so‘zlar qo‘shish ko‘nikmasi, atamalr bilan tasvirlash ko‘nikmasi va hokazo);

– matnni tarjima qilish jarayonida gap mazmuni va jumlalarni ishlata olish ekstralingvistik bilim va qobliyatiga ega bo‘lish lozim, bunda maxsus ilmiy-texnik matnni tarjima qilishda yetarli ma’lumotlarga ega bo‘lish talab qilinidi [6.253–259].

Xulosa. Ilmiy-texnik matnlarni tarjima qilish muammolari ilmiy-texnik matnlar bilan ishlash muammolari ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Mazkur masalada ilmiy tarjima mutaxassis oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi: tegishli fan sohasidagi bilim, tarjimon taqdim etilgan matnni, uning atamalarini, professional terminlarni tushunishi, tasvirlangan burilishlar va jarayonlarni tushunishi kerak, ilmiy hujjatlar tarjimasi va ko‘rsatmalar taqdimotning yuqori aniqligini talab qiladi, har qanday xato yoki noto‘g‘ri talqin qimmatga tushishi mumkin, ilm-fanning doimiy rivojlanishi uchun tarjimonning tegishli sohada ma’lumotga ega bo‘lishining o‘zi yetarli emas, uni doimiy ravishda o‘rganish, eng so‘nggi ishlanma, tadqiqotlarni, terminologiya va jargonlarni kuzatib borish kerak. Ko‘pincha, tarjimon ham texnik muammolarga duch keladi.

Ba’zan siz atamaning noaniqligi haqidagi gaplarni eshitishingiz mumkin, ular turli xil bilim sohalarini anglatadi. Yuqoridagi ta’riflar bunday talqinni istisno qiladi, chunki ular atamaning ishlatilishini faqat bitta fan yoki texnologiya sohasiga cheklaydi. Bundan kelib chiqadiki, bir xil so‘z turli bilim sohalarida turli atamalar sifatida qabul qilinishi mumkin. Masalan, Steuerregelung (soliqni tartibga solish) so‘zi iqtisodiyotda soliqlarni, soliq stavkalarini o‘zgartirish, avtomobil sanoatida soliq imtiyozlarini belgilash orqali iqtisodiyotga, iqtisodiy va uyqu jarayonlariga bilvosita ta’sir o‘lchovini belgilash uchun atama sifatida ishlatiladi, xuddi shu atama. boshqaruvni sozlashni bildiradi. Tarjima qilishda siz buni doimo eslab qolishingiz kerak, chunki lug‘atda ma’lum bir atamani qidirish har doim faqat kerakli bilim sohasi bilan cheklanishi kerak.

Xullas, R.V.Gumpelt o‘z asarida texnik matnlar va tabiiy fanlar matnlarini tarjima qilish muammolariga alohida to‘xtalib, “umumiylik” va pasta ast atamalarini qo‘llaydi, shunda bu talab barcha maxsus matnlarga tegishli bo‘ladi. Tarkibga yo‘naltirilgan matn tarjima qilishda kontent rejasi darajasida o‘zgarmaslikni ta’minlashni talab qiladi. Avvalo, tarjima matnidagi mazmun va ma’lumotlarni to‘liq yetkaza olganingizga ishonch hosil qilishingiz kerak. Bu eng muhim talabdan kelib chiqadiki, tarjimaning til dizayni so‘zsiz maqsadli tilga mos kelishi kerak, boshqacha aytganda, tarjimaning dizayni, birinchi navbatda, tarjima tiliga qaratiladi [7].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гальперин И. Р. О понятии «текст». Материалы научной конференции «Лингвистика текста». Т., 1, М., 1974, с. 67.

2. Larson, Mildred L., ed., Tarjima. Nazariya va amaliyot, taranglik va o‘zaro bog‘liqlik (Binghamton: American Translators Association Scholarly Monographs, 1991).

3. a b v Kingskott, Jefri. Translatologiya bo‘yicha tadqiqotlar. Perspektivlar, 10.4 (2002), 247–255

4. Rustamov I.T., Atabayev I.M., Muxtorova X.I., Yaxshilikova N.X. (2021). DESCRIPTIONAL PRINCIPLES OF NOUN UNITS, 48 (11).

5. Ataboyev I. (2022). Ingliz tilida ta’na-dashnom tushunchalarni bildiruvchi leksik birliklarning semantik maydoni. Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими.

6. Муродқосимов А., Рахманова Д., Санакулов З., Зарипова Г. Немис ва ўзбек тилларида сўз ясаш усуллари (композицион усул мисолида).

7. Lee, Jeffrey (2014). Von Humboldt, Alexander. The Encyclopedia of Earth. Archived from the original on 27 September 2015, Retrieved 26, September 2015.

Tursunova Mukhlisa Vakhobovna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail: mukhlisa_vakhobovna@mail.ru)

JULIAN BARNSNING “METROLEND” ASARIDA SUKUNATNING POSTMODERN ISYONI

Annotatsiya. *Tadqiqot ishida Julian Barnesning“Metrolend”asarida zamonaviy postmodern yoshlar madaniyatida badiiy ifodali sukunat muammosi va uning o‘ziga xos xususiyatlari, vazifalari va o‘rnini o‘rganish maqsad qilingan.*

Аннотация. *Целью исследования является изучение проблемы литературного молчания, его специфики, функций и значения в современной молодежной культуре постмодерна на основе анализа произведения Джулиана Барнса «Метроленд».*

Annotation. *The research aims to study the problem of literary silence, its specific features, functions and value in contemporary postmodern youth culture by analyzing Julian Barnes’s work “Metroland”.*

Kalit so‘zlar: *adabiy sukunat, zamonaviy yoshlar madaniyati, postmodern, Julian Barns, “Metrolend”.*

Ключевые слова: *литературная тишина, современная молодежная культура, постмодерн, Джулиан Барнс, «Метроленд».*

Key words: *literary silence, contemporary youth culture, postmodern, Julian Barnes, “Metroland”.*

Kirish. Postmodernizm–XX asrning eng yirik tanqidchisi Ihab Hassanning fikricha indetermanencega[1] asoslangan, ya’ni aniq bir manbaga yoki xulosaga tayanib ish ko‘rib, umumbashariyat uchun keng qamrovli global ma’no kasb etishga bo‘lgan urinishlarni rad etish, juda ko‘plab nigilistik falsafiy, ijtimoiy va adabiy qarashlarni kulminatsiyasiga chiqarib, biz mavjud deb hisoblagan reallikdagi barcha yovuz kuchlarga va mafkuraviy tuzilmalarga qarshi adabiyotni safarbar qila olgan adabiy oqimdir. Ihab Hassan postmodernizmning umumiy xususiyatlariga to‘xtalar ekan, rivojlangan davlatlarda uning badiiy, falsafiy va ijtimoiy hodisa sifatida hech bir ikkilanishlarsiz uzul-kesillikka, aql o‘yinlariga, maqbullikka, muvaqqatlikka, pozitsiyaviylikka, nutqning fragmentga va achchiq kinoyaga asoslangan noaniq shakllariga va difraksiya (atay g‘alis ma’no chiqarishga urinish deya ta’riflangan adabiy usul)ga moyilligi sabab murakkab va ifodali sukunatga keskin burilib ketganligini ta’kidlaydi. Bunga sabab sukunatda hech kimga hech narsani tushuntirishning hojati yo‘qligidir. Biror narsa, voqea, hodisa va xarakterlarni tasviriy yoritishda muallif kitobxonning ongida hosil bo‘ladigan jarayonlar uchun o‘ziga mas’uliyat olmaydi. Bu holat postmodern badiiy uslubining to‘laqonli uslub sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. “Insonlar faqat sukunat va sokinlikda borliqning dardlarini his eta oladilar”,[2]deydi u.

Sukunat XIX asrda shu davr madaniyatining va ustuvor realistik qarashlarining bir qismi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, XX asrga kelib san’atda tasvirning asosiy elementiga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, postmodern insonlar ruhiyatidagi keskinlikni o‘zida ifoda etuvchi metaforaga ko‘chdi. Badiiy sukunat tushunchasi ruhning intihosi yoki qalbning o‘limi sifatida emas, balki akseleratsiya holatida tezlashib ketgan modern va disseleratsiya bosqichiga o‘tgan postmodern jarayonda o‘zini xavfsiz his qilishni ko‘zlagan jamiyatlarning g‘oyaviy konsepsiyasi sifatida qo‘llanila boshlandi.

[1] Hassan I. Orfeyning parchalanishidan postmodern adabiyot sari. AQSH, 1982, qayta nashr, 269-bet.
[2] Ibid. 241-bet.

Metodologiya. Ihab Hassanning fikricha, postmodern adabiyotda *sukunat* quyida sanab o‘tiladigan shakllari sabab ikki yaxlit holatda namoyon bo‘ladi. Birinchisi, “tilning nigilistik, destrukturaviy, iblislarga xos salbiylikni o‘zida aks ettiruvchi va ikkinchisi uning ijobiy, chegara bilmas, oliymaqom, shukuhli osoyishta holatidir”.[1] Binobarin, u o‘zining 1967-yilda “Sukunat adabiyoti” asarida “yangi adabiyotda”,[2]ya’ni, “antiadabiyot”da sukunatning bir necha shakllarini sanab o‘tadi: *asl sukunat* (salbiy intiho sabab yuzaga kelgan sukunatdan boshlangan ibtido), *metaforali sukunat* (adabiy beadablik), *apokaliptik sukunat* (aks motivli sukunat, ya’ni, asl ma’nosida mazmunga ega bo‘lmagan sukunat) *achchiq sukunat* (istehzoli sukunat) va *osoyishta sukunat.*

Ikkinchi jahon urishi sabab kelib chiqqan og‘ir yo‘qotishlar, vayronagarchiliklar va uning oqibatlari bo‘lgan Dresdenning bombardimon qilinishi (Kurt Vonnegutning “Kushxona 5” asari), Hiroshima va Nagasakiga atom bombasining tashlanishi insonlar ongida burilish yasagan voqealar sifatida tarixga muhrlandi. Bu kabi shafqatsizliklar oldida inson hech bir so‘z topa olmay qoldi va chuqur sukunatga cho‘mdi. Shunday sukunat adabiyotda yangi davr, ya’ni “yangi adabiyot”ni boshlab berdi. Adabiyot dardlarini sukutlarida yashirgan qahramonlarning istehzoli yozma sukunatiga aylandi. Endi u umidsiz qahramonlarning ummondek to‘lib toshgan sukunatini hikoya qilishni iroda qildi. Sukunat bu biz eshitmaydigan ovozlar – g‘azab ovozlari, qiyomat ovozlariga aylandi…

Natijalar. Julian Barns o‘zining ilk postmodern asari “Metrolend”da ikki o‘smir qahramon Kristofer va Tonining jismoniy va ruhiy yetuklik sari bosib o‘tgan yo‘llarini tasvirlaydi. Ular o‘zlari yashayotgan zamon va makonni idrok etish uchun sukunatni asosiy vosita qilib olganlar.*“Men sukunatimda o‘rganaman. Sen esa kuzatishlarsiz aniq ko‘rsatmalarga amal qilib melodrama usulida o‘rganasan”,*[3] deya tanbeh berilgan qahramonimiz Kris o‘zining keyingi harakatlarini ongli ravishda sokinlik bilan ijro etadi. Muallifning bunday tanqidiy yondashuvi uning modernizmda ustunlik qilgan melodrama uslubidan butunlay chekinganligini namoyish etadi. Amerikalik nazariyotchi olim, Piter Bruksning fikricha, “melodrama modernlashgan zamonning yetakchi tasavvur shakli bo‘lib modernizm adabiyotida hal qiluvchi ifoda uslubi[4]” sifatida xizmat qilgan. Bordi-yu “borliq ming so‘z bilan ifodalashga loyiq bo‘lsa…”, uni tushunish uchun unga sarflangan “…sukunatning ming soniyasiga loyiq emasmi?”[5] Shubhasiz, bu savolga javobni sukunatning asl mohiyatini tushunib yetganlargina biladilar.

Sukunat o‘zining psixologik, emotsional, estetik va ijtimoiy-siyosiy ildizlariga ega, borliqni va undagi haqiqatlarni nafaqat nutqsiz ifoda eta oladigan til, balki til ifoda etishga ojiz qolgan modern jamiyat g‘oyalarining salbiy oqibatlarini postmodern adabiyotiga ko‘chirgan fenomenal hodisadir. Bu ikki qahramon katta hayotga qadam qo‘yishni London markazidagi Milliy Galeriyadan boshlaydilar, shu yerda, faqat kattalargagina xos masalalarni tushunish imkonini beradigan “katta” odamlar va ularning ruhiy holatiga guvoh bo‘ladilar. Chunki “postmodern epistemada, ya’ni, ilmiy xulosalarida so‘zlar haqiqatni ifoda etishga qodir emas, ularga ishonib bo‘lmaydi”.[6] Haqiqatni endi asar xarakterining sukutlaridan, sukunati sabab yuzaga kelgan ma’noli kuzatishlaridan qidirishga mahkummiz“. “Arnolfini to‘yi” (Yan Van Iyk tomonidan 1434-yilda yaratilgan san’at asari) oldida avval chuqur hislarga cho‘mib so‘ngra mayin tabassum qilib, keyin esa to‘sattan bir lahzada, qovog‘ini uyib, norozilik kayfiyati uyg‘ongan erkaklar ko‘zoynagini taqib olgan yosh rohibaning”[7] yashirin kechinmalarida asar yaratilgandan beri ayon bo‘lmagan siri – haqiqati oshkor bo‘lar, balki?! Portretda tasvirlangan inson so‘z bilan yetib borishi mumkin bo‘lmagan haqiqatning ildizi butun umrini diniga, poklik va itoatkorlikka bag‘ishlagan yoki bag‘ishlashi kutilgan, ammo erkaklar ko‘zoynagini taqib olgan rohiba ayolning ko‘z o‘ngiga “allaqachon” homilador ayolga uylanayotgan Arnolfinining to‘yi marosimi tasvirini olib kelib undagi yuz ifodalarini jimgina kuzatayotgan o‘smirning sukutida yaralgan o‘ylari *beadablik*dek tuyulsa ham, bu o‘rinda faqat shu usulgina postmodern yozuvchilar da’vo qilgan o‘ta samarali tugal ma’no – haqiqat sari yetaklashi mumkin. Albatta, muallif buni yuzaga chiqarish uchun birgina kuzatish bilan cheklanib qolmaydi. Kapushonkali yengil kurtka kiyib olgan sayyoh qizning rassom Krivellining “Mehrob bo‘laklari” oldida turib yonoq suyaklari

[1] Ibid. 248-bet..
[2] Hassan I. Sukunat adabiyoti. H.Miller, S.Bekket. Alfred Knof. NY, 1967.
[3] Barns J. Metroland. Internatsional. 1980, p. 11.
[4] Brooks Peter. The Melodramatic Imagination. Balzac, Henry James, Melodrama, and the Mode of Excess, 1976, New Haven, CT, Yale University Press, 1995, Print.
[5] Hiebert T. In Praise of Nonsense. Aesthetics, Uncertainty, and Postmodern Identity. McGill-Queen’s University Press, 2012, Canada, p. 168.
[6] Guinery V. Ingliz zamonaviy romanlarida ovozlar va sukunat. Kembrij Skolars Pablishing. 2009, 7-bet.
[7] Barns J. Metroland. Internatsional. 1980, 11-bet.

va qoshlari ostidagi terining taranglashganini va lablarining bir biridan bexos ajralganini jimgina kuzatgan o‘spirinlarning bu kabi *“ibodat maskanlaridan”*[1] mangu muhabbatga daxldor hech bir go‘zal namuna chiqmasligiga ishontirgan ham *beadab sukunat* ekanligiga shubha yo‘q. Turli vaqtlarda turli sharoitlarga moslasha olgan Rassom Krivellining, “murakkab vizual o‘yinlar va illyuzionistik hiyla-nayranglarga boy”[2] bu san’at asari sodda rassomning ishi emasligi qanchalik ravshan bo‘lsa, o‘zining vaqtinchalik hirslariga boshqalarni ham qul qilish mahorati bu qizga begona emas.

O‘z asarlarini san’at akademiyasining talablari va didi doirasidan tashqarida namoyish etishga ont ichgan fransuz impressionist rassomi Monening kichkina peyzaji oldida bo‘r chiziqli kostyum shim kiyib olgan va sochlari o‘ng qulog‘idan roppa-rosa bir dyuym balandlikdagi farq bilan ajratilgan erkakning shishirib, so‘ng havosi chiqarib yuborilgan shardek xo‘rsinishi, umrini o‘z boshliqlarining buyruqlarini bajarish va qog‘ozbozlikka sarflayotganing achchiq haqiqatini achchiq sukunatida oshkor qilsa boshqa bir tomondan balki bu o‘smirlarga qanday qilib bo‘lsa ham, bunday yashab o‘tmaslik haqida ogohlantirish berayotgandir. Qahramonlar ham bu *achchiq sukunat* bilan yo‘llanayotgan umr maktubini ich-ichlaridan his etib jimgina o‘qiyotganlariga hech shubha yo‘q.

Qizil makintosh kiygan o‘rta yoshli xonimning Van Deykning “Charlz Ichining otliq portreti” oldida termulib turgan holati “Metrolend” yosh qahramonining bu xonim haqidagi qisqa spekulyativ biografik tafsilotlarini yaratishiga yetarli vaqt va imkon yarata oldi va o‘ta achchiq hayotiy haqiqatni anglashiga sababchi bo‘ldi. Ayol portretga nafaqat termulib turardi, balki unga butlarga sig‘ingandek qo‘llarini qovushtirib *ilohiy xotirjamlik*[3] istagini ifoda etardi. O‘smirning sukunatida esa bu ayolning haqiqiy ruhiy qiyofasi shu tarzda o‘z aksini topayotgan edi: *Tovuqmiyami? Alamzadami? Qirq besh, ellik yoshlarda. Xariddan qaytgan. Turmushga chiqqan, ikkita bolali, endi uni ezishning imkoni yo‘q. Xo‘jako‘rsinga baxtlidek, aslida butunlay norozi.*[4] Barcha noroziliklarini achchiq sukunatida yashirganmi? Yashira olganmi? O‘z-o‘zidan ayon bo‘la boshlagan bunday achchiq haqiqatni yashirishdan maqsad nima?! Oshkora yo‘l tutsa bo‘lmasmidi? Noroziliklardan butlarga sig‘inmasdan, butlarga sig‘inishni ibodat va ilohiy darajaga ko‘tarmasdan forig‘ bo‘lib yashash imkoni yo‘q edimi?! Balki, bu xonimda bo‘lmagandir ammo bu asar qahramonlarida bor va ular butunlay shunday yashashni tanlab ham bo‘lishgan va faqat bu xonim ular uchun yana bir bor hayotiy misol bo‘ldi. Endi ular achchiq sukunatni eng kamida qir besh ellik yilga bostirdilar, bu ularning isyonlari mevasi bo‘ldi. Achchiq haqiqatni anglatgan va unga yechim topa olgan “o‘z isyoni tomonidan bostirilgan ong hayqirig‘i”[5]– achchiq sukunat o‘z vazifasini o‘tadi.

Keyingi o‘rinda bizning o‘smir qahramonlarimiz London ko‘chalari bo‘ylab ularni butun umr sukut saqlab yashashga majbur qiladigan jamiyatning byurokratik tuzilmalari ichida juda *katta narsalar haqida qayg‘urayotgan edilar*, masalan o‘zlariga o‘xshagan *xudosizlarning so‘nggi ilohiy ilinji bo‘lgan ranglardan* xavotirda edilar (Krisning fikricha, bu haqda boshqa vaqt, masalan qariganda, qayg‘urish be’manilik bo‘lardi). Ular o‘zlarining xudosizlar deya tamg‘alanishlarini jimgina qarshi oldilar. Qahramonlarning *apokaliptik sukunati* sharoitida yuzaga kelgan haqiqati shundaki, butun olamning yukini zimmasiga olganlar uchun ranglar ahamiyatsiz bo‘lib qoldi. Holbuki ulardek “xudosizlar” ranglar vositasida anglashilgan ilohiy borliq haqida ko‘proq qayg‘uga botgan edilar. Amerikalik kompozitor, faylasuf va yozuvchi Jon Keyj “Jimjitlik” asarida shunday deydi: “Bizning maqsadimiz xaosdan yangi tuzum yaratish ham, undagi borliqni mukammallashtirish ham emas, balki bu hayotning borligini tan ola bilish va o‘zimiz yashayotgan hayotda uyg‘onishdir. Inson fikrlarini boshqarib, istaklarini yengib o‘tib, ongli ravishda harakatlansa yoinki aql doirasida ish ko‘rsa, shubhasiz, eng to‘g‘ri yo‘l bo‘lgan bo‘lar edi”.[6] Ikkala muallif ham ma’naviy hayotini amalda adabiyotga chuqur moslashtirganligini ko‘rishimiz mumkin.

Asarning bosh qahramoni Kris bir necha o‘rinlarda uning uchun kutilmagan ammo “tabiiy” holatga aylanib qolgan noqulay va uyatsiz vaziyatlarda sukut saqlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi va unga *erkak bo‘lib ulg‘ayayotganini*[7] shu yo‘l bilan anglatmoqchi bo‘lgan jamiyatni *istehzoli sukunatida* tark etadi. Sukunat – postmodern qahramonning o‘ta og‘riqli mavzulardan o‘zini olib qochishga qaratilgan oldindan iroda qilingan strategiyasi sifatida rivojlandi.

---

[1] Ibid. 11-bet.
[2] https://www.thecollector.com/carlo-crivelli-medieval-renaissance-painter/
[3] Barns J. Metroland. Internatsional. 1980, 12-bet.
[4] Ibid. 11-bet.
[5] Kamyu A. Isyon. Vintaj Buks. NY, 1956, p. 91.
[6] Keij J. Jimjitlik. Vesleyan Universiti Press. AQSH, 1961, p. 95.
[7] Barns J. Metroland. Internatsional. 1980, p. 20.

Qahramonimiz Kris uchun hayot bu bir san'at asaridek, "san'at va tarixning qorishmasi[1]", undagi qiyofalar esa jismga, tasvirga, tuyg'u va aqlga ega (hammasida ham emas) portretlar, xulosa shuki, sen san'atdagidek yashaysan va tarixiy haqiqatga aylanasan. San'at esa so'zlar ifodalashga qodir bo'lmagan borliq va undagi hodisalarni o'zida mujassamlashtirgan ranglar olami. Hayotingni so'z bilan tasvirlab bo'lmaydigan borliqqa aylantirmoqchi bo'lsang, san'atdagidek yashashni o'rganishing kerak. U hayotda shunday *osoyishta sukunat*dan yaralgan san'at parchalaridan bir butun mazmun izlardi. Ammo Metrolendda, bunga erishishning imkoni yo'q. Metrolend – Birinchi jahon urushi davrida mulk agentliklari va temir yo'l boshqarmasi tomonidan shahardan tashqarida "soxta" milliy birdamlikni saqlab qolish uchun tashkil etilgan metropoliten. Ikkinchi jahon urushidan sal oldinroq unga *mulk agentliklariga yoqish, o'ta jarangdor qilib tasvirlash, balki qulaylikni juda xush ko'ruvchilarga yana ham shinamroq qilish uchun* …"Metrolend nomini berishgan. Ehtimol, shu sabab u o'zining hozirgi holatiga – *burjua jamiyatining yotoqxonasiga*[2] aylangan. Tashkil etilgandan buyon bu yerda hech narsa o'zgargani yo'q, hatto lakomativlar ham, 1890-yillarda ham ular jigarrang tusda bo'lgan, hozir (1960-yillarda) ham. Metropoliten Metrolend nomiga o'zgartirilgandan keyin kirib kelgan birinchi poyezdda (unga Mayflower deya nom berishadi) kelgan yo'lovchilar (burjuazistlar) xuddi Misrga jo'natilgan "chigirtkalar yomg'iridek"[3] bu yerdagi bufetlarni yeb bitirganligi kelgusida undagi hayotning ahvolini aniq bashorat qilgandir. Bu "yomg'ir"dan keyin Misrda yashil narsaning o'zi qolmagan edi. Metrolendda ham hayot faqat jigarrang va to'q sariq rangga kirib qoldi. Bu *apokaliptik sukunat*ning boshlanishidan o'zga narsa emas. Binobarin, Kris Metrolendni o'lik burjuaziyaning so'nggi ramzi sifatida "qalbning sifilisi",[4] deya atadi. Bu yerda hayot faqat ikki xil bo'lishi mumkin. Odatiy holatda – sukunat makoni. Krisning hayotidagi juda ko'p narsalar, hodisalar, o'zaro munosabatlar va stol atrofida jimgina ovqatlanishdan boshlangan kun tartibi bir xil jimjitlikda o'tadi. Faqat Toni "jimgina gaplashish" mumkin bo'lgan yagona loyiq nomzod. Munosabatlarning, tuyg'ularning idrokdagi, qalbdagi va tildagi uyg'unligida namoyon bo'lishini kutgan qahramonimizning juda ko'p holatlarda hafsalasi pir bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Boshqa vaziyatlarda doim takrorlanib turadigan hech bir ma'no kasb etishga qodir bo'lmagan distopik cherkov qo'ng'iroqlari va poyezdlarning senga uyqu bermaydigan va sabringni oxirigacha sinaydigan ovozlari, yakshanba kunlari esa o'roq mashinalari motorlarining avval sekin keyin tezlashib, sal o'tib tormozlanib burilishi va yana tezlashib, tormozlanib burilishidan hosil bo'ladigan shovqindan iborat. XX asrning fan va texnika inqilobi insonlar boshqarishga ojizlik qilayotgan qudratli kuchlarni paydo qilganligiga shubha yo'q. Modernistlar yaratgan sivilizatsiya shovqinli madaniyatga aylandi, undagi insonlar esa nafaqat tashqi, balki ichki sukunatga ham toqat qilolmay qoldilar. O'zligini ifoda etishning yangi usuli sifatida kirib kelgan ekspressionizm modern jamiyatlarni tizginsiz ovozlar makoniga aylantirdi. Julian Barns shunday jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida bunday keskin muhitdan chiqib ketishning yagona yechimi sifatida sukunatni o'zining "Metrolend" asarida yangicha qiyofada kitobxonlar hayotiga olib kira oldi.

Xulosa. Sukunat postmodern jamiyatlarning o'zlari tushib qolgan boshi berk ko'chadan olib chiqishga qodir birdan bir chora ekanligini Julian Barns "Metrolend" asari qahramonlarining hayotlari misolida ko'rsata olganligiga shubha yo'q. Julian Barnesning ilk asari qahramonlarini hali voyaga yetmaganlar orasidan tanlab olganligiga postmodern avlodning inson aqli, idroki va ruhiyatining mohiyatan kamolotga erishishi uning sukunatni qanchalik o'zlashtira olganligiga bog'liqligini namoyish qilish sabab bo'lgandir. Bizning o'smir qahramonimiz Kris insoniyatga mag'rur va tinimsiz gapiraveradigan og'izlardan chiqayotgan shikoyatlar, ta'nalar, malomatlar va haq talashishlar emas, balki sidqidildan tinglashni biladigan tirik qalblar kerakliligini o'zining xotirjam harakatlari bilan uyg'unlikdagi biroz istehzoli, ba'zan achchiq, ba'zan esa osoyishta sukunatlarida namoyish eta oldi. Kris va Toni juda ko'p o'rinlarda sukunatning mahoratini ustalik bilan ko'rsatib hayotiy tajribaga ega bo'lib borganligining guvohi bo'lamiz. Bunday tajribani ular London muzeylaridan tortib temir yo'l terminallari, cherkovlar, ko'cha tashqarisidagi xiyobonlar, usti ochiq bozorlar, sud zallari, qovoqxonlaru, ayollarning ich kiyimlari sotiladigan do'konlargacha hamma hammasida durbin ko'tarib u yerga tashrif buyuruvchilarning yuz ifodalari, odatiy yoki g'ayritabiiy harakatlari va o'zlarini tutishlarini kuzatib ularning ruhiy holatlarini o'rganishni o'zlariga odat qilib olish orqali erishishgan edi. Qahramonlarimizniing fikricha odamlarni o'rganish uchun ular bilan gaplashishdan hech bir ma'no chiqarib bo'lmaydi. Bu yo'l bilan haqiqat ildizlariga yetib borish amrimahol.

[1] Ibid. 85-bet.
[2] Ibid. 35-bet.
[3] Bibliya. Exodus. 11–13 p.
[4] Barns J. Metroland. Internatsional. 1980, p. 20.

Ularni kuzatishda ham, iloji boricha, sezdirmasdan harakat qilishlari shart, chunki kimdir o‘zini kuzatib turishganini sezib qolsa, darhol o‘zining holatini o‘zgartirish payiga tushib qolardi. Ularni sukunatlarida sokinlik bilan o‘rganish ular haqida eng to‘g‘ri haqqoniy xulosaga kelish imkonini berardi. Ammo qahramonimiz Krisning fikricha, “bu yo‘l bilan ular dunyoga o‘z-o‘zini tushunishiga ko‘proq imkon bergan bo‘lishar ekan”.[1] San’at asarining badiiyligiga uning asosiy tahliliy obyekti sifatida urg‘u berish asrlar davomida birlamchi usul bo‘lib xizmat qilgani hammaga ayon. Julian Barns esa uning dekonstruktiv ya’ni badiiy bo‘lmagan xususiyatlariga e’tibor qaratib masalaga yondashish orqali o‘zining “Metrolend” asari qahramonlarini haqiqiy hayot va undagi me’yorlarning qanchalik darajada hayotiy va insoniyligini tushunishga chorlaydi. Asarning bosh qahramoni *san’at va hayotni chinkamiga birlashtirib yubora oladigan yo‘l topishni orzu qilardi.*[2] Bir qarashda, biz uni san’atga shu qadar oshno qilgan sabab san’atning ulug‘vorligi va batakror go‘zalligida deb o‘ylashimiz mumkin. Ammo, u *bizning san’atga bo‘lgan ishtiyoqimiz hayotimiz bo‘shliqlarining oqibati bo‘lishi mumkinligidan qo‘rqaman* deya ta’kidlaydi. Aslida hayotimizni mazmunli qilishi mumkin bo‘lgan narsa mavjudmi yoki u shundayin bo‘shliqdan iborat bo‘lib qolaverishi kerakmi? Bu bo‘shliqni san’at bilan to‘ldirish mumkinmi? Bu savolga aniq bir javob aytish yoki uni xulosalash Julian Barnesning uslubiga xos ish emas. Balki, shuning uchun ham yozuvchi asl ha-qiqat tomon ichki munozaralar va aniq bir xulosalarsiz davom etishni afzal ko‘rgandir. *“Qanday qilib bu ikki tushuncha (hayot va san’at) o‘zaro bog‘liqlik hosil qilishi mumkin? Ularni muvozanatda ushlab turadigan biror kuch mavjudmi? Ular biz taxmin qilganimizdek ayri hodisalarmi? Hayot san’at asari bo‘lishi mumkinmi; yoki san’at asari hayotning yuqori shaklimikin? Yoki san’at dinsizlarning dabdabali o‘yinkulgudan iborat soxta ruhiy holatlarini namoyish etishning oliy shakli bo‘lganmikin?!”*[3] deydi u. Uning fikricha, hayot va borliqning mohiyatini anglab yetishda imitatsiya faqat nomukammallik sari yetaklashi mumkin. Muallif san’atni tarixning bir bo‘lagi sifatidagi xususiyatini G‘arb an’analarida “ekfrastik nuqtai nazar”[4] bilan yoritishda sukunatdan samarali foydalana oldi.

Otamurodova Dilafruz (O‘zDJTU)

ANDRE MORUA NOVELLALARIDA DIALOGLARNING STRUKTURAVIY VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada dialoglarning mashhur fransuz yozuvchisi Andre Morua novellalaridagi strukturaviy va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Adibning o‘z asarlarida ko‘proq dialoglarga murojaat qilishi, g‘oyani ochib berishda ushbu so‘zlardan mohirona foydalanishi uning asarlarining ta’sirchanligini oshirib, keng kitobxonlar orasida sevilib o‘qilishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, maqolada dialoglar va ularning muloqot shakli sifatida qo‘llanilishi tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье даётся анализ структурно-функциональных особенностей диалогов на примере новелл французского писателя Андре Моруа. Использование автором большего количества диалогов в своих произведениях, умелое использование этих слов для раскрытия идеи, повышает эффективность его произведений и делает их популярными среди читателей. В статье также анализируются диалоги и их применение как форма общения.*

Annotation. *In this article, the structural and functional features of the dialogues on the example of short stories by the French writer Andre Mauro is given. The author's use of more dialogues in his works, his skillful use of these words in expressing thoughts increases the effectiveness of his works and makes them loved and read by a wide range of readers. The article also analyzes dialogues and their use as a communication form.*

Kalit so‘zlar: *novella, dialoglar, qahramon, adabiyot, voqea, mazmun, davr.*

Ключевые слова: *новелла, диалоги, герой, литература, событие, содержание, эпоха.*

Key words: *novel, dialogues, hero, literature, event, content, epoch.*

Asarning dialogik qismi tarkibiy va semantik dizaynda murakkab nutq tuzilmasi hisoblanadi, bunda replikalar o‘rni, so‘zlashuv fe’llarining semantikasi, dialogdagi belgilar jamlanmasi, vaziyatning taqdimoti, turli xil nutq konstruksiyalari va boshqalar muhim o‘rin tutadi. Bu omillar muloqot qiluvchilarning niyatlari va ifodalarida o‘z tipologiyasiga ega bo‘lgan har xil turdagi dialoglarning nutq tuzilishini belgilay-

[1] Barns J. Metroland. Internatsional. 1980, p. 29.
[2] Ibid. 114 p.
[3] Ibid. 114 p.
[4] Gorbina N. The Ekphrastic Gaze in British Postmodern Fiction.

di. Qarama-qarshi tabiiy so‘zlashuv nutqi badiiy so‘zlashuv nutqi konstruktiv, semantik va pragmatik xususiyatlarni mohiyatan ajratishga imkon beradi: jonli so‘zlashuv nutqi o‘z-o‘zidan, o‘ziga xos grammatik va leksik jihatdan tashkil etilgan, asosan, to‘g‘ridan to‘g‘ri nutq bo‘lib, parchalanish va segmentatsiya bilan tavsiflanadi, unda muloqotning ko‘pgina noverbal komponentlari og‘zaki ifodaga ega emas, tabiiy so‘zlashuv nutqida fonetika va intonatsiyaning o‘rni katta.

O‘z navbatida, badiiy matndagi so‘zlashuv nutqi yozma adabiy asarning me’yoriy taqdimoti asosida qurilgan strukturaviy-semantik qurilishdir. U ichki tuzilish doirasiga ega, badiiy matnda ma’lum bir til davriga xos bo‘lgan psixologik, kognitiv va ijtimoiy-madaniy muloqot munosabatlarini o‘rnatadi va muallif-o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni tasvirlashda muallifning niyatlarini aks ettiradi.

Dialogik muloqot namunalari va uslubini shakllantirishda, kompozitsion tuzilmani ifodalovchi matnning dialogik qismini o‘rnatish va tavsiflash, dialogning strukturaviy va funksional xususiyatlarini tahlil qilish Andre Morua novellaridagi dialoglarning badiiy adabiyotdagi rolini aniqlashga imkon beradi. Novellarda milliy-konseptual dunyoqarash va dunyoqarashga xos bo‘lgan dialogik tuzilmalarning mazmunli turlari o‘z ifodasini topgan.

1. Dialog badiiy adabiyotdagi personajlar nutqining asosiy shakli sifatida kommunikativ muloqotning ixchamlashtirilgan shaklidir. Novellarda dialogik muloqot, bir tomondan, tabiiy nutq aloqasini eng ishonchli va to‘g‘ri aks ettiradi, chunki muallif va personaj nutq rejalarining kombinatsiyasi natijasida hosil bo‘lgan matnning dialogik qismi o‘quvchiga to‘liq tasavvur qilish imkonini beradi. Bunga misol qilib “Le testament” (“Vasiyatnoma”) novellasi so‘ngida Gaston va Valentinning yakunlovchi dialogini keltirish mumkin.[1]

2. Badiiy nasr tilidagi dialogik tuzilmalarning kommunikativ xarakteri muallif “men”ining niyat va taassurotlari, matnning me’yoriy tabiati, badiiy asarning turi, o‘z davrining madaniy va lingvoijtimoiy an’analari va so‘z ijodkorining individual uslubiy xususiyatlari muallifning pragmatik yo‘nalishi bilan belgilanadi va dialogning nutqiy tuzilishida o‘z ifodasini topadi.

3. Tabiiy so‘zlashuv nutqi va badiiy so‘zlashuv nutqidagi farqlar nutq-xulq-atvor hamkorligi tamoyili va usuli bilan belgilanadi, qarama-qarshi og‘zaki dialogik nutq–yozma dialogik nutq o‘zining fonetik, intonatsion, struktur-semantik, grammatik, mimik, imo-ishora va boshqa ko‘rinishlari bilan farqlanadi.

4. Dialogik tuzilmalarning mazmunliligi Andre Moruaning asosiy ijodiy tamoyillari, so‘z san’atkorining dunyoqarashi va uning ijodiy e’tiqod natijasidir. Andre Morua badiiy adabiyotda hayotni qanday bo‘lsa, shundayligicha tasvirlaydi. “Thanatos Palace Hotêl” novellasida bosh qahramon Jan Монье nomiga direktor Genri Berstekerdan kelgan xat misol bo‘la oladi.[2]

5. Badiiy matndagi dialogik tuzilmalar kontekst hosil qiladi. Haqiqiy dialog – bu qahramonlarning dialogi badiiy nasriy asar, nutqqa egalik qilish va to‘g’ridan to‘g’ri muloqot natijasida voqelikka ishora qiluvchi nutq xulq-atvorni yaratish.

6. Surreal dialog badiiy dialog bo‘lib, unda bitta yoki bir qancha qirralar shunday o‘zgartiriladiki, natijada real nutq voqeligida o‘zaro aloqa paydo bo‘ladi. Muloqotning majburiy parametrlaridan qaysi biri yetishmayotganiga yoki u qanday taqdim etilishiga qarab noreal dialog turlari ajratiladi.[3]

7. Andre Morua o‘z novellarida bir tomondan, tabiiy dialogik muloqot, ikkinchi tomondan, faqat yozma muloqot shakllarini olgan. Haqiqiy va noreal dialoglar hamda ularning turlari o‘rtasidagi farq tabiiy nutq aloqasi bilan taqqoslash orqali paydo bo‘ladigan farqlar bilan asoslanadi.

8. Kommunikativ dialogik tuzilmalar motivatsiyalarning shaxsiy variantlari, o‘zaro ta’siri va vaqtni o‘z ichiga oladi. Psixolingvistik tartib hodisasi sifatida replikatsiyalarni ko‘paytirish dialogning maqsadli yo‘nalishini aks ettiradi, shu bilan birga, birinchi replika-stimul undan keyingi muloqot xarakterini boshqaradi (qarashlar to‘qnashuvi, o‘z pozitsiyasini tushuntirishga urinish, javobni aniqlashtirish, suhbatdoshdan ijobiy yechimga erishish istagi va boshqalar).

9. Andre Morua novellarida dialogik muloqoti natijasida paydo bo‘ladigan dialogik qismlar muallifning badiiy muloqotning matndan tashqari subyekti – o‘quvchining tushunishi bilan belgilanadi, chunki muloqotni tushunishda faqat idrok etuvchi ong sharoitida, o‘quvchi muallifning fikri va niyatiga rozilik-qarshiliklar bildiradir.

---

[1] A.Maurois. Nouvelles. Москва, 1966.
[2] O‘sha manba.
[3] Зуннунов А., Адабиёт ўқитиш методикаси. Т., “Ўқитувчи”, 1992.

Andre Morua personajlarining muloqotini o‘zgartirish usullaridan biri tabiiy so‘zlashuv nutqining kiritilishi bir nechta mavzuni aks ettirish, buning natijasida o‘quvchining suhbat subyektlarining nutq faoliyati haqidagi tushunchasini kengaytiradi.

Takroriy dialog – bu bir nechta dialogik tuzilmalarda o‘quvchiga ogohlantiruvchi va javob replikalarida davriylikni taqdim etadigan dialogdir.[1] Takroriy dialog takroriy muloqotni takrorlaydi va personajlarning nutqiy xatti-harakatlarining bir turidir. Andre Morua novellarida yashirin dialoglarda ikkinchi suhbatdoshning nusxalari mazmunini tiklashga yordam beradigan bayonotlar bor.

Yashirin dialog dialogik tamoyilga asoslangan muloqotning ushbu turi tashqi tomondan “monofoniya” sifatida amalga oshirilishiga asoslanadi. Unda suhbatdoshning ovozi bilvosita taqdim etiladi. Bir tomonlama muloqotning odatiy holi telefon suhbatidir. Masalan, “Irène” (“Irina”) novellasida Irina va Bernar o‘rtasida telefondagi suhbat.[2]

Potentsial dialogning tuzilishi ikki komponentdan iborat, odatda, asar muallifi tomonidan suhbatdoshning nutqiga javob berish uchun muallifning nutqi, xarakterning talaffuz qilinmagan to‘g‘ridan to‘g‘ri nutqi yoki qahramonning xohishi sifatida taqdim etiladi. Talaffuz qilinmagan to‘g‘ridan to‘g‘ri nutq shakli fe’llar va modal fe’llar orqali ifodalanadi.

Virtual dialog xarakter tomonidan bir-biriga ma’lum bo‘lgan suhbatdoshlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan tarzda o‘ylab topilgan. Qahramonlarning xayoliy muloqotini o‘quvchining dialogik muloqot sifatida qabul qilishi fe’llarning talqiniga asoslanadi, buklangan aloqaning tabiatini tavsiflash. “Parler”, “discuter”, “décider” fe’llari o‘z ma’nosida nutq aloqasining o‘ziga xosligini tavsiflashdan tashqari, nutq harakatining mosligini ko‘rsatadi va bu jarayonlarning kamida ikkita subyektini taklif qiladi. Virtual dialogni o‘z ichiga olgan dialogda dialog mavzusi berilishi mumkin va qahramon o‘ylagancha, ushbu dialogda yangrashi mumkin bo‘lgan replikalardan biri berilishi mumkin. Ikki shaxsning nutq tafakkurining nusxalari maxsus dialogik parchani tashkil etuvchi matnning harakat va kompozitsion tashkil etilishi qonunlariga muvofiq qurilgan.

Ichki dialog – muloqotdan farq qiluvchi o‘ziga xos dialogik tuzilma.[3] Ichki dialog tabiiy dialog asosida tuzilgan, ammo bu dialogning ikkinchi predmeti so‘zlovchi emas, balki nutq qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan xarakterning o‘zi xayoliy “men”dir.

Tabiiy tuzilishga o‘xshash dialogik tuzilma yaratiladi, unda replikalar ketma-ket keladi, lekin mavzuning xususiyatlariga ko‘ra, tovush parametriga ega emas. O‘z mohiyatiga ko‘ra, u bir xil xarakterdagi ong dinamikasini aks ettiradi, uning ichki psixologik jarayonlarini ochib beradi, uning o‘z-o‘zini ongidagi fikrlar oqimini ikki tomonlama pozitsiyalar to‘qnashuvi sifatida ifodalaydi.

Ichki dialog – bu qahramonning ikkinchi “men” bilan suhbati, go‘yo undan ajralib, alohida mavzuga aylanadi va qahramon bilan teng sharoitlarda muloqot qiladi. Ichki dialogni ichki monolog shakllaridan biri deb hisoblash mumkin, bunda muloqot darajasi maksimal chegaraga ega.

Dialogik matn fragmentini shakllantirishda ichki nutq turlicha ishtirok etadi. U butun xarakter rejasini ifodalashi mumkin bo‘lgan ichki dialogni tashkil qiladi, u faqat belgilar rejasining bir qismi bo‘lib, potentsial dialogni tashkil qiladi.

Moruaning novella dialogik qismlariga ichki nutqni kiritishi o‘quvchiga qahramonlar ongining ichki qatlamini taqdim etish vositalaridan biri bo‘lib, qahramonlarning o‘zlarini noto‘g‘ri tushunishlarini ochib beradi. Ushbu tuzilmalar o‘quvchiga qahramonlarning ichki hayoti dinamikasini ochib beradi, inson mavjudligining psixologik haqiqiyligini ko‘rsatadi.

Andre Morua novellarida dialogning epistolyar, ichki, potensial, va virtual kabi badiiy turlari tabiiy dialoglarga o‘xshashligi bilan bog‘liq holda noreal dialog turlariga tasniflanadi. Matndan tashqari mavzu – o‘quvchi bilan paydo bo‘lgan dialogik kompozitsiya – bu og‘zaki fikrlash jarayoni bo‘lib, unda muallif niyatining voqeliklari maqsadli talqin orqali “qayta ishlangan” va xarakter, o‘quvchining o‘zaro ta’siri muallif fikrining klassik namunasiga aylanadi.[4]

Shunday qilib, Andre Morua o‘quvchi tafakkurini badiiy voqelik borlig‘iga kiritadi. Novellalarda muallif tomonidan berilgan haqiqiy dialog turlari qahramonlarning tabiiy muloqoti haqidagi fikrni o‘z ichiga oladi.

---

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”.

[2] A.Maurois. Nouvelles. Москва, 1966.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”.

[4] Корди Е.Е. Конструкции с глаголом pouvoir в современном французском языке. Категории глагола и структуры предложения. Л., “Наука”, 1990, с. 174.

PEDAGOGIKA

Norboyeva Dilafro‘z Jumaqulovna (Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi)

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA RUS ADABIYOTI NAMUNALARINI O‘RGANISHNING USLUBIY TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va rus adabiyotining turli janrlarda yaratilgan, ertak, qissa, roman va boshqa turdagi asarlardan tashkil topgan badiiy asar namunalari muhokama qilinadi. O‘quvchilarga ana shu o‘xshash janrlar haqida ma’lumot berilsa, rus va o‘zbek adabiyotini solishtirish mumkin bo‘ladi. Eng muhimi, manbalarda har ikki xalqning ijodiy hamkorligi, adabiy hayotning bir-biriga ta’siri haqida yetarlicha umumiy ma’lumotlar mavjud.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются образцы художественного произведения русской классической и узбекской литературы, созданные в разных жанрах, которые состоят из сказок, рассказов, романов и других видов произведений. Когда учащиеся информированы об этих схожих жанрах, появляется возможность сравнить русскую и узбекскую литературу. Самое главное, что в источниках достаточно зафиксированы общие сведения о творческом сотрудничестве обоих народов, взаимном влиянии литературной жизни друг на друга.*

Annotation. *On the example of Uzbek literature, as well as in Russian literature, there are pictorial works in various genres, which consist of fairy tales, short stories, novels and other types of works. When informing students about this related genre, there is a need to compare Russian and Uzbek literature. Most importantly, the output of cooperation between students of both nations lies in common sources of information in the mutual influence of literary life.*

Kalit so‘zlar: *badiiy asar, janr, adabiyot, ertaklar, hikoyalar, romanlar, ijod, manba, o‘zaro ta’sir.*

Ключевые слова: *художественное произведение, жанр, литература, сказка, рассказ, роман, творчество, источник, взаимное влияние.*

Key words: *work of art, genre, literature, fairy tales, stories, novels, creativity, source, mutual influence.*

Zamonaviy adabiy ta’limning asosiy maqsadlari maktab o‘quvchilarini mahalliy va jahon adabiyoti xazinasi bilan tanishtirish, badiiy asarlarda aks ettirilgan voqelik hodisalarini estetik idrok etish va baholash qobiliyatini rivojlantirish, o‘quvchi shaxsining ma’naviy dunyosini shakllantirish, ijodiy salohiyat, axloq, fuqarolik, o‘z-o‘zini anglashning ijobiy va samarali ro‘yobga chiqishi uchun ichki ehtiyojni shakllantirishdir.[1] Ma’lumki, o‘qishlar o‘zbek tilida olib boriladigan sinflarda o‘zbek adabiyoti bilan bir qatorda, chet el va rus adabiyoti namunalari ham o‘qitiladi. Adabiyot mashg‘ulotlarida boshqa millat va xalqlar adabiyotini o‘zaro qiyoslab o‘rganish, o‘quvchilar bilimlarini boyitish, badiiy adabiyot haqidagi tasavvurlarini kengaytirish imkoniyatini beradi.

Ayniqsa, rus adabiyoti namunalarini o‘zbek sinflarida o‘rganishda birmuncha imkoniyatlar mavjud bo‘lib, anchagina rus ijodkorlarining asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Maktab o‘quv dasturiga kiritilgan rus adabiyoti namunalari ham mazkur qilingan tarjima asarlardan olingan namunalardan iboratdir. Ko‘p yillik pedagogik kuzatishlar natijasida chiqarilgan xulosadan kelib chiqib, rus adabiyoti namunalarini o‘zbek sinflarida o‘rganish usullariga doir ko‘zga tashlanarli uslubiy qo‘llanma yoki tadqiqotlarni uchratmadik.

Ma’lumki, ilk rus adabiyoti haqida o‘zbek sinf o‘quvchilari 4–7-sinfda tanisha boshlaydilar. Tabiiyki, bu sinflarda o‘quvchilar rus adabiyoti namunalarida aks etgan mavzu va boshqa adabiy-badiiy vositalar hamda ularda keng qo‘llanilgan badiiy janr turlari bilan tanishadilar. Rus adabiyotining jahon ahamiyati, unga xos bo‘lgan ulkan insonparvarlik salohiyati, mavzular xilma-xilligi, janrlar va uslubiy yondashuvlarning xilma-xilligi, eng yaxshi san’at asarlari namunalarining beqiyos estetik qiymati rus adabiyotining yo‘nalishini ta’kidlashga asos beradi.[2]

Yuqori sinflarga kelib esa rus adabiyoti namunalarini chuqurroq o‘rganish imkoniyati keng bo‘lib, hajman yirik, janr jihatdan xilma-xil bo‘lgan asarlar tanlab olingan va o‘zbek adabiyoti darsligi ham o‘quv rejasiga kiritilgan. Chunki tarixan boy, turli janrlarda yaratilgan rus adabiyoti o‘z mazmuni, qalam-

[1] Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. 2-ое изд., М., 2009.

[2] Черкезова М.В. Русская литература в национальной школе. М., 2011, с. 91 – 103.

ga olingan rus xalqi tarixi, madaniyati, tili, urf-odatlari baynalmilal ahamiyatga ega bo‘lib, barcha xalqlar vujudga keltirgan ma’naviy qadriyatlarning uzviy qismini tashkil etadi.

Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti namunalarida ham, rus adabiyotida uchrovchi turli janrlarda yaratilgan asarlar ham mavjud bo‘lib, ertak, hikoya, qissa, roman va boshqa ko‘rinishdagi asarlardan iboratdir. Mazkur o‘xshash janrlar haqida o‘quvchilarga ma’lumot berilganda, rus va o‘zbek adabiyotini o‘zaro qiyoslash imkoniyati vujudga keladi. Eng muhimi, har ikki millat o‘quvchilarining ijodiy hamkorligi, adabiy hayotning bir-biriga o‘zaro ta’siri xususida umumiy ma’lumotlar manbalarda yetarlicha qayd etilgan.

Ayniqsa, rus adabiyoti she’riyati bilan bog‘liq tarjima namunalarini o‘quvchilarga yetkazishda o‘qituvchidan har ikkala tilni bir-biriga qiyoslash mahorati, qolaversa, tarjimonning she’r matnini aslidan farqli jihatlarini anglash, his qilish qobiliyatini talab qiladi.

Shuningdek, she’r matnini bir-biriga qiyoslar ekan, eng muhim holat she’r matnini o‘quvchilarga ifodali o‘qib berish ham muhim ma’naviy-uslubiy jarayondir.[1] Masalan, umumta’lim maktablarining 7-sinf darsligidagi iste’dodli rus shoiri Sergey Esenin ijodi namunalaridan “Eron taronalari” turkumidan olingan “Shahinam, o mening shahinam” va “Xurosonda bir darvoza bor” nomli namunalari kiritilgan. Bu she’riy namunalarni shoir Erkin Vohidov mahorat bilan tarjima qilgan.

Shoir Sergey Esenin she’rlarini tarjima qilar ekan, u shoirona qalb bilan matndagi go‘zal g‘oyani anglab olishga, o‘quvchilarga aynan g‘oyaning asl holicha yetkazishga intiladi. Shuningdek, rus she’riyati an’analariga amal qiladi. Ayniqsa, she’r matnidagi har bir so‘zga, ularning o‘zbek tilidagi muqobil shakllariga, rus tilidagi ifoda usullariga alohida e’tibor beradi.

O‘zbek sinflarida o‘rganilayotgan rus yozuvchilari, shoirlari haqida ma’lumot berish jarayonida ular ijod qilgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot haqida berilgan obraz shaklidagi ma’lumotlar muhim ahamiyatga egadir.

Ravshanki, Sergey Esenin yashagan va ijod qilgan davr rus adabiyoti tarixining asosiy taraqqiyotga ko‘tarilgan davrga to‘g‘ri keladi. Tabiiyki, shoir yashagan va ijod qilgan adabiy muhitda shoir ijodiga ta’sir qilgan adabiy oqimlar va adabiy-nazariy qarashlar, qolaversa, unga zamondosh bo‘lgan ijodkorlarning o‘zaro hamkorligi, ulardan farqli o‘laroq, aynan Sergey Eseninning uslubiga xos va mos bo‘lgan shaxsiy qarashlari xususida ma’lumot berish, shoirning o‘z davrida tutgan o‘rni va mavqeyini belgilaydi.[2]

Shunga ko‘ra, obzor ma’lumotlar Sergey Eseninning qaysi she’ri o‘rganilmasin, matn tahlili asosida beriladigan ma’lumotlar bevosita davr ruhi, adabiy-nazariy, madaniy hayot jarayoni haqida ma’lumot beruvchi manba hisoblanadi. Shu sababli matnni tahlil qilish jarayonida, asarning hajmi, janr xususiyatlari o‘qituvchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi bilan belgilanadi.

Tarjima qilingan asarlardan Pushkinning “Yevgeniy Onegin” (Oybek), Sergey Eseninning she’rlari (Erkin Vohidov) asl matnga yaqin bo‘lib, ayniqsa, tarjimonlar til xususiyatlariga ijodiy yondoshganlari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, hamma asarlar uchun bir qolipdagi umumiy usul va tavsiyalarning bo‘lishi mumkin emas. Shu bois o‘qituvchi tanlangan asarni tahlil qilganda, uning asosiy tarkibiy qismlarini bilmog‘i, ana shundan kelib chiqib, o‘z tajribasiga tayangan holda, qulay bo‘lgan tahlil tartibini qo‘llamog‘i lozim. Masalan, rus adabiyoti namunalari tahliliga doir qo‘yidagi muqobil yo‘llardan foydalanish mumkin.

1. Rus adabiyoti vakillarining ijodiy kamolotida ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotning qisqacha talqini.
2. Rus adabiyoti vakillari ijodining asosiy mavzusi va qalamga olgan ma’naviy g‘oyaviy qarashlarining badiiy ifodasi talqini.
3. Rus tilining badiiy adabiyotdagi jozibasining o‘zbek tiliga qilingan tarjimada ifodalanishi.
4. Rus adabiyotidagi an’anaviylik va novatorlikning har bir davrda tutgan o‘ziga xos xususiyatlari.
5. Rus adabiyoti xususida o‘zbek sinflarda mashg‘ulot olib borayotgan o‘qituvchi yuqorida sanab o‘tilgan asosiy-nazariy, badiiy tushunchalarni barchasini bir darsda yoki bir asarni tahlil qilish jarayonida amalga oshira olmaydi.[3] Rus adabiyoti namunalarini o‘rganishning o‘ziga xos muhim omillari mavjud bo‘lib, bu har bir mavzuning o‘rganishidan kelib chiqib qo‘llaniladigan metodlardan iboratdir. Har bir

[1] Шейман Л.А. Основы методики преподавания русской литературы в узбекской школе. Фрунзе, 2001, с. 80 – 82.

[2] Хайруллин Р.З. Национальная школа: взаимосвязанное изучение литератур. Пособие для учителя, М., 2005.

[3] Турьянская Б.И. Материалы к урокам литературы в 5–7 классах. М., “Русское слово”, 2006, 253 с.

metod o‘tiladigan har mashg‘ulotda qo‘llanish barobarida, o‘zaro taqqoslash yo‘li orqali adabiy jarayon, yozuvchi qalamga olgan muhit va boshqa asardagi ifoda mezonlarini belgilab beradi.

O‘zbek sinflari uchun tanlangan rus adabiyoti namunalari mohir tarjimonlar Oybek, Abdulla Qahhor, Erkin Vohidov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, asarlarning asliga mos va sof tarzda tarjima tili yaratilganligi o‘quvchi va o‘qituvchilarning diqqat e’tiborini tortadi.[1] Bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tarjimonlari tilining boyligi, rus tili qonun qoidalaridan yaxshi xabardor ekanligi, har qanday murakkab fikrlarni ham to‘la va ravon ifoda eta bilish imkonini berganligi sezilib turadi.

Shu o‘rinda, Sergey Eseninning chuqur va boy mazmunga ega bo‘lgan she’riyati namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan Erkin Vohidov shoirning kuchli psixologik kechinmalarini mohironalik bilan yoritib berganligi o‘zbek o‘quvchilariga shoirni yaqinlashtirish imkonini bergan.

A.Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romani Oybek tarjimasida shakl va mazmun birligi yaxshi aks etganligi bois, o‘quvchilarning sevimli asariga aylanishiga sabab bo‘ldi. O‘zbek sinfida o‘qiyotgan o‘quvchi bu asarning g‘oyasi va mazmuni haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lmasligi mumkin, ammo asarda aytilgan, o‘quvchi qabul qilishi mumkin bo‘lgan fikrni bayon qilish uslubi muhim bo‘lib, o‘quvchining mahoratini o‘quvchilar ko‘zi oldida namoyon etadi. Chunki o‘zbek sinflarida o‘qiyotgan o‘quvchilar rus ijodkorlarining asarlarining asl matnini o‘qishda tabiiyki qiynaladilar. A.S.Pushkinning asarlarini to‘liq o‘rganish va o‘zbek shoirlari asarlari bilan solishtirganda va adabiyotlarni (rus va o‘zbek) o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish tamoyiliga tayanishi maktab o‘quvchilarining umuminsoniy qadriyatlar bo‘lgan shaxsiy fazilatlarini tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalashga ta’sir qiladi. Shunday ekan, o‘zbek sinflarida tahsil olayotgan o‘quvchilarni rus adabiyotining ayrim vakillari bilan tanishtirish, ularda rus adbiyoti haqida ma’lum tasavvur hosil qilish va ayrim mustaqil o‘qiganlarini tartibga solish imkonini beradi.

Ayniqsa, yuqori sinf o‘quv dasturiga kiritilgan rus adabiyoti namunalaridan, xususan, A.Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romanini o‘rganish mavzusining kiritilishi o‘quvchilar uchun bir muncha murakkab bo‘lsa-da, sodda til, ravon uslubda tarjima qilngani uchun u rus adabiyoti, ular yaratgan asarlar, muammolari haqida ma’lumot olish imkonini bergan.

O‘zbek tilida ta’lim olib boriladigan sinflarda rus adabiyoti ijodkorlarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan tarjimonlar, ularning mashaqqatli mehnatlari tufayli o‘zga bir xalqqa mansub bo‘lgan ijodkor asarlari bilan tanishtirgan insonlar haqida so‘z yuritilmaydi va kichik izoh ham berilmaydi. Nazarimizda, rus adabiyoti o‘rganilayotgan mashg‘ulotda, ularning asarlarini o‘zbek tiliga o‘girgan tarjimonlar haqida ham o‘qituvchilar qisqa ma’lumot berib o‘tsalar, o‘quvchilar tarjimonshunoslik sohasidagi katta mehnat talab qiladigan ilm ekanligi haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek sinflarida rus adabiyoti vakillari, ularning asarlaridan kiritilgan namunalar, tabiiyki, o‘quvchilarga adabiyot haqida puxta bilim berish bilan bir qatorda, ularning fikr dunyolarini boyitishga hissa qo‘shadi.

“O‘zbek adabiyoti” darsligida rus adabiyoti namunalarini o‘rganish haqida so‘z borar ekan, albatta, mazkur adiblar qalamiga mansub bo‘lgan asarlarning O‘zbekistonda o‘rganilishi tarixi haqida qisqacha ma’lumot berib borish ham o‘quvchilarni rus adabiyoti namunalarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Yana bir gap, adabiyot darslari tizimiga rus va o‘zbek adabiyoti badiiy matnlarini qiyosiy tahlil qilish bilan bog‘liq amaliy ishlarning bosqichma-bosqich kiritilishi ikki adabiy asarning badiiy matnini yaxlit idrok etishni ta’minlaydi, maktab o‘quvchilarining tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, o‘quvchilarga adabiy asardagi badiiy so‘zning ma’nosini tushunishga yordam beradi.

Yadgarov Baxodir Jumatovich (UrDU dotsenti),
Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li (UrDU magistranti)

SAKRASH TURLARIDA MASHG‘ULOT YUKLAMALARINI REJALASHTIRISHDA TIKLOVCHI VOSITALARNI QO‘LLASH ORQALI OPTIMALLASHTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada sakrash turlarida mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishda tiklovchi vositalarni qo‘llash orqali optimallashtirishda va tashkil etish masalalari yoritilgan.*

Аннотация. *В статье освещены вопросы оптимизации и организации тренировочных нагрузок в прыжках с использованием восстановительных средств.*

Annotation. *The article covers the issues of optimization and organization of training loads in jumps by using restorative tools.*

[1] Naim Karimov. O‘zbekistonda badiiy tarjima tarixi. T., ”Fan”, 2002, 6 – 1-betlar.

Kalit so‘zlar: *mashg‘ulot yuklamalari, jismoniy tayyorgarlikning o‘sishi, yuklama hajmi, jismoniy rivojlanish, rejalashtirish, funksional tadqiqotlar, tezkorlik, saralash, mashg‘ulotlarni tashkil etish, vositalari va metodlar.*

Ключевые слова: *тренировочные нагрузки, прирост физической подготовленности, объём нагрузки, физическе развитие, быстрота, отбор, организация занятий, методы и средства.*

Key words: *training particle, growth of physical training, particle size, physicaldeveloping, planning, functional researches, quickness, selection, organizing trainings, methods and means.*

Jahon sporti amaliyotida barcha sport turlari singari, yengil atletika sport turida ham to‘plangan ilg‘or pedagogik tajribalar sportchilar tayyorlash tizimining bosqichlari, musobaqa faoliyatining natijaviyligi, boshlang‘ich bazaviy ixtisoslik va churuqlashtirilgan sport tayyorgarligi bosqichi va sport takomillashuv bosqichlarida sportchilarning o‘quv mashg‘ulot jarayonlarining tuzilmasini ishlab chiqish samaradorligi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi va uzunlikka sakrovchilarning natijalarini doimo yangilanib turishi mashg‘ulot o‘tkazishning innovatsion texnologiyalarni joriy etish talabini qo‘ymoqda.

Yengil atletika bo‘yicha o‘tkazilayotgan sport musobaqalarida raqobatning kuchayib borishi sportchilar tayorlash tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Uzunlikka sakrovchi sportchilarni tayyorlash, sport mashg‘ulotlarini yildan yilga takomillashtirib borish murabbiylar tomonidan rejalashtirilgan ishlarni bajarish va unda mavjud vosita va usullarni yangicha qo‘llanib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonlarining turli bosqichlarda mashg‘ulotlarni tashkil qilish, yuklamalar hajmini to‘g‘ri rejalashtirish shug‘ulanuvchilarni saralash, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi nisbatlarini taqsimlash, texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish sikllari (mikrosikl, mezosikl, makrosikl), musobaqa oldi tayyorgarligi, musobaqa faoliyati, sport formasini ushlab turish va tiklovchi vositalardan foydalanish asosida organizmni tiklash kabi omillar bilan mashg‘ulot jarayonini boshqarishni talab etadi.

Mamlakatimizda aholining, ayniqsa, kelajak vorislari bo‘lgan yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun amalga oshirilayotgan ishlarning salmog‘i va samarasini ko‘rish mumkin. “Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog‘lig‘ini mustahkamlashga ko‘maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarni ta’minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va murabbiylar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud. Mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish maqsadida, aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya) jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish kerak”.[1]Aynan, bugungi zamon talablariga mos shart-sharoitlarni yaratib berish, sport mashg‘ulotlarini yuqori saviyada tashkil etish, mashg‘ulot jarayonlarini boshqarish va rejalashtirish, ular orasidan iqtidorli, istiqbolli sportchilarni izlab topish va saralash asosida ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlariga yo‘naltirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport sohasini tubdan rivojlantirish sport turlari bo‘yicha xususan, yengil atletkaning uzunlikka sakrash turida sportchilar mashg‘ulotlarini yangi zamonaviy texnologiyalar asosida boshqarish va tashkil etishda tiklovchi vositalarni qo‘llash orqali yuqori natijaga erishish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

E’tirof etish joizki, hozirgi paytda yurtimizda sportchilar tayyorgarligini boshqarishda amal qilinishi lozim bo‘lgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga joriy etish keng qo‘llanib kelmoqda. Sport turlariga sportchilarni saralash muammosining dolzarb masalalari mamlakatimiz va xorij olimlarining ishlarida yoritilgan bo‘lsa-da, ko‘p yillik tayyorgarlikning turli bosqichlarida sportchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini samarali boshqarishni yangi usullarini izlab topish, hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan sanalmoqda. Sportchilarni tayyorlash, o‘quv-mashg‘ulotlari va musobaqa yuklamalarini rejalashtirish sportchilar tayyorlash tizimining asosini tashkil etadi. Bu yo‘nalishda yuklamaning optimal hajmlari va jadalligini asoslashga yondashuvlarni har xil yoshdagi sportchilarga taqsimlash nuqtayi nazardan (R.Qudratov, K.T.Shakirjanova, N.T.To‘xtaboyev, M.S.Olimov, I.R.Soliyev va boshqalar)

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тзғрисида»ги 2020 йил 24 январдаги ПФ-5924-сонли фармони.

Tadqiqotning maqsadi uzunlikka sakrovchilarning mashg‘ulot jarayonini tiklovchi vositalar yordamida rejalashtirishni optimallashtirishdir.

Tadqiqotning vazifalari uzunlikka sakrovchilarni yillik mashg‘ulotlari yuklamalarini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish tizimini ishlab chiqish. Uzunlikka sakrovchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishda iqlim sharoiti ta’sirini o‘rganish. Uzunlikka sakrovchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida rejalashtirilgan yuklamalarni sportchilarning funksional ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha olib borilgan izlanishlar va adabiyotlar tahlilidan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, uzunlikka sakrovchilarning jismoniy tayyorgarlik holatlarini aniqlashda ananaviy bo‘lgan mashqlarda foydalanish tavsiya etiladi. Ya’ni, tadqiqot davomida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mashg‘ulot vosita va usullarini sportchilarning mashg‘ulot jarayonlarida qo‘llash orqali ularning jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan mashqlar samaradorligiga e’tibor qaratish kerak ekanligi kuzatildi. Sport amaliyotida mashg‘ulotlarni qanchalik to‘g‘ri tashkil etilsa, u, albatta, kelgusida samara beradi degan nazariy asoslar mavjud. Shu o‘rinda, mashg‘ulotlarda har bir mashq yoki mashg‘ulotlardan so‘ng sportchilarning organizmini tiklovchi vositalar yordamida tiklab borilsa, bu shunchalik katta natija beradi.

Biz tomonimizdan Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi yengil atletika ixtisosligi sportchilari bilan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari mashg‘ulot jarayonini kelgusida ularning jismoniy tayyorgarlik darjasiga mos ravishda umumiy qilib rejalashtirishni taqozo etdi. Shuning uchun biz, dastlab, sportchilarning umumiy jismoniy rivolanishi va jismoniy tayyorgarlik holatini qabul qilishga erishdik.

Pedagogik tadqiqotlar 2022-yil sentabr oyidan dekabr oyigacha pedagogik tajriba o‘tkazildi. Pedagogik tajribaga Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazining yengil atletika ixtisosligi uzunlikka sakrovchi sportchilaridan 12 nafari, 2 guruhi, ya’ni, nazorat guruhiga sport o‘yinlari va yengil atletika bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi tarbiyalanuvchilaridan 12 nafari jalb etilib, ularni yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab ikki guruhga tajriba va nazorat guruhiga ajratilib, ular bilan pedagogik tajriba tashkil etidi. Tajriba guruhi sinaluvchilari uchun ishlab chiqilgan optimallashtirilgan yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlari bo‘yicha rejalashtirilgan mashg‘ulotlarda ishtirok etdi. Ular bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotlar haftasiga 5 martadan 3 akademik soatda mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Ular bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotlarni optimallashgan rejasi quyida jadvallarda berilgan. Nazorat guruhiga sportchilari amaldagi an’anaviy yillik dasturga asoslangan mashg‘ulotlarda ishtirok etdi.

Tajriba guruhiga mansub sportchilar uchun ishlab chiqilgan optimallashgan yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlar rejasiga muvofiq, tayyorgarlik mashg‘ulotlarida tezkor-kuchni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar va musobaqa mashqlaridan so‘ng tiklovchi vositalarni qo‘llashga qaratilgan ishlarni olib bordik. Unga ko‘ra, sakrovchilar uchun ularning maxsus jismoniy tayyorgarligini baholashda qo‘lanilishi lozim bo‘lgan, ya’ni, oyoq kuchini, portlovchi kuchni va yugurish tezligini nazorat qilishga qaratilgan me’yoriy testlardan foydalanildi.

Guruhli o‘quv-mashg‘ulot darslarini rejalashtirishda foydalaniladigan vosita va usullarni mashg‘ulot vazifalari shaklida to‘g‘ri taqsimlash muhimdir. Bunda uni oqilona joylashtirib, almashlab, yuklamalar kattaligi va uning ketma-ketligi aniqlanadi. Mashg‘ulot darsi uch qismga bo‘linadi.

Mashg‘ulot haftalik (yoki kunlarning boshqa soni bilan) sikli asosida kunlar bo‘yicha rejalashtiriladi. Siklli rejalashtirish katta mashg‘ulot ishini bajarish, shu bilan bir vaqtda, etarlicha dam olish, buning ustiga faqat bo‘sh kunlar hisobiga emas, balki uning turli mashg‘ulot ishlarining maqsadga muvofiq almashinuvi va qo‘shinuvi hisobiga ko‘proq bo‘lishiga imkon beradi. Hozirgi vaqtda sportchilar haftasiga 5–7 marta mashg‘ulot o‘tkazadilar.[1]

Mashg‘ulot siklida turli vazifalar, vositalar usullar va yuklamalari bo‘lgan darslar almashinib turadi. Shu sababli mikrosiklni shunday tuzish juda muhimki, bunda siklda turli darslarni to‘g‘ri taqsimlash hisobiga samaradorlik oshiriladi. Endi texnikani takomillashtirish uchun mashg‘ulot darslaridagi ishlarning oldinroq bajarilishi ahamiyatga ega. Agar mashg‘ulot chidamlilikni tarbiyalash yoki eng yuqori kuch qo‘yib, texnikani takomillashtirishga bag‘ishlangan bo‘lsa, unda ertasi kuni texnikani yaxshilash, ustida ishlash yaramaydi, chunki bundan foyda yo‘q. Shu bilan bir vaqtda, katta bo‘lmagan yuklamalarda ketma-ket bir necha kun davomida texnikani takomillashtirish ijobiy natijalar beradi.[2]

[1] Qudratov R. Yengil atletika. Darslik, T., 2014, 342-bet.

[2] To‘xtaboyev N.T., Shakirjanova K.T., Soliyev I.R. Qisqa masofalarga yugurish uslubiyati. O‘quv qo‘llanma, T., 2017, 186-bet.

Mikrosiklni takrorlashda jo‘shqin muhit tutgan o‘rinni ham hisobga olish kerak. Masalan, ko‘p tomoshabinlar to‘plangan musobaqalardan so‘ng yoki mashg‘ulotdan so‘ng yengil mashg‘ulot o‘tkazish kerak. Darsga kiritilgan turli mashqlar va mashg‘ulot yuklamalari orasidan asosiylarini ajratish kerakki, ular qandaydir harakat sifatini tarbiyalash, texnika yoki taktikani egallash, mashqlarga chidamlilik yoki faol dam olish va boshqalarni ta’minlashda ustunlikdagi yo‘nalishni aniqlab berish lozim. Bu yo‘nalish asosiy masalani aniqlaydi, undan tashqari, mashg‘ulotlarda ko‘pgina hollarda boshqa masalalar ham hal qilinadi, lekin sportchining diqqatini, uning imkoniyatlarini qandaydir bilish hamda mashg‘ulot yuklamalarini sportchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib qo‘yish maqsadga muvofiqdir.[1]

Haftalik siklda mashg‘ulotlar mazmuni va kunlar bo‘yicha taqsimlanishi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik haftasi (UJT-1) 1-kun 120 minut davomida salqin joylarda yengil yugurish (tiklovchi vositalar), 2-kun chigalyozdi mashqlar: o‘yin (voleybol, basketbol, qo‘l to‘pi, futbol), tiklovchi vositalar 3–4 ta egiluvchanlik mashqlari, hammom, 3-kun dam olish; 4-kun chigalyozdi mashqlar, 90 minut o‘yin, suzish. 5-kun dam olish, 6-kun chigalyozdi mashqlar, 90–120 minut o‘yin, 3–4 ta egiluvchanlik mashqlari, hammom, 7-kun dam olish.

Yengil atletika mashg‘ulot jarayonini yaxlit dinamik tizim sifatida qaralishi lozim bo‘lib, bunda sport mahoratini rivojlantirishning har bir muayyan bosqichida harakat sifatlarini rivojlantirish, texnik mahoratni shakllantirish, vositalar, usullar va mashg‘ulot ta’siri kattaliklari bo‘yicha o‘ziga xos masalalar yechiladi.[2]

Sportchining ko‘p yillik tayyorgarligida sport mahorati shakllanishidagi yosh xususiyatlarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu quyidagi savollarga javob berishga imkon beradi: soha bo‘yicha tayyorlanishni boshlash qulay muddatlari qaysi, sportchining u yoki bu razryad darajasiga chiqishini qachon rejalashtirish maqsadga muvofiqdir, sport ustasi, xalqaro sport ustasi normativlarini bajarish payti kelganda mashg‘ulotlar yuklamasi va sportchi staji qanday bo‘lishi lozim va boshqa omillar. Dastlabki olingan natijalardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, barcha sportchilarning umumiy tayyorgarlik holati bir-biriga nisbatan yaqinroq ekanligi ma’lum bo‘ldi. Unga ko‘ra, sakrovchilar uchun ularning maxsus jismoniy tayyorgarligini baholashda qo‘lanilishi lozim bo‘lgan, ya’ni, oyoq kuchini, portlovchi kuchni va yugurish tezligini nazorat qilishga qaratilgan me’yoriy testlardan foydalanildi. Olingan natijalar kelgusida biz tomonimizdan sportchilar uchun qo‘llaniladigan vositalarni va usullarni tanlab olish imkonini berdi. Olib borilgan tadqiqotlarda sportchilar uchun ishlab chiqilgan mashg‘ulot usullari, tayyorgarlik dasturlari va vositalar mazmuniga ko‘ra, mashg‘ulotlarni tashkil etildi. Tashkil etish mobaynida sportchilarning bajargan mashqlarining hajmi va bajarilish shiddatiga mos ravishda maxsus tiklovchi vositalarni qo‘llab bordik.

3.1-jadval

Tajriba guruhi sinaluvchilarining tadqiqot boshida va yakunida olingan test natijalari

№	Vositalar	Dastlabki natijalar	Yakuniy natijalar	t	p
1.	30 m. yugurish (sek)	4,12±0,65	3,89±0,54	2,15	<0,05
2.	40 m qaychisimon yugurish (sek)	7,29±0,69	6,98±0,62	2,76	<0,05
3.	4x10 moksimon yugurish (sek)	11,28±0,91	10,8±0,75	3,80	<0,05
4.	120 m.ga yugurish (sek)	16,89±1,16	15,86±1,08	7,02	<0,05
5.	1 oyoqda 40 m. sakrash	23,35±5,3	22,14±4,3	3,98	<0,05
6.	Joyidan turub sakrash	224,3±32,5	231,2±29,6	8,93	<0,05
7.	Kuchli oyoqda sarash, 3 hatlab sakrash	878,3±64,3	889,3±62,4	9,97	<0,05
8.	Besh hatlab sakrash	1288,6±112,6	1302,3±109,4	9,38	<0,05
9.	Joyidan turib, uch hatlab sakrash	956,3±37,6	981,2±50,8	27,01	<0,05
10.	Yotgan holda, 20 soniyada press	21,1±4,5	23,2±4,1	7,30	<0,05
11.	1 daqiqada qadamlar chastotasi	117,1±16,8	121,1±25,1	6,30	<0,05

Tadqiqot boshida olingan natijalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ikki guruhning ham ko‘rsatkichlari bir biriga yaqin bo‘lganligi keltirib o‘tilgan edi. Lekin bu holat tadqiqot yakuniga kelib, katta o‘zgarish yoki ishochlilik darajasi faqat tajriba guruhida kuzatilganini aytib o‘tmoqchimiz.

[1] Shakirjanova K.T. Yengil atletikada sport mashg‘ulotlari asoslari. O‘quv qo‘llanma, T., 2008, 72-bet

[2] Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., To‘xtaboyev N.T., Smuriygina L.V. va boshqalar. Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati. Darslik, T., 2018, 842-bet.

3.2-jadval

Nazorat guruhi sinaluvchilarining tadqiqot boshida va yakunida olingan test natijalari

№	Vositalar	Dastlabki natijalar	Yakuniy natijalar	t	p
1.	30 m. yugurish (sek)	4,15±0,67	3,98±0,56	1,15	>0,05
2.	40 m qaychisimon yugurish (sek)	7,28±0,64	7,13±0,68	1,02	>0,05
3.	4x10 moksimon yugurish (sek)	11,31±0,97	11,52±0,62	1,01	>0,05
4.	120 m.ga yugurish (sek)	16,78±1,12	16,45±1,01	1,32	>0,05
5.	1 oyoqda 40 m. sakrash	23,41±4,97	22,87±4,35	0,49	>0,05
6.	Joyidan turub sakrash	224,2±6,56	227,3±5,15	2,17	<0,05
7.	kuchli oyoqda sarash 3 hatlab sakrash	876,4±65,3	880,1±65,1	0,25	>0,05
8.	Besh hatlab sakrash	1281,9±114,3	1284,3±113,5	0,09	>0,05
9.	Joyidan turib, uch hatlab sakrash	954,2±42,3	967,3±41,3	1,37	>0,05
10.	Yotgan holda, 20 soniyada press	20,8±4,6	22,0±4,5	1,16	>0,05
11.	1 daqiqada qadamlar chastotasi	116,8±17,4	119,6±16,8	0,72	>0,05

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, nazorat guruhi sportchilarida 11 ta olingan testning barchasida umumiy o‘rtacha natijalar o‘sganligini ammo, ishonchlilik kooefitsiyenti ishonchsiz ekanligi kuzatildi. Olingan natijalar kelgusida biz tomonimizdan sportchilar uchun qo‘llaniladigan vositalarni va usullarni tanlab olish imkonini berdi. Olib borilgan tadqiqotlarda sportchilar uchun ishlab chiqilgan mashg‘ulot usullari, tayyorgarlik dasturlari va vositalar mazmuniga ko‘ra, mashg‘ulotlarni tashkil etildi. Tashkil etish mobaynida sportchilarning bajargan mashqlarining hajmi va bajarilish shiddatiga mos ravishda maxsus tiklovchi vositalarni qo‘llab bordik.

Olib borilgan tadqiqot natijalari va ko‘rsatilgan jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlaridan quyidagicha xulosalar chiqarishni taqozo etdi.

Mashg‘ulotlarning mazmuniga mos ravishda sportchilar uchun turli xildagi tiklovchi vositalarni qo‘llash ma’qul emas, chunki asosiy yuklamalarni bajarish vaqtida sportchlarning tiklanish davomiyligini ham inobatga olish lozim bo‘ladi. Yugurish mashqlaridan so‘ng tiklovchi vositalarni ko‘proq relaksatsion mashqlarni qo‘llab borish tavsiya etiladi. Bu mashqlar zaminkadan so‘ng berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lishi keltirib o‘tmoqchimiz. Sakrash mashqlaridan so‘ng sportchilarning organizmini tiklovchi vositalar majmuasini qo‘llashda o‘zlari uchun ma’qul bo‘lgan sharoitlarda olib borish kerak. Bu holda markaziy asab tizimi ham to‘laqonli tiklanish imkoniyatini beradi. Musobaqalardan yoki mashg‘ulotlar siklidan so‘ng ananaviy bo‘lgan hammomni qo‘llash berib o‘tilgan. Bu holatda hammomda uzoq vaqt qolib ketish tavsiya etilmaydi. Chunki mushaklar guruhi o‘ta bo‘shashib ketish natijasida sportchilarning tonusini tiklash birmuncha cho‘zilib ketishi mumkin.

Salayeva Muhabbat Saburovna (Urganch davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori),
Raximova Dilfuza Nurmetovna (Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistranti)

MAKTABGABCHA YOSHDAGI BOLALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI MADANIYATI KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom turmush tarzi madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirish haqida fikr yuritilib, tarbiyachilar nafaqat bolalarga yuqori sifatli ta’limtarbiya berishlari, balki ularda sog‘lom turmush tarziga ongli munosabatni shakllantirishlari zarurligini qayd etilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается формирование навыков культуры здорового образа жизни у дошкольников, и отмечается, что воспитателям необходимо не только обеспечить качественное образование детей, но и сформировать у них осознанное отношение к здоровому образу жизни.*

Annotation. *This article discusses the formation of healthy lifestyle culture skills in preschoolers, and it is noted that educators need not only to provide quality education for children, but also to form a conscious attitude to a healthy lifestyle in them.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha yoshdagi bolalar, pedagogik jarayon, tarbiyachi, shaxsiy gigiyena, psixologik, sog‘lom turmush tarzi.*

Ключевые слова: *дети дошкольного возраста, педагогический процесс, воспитатель, личная гигиена, психологический, здоровый образ жизни.*

Key words: *preschool children, pedagogical process, educator, personal hygiene, psychological, healthy lifestyle.*

Kirish. XXI asrdagi hayot tarbiyachi – pedagoglar oldiga ko‘plab yangi muammolarni qo‘ymoqda, ular orasida bugungi kunda eng dolzarb masala – sog‘liqni saqlash xizmatini yaxshilash orqali yosh avlod salomatligini saqlash muammosi. Bu esa aniq natijalarga olib kelishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotida har bir tarbiyachining eng muhim vazifasi–pedagogik jarayonni maktabgacha yoshdagi har qanday bolaning sog‘lig‘ini saqlaydigan va sog‘lig‘iga nisbatan qadriyatli munosabatni tarbiyalaydigan tarzda tashkil etishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maktabgacha yosh davridan bolani sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish maqsadida takomillashtirilgan “Ilk qadam” o‘quv dasturida bolaning “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishi” sohasi kompetensiyalari belgilangan.[1]

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi“ sohasidagi ta’lim va tarbiya jarayoni yakunida 6–7 yoshli bola:

– o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me’yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;

– turli xil faol harakat turlarini uyg‘un holda va maqsadli bajarishni biladi;

– turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;

– o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;

– shaxsiy gigiyena malakalarini namoyon etadi;

– sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;

– xavfsiz hayot faoliyati asoslari qoidalariga rioya qiladi.

Biz tahlil qilayotgan muammoda bolaning yuqorida qayd etilgan barcha kompetensiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, inson salomatligi atigi 7–8% sog‘liqni saqlashga va 50% turmush tarziga bog‘liq ekan. Hozirgi kunda ekologik va ijtimoiy muammolar, kasalliklarining misli ko‘rilmagan darajada kuchayishi barobarida, sog‘lom bo‘lish uchun uni asrab-avaylash va mustahkamlashni o‘rganishimiz kerak. Buning uchun esa maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar salomatligiga imkon qadar ko‘proq e’tibor berilishi kerak. Har qanday holatda, biz doimo sog‘lom bolalar kamligini yodda tutgan holda shuni ham unutmasligimiz kerakki, faqat maktabgacha yoshdagi davrda ko‘proq to‘g‘ri odatlarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarga salomatlikni yaxshilash va uni saqlashni o‘rgatish bilan birgalikda ijobiy natijalarga erishishimiz mumkinligini taqozo etadi.

Natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalar sezgir va itoatkordir, shuning uchun to‘g‘ri odatlarni rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlar mavjud. Tarbiyachilar nafaqat bolalarga yuqori sifatli ta’lim-tarbiya berishlari, balki ularda sog‘lom turmush tarziga ongli munosabatni shakllantirishlari, o‘zlari va atrofidagi dunyo bilan uyg‘unlikda yashashga o‘rgatishlari lozimdir. Shuni yodda tutishimiz kerakki, bola har doim o‘zini o‘zi o‘rganib, faol sog‘lomlashtirish tadbirlarini o‘tkazishga, sog‘ligini shakllantirishga psixologik tayyorgarlik ko‘radi. Bolalarga shaxsiy va jamoat gigiyenasi ko‘nikmalarini o‘rgatish ularning salomatligini muhofaza qilishda muhim o‘rin tutadi. Bu esa kundalik hayotda, jamoat joylarida to‘g‘ri xulq-atvorni targ‘ib qiladi. Oxir-oqibat, nafaqat ularning sog‘ligi, balki boshqa bolalar va kattalarning salomatligi ham gigiyena qoidalari va xatti-harakatlar me’yorlarini bilish va amalga oshirishga bog‘liq. Bolalar bilan kundalik ish jarayonida shaxsiy gigiyena qoidalarini amalga oshirishni tabiiy holda va yosh xususiyatlarini inobatga olib doimiy ravishda takomillashtirilishiga harakat qilish kerak.

Bolalarga oddiy qoidalarga rioya qilish o‘rgatiladi; ovqatdan oldin, hojatxonadan foydalangandan keyin, o‘ynagandan, yurishdan va boshqalardan keyin qo‘llarini yuvish va hokazolar. Shu bilan birga, kattalar asta-sekin bolalarda murakkab ko‘nikmalarni ko‘proq rivojlanishni rag‘batlantiradilar. Masalan, yuzingizni, bo‘yningizni, qo‘llaringizni tirsagigacha yuving, har kuni oyoqlaringizni yuving, oddiy suv muolajalarini bajaring va hokazo. Ikki yoshdan boshlab bolalarga ertalab va kechqurun tishlarini maxsus bolalar pastasi bilan yuvish o‘rgatiladi. Ikki yoshdan oshgan bolada ovqatdan keyin og‘zini toza suv bilan yuvish odat tusiga kiritiladi. Shaxsiy gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, har doim toza

[1] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. Toshkent, 2022, 17-bet.https://mpe.uz/files/Ilk%20Qadam%20UZB%20final.pdf

kiyinish, kiyimdagi muammolarni sezish, ularni mustaqil ravishda yoki kattalar yordamida tuzatish qobiliyati ham shakllantirilib boriladi.

Muhokama. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashga yordam beradigan shart-sharoitlar yaratilmoqda. Har bir guruhda yuvinish va oyoqlarni yuvish uchun barcha jihozlar bo'lib, yordamchi tarbiyachi yuvinish xonasini saranjom va ozoda tutadi, shuningdek, tarbiyachi o'zi bolalarda shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash keng ko'lamli vazifalarni o'z ichiga oladi va ularni muvaffaqiyatli hal qilish uchun bolalarning yoshini hisobga olgan holda, bir qator pedagogik usullardan foydalanish tavsiya etiladi: namuna asosida to'g'ridan to'g'ri o'rgatish, ko'rsatish, didaktik o'yinlar jarayonida harakatlarni bajarishdagi mashqlar, bolalarga gigiyena qoidalariga rioya qilish zarurligini muntazam ravishda eslatib turish va ularga bo'lgan talablarni doimiy ravishda nazoratini amalga oshirish kabilar muhimdir.

Sog'lom turmush tarzi oila va maktabgacha ta'lin tashkilotlari hamkorligida shakllantiriladi. Umumiy nazorat ostida o'quv yuki, kun tartibi, ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy jarayonlari, asabiy zo'riqishlar, uyda, maktabgacha ta'lin tashkilotlarida va guruhda psixologik iqlim, ota-onalar va bolalar, bolalar va tarbiyachilar o'rtasidagi munosabatlar, dam olish, ko'ngil ochish va qiziqish shakllariga e'tibor qaratilishi lozim. Maktabgacha ta'lin tashkilotlarida bolalarning faoliyatlari noto'g'ri tashkil etilsa, ularning sog'liig'iga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun to'laqonli sog'lom turmush tarzini o'rnatish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshda zarur madaniy-gigitnik ko'nikmalarni bolalar maxsus tarkibdagi o'yinlarda yaxshiroq o'rganadilar. Bu o'yinlarning qiziqarli bo'lishi, bolalarni o'ziga jalb etishi, ularning tashabbuskorligi va ijodkorligini faollashtirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida gigiyena ko'nikmalarini yanada muvaffaqiyatli shakllantirish va mustahkamlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida gigiyena ta'limi uchun maxsus materiallar to'plamidan, turli mavzu va sujet rasmlari, belgilardan foydalangan holda, og'zaki va vizual usullarni birlashtirish tavsiya etiladi. Jismoniy tarbiya, mehnat, atrof-muhit, tabiat bilan tanishishda gigiyenik bilimlarni mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun biz quyidagi didaktik o'yinlardan foydalanishimiz mumkin: "Suv bilan yuzingizni yuving", "Kichik ayiqqa yordam bering", "Rostini aytsam, toza bo'lish ajoyib", "Kichik tulkiga qo'lingizni qanday yuvishingizni ko'rsating" kabilar. Rolli o'yinlardan esa siz "Onalar va qizlar", "Qo'g'irchoqni uyquga yotqizing", "Bizga mehmonlar kelishdi" kabilarni tanlashingiz mumkin.

Bolalarning shaxsiy va jamoat gigiyenasi qoidalarini o'zlashtirishi, zarur bo'lganda, bolaning turli joylarda o'zini tutishi, gigiyena qoidalariga amal qilish qobiliyatini nazarda tutamiz. Masalan, bolalar nafaqat o'z uyida, balki guruh xonasida, jamoat joylarida, transportda ham axlat tashlash mumkin emasligini tushunishlari kerak.

Bolalar salomatligini mustahkamlash masalalarida shifokorlar, pedagoglar, psixologlar, maktabgacha ta'lin tashkilotlaridagi boshqa mutaxassislar va ota-onalar birgalikda harakat qilishlari kerak. Bolalarda sog'lom turmush tarzini tarbiyalash asosiy vazifa bo'lishi uchun bola sog'lom bo'lish, sog'likni saqlash va mustahkamlash, salomatlik baxtini qadrlash zaruratini his qilishi lozimdir. Maktabgacha yoshdagi davrda bolada salomatlik asoslariga poydevor qo'yiladi, harakat qobiliyatlari shakllanadi va jismoniy fazilatlarni tarbiyalash uchun asos yaratiladi. Bu davrda bola o'z-o'zini aks ettirish, o'z-o'zini qurish va o'zini-o'zi boshqarish bo'yicha kattalarga qaraganda ancha qizg'in, murakkabroq ishlarni bajaradi. Agar bola bu jarayonda sust bo'lsa, unda uning ijtimoiylashuvi, sog'ligi va sog'lom fikrlashi, madaniy-gigiyenik onggi buziladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarni hayotiy manfaatlarini sog'lom turmush tarziga yo'naltirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish – bu faqat ma'lum bilimlarni o'zlashtirish emas. turmush tarzi, ko'chada va uyda turli vaziyatlarda adekvat xulq-atvorni namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Farzandlarimizga o'rgatgan har bir narsa, ular haqiqiy hayotda qo'llanilishi kerak. Bolalarga gigiyena ko'nikmalarini o'rgatishda bola idrokining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mavjud bilimlarni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki. 3–5 yoshli bolalar barcha turdagi o'yinlarni o'z ichiga olgan holda sensorimotor o'yin faoliyatini maqsadli tashkil etish tufayli sog'lom turmush tarzi qoidalari bilan samarali tanishadilar. Masalan, tematik, didaktik, mobil, stol bosma o'yinlari, sujet-rolli o'yin, sahnalashtirilgan o'yinlar, taqlid o'yinlari kabilar. 5–7 yoshdagi bolalar uchun syujetli-rolli va sahnalashtirilgan o'yinlardan tashqari, muammoli-ijodiy o'yindan foydalanish fantaziyalarni hal qilish usullarini mustaqil tanlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan murakkab pedagogik

ta’sirlarni amalga oshirishni o‘z ichiga olgan eng samarali texnologiyalardan foydalanish imkoniyati hisoblanadi. Ushbu texnologiyalardan kompleks foydalanish turli yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirishni ta’minlaydi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish lozimki, maktabgacha yoshdagi davr inson hayotidagi eng muhim davrlardan biridir. Aynan shu yillarda bolaning salomatligi, barkamol, aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishining poydevori qo‘yiladi va uning shaxsiyati shakllandi. Hozirgi kunda umumjahon madaniyatining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan sog‘liqni saqlash, harakatlarni rivojlantirish va umuman, bolalarning jismoniy rivojlanishini yaxshilash va bu sohada ishlarni takomillashtirish bo‘yicha dolzarb muammolar mavjud.

Ota-onalar o‘zlarining namunalari bilan nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarda tegishli bilimlarni shakllantirishga, balki mustahkam gigiyenik madaniyatga ham hissa qo‘shishlari kerak. Aks holda, maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiy gigiyena qoidalarini hech qachon o‘rganmaydilar, haqiqatan ham, hayotiy ehtiyoj ekaniga qat’iy ishonch hosil qilmaydilar va kelajakda ular bu sohadan butunlay e’tiborsiz qolishi mumkin. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tashkilotining tarbiyachilari bolalarning ota-onalari bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning sog‘lom turmush tarziga rioya qilishlarini qat’iy nazorat ostiga olishlari kerak.

Yadgarova Sadoqat Kenjabayevna (Urganch davlat universiteti stajyor o‘qituvchisi; sadokatyadgarova5@gmail.com)

MAKTAB BIOLOGIYASIDA O‘QUVCHILAR EKOLOGIK KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada maktab o‘quvchilarida ekologik ko‘nikmalarni shakllantirish asnosida ekologik madaniyatli komil insonlarni tarbiyalash va atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish masalalari yoritilgan.*

Аннотация. *В статье освещены вопросы воспитания совершенного человека с экологической культурой и бережным отношением к окружающей среде при формировании экологических навыков у школьников.*

Annotation. *The article highlights the issues of educating perfect people with an ecological culture and respect for the environment in the formation of environmental skills among schoolchildren.*

Kalit so‘zlar: *ekologiya, atrof-muhit, tabiiy zaxiralar, ekologik ko‘nikma, ekologik madaniyat.*

Ключевые слова: *экология, окружающая среда, природные ресурсы, экологические навыки, экологическая культура.*

Key words: *ecology, environment, natural resources, ecological skills, ecological culture.*

XXI asrga kelib, texnika, sanoat, fan va texnologiyalarning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanmaslik, tugab borayotgan tabiiy zaxiralar o‘rnini to‘ldirishga nisbatan e’tiborsizlik oqibatida atrof-muhitning (suv, havo, tuproq) ifloslanishi, ko‘plab o‘simlik va hayvon turlarining keskin kamayishi yoki yo‘q bo‘lib ketishi, iqlim o‘zgarishlari hamda cho‘llanish hodisalarining sodir bo‘lishi ekologik xavfsizlik masalasini milliy, mintaqaviy va umumbashariy muammolardan biri sifatida kun tartibiga olib chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarorida 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish, Respublika hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta’lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo‘shish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorida quyidagilar Konsepsiyani va Tadbirlar rejasini amalga oshirish doirasida ustuvor yo‘nalishlar etib belgilangan.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq:

–uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish;

–ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;

–ta’lim oluvchilarning e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas’uliyatini kuchaytirish;

–ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

–ekologik ta’lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta’minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

–ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta’lim sohasining o‘zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish to‘g‘risida tadbirlar rejasi belgilab berilgan.

Shu o‘rinda, ta’lim muassasalarida ekologik targ‘ibot tizimi ham qoniqarsiz ahvolda, bu borada ekologik targ‘ibotni amalga oshirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish va ushbu mexanizmlarni munosib rag‘batlantirish tadbirlari yetarli darajada amalga oshirilmayotir.

Ekologik ta’limga oid elektron-metodik vositalarni yaratish va innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqilmaganligi ta’kidlab o‘tilgan [4,6].

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish umumbashariy muammo darajasiga chiqqan bugungi kunga bu masalaning yechimini topish uchun, avvalo, har bir kelajak avlodni ekologik bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lgan ekologik madaniyatli shaxs sifatida tarbiyalashni talab qiladi. Mazkur muammolar yechimi maktab o‘quvchilarining o‘z yashash joyi va mamlakatiga oid bioekologik bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallashi, o‘z shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish qobiliyati va unga ijodiy tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, biologiya ta’limidagi 11-sinf ekologiya bo‘limi bunga imkoniyat yaratadi. Buning uchun o‘quvchilar har bir dars jarayoniga faol qatnashishlari, o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon qilishlari va tajribalarni (laboratoriya mashg‘ulotlar) bajara olishlari zarur. Bu orqali o‘quvchilar ekologik ko‘nikmalarini rivojlantirishadi. Ekologik ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ekologik bilim olish muhim sanaladi. Ekologik bilimlar, asosan, bir nechta mavzu va darslar davomida ko‘nikmalarga aylantirib boriladi. Ekologik ko‘nikmalar quyidagi bosqichlarda shakllantiriladi:

1-bosqich o‘quvchilarda ekologik g‘oyalarni shakllantirish;

2-bosqich o‘quvchilarda ekologik faoliyat zarurligiga ishonchni shakllantirish;

3-bosqich o‘quvchilarda tabiatga nisbatan estetik va axloqiy tuyg‘ularni shakllantirish;

4-bosqich o‘quvchilarda barqaror irodani tarbiyalash;

5-bosqich o‘quvchilarda ekologik faoliyatning muhim maqsadlarini shakllantirish.

Shunday ekan, bizga ekologik ko‘nikmalarni shaklantirishda bilim va malakalarni qamrab oluvchi to‘g‘ri va aniq talablar kerak bo‘ladi. Bunga bilim sohalarining integratsiyalashuviga asoslangan ma’lum bir mazmun yordam beradi. Masalan, ijtimoiy ekologiya (inson barcha ekotizimlarning yagona ongli tarkibiy qismi hisoblanadi), inson ekologiyasi (odam va atrof-muhit o‘rtasidagi tizimli munosabatlar haqidagi fan). Integratsiyalashuv asosida tarbiyalangan har bir o‘quvchi ekologik bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladi. Ekologik madaniyatli o‘quvchilarni tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham muhim sanaladi [6].

Ekologik madaniyatning jamiyat va inson faoliyatidagi ahamiyati, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy jihatdan dolzarbligi ilmiy pedagogik jihatlari, Biologiya ta’limida talaba ekologik ta’lim jarayonlarining holati, tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish**,** bo‘lajak o‘qituvchilarda ekologik madaniyatning asosiy negizi bo‘lgan ekologik bilimlar, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, biologiya ta’limida ekologik tafakkurni shakllantirishning hozirgi holati, pedagogik jihatlari, biologiya ta’limida ekologik tafakkurni shakllantirish imkoniyatlari bayon qilingan. Oliy ta’limdagi tabiiy fanlar talabalarga dunyoning hozirgi ilmiy manzarasini ochib beradi. Shu bois tabiat haqidagi fanlar talaba dunyoqarashining tabiiy-ilmiy asosini tashkil etadi. O‘quv materialini umumlashgan tizimda bayon qilish, ta’lim-tarbiya jarayonida muammoli, modulli, innovatsion texnologiya bo‘lmish shaxsga yo‘nalgan texnologiyalardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, asosan, o‘qituvchi va o‘quvchilarni hamkorlikda faol ishlashga, erkin fikrlashga, mavzu mohiyatini aniq tushunib yetishga yordam beradi. Texnologiyalar asosida har bir shaxs ekologik madaniyatli bo‘lib shakllanadi. Ekologik madaniyatli shaxs avvalo o‘ziga, uyiga, oilasiga, tabiatga va jamiyatga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘ladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy turlari quyidagicha tavsiflanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim, bu ta’lim o‘qitish muhitining o‘quvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-

sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qo-biliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga etishini ta’minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyi-tishni nazarda tutadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xos jihati ta’lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. Bu turdagi ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.



Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy turlari.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchini ta’lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turdagi ta’lim o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o‘zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to‘la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. O‘quvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondashishni, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o‘z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi [7].

Tirik mavjudodlarning ozaro va yashash muhiti bilan munosabatlarni hamda shu asosda ajdodlarimizning ekologik va barqaror taraqqiyot ta‘limga oid boy pedagogik meroslarini kelajak egalari bolgan yosh avlodga yetkazish, mutaffakirlarimizning ta‘limotida korsatilgan tabiatni e‘zozlash, osimlik, hayvonot dunyosini avaylab-asrash muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham ekologik ta‘lim-tarbiyaga oid tajribalarni, boy an‘analarni, milliy qadriyatlarni zamonaviy, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanib davom ettirish va ularni ijtimoiy rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb masalasidir desak, mubolag‘a bo‘lmas, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g`risida”gi qonuni. Toshkent, “Sharq”, 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Toshkent, “Sharq”, 1997.

4. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g`risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Toshkent, 2017, 7-fevral.

5. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 27 майдаги 434-сон карорига Ўзбекистон Республикасида Экологик таълимни ривожлантириш концепцияси.

6. Рисбаева Г., Тукеншова Н., Абдыханова Д. Формирование экологической компетентности младших школьников в курсе познания мира.

7. Авазов Ш. Мактабда экологик тарбия. Тошкент, «Ўқитувчи», 1992.

8. To‘xtayev A.S. Ekologiya. Pedagogika institutlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma, «O‘qituvchi», 2001.

9. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Инновацион таълим технологиялари. Тошкент, 2015.

Eshchanova Gavhar Otajonovna (UrDU dotsenti),
Durdiyeva Mohinur Adilbek qizi (UrDU magistranti)

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH VA ULARNING IJODIY-KREATIV FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHDA TEZ AYTISHLARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushu maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, topishmoqlar va tez aytishlar bolalarda xalq ijodi xususiyatlarini to‘g‘ri idrok eta olish iqtidorlarini tarbiyalashi, tez aytishlar vositasida bolalarda tildagi tovush va so‘zlarni to‘gri, ravon, burro, aniq talaffuz etish ko‘nikma va malakalari shakllantirilishi va bu janrning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularning ijodiy kreativligini shakllantirishdagi o‘rni masalasi yoritiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются образцы узбекского народного творчества, в частности, народные пословицы, мудрые поговорки, загадки, скороговорки, которое воспитывают у детей умение правильно воспринимать особенности народного творчества, а посредством скороговорок дети усваивают звучание языка, формирование навыков и компетенций правильного, беглого, точного произношения слов и роль этого жанра является развитием речи дошкольников в формировании их креативного творчества.*

Annotation. *This article discusses examples of Uzbek folk art, in particular, folk proverbs, wise sayings, riddles, tongue twisters, which instill in children the ability to correctly perceive the features of folk art, and through tongue twisters, children learn the sound of the language, the formation of skills and competencies of correct, fluent, the exact pronunciation of words and the role of this genre is the development of the speech of preschoolers in the formation of their creativity.*

Kalit so‘zlar: *xalq og‘zaki ijodi, bolalar folklori, o‘zbek folklorshunosligi, tez aytishlar, nutq tovushlari, bola talaffuzi, maktabgacha ta’lim, “Sirli olam” jurnali, ijtimoiy hayot, mantiqiy urg‘u, talaffuz me’yorlari.*

Ключевые слова: *устное народное творчество, детский фольклор, узбекские фольклористы, скороговорки, звуки речи, произношение у детей, дошкольное образование, журнал «Sirli olam», социальная жизнь, логические ударение, нормы произношение.*

Key words: *folklo re, children’s folklore, Uzbek folklore, rhetoric, spreech sounds, children’s pronunciation, preschool education, “Mysterious world” magazine, social life, logical emphasis, pronunciation criteria*

Darhaqiqat, kelajakdagi buyuk insonlarni ro‘yobga chiqarish bugundan boshlanadi. Bu borada o‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlari, xususan, uning asosiy namunalari hisoblangan xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, topishmoqlar, so‘z o‘yinlari va tez aytishlar ota-bobolarimizning moddiy-ma’naviy merosi o‘laroq, avlodlarimizda badiiy nafosatni his qilish, xalq ijodi xususiyatlarini to‘g‘ri idrok eta olish iqtidorlarini tarbiyalaydi, ongli ravishda shu jo‘shqin hayot jabhasida qaynab, ularni shu jarayonda faol qatnashishga da’vat etadi. Shu ma’noda bolalar folklori, xususan, uning ommaviy janrlaridan hisoblangan tez aytishlar, ularni to‘plash va janrning g‘oyaviy-badiiy va til xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish katta ilmiy-nazariy hamda ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega

O‘zbek folklorshunosligida bolalar folklori janrlariga XX asrning 60–80-yillarida alohida ahamiyat berila boshladi [1].

Tez aytishlar vositasida bolalar tildagi tovush va so‘zlarni ravon, burro, aniq talaffuz etishga, tovushlar ohangdorligini, so‘zlarning ma’no tovlanishlarini idrok qilish, anglash hamda ilg‘ab olishni mashq qiladilar. Shunday tadbirlar bilan o‘zlarida to‘g‘ri talaffuz ko‘nikma va malakalarini shakllantiradilar. Aynan shu maqsad mohiyatidan kelib chiqqan holda, tez aytishlar kichkintoylar o‘rtasida keng tar-

qalganligi bilan bir qatorda, tovushlar va so‘zlar qo‘llash borasidagi poetik-mantiqiy mashqlar hisoblanishi ham bejiz emas.

Tez aytishlar nutq tovushlarining uyg‘unligi asosida yaratiladigan bolalar folklorining quvnoq janri bo‘lib, unda o‘xshash tovushli so‘zlar yoki birikmalarning bir nafas olib chiqarishda tezkorlik, shiddat bilan aytilishi jarayonida u yoki bu tovush, u yoxud bu so‘z talaffuzida chalg‘ish, tutilish natijasida hosil bo‘luvchi ma’no o‘zgarishi negizida yuzaga keladi. Shuningdek, bu janr bolalar orasida “total”, “chalg‘ituv”, “chalit” kabi atamalar bilan ham mashhurdir. Chunonchi: “Gilos chinozlik Ilyos gilos gilosidan” tez aytishlarini shiddat bilan aytganda yanglishmaslik, amri mahol.

Tez aytishda muddao husni, ya’ni, yetakchi motivni ifodalovchi vosita, unsur va tovush uyg‘unligining yuzaga kelishi uchun turtki bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi hokimlik qiladi. Muddao husni yetakchi so‘zni tez aytishda tugun vazifasini o‘taydi. Masalan: “Uchta soatsoz usta uchta soat sozladi, usta soatsoz uchun uchta soat oz edi”. Ushbu tez aytishda “soat”, “usta”, “uchta” so‘zlari muddao husni bo‘lib, “u”, “ch” hamda “s”, “z” tovushlarining uyg‘unlashib kelishiga zamin hozirlagan hamda “Usta soatsoz uchun bir kun davomida faqat uchta soatni sozlash, tuzatish hech gap emas, ishi oson” ekanligi haqida darak, ma’umot yetkazadi.

Tez aytishlar ifodalanish usuliga ko‘ra ham she’riy, ham nasriy yo‘llar bilan yaratiladi. Ular xoh she’riy yo‘l bilan, xoh nasriy yo‘l bilan yaratilgan bo‘lsin, unda muddao husn vazifasida kelgan so‘z yoki so‘z birikmasi nafaqat asosiy motivni, balki tovush, so‘z qismi, o‘zagining uyg‘unlashuvini belgilovchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Yosh mushuk – mosh mushuk, mosh mushuk – yosh mushuk” tez aytishidagi “yosh” va “mosh” ohangdosh so‘zlari muddao husni bo‘lib, so‘zlarni tezkorlik bilan talaffuz qilganda adashishi mumkin. Natijada masxaraomuz vaziyat yuzaga keladi va samimiy, beg‘araz hazil-mutoyibaga sabab bo‘ladi.

Tez aytishlarni ularning janriy xususiyatlarini nazarda tutgan holda turlicha tasnif qilish mumkin. Darvoqe, ayrim adabiyotlarda tez aytishlarning talaffuzda (aytilishida)gi qiyinlik darajasiga ko‘ra tasnif qilinganligini kuzatish mumkin. Chunonchi, tadqiqotchi G‘.Jahongirov o‘zining “O‘zbek bolalar folklori” [2] kitobida tasnif asosini keltirmay tubandagicha turlarga ajratadi: “Aksariyat tez aytishlar talaffuzi bir-biridan katta farq qiladigan fonemalar” asosida tuziladilar. Masalan: “Oq pashshasi – pes pashsha”, “Lola arralaydi, Sora allalaydi” singari. Bu birinchi turkumga kirgan tez aytishlar yordami bilan uch-to‘rt yoshga kirgan bolalarning “a” va “o” tovushlarini, 2-tez aytishdagi “l” va “r”, “d” va “s” tovushlarini to‘g‘ri yoki “y” tarzida buzib, noto‘g‘ri talaffuz qilishi natijasida nutqiy chalkashib ketishi mumkin bo‘ladi.

Ikkinchi bir turkum tez aytishlar borki,unda maktabgacha yoshdagi bolalarga ayim tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish bilan birga, uning o‘y-xayolini bir joyga jamlashga, jumlaning mantiqiy urg‘usini ilg‘ab, aniqlab olishga qaratiladi. Masalan, “Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp turibdi. Bir tup tutning tomiri bir tup turpning tomirini turtib turibdimi, bir tup turpning tomiri bir tup tutning tomirini turtib turibdimi?” Jumlaning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, misoldagi ‘tut’ va ‘turp’ so‘zlarini to‘g‘ri talaffuz qilishdan tashqari, jumlani to‘g‘ri takrorlash, tut va turpning turgan o‘rni va holatlarini ham yodda saqlab qolish kerak.

Keltirilgan tasnif va misollardan ma’lum bo‘ladiki, tasnifga ajratish asosi (mezoni) bir xil emas. Ayrim tez aytishlarda uning tarkibidagi tovushlarning uyg‘unlashuvi asos qilib olinsa, boshqa bir tez aytishlarda uning mazmun chalkashligi asos qilib olingan. Tez aytishlarni bu tariqa turlarga ajratish benihoya ko‘p va bir-biriga mantiqan bog‘lanmagan shakllarda namoyon bo‘ladi.

Tez aytishlar bola talaffuzidagi ayrim nutq tovushlarining so‘z hamda iboralar tarkibida murakkab joylashishiga asoslanishini ta’kidlagan edik. Bunda bolalarning nutqda chalkashishiga quyidagicha sabablar bo‘lishini kuzatish mumkin. Birinchidan, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning nutq apparatidagi a’zolaridan ba’zilarining jismonan me’yorida taraqqiy qilib, ulgurmaganligi (lablarning qalin yoki yupqaligi, biror labning kattaligi, labning tug‘ma ikkiga bo‘linganligi, tilning uzun yoki kalta bo‘lishi, qalin yoki yupqaligi, til osti yuganchasining kalta bo‘lishi, ayrim tishlarning yo‘q bo‘lishi, tishlar orasi ochiq bo‘lishi, ayrim tishlarning tushib, hali chiqib ulgirmaganligi, qattiq tanglayning baland yoki past bo‘lishi, yoriqlarning bo‘lishi, yumshoq tanglayning kalta, ikkiga bo‘lingan yoki yo‘q bo‘lishi, til tebranishining sustligi, oilada bolaning “chuchuk til”da so‘zlashga undash kabilar) sababli ular ayrim tovush va so‘zlarni aytishda qiynaladilar. Ikkinchi tomondan, tez aytishlar tilshunoslik va adabiyotshunoslik qonun-qoidalari asosidagi rang-barang tovush allitiratsiyalari, shuningdek, so‘z san’atlari – tanofur, tavze, omonimlar,paronimlar va tavtologiya kabi hodisalarga asoslangan ma’no tovlanishlari sababli yuzaga keladi.

Tez aytishlarning maqsad va mohiyati bolalar nutqida kuzatiladigan nutqiy kamchiliklarni ko‘z-ko‘z qilish, bolaning yuziga solib berish emas, balki tez aytishlarni izchil va muntazam mashq qildirish orqali to‘g‘ri talaffuzga erishish, shu bilan birga, kichkintoylarni o‘zbek xalqining og‘zaki badiiy ijod namunalari bilan tanishtirish, milliy-madaniy meros durdonalarini avaylab, ardoqlab asrashga hamda keyingi avlodlarimiz uchun e’zozlab saqlashga o‘rgatishdan iborat.

Tez aytishlarning shakllanishida omonimlar (omofon va omograflar ham) asosiy vositalar hisoblanadi. Matnda ayrim olingan bir so‘zning turli ma’nolaridan foydalanish ba’zan tez aytishlar yasalishiga sabab bo‘ladi. Masalan, “Olma shoxida olmaxon, olmani olma, olmaxon”. Bu o‘rinda *olma* so‘zi ham mevali daraxt turi hamda uning mevasi, shuningdek, hayvon nomi ma’nolarida ishlatilgan.

“Sirli olam” jurnalining 1992-yilgi 1-2-3-4-sonlarida yozuvchi Murod Xidirning “Harflar o‘yini nomli katta hajmdagi bir badiiy asari o‘zbek tilidagi barcha nutq tovushlarining alliteratsiyasi asosida yaratilganligi kishini hayratga soladi:

“…Ana adirda Arg‘umoqbeka arzandasiga alla aytar,
Alla-yo, alla,
Ana adirda arxarbeka arxarchasiga alla aytar,
Alla-yo, alla.
Ana, ajriqzorda Ajriqbeka ajriqchasiga alla aytar,
Alla-yo, alla.
Ana, archazorda Archabeka archachasiga alla aytar,
Alla-yo, alla….” (3)

Yuqorida keltirganimiz parchadan ko‘rinadiki, aynii paytda, yozma adabiyot tez aytishlarning yuzaga kelishi, paydo bo‘lishida asosiy manbalardan sanaladi.

Badiiy asar yoki og‘zaki ijodning barcha janrlaridagi kabi tez aytishlarda ham obrazlilik, badiiylikni ta’minlashda tasviriy vositalar, badiiy nutqning intonatsion-uslubiy va sintaktik-grammatik ifoda imkoniyatlari faol qollaniladi. Badiiy ifoda vositalardan sifatlash, o‘xshtish, mubolag‘a, qarshilantirish kabilar tez aytishlarning bolalar ruhiyatiga mos va yanada jozibali chiqishiga yordam beradi. Masalan, “Oq choynakka oq qopqoq, ko‘k choynakka ko‘k qopqoq”, “Qayrag‘ochda qora qarg‘a qari qarg‘aning ko‘zini cho‘qiydi” kabi tez aytishlarda “oq”, “ko‘k”, “qora”, “qari” sifatlashlari jumlalar tarkibida komponentlarning ohangdorligini vujudga keltirgan.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan “Erkin egatga ertagi ekinn ekdi”, “Jamila jiydani joyiga joyladi”, “Shu mushuk, shum mushuk, shumshuk mushuk”, “Tez aytishni tez-tez ayt”, “Shokir sholipoyada shovqin solib, shaqildoqni shaqillatdi”, “Sovuqda tustovuq sovuq qotdi”, “Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?.. tarzidagi yuzlab tez aytishlarda tovushlar alliteratsiyasini kuzatish mumkin.

Tez aytishlarni moddiy shakllantiradigan, mazmunini oydinlashtiradigan vositalardan biri nutqning intonatsiyasi, ohangidir. Shu ma’noda intonatsiya, ohang, ayniqsa, og‘zaki ijod janrlarida so‘zlovchining hamsuhbati, tinglovchilarga, voqea-hodisalarga munosabatini anglatishning asosiy vositasi bo‘lib, gapirayotgan shaxs nutqidan kuzatilgan aniq mazmun va maqsadni ifodalash, nutqni jonlantirish va hissiy ifodali qilishga yordam beradi.

Umuman, tez aytishlar xalq og‘zaki ijodi, xususan, bolalar folklorining jangovar janri sifatida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida kuzatiladigan ayrim tovush, talaffuz nuqsonlarini beg‘araz, samimiy, hazilomuz tanqid qilib, og‘zaki mashqlar asosida tuzatishga, to‘g‘ri talaffuz qiladigan bolalarda esa adabiy talaffuz me’yorlarini mustahkamlashga, nihoyat, jumlalardagi mantiqiy urg‘uni topib gapirishga o‘rgatadi. Shuning uchun ham tez aytishlar ijtimoiy hayotda nihoyatda katta ta’lim-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi va ularni to‘plash, har tomonlama o‘rganish va keng ommalashtirish har bir zamon avlodlari vakillari uchun qarz va farz bo‘lib qolaveradi.

Binobarin, “maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari badiiy adabiyot namunalari bilan har kuni tanishtirilib boriladi. Hikoyalar, rivoyatlat, ertaklar, topishmoqlar, qo‘shiqlar kabi tez aytiahlar ham nafaqat bolalar nutqining ifodaliligini ta’minlashga, balki ularning lug‘at zaxirasini boyitadi, adabiy til imkoniyatlaridan bahramand qiladi” [4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobirov S., Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. T., “Fan”, 1974; Turdiyev T. Yosh avlodni tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining roli. T., “O‘zbekiston”, 1974; Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar fol’klori. T., “O‘qituvchi”, 1975; Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. T., “Fan”, 1986.

2. Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklori. T., “O‘qituvchi”, 1975.
3. Murod Xidir. Harflar o‘yini. “Sirli olam” jurnali, 1992, 1 – 4-sonlar, 16-25-41-48-betlar.
4. Babayeva D. Bolalarning nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi. T., 2018, 143-bet.

Mustafaqulova Feruza Inomovna (Jizzax Politexnika instituti o‘qituvchisi)

CHET TILLARNI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN USUL VA METODLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada chet tillarni o‘qitishda qo‘llaniladigan usul va metodlarning tushunchasi, mohiyati, xususiyatlari va metodikani o‘qitish usullari tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются понятие, значения, особенности и методы обучения иностранным языкам и методы, используемые при обучении.*

Annotation. *This article analyzes the concept, meanings, features and methods of teaching foreign languages and methods used in teaching.*

Kalit so‘zlar: *chet til, metodika, o‘qish, tinglash, gapirish, grammatika, nazariya, til materiallari.*

Ключевые слова*: иностранный язык, методика, чтение, аудирование, говорение, грамматика, теория, языковые материалы.*

Key words: *foreign language, methodology, reading, listening, speaking, grammar, theory, language materials.*

O‘tgan asrning 60-yillarida chet tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha olimlar o‘zlarining bir qancha ilmiy qarashlarini ilgari surishgan. Til materiallari bilan tanishish usullari, o‘qitish usullari va shunga o‘xshash atamalar paydo bo‘ldi. Quyida biz metod atamasi bilan bog‘liq ba’zi noaniqliklarni tahlil qilib chiqamiz.

Mahalliy uslubiy adabiyotlarda ushbu atama ikki ma’noga ega: metod uslubiy yo‘nalish sifatida va metod – o‘qitish uslublari to‘plami sifatida. Dastlab, ushbu atamaning birinchi ma’nosi uslubiy adabiyotlardan kelib chiqdi: tabiiy usul, to‘g‘ridan to‘g‘ri usul va hk. Ushbu atama maxsus o‘qitish tamoyillari to‘plami, ya’ni, asosiy ko‘rsatmalar bilan tavsiflangan maxsus o‘quv tizimini anglatardi.[1] Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu ma’noda usul prinsiplar kompleksi bilan ajralib turadi, chunki turli uslubiy tizimlarda individual prinsiplar bir-biriga to‘g‘ri kelishi mumkin.

Uslubiy yo‘nalishlarni ko‘rib chiqish ikki asr davomida mavjud bo‘lgan va yigirmanchi asrning boshidan beri qo‘llanilmagan eng qadimgi uslub – Grammatik tarjimadan boshlanadi. Ushbu tendensiya vakillari o‘rta ta’lim muassasalarida chet tilini o‘rganish nafaqat grammatikani tizimli o‘rganish natijasida erishilgan aqlning gimnastikasi va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy ma’rifiy ahamiyatga ega, deb hisoblashdi. Ushbu uslubni o‘qitishning asosiy tamoyillari quyidagilar:

1. Kurs grammatik tizimga asoslangan bo‘lib, u materialni tanlashni, shu jumladan, so‘z boyligini tanlashni, umuman kursni qurishni belgilab berdi. Ushbu pozitsiya grammatikani o‘rganish umumiy ta’lim muammosi – tafakkurni rivojlantirishga imkon beradiganligi bilan oqlandi.

2. O‘qitishga asos bo‘lgan asosiy material bu o‘sha davrdagi o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra yozma nutq uchun asl tilni aks ettirgan matnlar edi.

3. Lug‘at grammatikani o‘rganish uchun faqat illustratsion material sifatida qaraldi. Turli xil tillardagi so‘zlar bir-biridan faqat tovush va grafik jihatdan farqlanadi, ma’no, moslik va farq bilan emas, deb ishonilganligi sababli ularni ajratilgan birlik sifatida kontekstdan tashqari yodlash tavsiya etilgan.

4. Tahlil va sintez mantiqiy fikrlashning yetakchi jarayonlari deb tan olindi. Shu munosabat bilan, o‘quv jarayonida matnni grammatika nuqtayi nazaridan tahlil qilishga, qoidalarni yodlashga va shu asosda chet tili jumlalarini qurishga katta e’tibor berildi. Ba’zan bu usul analitik-sintetik deb nomlangan.

5. Lingvistik materialni semantizatsiya qilishning asosiy vositasi tarjima (chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga) tarjima edi. Keling, ushbu usul yordamida o‘quv jarayonini ko‘rib chiqamiz. Yuqorida aytib o‘tilganidek, trening o‘rganilayotgan grammatik materialni aks ettirish uchun tanlangan matnlarga asoslangan. Matnni tahlil qilish va tarjima qilish o‘quv jarayonida muhim o‘rin egalladi. G.Ollendorf kabi ba’zi metodistlar tarjimalarning mazmun tomoni o‘quvchilar uchun kulgili va jirkanch bo‘lishi kerak, shuning uchun ular gaplarning grammatik tomoniga e’tibor qaratishlari kerak deb hisoblashgan.

Ushbu uslubning asosiy qoidalari quyidagi prinsiplarga qisqartirildi:

[1] Chet tili darsi haqida suhbatlar. Pedagogika institutlari talabalari uchun qo‘llanma, passov E.I., Kolova T.I., Volkova T.A., Dobronravova T.N., Voronova O.M., Kraynova E.A. L., “Ta’lim”, 1975.

1. Ta’lim har qanday matnni tushunish uchun zarur bo‘lgan barcha lingvistik hodisalarni o‘z ichiga olgan asliy xorijiy matnga asoslangan.

2. Tilshunoslik materialini assimilatsiya qilish matnni tahlil qilish, mexanik yodlash va tarjima, qoida tariqasida, so‘zma-so‘z natijasida amalga oshiriladi.

3. Asosiy o‘quv jarayoni tahlil bilan bog‘liq – mantiqiy fikrlashning asosiy usuli.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ikkala usul ham umumiy jihatlarga ega va tarjima bilan bog‘liq, chunki lingvistik materialni semantizatsiya va assimilatsiya qilishning asosiy vositasi tarjima hisoblanadi. Demak, grammatik tarjima usulida barcha e’tibor grammatikaga qaratilgan bo‘lib, matnlarning mazmuni va so‘z boyligi e’tiborga olinmaydi. Matnli tarjima usulida barcha e’tibor matnlarning mazmuni va xususiyatlariga qaratilgan, grammatika tartibsiz o‘rganilgan va qoidalar vaqti-vaqti bilan berilgan.

M.Berlitz uslubi bo‘yicha o‘qitishning asosiy tamoyillari quyidagilar edi:

1. Treningning maqsadi – og‘zaki nutqni rivojlantirish.

2. Lingvistik materialni idrok etish bevosita amalga oshirilishi kerak. Chet tilining so‘zlari obyekt yoki harakat bilan bog‘liq bo‘lishi kerak va grammatikani intuitiv ravishda o‘rganish kerak, chunki shunga o‘xshash jarayon bolaning ona nutqini o‘zlashtirishiga xosdir.

3. Materialni o‘zlashtirish taqlidga asoslangan bo‘lishi kerak va o‘xshashliklar. Shuning uchun ona tili va qoidalari bilan taqqoslash ortiqcha.

4. So‘zlarning ma’nosini ochish, grammatika vizualizatsiya (obyektlar, harakatlar, rasmlar) yordamida amalga oshirilishi kerak.

5. Ishning asosiy shakli bu dialog.

6. Tilning barcha materiallari oldindan quloq tomonidan qabul qilinadi (talaffuzni o‘zlashtirish), keyin u og‘zaki (turli mualliflar bilan davomiyligi jihatidan har xil yo‘llar bilan) ishlab chiqiladi va ko‘p vaqt o‘tgach, alohida so‘zlardan boshlab o‘qiladi.

Barcha mashg‘ulotlar ushbu tamoyillarga muvofiq qurilgan. Shunday qilib, M. Berlitzning darsligida kitobning birinchi sahifalari, asosan, maktab auditoriyasi uchun chizilgan rasmlar bilan to‘ldirilgan. Quyidagi xatboshilarga yangi materialni kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan bunday og‘zaki ochilish muallif tomonidan talaba, birinchi navbatda, asl talaffuzni va taqlid qilinadigan naqshni eshitishlari kerakligi sababli oqlandi. Ko‘rsatilgan vositalar yordam bera olmagan hollarda, o‘qituvchi kontekst yordamida semanticzatsiyaga o‘tdi. Savol-javob mashqlari sifatida keng qo‘llanildi. O‘qishni o‘rganish qiziquvchan tarzda qurilgan. Dastlab, ilgari o‘rganilgan so‘zlar qismlarga bo‘linmasdan o‘qilgan va faqat bir necha darslardan so‘ng alohida harflar va iboralarni o‘qish tushuntirilgan. Boshqacha qilib aytganda, so‘zlarni, savollarni va javoblarni qanday o‘qishni o‘rganish o‘qituvchining “ovozidan” bo‘lganidek sodir bo‘ldi. M. Berlitz maktablarining hayotiyligi shundan iboratki, dialogni o‘tkazish qobiliyatiga kichik material asosida erishilgan, ya’ni tovar bozorlari uchun kurash bilan bog‘liq holda talab qilingan.

M.Berlitzdan farqli o‘laroq, F.Guen o‘qituvchi edi va o‘zining tan olishicha, turli usullarni qo‘llagan. Umuman olganda, olim bu usulni samarasiz degan xulosaga keladi. Bir marta, bolalarni kuzatayotganda, bolalar o‘zlarining ona tillarini o‘rganayotganda o‘zlarining xatti-harakatlarini o‘yinchoqlar bilan xronologik ketma-ketlikdagi izohlar bilan birga olib borishini aniqladilar: «Ayiq yotadi. Ayiq uxlab qoladi. Ayiq yaxshi uxlaydi” va shunga o‘xshash. Shuning uchun F. Gouin tizimidagi asosiy o‘rinni odamning harakatlari, hissiyotlari asosida xronologik ketma-ketlikda tilni o‘rgatish tabiiy degan pozitsiya egallaydi. Bu uning tizimining ikkinchi pozitsiyasiga olib keldi – atrofida o‘quv quriladigan o‘quv bo‘limi grammatikani ham, so‘z boyligini ham birlashtirgan jumla. F.Guen, dastlab, so‘z birikmasidagi uchta guruh tushunchalarini ajratib ko‘rishni boshladi: obyektiv, subyektiv va majoziy. Ushbu guruhlarga muvofiq, harakatning parchalanishi asosida qatorlar qurilgan.[1]

Keling, buni “xat yozish”ning aniq bir misoli bilan tushuntiramiz: men qog‘ozni olaman. Men qalamni chiqarib olaman. Men siyoh idishidan qopqoqni olib tashlayman. Men qalamimni siyoh idishiga va shunga o‘xshash narsalarga botirdim, u bir qator jumlalardan iborat darslikda 75 tagacha seriyani taklif qildi. Bunday ketma-ketlikdagi ish jarayoni quyidagicha davom etdi. Birinchidan, o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida harakatlarni va ularga sharhlarni bajaradi. Keyin talabalar har bir gapni o‘qituvchidan keyin takrorlaydilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi alohida iboralarni aytadi, o‘quvchilar harakatlarni bajaradilar. Keyin kuchli o‘quvchi jumlalarni aytadi, boshqalari esa harakatlarni amalga oshiradi. Og‘zaki ish harakatlarning nomlanishi (barcha talabalar tomonidan) va ularni amalga oshirish bilan tugaydi. Ushbu amaliyotdan so‘ng talabalar ketma-ket daftarga yozadilar. Yarim mexanik taqlid asosida bunday mashg‘ulot-

[1] Bim I.L. Chet tillarni o'qitish metodikasi masalasi to‘g‘risida. IYSH, 1974, № 2, 19 – 32-betlar.

lardan so‘ng talabalar cheklangan materiallardan foydalangan holda, asosan, og‘zaki nutqni o‘zlashtirdilar. Shunday qilib, Shotlandiyada nemis tiliga dars berib, u o‘z auditoriyasini nemis pivo zali shaklida jihozladi. Agar dastlabki bosqichda til materialini o‘zlashtirish harakatlar va ularning izohlariga asoslangan bo‘lsa, ilg‘or bosqichlarda talabalar sahnalarni ijro etishdi, ba’zi belgilarni tasvirlashdi. Demak, u so‘zlarni sinonimlar va antonimlar printsipiga ko‘ra, tematik printsipga ko‘ra turdosh so‘zlarga ko‘ra guruhlashni taklif qilgan. Tabiiy usul asoslarini qisqacha tekshirib chiqqach, shuni ta’kidlash kerakki, u yetarli ilmiy asosga ega bo‘lmasa-da, uning mualliflari oddiy o‘qituvchilar bo‘lgan bo‘lsa-da, u shu kungacha u erda qolgan narsalarning metodikasiga juda katta hissa qo‘shgan.

Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, tabiiy usul vakillari so‘z boyligini uzluksiz semantizatsiya qilish tizimini taklif qildilar:

1) obyektni, uning tasvirini ko‘rsatish, yuz ifodalari yordamida harakatni namoyish qilish;

2) sinonimlar, antonimlar yoki ta’riflar yordamida so‘zlarning ma’nosini ochib berish;

3) kontekst yordamida ma’noni ochib berish.

Ushbu semantizatsiya usullarining barchasi ko‘plab uslubiy yo‘nalishlardan omon qoldi va bizning metodikamizga kirdi. Albatta, zamonaviy metodologiya M.Volter tomonidan taklif qilingan turli xil guruhlash turlarini lug‘atni, avvalo, tematik asosda tizimlashtirishning mumkin bo‘lgan usullaridan biri sifatida foydalanadi. Zamonaviy uslublarda va harakatlarni sharhlashda, ayniqsa, dastlabki bosqichda, shuningdek, sahnalarni ijro etishda o‘z o‘rnini topdi. Bularning barchasi tabiiy usul merosi yo‘qolmaganligini tasdiqlashga imkon beradi.

Soliyev Erkin Mamatkarimovich (Jizzax Politexnika instituti Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti v.b.; soliyev2013@mail.ru)

CHET TILI O‘QITISHDA MA’NO, TUSHUNCHA, KONSEPT, LINGVOKULTUREMA VA KULTUREMA ATAMALARINING ROLI

Annotatsiya. *Maqolada chet tili o‘qitishda ma’no, tushuncha, konsept, lingvokulturologik atamalarning roli va ahamiyati haqida boradi. Shuningdek, ularning nutq jarayonida ta’sirchanlik darajasi yoritilgan. Nutqimizdagi lingvokulturologok atamalarning salbiy va ijobiy bo‘yoqdorligi ahamiyati ham alohida misollar bilan yoritib berilgan.*

Аннотация. *В статье говорится о роли и значении лингвокультурологических терминов «значение», «понятие», «концепт» в обучении иностранному языку. Также выделяется уровень результативности их речевого процесса. Также на конкретных примерах подчеркивается значение отрицательной и положительной окраски лингвокультурных терминов в нашей речи.*

Annotation. *The article deals with the role and importance of meaning, understanding, concept, linguocultural terms in foreign language teaching. Also, the level of effectiveness in their speech process is highlighted. The importance of negative and positive coloring of linguistic and cultural terms in our speech is also highlighted with special examples.*

Kalit so‘zlar: *lingvokultura, ma’no, tushuncha, madaniyat, konsept.*

Ключевые слова*: лингвокультура, смысл, понятие, культура, концепт.*

Key words*: linguistic culture, meaning, understanding, culture, concept.*

Ma’lumki, tilshunoslikda paydo bo‘lgan yangi oqimlar – “Kognitiv lingvistika”, “Lingvomadaniyatshunoslik” va “Madaniyatlararo muloqot” fanlari tilshunoslikka *konsept* va *lingvokulturema* atamalarini kiritdilar. Bu atamalarning chet tilini o‘qishdagi roli haqida gapirishishdan avval ular haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tishni lozim topdik.

“Konsept” kognitiv lingvistikaning eng asosiy tushunchasi bo‘lib, u til birligi emas, balki ong birligi hisoblanadi. Kognitiv lingvistikada konseptni hamma tilshunoslar tan olsa-da, ularning u haqidagi fikrlari turlichadir (Safarov Sh. 2006; Yusupov O‘.Q. 2007).

Biz ko‘pchilik ta’riflarni hisobga olib va umumlashtirib, konseptning quyidagi ta’rifini taklif qilamiz: Konsept – bu tashqi yoki ichki dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni, baholashlar. Masalan, o‘zbek xalqining “ona” konseptining mazmunini qisqacha va lo‘nda qilib bayon qilsak, u *farzandli xotin* tushinchasidan tashqari, onaning bizga ma’lum bo‘lgan barcha belgi-xususiyatlari, vazifalari, oiladagi va jamiyatdagi o‘rni va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Bu konseptda obrazlar talaygina, shulardan bittasi kishi tug‘ilib o‘sgan, u uchun muqaddas sanalgan mamlakatning onaga o‘xshatilishi (metaforizatsiya) *Ona-Vatan, ona yurt, ona zamin, ona tuproq, ona yer* kabi so‘z birikmalarida ifodalangan. Onaga

bo‘lgan munosabatning ijobiy ekanligini *Ona – mehribon, ota g‘amguzor* (O‘XM. 1989, 278) maqolidan anglash mumkin. Ammo aytish lozimki, obraz va munosabat (baholash) hamma konseptlarda ham bo‘lavermaydi. Masalan, ular aniq fanlardagi konseptlarda deyarli bo‘lmaydi. Konseptlarni insondagi bilim xazinasi, desa, bo‘ladi.

Tushuncha va ma’no munosabatlari bo‘yicha uch xil fikr bor. Birinchi fikrga ko‘ra, ma’no va tushuncha bir narsadir: ma’no atamasi tilda, tushuncha atamasi esa tafakkurda, mantiqda ishlatiladi (Колшанский Г.В. 1967, 195, 206). Ikkinchi fikrga ko‘ra, tushuncha va ma’no boshqa-boshqa narsalardir [Звегинцев В.А. 1968, 61]. Uchinchi fikr murosaga asoslangan fikr bo‘lib, unga ko‘ra, tushuncha formal va mazmunli (формальное и содержательное) bo‘ladi va so‘z ma’nosi formal tushunchaga to‘g‘ri keladi [Городецкий Б.Ю. 1969, 90].

Bizningcha, tushuncha ham konsept kabi ong birligidir. Agar konsept biror narsa yoki hodisaning barcha belgilarini aks ettirsa, tushuncha uning eng asosiy, shuning bilan birga, boshqa narsa yoki hodisadardan farqini ko‘rsatuvchi belgisinigina aks ettiradi. Tushuncha mundarijasi konsept mundarijasidan ancha tor va u konsept mundarijasining bir qismini hosil qiladi. Shu sababdan konsept bilan tushunchani aysberga o‘xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo‘lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir.

Shuni ta’kidlash kerakki, tushuncha endi paydo bo‘lganda u bilan konsept o‘rtasida farq bo‘lmaydi, shu sababdan bunday paytlarda tushuncha atamasi o‘rnida konsept atamasini bemalol qo‘llash mumkin. Tushuncha aks ettirgan predmet yoki hodisaning yangi belgi-xususiyatlari ochilishi bilan yoki o‘sha predmet-hodisaga nisbatan munosabat (baholash) yoki obraz hosil bo‘lishi bilan konsept paydo bo‘ladi. Bunda konsept o‘sha tushuncha asosida paydo bo‘ladi va uni o‘z ichiga oladi.

Konsept shaxsga, guruhga, millatga, hatto erkaklarga, ayollarga, yoshlarga va keksalarga taalluqli bo‘lishi mumkin. Ammo tilshunoslikni, asosan, millat konsepti qiziqtiradi.

Tushuncha ham, konsept ham ilmiy yoki ilmiy bo‘lmasligi mumkin.

Bugungi kunda konseptning ko‘p qavatli va murakkab strukturaga ega ekanligi ko‘pchilik tomonidan tan olinadi. Bu masalada V.A.Maslova bunday deydi: “Концепт – многомерное образование, включающее в себя не только понятийно-дефиниционные, но и коннотативные, образные, оценочные, ассоциативные характеристики, которые должны быть учтены при описании концепта” [Маслова В.А. 2004, 59].

Ongdagi konseptlar va ularning qismlari bo‘lmish tushunchalar til va nutq birliklari semantikasi yordamida tashqariga chiqadi. Bu birliklar so‘zlar (tub, yasama, qo‘shma va murakkab so‘zlar), frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, nutq klishchelari, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar, shu jumladan, folklor matnlari va hokazolar bo‘lishi mumkin. Bularni ayrim tilshunoslar “konseptning nominativ maydoni”, deb ataydi.

Konseptlarning soni hamma tillarda bir xil emas. Ularning bir qismi ayrim millatlada yo‘q.

Konsept va uning qismlarini atovchi til vositalari til va nutq sathlari bo‘ylab sochilib ketgan, shuning uchun konseptni aniqlash uchun konseptning nominativ maydonini tahlil qilish kerak bo‘ladi.

So‘z ma’nosiga kelsak, u ongimizdagi tushunchaning tilimizdagi muqobilidir. Tushuncha til va nutq birliklari ma’nosida aks etadi va u til hisobiga boyishi mumkin [Бондарко А.В. 1978, 82–83]. Masalan, *chiroyli* va *go‘zal* so‘zlarining ma’nolari bitta tushunchani anglatadi, ammo ikkinchi so‘zda bu tushuncha stilistik ottenkalar bilan boyigan. Bunday holatni ko‘pchilik sinonimik qatorlarga kiruvchi so‘z ma’nolarida ko‘rish mumkin.

“Lingvokulturema” lingvomadaniyatshunoslikning eng asosiy atamasi bo‘lib u V.V.Vorobyev tomonidan taklif qilingan. Ko‘pchilik uni madaniyat konsepti deb tushunadi. Biz bu tushinchani quyidagicha talqin qilishni tavsiya qilamiz. Lingvokulturema o‘z semantikasida (ma’nosida) madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligidir. Ular ham so‘z (tub, yasama,. qo‘shma va.murakkab so‘z), frazeologik birlik, so‘z birikmasi, gap, paremiya, nutq klishchelari, murakkab sintaktik butunlik, matn bo‘lishi mumkin. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda planini yuqorida ko‘rsatilgan birliklar formalari, mazmun planini esa o‘sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema konseptdan o‘zining mazmun va ifoda planiga ega bo‘lishi va bevosita tilga taalluqli bo‘lishi bilan farq qiladi.

Madaniyatda til bilan bog‘liq bo‘lmagan narsalar ham bor (masalan, xatti-harakatlar, rituallar, urf-odatlar), biz ularni “kulturemalar” deb atashni taklif qilamiz.

Bu yangi atamalarning chet tilini o‘qitishdagi roli haqida bizning fikrimiz quyidagicha.

Ma’lumki, chet tili o‘qitishning asosiy maqsadi talabalarni o‘sha chet tilida muloqotga o‘rgatish. Verbal muloqot konseptlar orqali emas, balki tushunchalar va ularning tildagi muqobillari bo‘lmish so‘z ma’nolari orqali amalga oshiriladi. Masalan, –“Men kecha Samarqandga bordim. –Nega bording? – Ota-onamni ko‘rgani” dialogida hech qanday konsept yo‘q. Unda tushunchalar va ularning tildagi muqobillari bo‘lmish til va nutq birliklari ma’nolari bor.

Insondagi konseptlar va ularning mazmuni shunchalik mavhum va noaniqki, u o‘zidagi konseptlar mazmuninining hajmini chala biladi, ammo u ongdagi tushunchalar va ularning tildagi muqobili bo‘lmish so‘z ma’nolarini yaxshi biladi va nutqda ularni to‘g‘ri ishlatadi.

Chet til o‘qituvchilari shu paytgacha talabalarni chet tiliga konsept tushunchasisiz muvaffaqiyatli o‘qitib kelmoqda. Har bir konsept mazmunini talabalarga yetkazish haddan tashqari ko‘p vaqt talab qiladi. Buning ustiga hali hech qanday mamlakatda konseptlar lug‘ati tuzilmagan.

Konsept chet tilini o‘rgatishda talabalar uchun matnlar tanlashda (Navro‘z, ingliz xalqi bayramlari, Piknik, London va hokazolar), shuningdek, chuqur bilim talab qiluvchi savollarga javob berishda (London haqida nima bilasan? Navro‘z bayrami qanday nishonlanadi? va hokazolar) kerak bo‘ladi.

“Lingvokulturema” va “kulturema” atamalariga kelsak, ular chet tilini o‘qitishda o‘ta zarur atamalardir, chunki bugungi kunda til o‘qitishda “lingvomadaniyatlilik” tamoyili paydo bo‘ldi. Bu tamoyil talabalarni tilga va o‘sha til sohiblarining madaniyatiga o‘rgatishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бондарко А.В. Грамматическое значение и смысл. Ленинград, 1978.
2. Yusupov O‘.Q. Ma’no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamalari xususida. Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2011, 49 – 55-betlar.
3. O‘XM – O‘zbek xalq maqollari. T., 1989.
4. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. М., 1997.
5. Городецкий Б.Ю. К проблеме семантической типологии. М., 1969.
6. Звегинцев В.А. Теоретическая и прикладная лингвистика. М., 1968.
7. Колшанский Г.В. Семантика слова в логическом аспекте. Язык и мышление. М., 1967.
8. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику (учебное пособие). Москва, “Флинта – Наука”, 2004.
9. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, “ Sangzor”, 2006.
10. Yusupov O‘.Q. Kognitiv lingvistika haqida. Ayub G‘ulomov va o‘zbek tilshunosligi masalalari. T., 2007.
11. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. Т., Fan, 2007.

Atabayeva Mavjuda Rustamovna (UrDU akademik litseyi Geografiya fani o‘qituvchisi)

“O‘ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI” KURSIDA “O‘ZBEKISTON ICHKI SUVLARI VA SUV BOYLIKLARI” MAVZUSINI INTERFAOL O‘RGANISHDA KLASTER USULIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi kursi”da “O‘zbekiston ichki suvlari va suv boyliklari” mavzusini interfaol o‘rganishda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini klaster metodi asosida rivojlantirish haqida ma’lumot berilgan, geografiya ta’limida darslik matnidagi manbalarni tez va oson o‘rganishda klaster metodining afzalliklari haqida so‘z yuritilgan.“O‘zbekiston tabiiy geografiyasi kursi”ni o‘rganishda klaster metodining qo‘llanilishi haqida ma’lumot berilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о развитии навыков критического мышления на основе кластерного метода в интерактивном изучении темы “Внутренние воды и водные ресурсы Узбекистана” в курсе “Естественная география Узбекистана”. Рассматриваются преимущества кластерного метода в быстром и легком изучении источников в тексте учебника по географическому образованию. Дана информация о применении кластерного метода при изучении курса “Естественная география Узбекистана”*

Annotation. *This article provides information on the development of critical thinking skills on the basis of the cluster method in interactive study of the topic “internal waters and water resources of Uzbekistan” in the course of “Natural geography of Uzbekistan”, talks about the advantages of the cluster method in quick and easy study of sources in the text of the textbook in geography education. Information about the application of the cluster method in the study of the course of “ Natural geography of Uzbekistan” is given.*

Kalit so‘zlar: *klaster, pedagogik texnologiya, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi, geografiya ta’limi, tabiiy geografiya.*

Ключевые слова: *кластер, педагогические технологии, навыки критического мышления, географическое образование, естественная география.*

Key words: *Cluster, pedagogical technology, critical thinking skills, geography education, natural geography.*

Zamonaviy o‘quvchini bilim orttirishga, axborot va kommunikatsiya maydonida yo‘l, maqsad izlash faoliyatiga motivatsiya qilish juda qiyin. Bu shuning evaziga sodir bo‘lmoqdaki, bolalar barcha maktab fanlari bo‘yicha o‘quv materiallarini qabul qilishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Buning sababi, fikrlashning, avvalo, tanqidiy, yetarlicha yuqori darajada rivojlanmaganidir.

Tanqidiy fikrlash baholovchi refleksiya fikrlashni anglatadi**.** Bu shaxsiy hayot tajribasiga yangi ma’lumot kiritish orqali rivojlanayotgan aqidani qabul qilmaydigan ochiq fikrlashdir. Bu tanqidiy fikrlash va ijodiy fikrlash o‘rtasidagi farq bo‘lib, u baholashni ta’minlamaydi, lekin, ko‘pincha, hayot tajribasi, tashqi qoidalar va qoidalardan tashqariga chiqadigan yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Biroq, tanqidiy va ijodiy fikrlash o‘rtasida aniq chegara qo‘yish qiyin. Aytish mumkinki, tanqidiy fikrlash ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun boshlang‘ich nuqtadir, bundan tashqari, tanqidiy va ijodiy fikrlash sintezda o‘zaro bog‘liqdir.[1]

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining maqsadi bolalar uchun keyingi hayotda zarur bo‘lgan aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishdir (muvozanatli qarorlar qabul qilish, axborot bilan ishlash, asosiy va ikkinchi darajali ajratish, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish qobiliyati). Ushbu texnologiyaning dolzarbligi shundaki, u darslarni maqbul rejimda o‘tkazishga imkon beradi, bolalarda ishlash darajasi oshadi, darsda bilimlarni o‘zlashtirish doimiy qidiruv jarayonida sodir bo‘ladi.

Oddiy darsni yorqin, samarali qilish, o‘qishni ta’lim bilan birlashtirish va psixologik qulaylik muhitini yaratishga yordam beradigan ko‘plab yangi, zamonaviy shakllar paydo bo‘ladi.

O‘quvchining tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalangan holda tashkil etilgan geografiya darsi an’anaviy darsga nisbatan bir qator afzalliklarga ega, chunki bu texnologiya kognitiv pedagogik maqsadlarga alohida e’tibor beradi:

1) bilim (ishlatilgan atamalar, aniq faktlar, tushunchalar);
2) tushunish (o‘rganilgan faktlar, materialni talqin qilish);
3) qo‘llash (yangi vaziyatlarda tushunchalarni ishlatish);
4) tahlil (faktlar va fikrlar, sabablar va oqibatlar o‘rtasidagi farqni amalga oshirish);
5) sintez (ijodiy ish yozish, tadqiqot rejasini tuzish);
6) baholash (materialni yaratish mantiqini baholash).


Ushbu samarali vositalardan biri amerikalik o‘qituvchilar J.Steele, K.Meredit, Ch.Templ va S.Uolter tomonidan ishlab chiqilgan o‘qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik texnologiyasidir.[2]

Bu texnologiyada olib borilgan darslarning ahamiyati shundaki, ular o‘qituvchiga talabalar uchun zarur bo‘lgan umumiy ta’lim va ko‘nikmalarni shakllantirishga va boshqa maktab fanlarini o‘rganishga, “o‘rganishni o‘rgatishga” imkon beradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi taklif – anglash – tahlil qilish sxemasi bo‘yicha darsni tashkil qilishni taklif qiladi va bir qator texnika va strategiyalarni taklif etadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun maxsus uslubiy vositalarni yaratish va qo‘llash kerak. Geografiya darslarida qo‘llaydigan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining usullari va strategiyalariga batafsil to‘xtalsak. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida ayrim murakkab mavzularni tez va oson o‘zlashtirishda klaster metodiga murojaat qilish mumkin. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida “O‘zbekiston ishki suvlari va suv boyliklari” mavzusida O‘zbekiston daryolariga oid manbalar juda keng qamrovliligini hisobga olib, daryolar haqidagi manbalarni quyidagi klasterlarda aks ettirsak, yanada osonroq bo‘ladi.

Har bir daryo haqidagi manbalarni o‘rganish qulay bo‘lishi uchun quyidagi murakkab klasterga joylasak, yanada oson o‘zlashtiriladi:

[1] Mushtavinskaya I.V. Darsda va o‘qituvchi tayyorlash tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi. M., “Karo”, 2009, 144-bet.

[2] Zagashev I., Zair-Bek S. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi [matn]. Sankt-Peterburg, “Skifiya” va “Alyans Delta”, 2003, 284-bet.



1-rasm. Amudaryo klasteri.

Agar o‘lkamiz daryolari haqidagi manbalarni umumlashtirmoqchi bo‘lsak, quyidagi klasterda aks ettirsak yanada qulay o‘zlashtiriladi.




2-rasm. Daryolarning to‘yinish tiplari.

Xuddi shu kabi boshqa daryolarni ham klasterga joylashtirsak bo‘ladi. Bundan tashqari, ko‘llar haqidagi barcha ma’lumotlarni klasterga joylashtirsak, manbalarni tahlil qilish yanada osonlashadi.



3-rasm. Tabiiy o‘lkalardagi asosiy ko‘llar.

Orol dengizi haqidagi barcha manbalarni esa quyidagi klasterga joylasak bo‘ladi.



4-rasm. Orol dengizi klasteri.

Demak, klasterlardan dars jarayonida foydalanish orqali bir vaqtning o‘zida fikrlar xilma-xilligiga ega bo‘lish va tanqidiy fikrlashni o‘stirishga ham erishish mumkin.

Musoyeva Aziza Botirovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti Ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.; musoeva@samdchti.uz)

BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING TADQIQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish zarurligi va ahamiyati ta’kidlangan. Shuningdek, maqolada kompetensiya, kompetentlik va tadqiqot kompetensiyasi kabi atamalarning izohlari berilgan. Bundan tashqari, maqolada bo‘lajak chet tili o‘qi-*

tuvchilari uchun muhim bo‘lgan kompetensiyaning roli muhokama qilingan va ushbu atamalar bo‘yicha bir nechta olimlarning nuqtayi nazarlari keltirilgan.

Аннотация. *В статье подчеркивается необходимость и значимость формирования у будущих преподавателей иностранного языка исследовательских навыков. В ней также определяются такие термины, как компетенция, компетентность и исследовательская компетентность. Кроме того, в статье обсуждается роль компетентности для будущих преподавателей иностранных языков и приводится точка зрения нескольких ученых по этому поводу.*

Annotation*. The article emphasizes the need and significance of developing future foreign language instructors' research skills. It also defines terms like competence, competency, and research competence. Furthermore, the article discusses the role of competency for prospective foreign language instructors and lists several scholars' perspectives on these terms.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kompetentlilik, tadqiqot kompetensiyasi.*

Ключевые слова: *компетенция, компетентность, исследовательская компетентность.*

Key words: *competency, competence, research competence.*

Kirish. Qabul qilingan qonun hujjatlari va amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli hozirgi kunda chet tilini bilish darajasi mamlakat miqyosida asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda. Bunga sabab chet tilini o‘qitish bo‘yicha qilinayotgan sa’y-harakatlar, olimlarimiz va yosh izlanuvchilarimiz tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar va izlanishlar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Aynan o‘sha izlanishlar natijasida boshqa sohalarda bo‘lgani singari, chet tilini o‘qitish sohasida ham so‘nggi yillarda “kompetensiya”, “kompetentlilik” va “kompetensiyaviy yondashuv” tushunchalari keng ommalashdi. Aytib o‘tilgan har bir atamaning o‘ziga xos jihatlari, ma’no-mazmuni bo‘lgani bois, biz har biriga qisqacha to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik.

Asosiy bo‘lim. “Kompetensiya” atamasiga keladigan bo‘lsak, u, asli, kelib chiqishi lotinchadan olingan bo‘lib, unga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da[1] quyidagicha ta’rif berilgan, ya’ni, lotincha. competere layoqatli, munosib bo‘lmoq yoki competo – erishayapman, munosibman, loyiqman degan ma’nolarni bildiradi.

Mazkur atamaning tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, ilk bor jahon tilshunosligida 1965-yili N. Xomskiy tomonidan “til kompetensiyasi” shaklida ishlatilgan. Mashhur olim “kompetensiya” atamasiga ta'rif berar ekan, uni faoliyatga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuyi deya izohladi, uning izdoshlari tomonidan esa bu kompetensiyaviy yondashuv sifatida talqin etilgan. Bunda biz kompetensiya, kompetentlilik va kompetensiyaviy yondashuv tushunchalari o‘rtasidagi farqlarni bilishimiz lozim. Rus olimi N.D.Galskova tomonidan bu atamalar ta’limda natijaviylikni ko‘rsatuvchi omillar tarzida keltirilgan.[2]

O‘tgan yillar davomida mazkur atama jahon va MDH mamlakatlarining olimlari hamda yurtimiz olimlari tomonidan tadqiqot obyektiga aylandi. Masalan, K.J.Risqulova tomonidan olib borilgan tadqiqot natijasida kompetensiya hamda kompetentlik atamalariga mualliflik yondashuvi asosida ta’rif berilgan. Unga ko‘ra, “kompetensiya” u yoki bu kasb egasiga zarur bo‘lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me’yorlar yig‘indisini anglatadi.

Kompetentlik esa shaxs amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, kompetensiya me’yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir va uning asosiy mezoni samarali faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi.[3] A.X.Mahmudov kompetentlik tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Kompetentlik – bu bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi integrativ bilim, ko‘nikma va malakalarning alohida qirralarini (kognitiv komponent) hamda ijtimoiy muhim sifatlarini (qabul etilayotgan qarorga tayyorlik, layoqatlilik va mas’uliyatlilik) qamrab olgan shaxsning integrativ sifatidir (ijtimoiy-psixologik komponent) hisoblanadi”.[4]

---

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 704-bet.

[2] Гальскова Н.Д. Межкультурное обучение: проблема целей и содержания обучения иностранным языкам. “Иностранные языки в школе”, М., 2004, № 1, с. 3 – 8.

[3] Riskulova K.J. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi. Avtoref.diss. ...ped.fan.fan.dok., Toshkent, 2017, 14-bet.

[4] Mahmudov A.X. Bo‘lajak magistrlarni kompetentli tayyorlashning didaktik ta'minotini takomillashtirish. Avtoref. ped. fan. dokt. (DSc), T., 2017, 16-bet.

Kompetensiyaviy yondashuv tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsak, u bu talabalarda kompetentlilikning shakllanishiga xizmat qiluvchi omillar yig‘indisidir. Mamlakatimiz ta’lim tizimiga hozirda aynan mana shu yondashuv joriy etilgan bo‘lib, bu davlat ta’lim standartlari talablarining takomillashtirilishiga, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlaridagi fan dasturlari va darsliklari mazmuniga o‘zgartirishlar kiritilishiga olib keldi.[1]

N.A.Almazovaning talqinicha, kompetensiyaviy yondashuv bu kognitiv va faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u talabalarga chet tilni kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida qo‘llay olishga yo‘naltirilgan yondashuv sifatida bayon etadi.[2] Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari kompetensiyalarini mazkur yondashuv bo‘yicha tahsil olish natijasida rivojlantirishadi.

Kompetensiya atamasi o‘zi, aslida, juda keng ma’noli bo‘lib, u mavzuni o‘zlashtirish, o‘zaro ta’sirlashish, pedagogik mahorat, muloqot qobiliyatlari, vaziyatni tushunish, motivasiya, ijtimoiy ko‘nikmalar, didaktik mahorat, pedagogik bilim, o‘quvchilarning bilimlari, og‘zaki nutq qobiliyatlari va ijodiy qobiliyat kabi turli kontekstlarda ishlatiladi. Shuningdek, o‘qituvchi kompetensiyasi qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi va o‘qituvchining xatti-harakatiga, o‘qitishiga va o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi.[3]

Shuningdek, kompetensiya atamasining yana turli xil ta’riflari mavjud bo‘lib, u insonning tushunchasi, munosabati va iste’dodi o‘rtasidagi bog‘liqlik hisoblanadi. Akademik adabiyotlarda kompetensiyaga asoslangan o‘quv dasturiga e’tibor qaratilsa, bu insonning tushunchasi, munosabati va qobiliyatlarini birlashtirishdir. Kompetensiya atamasining aksariyat ta’riflari ikkita komponentdan iborat: muayyan ish bilan bog‘liq kontekstga havola va shaxsning bunday faoliyat yoki ishni bajarishga bo‘lgan tushunchasi, munosabati va qobiliyatlarini o‘z ichiga olishi hisoblanadi.[4]

K.Selvi tomonidan olib borilgan tadqiqotda u bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy mahoratini oshirishda kerak bo‘ladigan kompetensiyalarni ko‘rib chiqqan. “Bizningcha bo‘lajak o‘qituvchi uchun, eng asosiysi, ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasi hisoblanadi”.[5]

Bizningcha, hozirda aynan ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasi (ing. research competencies) barcha professor-o‘qituvchilar va bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari uchun muhim bo‘lib, bu ularning sohalari bo‘yicha ilmiy izlanish olib borishning qonuniyatlarini o‘rganishlari hamda fan va jamiyat uchun dolzarb bo‘lgan masalalarni yechishlari bilan bog‘liq. Mazkur kompetensiyaga tadqiqot usullari va texnikasini puxta egallash, tadqiqotlarni loyihalashtirish va o‘tkazish, hamkasblar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabilar kiradi. Tadqiqot kompetensiyasi o‘qituvchini o‘z ustida ishlashiga, malakalarini oshishiga va rivojlanishiga hamda keyingi yillarda o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini rivojlanishi uchun xizmat qiladigan yondashuvlardan biri bo‘lgan tadqiqotga asoslangan o‘qituvchilar ta’limini qo‘llab-quvvatlashga zamin yaratadi.[6]

Tadqiqot bilan shug‘ullanish butun dunyo bo‘ylab oliy ta’lim muassasalarida muvaffaqiyat omillaridan biri sifatida tan olinadi.[7] Buning sababi shundaki, tadqiqot nafaqat ilmiy ish qilish qobiliyatini, balki o'qitish mahoratini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Muayyan OTM samarali ilmiy natijalarga ega bo‘lsa, o'qitish sifati yanada oshadi va o‘qituvchilar va bo‘lajak mutaxassislar ham ilmiy ish bilan shug‘ullanadilar.

Shouman va boshqa mualliflarining fikriga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchi tadqiqot olib borishda muvaffaqiyatga erishishi uchun o‘ziga xos xususiyat va qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Bu xususiyatlarga

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartlari. “Xalq ta’limi”, 4-son, Toshkent, 2013, 4 – 32-betlar.

[2] Алмазова Н.И. Формирование межкультурной компетенции при обучении иностранному языку в экономическом вузе. Автореф.дисс. ... док. пед. наук, Санкт-Петербург, 2003, с. 43.

[3] Ubani M. What characterizes the competent RE teacher? Finnish student teachers’ perceptions at the beginning of their pedagogical training. British Journal of Religious Education, 34(1), 2012, p. 35 – 50.

[4] Baartman, L.K., Bastiaens Theo J., Kirschner Paul A., van der Vleuten Cees P.M. (2007). Evaluating assessment quality in competence-based education: A qualitative comparison of two frameworks. Educational Research Review, 2(2), p. 114 – 129.

[5] Selvi K. Teachers’ competencies. Cultura. International Journal of Philosophy of Culture and Axiology, vol. 7(1), 2010, p. 167 – 175.

[6] Niemi H., Ritva J. Research-based teacher education. Research-based teacher education in Finland: Reflection by Finnish teacher educators. Paionsalama Oy, 2006, p. 37.

[7] Marin E., Iftimescu S., Ion G., Stingu M., Proteasa C. (2017). Academic Managers` Perspective on Research Management in Higher Education Institutions across Romania. Proceedings of the 3rd International Conference on Higher Education Advances.

tashkilotchilik, oqilona fikrlash, samarali muloqot, ijodkorlik va qat'iyatlilik kabilar kiradi. Bu asosiy qobiliyatlarning barchasi bo‘lajak o‘qituvchi uchun bir xil darajada muhimdir. Yuqorida aytib o‘tilgan beshta qobiliyatni ishga solgan holda, bo‘lajak o‘qituvchi talabalikdan tadqiqotchi vazifasiga o'tishi mumkin. Ushbu muhim shaxsiy qobiliyatlar to‘plami bo‘lajak o‘qituvchiga yuqori sifatli samarali tadqiqotlarni amalga oshirishga qodir tadqiqotchi sifatida muvaffaqiyatga erishish uchun zamin yaratadi.[1]

A.B.Musoyeva olib borgan tadqiqoti natijasida ilmiy izlanishlar kompetensiyasi bo‘lajak o‘qituvchi uchun juda ahamiyatli ekanligi isbotlandi. Bunda izlanuvchi, tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi xususiyatlar va platformalar bo‘yicha amaliy tavsiyalar berdi. Bo‘lajak o‘qituvchining ilmiy izlanishlar kompetensiyasiga ega bo‘lishi, tadqiqotlarni loyihalashtirishi va o‘tkazishi, hamkasblari va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi (Research Gate, Academia, Elsevier, Scopus, Springer Nature, Mendeley, Zotero, Web of Science, Google Scholar va boshqa ilmiy platformalardan hamda SPSS, Nvivo, ANNOVA, Survey Monkey, Google sheets, Grammarly kabi ilovalardan o‘z faoliyatida unumli foydalanishi) hisoblanadi.[2]

Xulosa sifatida shuni aytish o‘rinliki, chet tilini o‘qitish sohasida so‘nggi yillarda kompetensiya, kompetentlilik va kompetensiyaviy yondashuv tushunchalari keng ommalashdi. Davlat ta'lim standardlarida ham aynan kompetensiyaviy yondashuv tushunchasiga ko‘p urg‘u beriladi va bu, albatta, bejizga emas. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari o‘qish davomida turli malaka va qobiliyatlarga ega bo‘ladilar hamda yillar davomida tadqiqotchi sifatida shakllanib, asta-sekinlik bilan takomillashib boradilar.

Abdulxayeva Musharraf Usmonjon qizi (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti Boshlang‘ich ta'lim kafedrasi o‘qituvchisi; abdulxayevamusharraf8@gmail.com)

DIKTANT VA MUSIQA HAMOHANGLIGI METODI

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda diktantlarning tutgan o‘rnini yoritib berishga qaratilgan bo‘lib, u diktant va musiqa hamohangligi metodi va uning tajribasinov natijalari orqali yoritib beriladi. Maqolada diktant va musiqa hamohangligi metodining olinish usuli va umumiy o‘rta ta'lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish ta'sir etuvchi omillari haqida tushunchalar bayon etilgan.*

Аннотация*. Данная статья направлена на то, чтобы осветить роль диктанта в развитии письменной речи учащихся, она объясняется через метод гармонии диктант и музыка и его экспериментальные результаты. В статье описывается методика получения методики диктант и музыкальная гармония и факторы, влияющие на развитие письменной речи учащихся начальных классов в общеобразовательных школах.*

Annotation*. This article is aimed at highlighting the role of dictation in the development of students' written speech, it is explained through the method of dictation and music harmony and its experimental results. The article describes the method of obtaining the dictation and music harmony method and the factors affecting the development of written speech of primary school students in general secondary schools.*

Kalit so‘zlar: *diktant, nutqiy kompentensiya, lingvistik kompentensiya, diktant va musiqa hamohangligi metodi, DTS.*

Ключевые слова: *диктант, речевая компетенция, языковая компетенция, метод синхронизации диктант и музыка, ДТС.*

Key words: *dictation, speech competence, linguistic competence, dictation and music synchronization method, DTS.*

Bola hayotida boshlang‘ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng muhim va mas'uliyatli davrlardan biri hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta'lim jarayonida bolaning ilk savodi chiqadi, uning dunyoqarashi shakllanib boradi, tafakkur etish malakasi rivojlanadi, og‘zaki va yozma nutqi yanada rivojlanib boradi. Bu davrda bolaning zehnini o‘stirishga qaratilgan har bir mashg‘ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi.[3] Shu sababdan ham har bir darsni boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi hayot bilan uzviy bog‘lagan holda, turli metodlardan unumli foydalanib olib borishi kerak bo‘ladi.

[1] Showman A., Cat L.A., Cook J., Holloway N.,&Wittman T. (2013). Five essential skills for every undergraduate researcher. CUR Quarterly, 33(3), p. 16 – 20.

[2] Musoyeva A.B. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini CEFR orqali shakllantirish va rivojlantirish (ingliz tili misolida). Diss.ped.fan.fan.dok., Samarqand, 2022, 192-bet.

[3] T.G‘afforova va boshqalar. Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili va o‘qishdan didaktik materiallar. T., 2004, 3-bet.

Hozirgi kunda maktablarda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining nutqini, ayniqsa, yozma nutqini o‘stirishga katta e’tibor berilmoqda. O‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirish, ularni savodxon qilish niyatida yozma ishning bir necha turlaridan foydalaniladi.[1] Bulardan bir turi diktantdir. Ona tili darslarida o‘quvchilarning imlo savodxonligini oshirishda diktantlarning ahamiyati kattadir.[2] O‘quvchilarning o‘rgangan bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashi uchun diktantlarning o‘rni nihoyatda kattadir. Bulardan tashqari, bolalarga diktant yozdirish orqali o‘quvchilarning ko‘rish, yozish, eshitish qobiliyatlarini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Diktantlar o‘quvchilarning o‘g‘zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, erkin fikrlash, mustaqil ishlash ko‘nikmasini hosil qilish, ularning nutqini o‘stirishda muhim o‘rin tutadi. Shu tufayli yangi tahrirdagi davlat ta’lim standartlar (DTS) talablariga asoslangan, davr talablariga javob beradigan yozma ishlarni tashkil qilish va ularni o‘tkazish bo‘yicha yangiliklar ishlab chiqish talab etiladi. Shu sababli yangi tahrirda tuzilgan davlat ta’lim standartlar (DTS) va ularda alohida ta’kidlangan nutqiy va lingvistik kompentensiyalarga, o‘zbek tilining imlo qoidalariga, vazirlik tomonidan tavsiya etilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalariga tayangan holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan diktantlar olinadi.

Diktantlar olish jarayonida nutqiy lingvistik kompentatsiyaga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Men “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda diktantlarning tutgan o‘rni” deb nomlangan ilmiy tadqiqot ishimni yozish jarayonida uchinchi va to‘rtinchi sinf o‘quvchilari uchun “Diktant va musiqa hamohangligi” metodini ishlab chiqdim.

“Diktant va musiqa hamohangligi” metodini dars jarayonida qo‘llash uchun avvalo o‘quvchilarning yoshi va sinfiga mos diktant matni va biror musiqa tanlab olinadi. Musiqa qo‘yilgan holda diktant matni o‘quvchilarga bir marta to‘liq o‘qib beriladi, so‘ngra so‘zma so‘z aytib musiqa ohangida yozdiriladi. “Diktant va musiqa hamohangligi” metodini Farg‘ona viloyati Rishton tumani 38-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 4-[A]sinf o‘quvchilari ishtirokida tajriba-sinov tariqasida 3 marotaba o‘tkazildi.

Dastlab, birinchi tajriba-sinovi 2022-yil 24-fevral kuni o‘tkazildi. Unda quyidagi diktant matnidan foydalanildi.

Bahor nafasi

Mart oyi edi. O‘qituvchimiz bilan qirga sayohatga chiqdik. Tepalikdan go‘zal shahar manzarasi ko‘rinardi. O‘qituvchimiz diqqatimizni uyg‘onayotgan daraxtlarga qaratdi. Bodom, o‘rik, olma va shaftoli gullari baxmal gilamni eslatardi. Mayin shabada, yoqimli havo dimog‘imizga urilib turadi.

–Bu bahor nafasi, – dedi rahbarimiz. Har bir faslning o‘z gashti bor. Mana shu biz ko‘rib turgan manzara ko‘rkam bahorning belgisi. Turli bo‘yoqlar bilan rasmlar chizdik. Lekin bitirishga ulgurmadik. Qolganlarini uyda bitirib, bo‘yab qo‘ydik.[3] Natija quyidagicha bo‘ldi: diktant olish jarayonida 26 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Shundan 5 nafar o‘quvchi 5 baho, 9 nafar o‘quvchi 4 baho, 7 nafar o‘quvchi 3 baho, 5 nafar o‘quvchi esa 2 baho oldi. Diktantda ishtirok etgan o‘quvchilarning samaradorligi esa 70,8%ni tashkil etdi.

“Diktant va musiqa hamohangligi” metodi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida birinchi marotaba o‘tkazilganligi uchun o‘quvchilar musiqa sadolari ostida diktant yozish jarayonida o‘z fikrlarini jamlay olmay diktant yozishga qiynaldilar. Ikkinchi tajriba-sinovni 10-mart kuni o‘tkazildi. Tajriba-sinov uchun quyidagi diktant matnidan foydalanildi.

O‘lkamiz tog‘lari tabiati

O‘zbekiston hududining sharqiy qismi tog‘liklardan iborat. Qishda tog‘larga qalin qor yog‘adi. Ularning qalinligi uch metrdan oshadi. Bahorda kunlar isishi bilan qorlar eriy boshlaydi. Yoz bo‘yi, hatto kuzda ham qorlarning erishi davom etadi.

Tog‘lardagi erigan muz va qorlar jilg‘alarni, ular yig‘ilib irmoqlarni hosil qiladi. Irmoqlar qo‘shilib, daryoni vujudga keltiradi. O‘lkamiz hududidagi barcga daryolar shu tarzda tog‘dagi muz va qorlarning erishidan hosil bo‘ladi.[4]

4-sinf o‘quvchilarining yozma savodxonligini o‘stirish maqsadida o‘tkazilgan tajriba-sinovida 26 nafar o‘quvchilar ishtirok etdi. Shundan 7 nafar o‘quvchi 5 baho, 14 nafar o‘quvchi 4 baho, 4 nafar o‘quvchi 3 baho, 1 nafar o‘quvchi 2 baho oldilar. O‘lkamiz tog‘lari tabiati mavzusida olingan diktant matnini yozish jarayonida sinfdagi o‘quvchilarning samaradorligi 80,8%ni tashkil etdi. Bundan ko‘rinadiki,

[1] M.Yusupova. Diktantlar to‘plami. Toshkent, 2004, 3-bet.
[2] Ko‘rsatilgan manba. 4-bet.
[3] Q.Abdullayeva, S.Rahmonbekova. Diktantlar to‘plami. Toshkent, 2005, 109-bet.
[4] D.Eshonqulova, G.Rahmatova. Diktantlar to‘plami. Toshkent, 2018, 180-bet.

“Diktant va musiqa hamohangligi” metodi ikkinchi marotaba o‘tkazilganda o‘quvchilarning yozma nutqi va fikrni bir joyga jamlab, eshitilgan so‘zlarni yozma nutq ko‘rinishda yozish malakalari o‘sganligini ko‘rshimiz mumkin.

“Diktant va musiqa hamohangligi” metodining tajriba-sinovini 4-^{A}sinf o‘quvchilari ishtirokida uchinchi marotaba 31-mart kuni o‘tkazildi. Unda quyidagi diktant matnidan foydalanildi.


Anhorda

Yozning issiq kunlari edi. Sobir, Salim, G‘ani anhorga borishdi. Sobir yechinib suvga tushdi va anhorda baliqdek suzib ketdi. Salimning havasi keldi. Lekin suzishni bilmasdi. Sobir suvdan chiqdi. Salimning oldiga keldi. Issiq qumga yotib oldi.

Salimga juda alam qildi. Kiyimini yechib, anhorga sakradi. Ozgina suv kirib, nafasi qaytib ketdi. Oyoq qo‘llarini chapillatdi. Shu payt uni kimdir suvdan tortib oldi. Salim, qarasa, G‘ani ekan. U akasiga mahkam yopishib oldi. Yig‘lamoqchi bo‘ldi-yu, ammo uyaldi.[1]

“Diktant va musiqa hamohangli” metodi o‘quvchilardan uchinchi marotaba olinganda samaradorlikning o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Jami 26 nafar o‘quvchi qatnashdi, shundan 15 nafari 5 baho, 8 nafari 4 baho, 3 nafari 3 baho olganligini ko‘rishimiz mumkin. Samaradorlik esa 89,2%ni tashkil etdi.

“Diktant va musiqa hamohangligi” metodining asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini o‘stirish hisoblanadi. Ushbu tajriba-sinov ishlarining natijalaridan ko‘rinadiki, demak, biz ko‘zlangan maqsadimizga erishdik. Buni quyidagi diagramma orqali tahlil qilishimiz mumkin.



[2]

Agar bordiyu bu olingan natijalarni sinfdagi o‘quvchilarning individual natijasi bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, har ikkala holatda ham samaradorlik pastdan yuqoriga tomon ko‘tarilib borganligini ko‘rishimiz mumkin.

Demak yuqorida keltirilgan natijalarga asoslanib, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, diktantni musiqa bilan hamohang olib borish jarayoni o‘quvchilarning eshitish, his qilish, xotirasini mustahkamlash va har qanday vaziyatlarda ham o‘z fikr-mulohazalarini yuritish faolligini oshiradi va o‘quv-biluv ko‘nikma va malakalarini shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Soliyev Oybek Soxibjon o‘g‘li (Qo‘qon DPI Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi; oybeksoliev3@gmail.com)

[1] Q.Abdullayeva, S.Rahmonbekova. Diktantlar to‘plami. Toshkent, 2011, 175-bet.

[2] Farg‘ona viloyati Rishton tumani XTB tasarrufidagi 38-umumiy o‘rta ta’lim maktabi 4-^{A}sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan “Diktant va musiqa hamohangligi” metodining tajriba-sinov natijalari. Tajriba-sinov 2022, l- fevral va mart oylarida o‘tkazilgan.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI HAMDA DIDAKTIK O‘YINLAR YORDAMIDA DARSLARDA FAOLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va bu borada xorijiy mamlakatlarda tatbiq etilayotgan eng samarali usullar, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun didaktik o‘yinlar yordamida fanlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish va darslarni yanada qiziqarliroq tashkil etish usullari haqida so‘z boradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilishi kerak bo‘lgan eng asosiy bilimlar haqida fikrlar yoritilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены методы использования современных информационных технологий в преподавании предметов в начальных классах и наиболее эффективные методики, реализованные в зарубежных странах в связи с этим, а также повышения эффективности усвоения предметов с помощью дидактических игр для учащихся начальных классов. и обсуждаются более эффективные методы организации уроков. Выделены мысли о самых элементарных знаниях, которые должны знать учителя начальных классов.*

Annotation. *In this article, methods of using modern information technologies in the teaching of subjects in primary grades and the most effective methods implemented in foreign countries in this regard, as well as improving the efficiency of mastering subjects with the help of didactic games for primary school students and making lessons more effective more interesting organizing methods are discussed. Thoughts on the most basic knowledge that primary school teachers should know are highlighted.*

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalari, o‘yinlar, muloqot, metod, ta’lim va tarbiya, o‘qitish jarayonlari, internet, elektron doska, IQ testlar, kommunikatsion texnologiyalar, motiv va o‘qitish bosqichlari.*

Ключевые слова: *информационные технологии, игры, общение, метод, обучение и воспитание, процессы обучения, интернет, электронная доска, IQ-тесты, коммуникативные технологии, мотивация и этапы обучения.*

Key words: *information technologies, games, communication, method, education and upbringing, teaching processes, Internet, electronic board, IQ tests, communication technologies, motivation and stages of teaching.*

Bugungi kun o‘qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas’uliyatli vazifa yuklangan bo‘lib, ta’lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo‘lib, ta’limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda, o‘quvchilarda fanlarga qiziqish uyg‘otishlari, hurmat-ehtirom tuyg‘ularini shakllantirib borishlari talab etiladi. Ta’limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yoshavlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o‘rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini kengaytirish, ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta’lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta’lim-tarbiya jarayoniga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritilmoqda, zamonaviy axborot texnologiyalar, yangicha o‘qitish metodlari va darslarga yangicha yondoshuvlar tatbiq etilmoqda. Shulardan biri hozirgi kunda butun dunyoda keng tarqalib kelayotgan axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o‘tishda mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’lim muassasalarining moddiy-texnik va axborot bazasini mustahkamlash, o‘quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirish masalasi alohida qayd etilgan. Bundan kelib chiqqan holda ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish davr talabi hisoblanadi [2.33]. O‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash, bugungi pedagogikaning muhim vazifalaridan. Darslarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o‘rgatish, o‘qitilayotgan fanni o‘zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda ham turlicha uslublar qo‘llanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal taraqqiy etib, ta’lim sohasiga jadal kirib kelishi, hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lib borayotgani bu boradagi bilim va malakalarimizni ham mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan

foydalanish muhim sanaladi. O‘qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko‘pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog‘chadan so‘ng maktabning dastlabki davrlari muhim o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim davri ta’lim jarayonidagi eng muhim va mas’uliyatli davr hisoblanadi. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehnini o‘stirishga qaratilgan har bir mashg‘ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta’lim jarayonini qiziqarli, ta’sirli qilib tashkil etishga, bolalarda o‘qishga o‘zlarida motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o‘yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya’ni o‘quv faoliyatiga o‘tganligi bilan xarakterlanadi [2.63]. Didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinflarda ta’limning samarali borishiga o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya’ni didaktik o‘yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi. Didaktik o‘yinlar nafaqat boshlang‘ich sinflarda, balki ta’limning keyingi bosqichlarida ham o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, qiyin o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o‘yinlar samarali ta’sir ko‘rsatadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinflar uchun yaratilayotgan o‘quv qo‘llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko‘zga tashlanib turadi. Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta’limni tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Pedagogik texnologiya o‘quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta’lim shakllarini amalga oshirish uchun ko‘zlangan natijaga erishishda eng qulay yo‘l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u haqiqatdan ham ta’lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Shuning uchun ham ta’lim ishida texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta’lim ishiga texnologik yondashuv:

– ta’lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;

– o‘qish-o‘qitish jarayonini uzviy bog‘liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo‘lishni;

– ta’lim jarayonida mo‘ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

– loyihalashtirilgan ishlar, amallaming barchasini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta’lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo‘lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o‘qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Har bir o‘qituvchi, avvalo, o‘zi o‘qitadigan o‘quv predmeti va har bir o‘tiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak. Shuni ta’kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o‘tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi [1.77].

Didaktik jarayonning samarali o‘tishida motivlar muhim o‘rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlargina samarali bo‘ladi. Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da’vat, turtki hisoblanadi. Shunday ekan, muallimlar bolada o‘qish motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni o‘stirishlari kerak. Motivlar o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarni oson egallashlariga yordam beradi. Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uyg‘otadi. O‘qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o‘quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan xoli bo‘lmaydi. Ta’lim jarayonida yana bir muhim o‘rin egallaydigan usullardan biri bu didaktil o‘yinlardir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o‘yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi. Chunki 6–7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo‘lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangihayot ya’ni maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a’zosi ekanligini his etishga, intizomga bo‘ysunishga, yangi rejimga moslashishga asosiy vasifasi o‘qish ekanligiga moslashishga majbur bo‘ladi. Bola yosh bo‘lishiga qaramay, endi uning maktabda o‘qish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o‘rganish kabi zarur yumushlari ko‘p. Muhimi, o‘yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o‘tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa bu yana ham qiyindir. Ayniqsa, sinfda 40–45 daqiqalik darsda o‘tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bu jarayonda bola maktabdan, o‘qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o‘qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga, bolalarni o‘z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, o‘qishga ishtiyoqini yanada oshirishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim [3.2].

Motiv o‘z-o‘zidan hosil bolmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, darslarni qiziqarli olib borish natijasida o‘quvchilarni darsga jalb etish samarali bo‘ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to‘liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o‘quvchilaring bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e’tibor qaratishlari zarur [1.55].

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy axborot texnologiyalarni o‘zlashtirish va boshlang‘ich ta’limda uni qo‘llash yo‘llarini izlash va takomillashtirish, o‘z ustida ishlash, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish motivlarini o‘stirish ustida ishlash, darsni hayotiy tajribalar bilan bog‘lash. Buning oqibatida o‘quvchi to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qishga o‘rgatib borish, turli mashqlar vositasida tez o‘qish malakalari takomillashtirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi kerak. Bolalarda yangi zamonaviy axborot texnologiyalardan unumli foydalanishda ko‘nikma va malakalarni oshirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi bo‘lib bunda xorijiy mamlakatlarning tajribalaridan foydalangan holda mamlakatimiz shart-sharoitiga mos ravishda ularni qo‘llash muhim vazifa hisoblanadi. Bolalarda kattalar, o‘rtoqlari fikrini ma’qullash yoki jamoa ichida o‘z fikrlarni ayta olish qobiliyatlarini shakllantirish ham shular jumlasidandir. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodikasi bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vazifalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, bolalarning xulq-atvorini rag‘batlantiradi, qiyin va murakkab vazifalarni quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir o‘quvchining shaxsiy muddaosiga aylantiradi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy usullari–ishontirish, talab, istiqbol, rag‘batlantirish va jazolash jamoatchilik fikri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Rahmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik, T., “Fan va texnologiyalar”, 2010.
2. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma, T., “Fan”, 2008.
3. Soliev O. General concepts about educational laws and methods of effective using them in educational processes. Journal of Integrated Education and Research. 2022, Sep 30;1(4), p. 448 – 52.

Urazova Nafisa Gulummatovna (Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti)

BO‘LAJAK TARBIYACHI-PEDAGOGLARNING KITOBXONLIK JARAYONINI TASHKIL ETISH IJTMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarni kitobxonlik jarayonini tashkil etish tizimi mavzusiga aloqador bo‘lgan adabiyotlar o‘rganilgan. Sohaga doir o‘zbek va chet el olimlarining ishlari atroflicha tahlil qilingan va bu borada tadqiqotchining vazifalari belgilangan.*

Аннотация. *В статье изучена литература, связанная с темой организации процесса чтения будущих учителей-педагогов. Подробно проанализированы исследования узбекских и зарубежных ученых в данной области, определены задачи исследования.*

Annotation. *The article examines the literature related to the topic of the organization of the reading process of future teachers-educators. The research of Uzbek and foreign scientists in this field is analyzed in detail, the research objectives are defined.*

Kalit so‘zlar: *tarbiyachi-pedagog, kitobxonlik madaniyati, innovatsion shakl, bolalar kitobxonligi, tizimli topshiriq, bilim olami, ezgu tuyg‘u, badiiy idrok etish, kutubxona etikasi.*

Ключевые слова*: воспитатель-педагог, культура чтения, инновационная форма, детское чтение, систематическое задание, мир знаний, хорошее чувство, художественное восприятие, библиотечная этика.*

Key words: *teacher-pedagogue, reading culture, innovative form, children’s reading, system task, world of knowledge, benevolence, artistic perception, library ethics.*

Jahon miqyosida bugungi kunda talaba-yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish, ularning faol kitobxon bo‘lishiga erishishda ijtimoiy institutlarning rolini oshirish, mutolaa sohasida dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet-texnologiyalaridan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Rivojlangan davlatlarda zamonaviy sharoitda aholi, shu jumladan, yoshlarda kitob o‘qishga bo‘lgan

qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan targ‘ibotning innovatsion shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Dunyoda talabalar o‘rtasida induvidual, guruhiy hamda ommaviy kitobxonlikni tizimli ravishda tashkil etish jarayonini rivojlantirish, mutolaa madaniyatini tarbiyalash, talabalarda kitobxonlikka qiziqish mezonlarni aniqlash, adabiy ta’limning badiiy tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni va rolini oshirishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, talabalarning kitob o‘qishga, badiiy adabiyotga qiziqishni shakllantirish, adabiy ta’lim jarayonida talabalarda badiiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasida ham kitob va kitobxonlik ustuvor davlat siyosati darajasidagi sohalardan hisoblanadi. Shu sababli butun dunyoda kitob o‘qish va kitobxonlik ko‘rsatkichlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda mustaqil kompaniyalar, davlat va ijtimoiy tashkilotlar, tadqiqot markazlari (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Osiyo axborot-tahlil jamg‘armasi, Allensbach Institute, Publishing Technology, The Pew Internet I Amerikan life Project va boshqalar) faol ishtirok etmoqda.

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida mutolaa madaniyatini oshirishga davlat tomonidan alohida e’tibor berilib, ko‘plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi,[1] 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi[2] va 2018-yil 12-maydagi “Buyuk allomalar, adib va muta-fakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tan-lovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi[3] qarorlari asosida mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlan-tirishga qaratilgan bir qator tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi jamiyatda yoshlarning ki-tobga bo‘lgan munosabatining ijobiy tomonga o‘zgarishiga zamin yaratdi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi[4] farmonining V bo‘limi Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishda 71-maqsad ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish hamda 72-maqsad: Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarishga bag‘ishlanadi. Yuqoridagi hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda “Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kitobxonlik jarayonini tashkil etish tizimi” mavzusidagi biz tanlagan tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruv tizimini joriy etish kabi aniq maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosati darajasidagi vazifalarning belgilanishi sohada sezilarli o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Kitob va kitobxonlikka oid tadqiqotlar ko‘plab amalga oshirilgan bo‘lib, o‘zbek olimlaridan bu sohada D.S.Safarova, S.Matchonov E.Yo‘ldoshev, A.Qoldibekova, B.Xo‘jayev, D.Muminovalarning o‘quv va metodik qo‘llanmalari va maqolalari nashr qilingan. MDH davlatlarida bu borada L.A.Mosunova, G.I. Shukina, A.V.Avdiyeva, M.V.Molkova, S.G.Filatova, N.F.Stanislavchik, A.Y.Xanxatova, L.G.Moiseeva, N.A.Kustova, I.A.Gertsen, F.I.Setina kabi olimlarning ishlarini keltirib o‘tish mumkin.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi (2017-yil 13-sentabr) qarori \\Lex.uz\docs\3338600.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.09.2017-yildagi PQ-3271-sonli. https://lex.uz/docs/-3338600.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida. Toshkent, ,2018-yil 12-may, PQ-3721-sonhttps://lex.uz/docs/-4887792

[4] 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi (O‘zR Prezidentining 28.01.2022 PF-60-son farmoniga (1-ilova) https://lex.uz/uz/docs/-5841063?ONDATE2=21.04.2022&action=compare

Mamlakatimizda bolalar kitobxonligi, shaxsni axloqiy-estetik rivojlantirish mustaqil o‘qishga o‘rgatish va komil inson tarbiyasida mutolaaning o‘rni A.Abdulazizov, A.Abdullayev, M.A.Asqarova, B.I. Ganiyeva, D.A.G‘aniyeva, E.Yo‘ldoshev, S.I.Kambarova, S.Matchonov, D.A.Mo‘minova, M.M.Nigmatova, O.A.Turaqulova, A.O.Umarov, S.A.Chiniyeva, G‘.Shirinov, Y.Qayumxo‘jayeva, M.Quronovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlarida kitobxonlikka oid tadqiqotlar V.Y.Askarova, S.M.Bondarenko, V.A.Borodina, S.M.Borodin, I.A.Butenko, L.S.Vigotskiy T.G.Galaktionova, N.I.Gendina, G.G.Granik, Z.A.Grisenko, N.E.Dobrinina, V.T.Yegorov, N.I.Kovalevskaya, V.A.Levin, Y.Melenteva, S.N.Plotnikov, R.P.Potopova, N.N.Svetlovskaya, N.N.Smetannikova, L.Stepanova, V.A.Suxomlinskiy, I.I.Tixomirova, D.M.Xafizovlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Xorijiy davlatlar pedagog va psixolog olimlari: M.Banaka Dj. Dunn, L.J.Dorn, M.Halliday, J.Holden, P.Kaczmarek, Mortimer J.Adler, Moyer E.Jessica, A.Per-rin, C.Soffos, Y.Nakamuralar izlanishlarida kitob o‘qish va kitobxonlikning aksiologik jihatlari, o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini oshirish jarayonining tarkibiy qismlari va muhim yo‘nalishlari tadqiq etilganligi qayd qilingan.[1]

Rus pedagogi V.A.Suxomlinskiyning “Bolalarga jonim fido”, “Fuqaroning tug‘ilishi”, shuningdek, “O‘g‘limga maktublar” asarlari orqali o‘smir yoshidagi bolalarni tarbiyalashning dolzarb muammolarini tahlil qilib, muallif o‘z asari xususida “Men kichkina odamni bilim olamiga qanday kiritish, atrofdagi haqiqatni unga o‘rganishga yordam berish, uning qalbida ezgu tuyg‘u va kechinmalarni qanday uyg‘otish, insoniy qadr-qimmat, vatanga cheksiz muhabbat va ezgulik urug‘larini murg‘ak qalblarga ekish haqida gapirishga harakat qildim”.[2]

L.M.Gurovich, L.B.Beregova, V.I.Loginova (M.,1999)larga tegishli “Bola va kitob” maqolasida badiiy adabiyotni idrok etish xususiyatlari va turli yosh guruhlarida kitob bilan tanishish vazifasi haqida so‘z boradi. Shuningdek, bizning pedagogik-psixologik adabiyotlarimizda maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan badiiy asarlarni idrok etish, tushunish muammosi juda keng va to‘liq ishlab chiqilganganligi qayd qilingan.[3]

Olimlar A.V.Zaporojets, D.B.Elkonin, L.S.Slavina, D.M.Aranovskaya, N.S.Karpinskaya va boshqalar maktabgacha yoshda bola badiiy idrokining faol rivojlanish davri ekanligini ta’kidlaydilar.[4]

T.N.Pantyuxova va N.A.Zabrovskayalarning ishlarida kitobxonlik madaniyati o‘zida kutubxona etikasini, shuningdek, mustaqil ta’lim ko‘rinishi sifatida ta’limning maqsadini ifodalash vositasi ekanligi qayd qilingan.[5]

D.A.Mo‘minova shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, rivojlantirishda turli xarakterdagi tizimli topshiriqlar berish samarali natijalarga olib kelishini qayd qilgan.[6]

N.A.Kustovaning fikriga ko‘ra, tizimli topshiriqlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1. Savolga javob qaytarilishini taqozo etadigan topshiriqlar.
2. Savolni mustaqil ravishda qo‘yishni taqozo etadigan topshiriqlar.
3. O‘qish jarayonida savollar kelib chiqishiga turtki beradigan topshiriqlar.
4. O‘qish jarayonida qo‘yilgan savollarga javob qaytarilishini taqozo etadigan topshiriqlar.[7]

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, kitobxonlikka oid tadqiqotlarda maktabgacha va maktab yoshidagi kitobxonlarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mazmuni, uni tanlash tamoyillari, bosqichlari, shakllari, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, usullari o‘rganilgan.

Biz tadqiqotimizda bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarni kitobxonlik jarayonini tashkil etish tizimini tadqiqot predmeti sifatida olganmiz. Maktabgacha ta’lim sohasiga zamon talablariga mos va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ham bu muammo dolzarblik kasb etadi. Bu maqsadga erishish tarbiyachi-pedagoglar bilimi va salohiyatiga bog‘liq, albatta. Shuni inobatga olgan holda, bo‘lajak tarbiyachi-pedagog-

[1] Mirxoliqova Ch.X. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari. Dis-sertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022, 7-bet.

[2] Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. М., «Концептуал», 2018, с. 48.

[3] Л.М.Гурович, Л.Б.Береговой, В.И.Логиновой. “Ребенок и книга” особенности восприятия художественной литературы и задачи ознакомления с книгой в разных возрастных группах. М., 1999, с. 1.

[4] Shu manba.1-bet.

[5] Пантюхова Т.В. Читателькая культура в обществе коммуникаций. “Библиотековедение”, М., 2008, .№3, с. 63–53.

[6] Mo‘minova D.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. ,Namangan davlat universiteti, 2019, 28-bet.

[7] Shu manba. .29-bet.

larni ma’nan yetuk, zamonaviy dunyo talablariga javob bera oladigan, bugungi kun axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan holda kasbga tayyorlash muhim sanaladi. Bunda ularning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, bunga erishish uchun oliy ta’lim muassasalarida tarbiyachi-pedagoglarni kitobxonlik jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va bu jarayonni takomillashtirish zarur. Bunga erishishda bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kitobxonlik jarayonini to‘g‘ri tashkil etish tizimi va mazmuni, usul, vositalari, ta’lim-tarbiyaviy xususiyatlari tizimini aniqlashtirish taqozo qilinadi. Tadqiqotni amalga oshirishda yoshlarda kitobxonlik jarayonini tashkil etishning pedagogik-psixologik yo‘nalishlarini aniqlash, bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kitobxonlik jarayonini tashkil etishning ta’lim-tarbiyaviy xususiyatlarini ochib berish, bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarni kitobxonlik jarayonini tashkil etish mazmunini yoritish, bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarni kitobxonlik jarayonini shakllantirish usul va vositalarini aniqlashtirish, bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning darsdan tashqari vaqtlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish tizimining ilmiy-amaliy asoslarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishni tashkil etish, bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarni kitobxonlik jarayonini tashkil etishga xizmat qiladigan pedagogik jarayon modelini ishlab chiqish va samaradorlik darajasini statistik jihatdan baholash kabi vazifalarni amalga oshirish maqsad qilib belgilangan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, kitobxonlikka oid tadqiqotlarda tarbiyachi-pedagoglarning kitobxonlik jarayoni tadqiq qilinmaganligi va bu vazifa bugungi kunda davlat tomonidan ahamiyatga molik vazifa ekanligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarni kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda biz yuqorida belgilagan maqsad va vazifalar raqobatbardosh zamon talabidagi kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirishda hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Qalandarov Shuxrat Shokirjonovich (QDPI dotsenti, f.f.n.),
Komilova Farog‘at No‘monjon qizi (2-bosqich magistranti)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYASINING O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchilarni kreativ faollikka undaydigan muhim vositalardan biri – o‘yinlar ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Mazkur didaktik vositalar katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, boshqa vositalarga nisbatan ular ta’lim uchun ijod qilish, testlashtirish, treninglar o‘tkazishga sharoit yaratadi. Mazkur didaktik vositalar bir qator qulayliklarga ega bo‘lib, shunga ko‘ra o‘quvchilarni ijod qilish va o‘yin jarayonida ishtirok etish ehtiyoji bilan bog‘liqdir. O‘yin faoliyatining asosini uning foydaliligi tashkil qiladi. O‘yin faoliyatining muhim tashkillashtiruvchi tarkibini o‘yin modelidan iborat..*

Аннотация. *В статье научно обосновано, что игры являются одним из важных средств, побуждающих учащихся к творчеству. Эти дидактические инструменты обладают большим потенциалом и по сравнению с другими инструментами создают условия для создания, тестирования и подготовки к обучению. Эти дидактические средства имеют ряд удобств и, соответственно, связаны с потребностью учащихся в творчестве и участии в игровом процессе. В основе деятельности игры лежит ее полезность. Важную организационную структуру игровой деятельности составляет игровая модель.*

Annotation. *In the article, it is scientifically based that games are one of the important tools that encourage students to be creative. These didactic tools have great potential, and compared to other tools, they create conditions for creation, testing, and training for education. These didactic tools have a number of conveniences and, accordingly, are related to the need of students to be creative and participate in the game process. The basis of the activity of the game is its usefulness. The important organizational structure of the game activity consists of the game model.*

Kalit so‘zlar: *kreativ faollik, pedagogik vaziyat, o‘yin faoliyati, didaktik vosita, ta’lim, o‘quv vaziyati, o‘quvchi faolligi, boshlang‘ich sinf, manba, metod.*

Ключевые слова: *творческая деятельность, педагогическая ситуация, игровая деятельность, дидактическое средство, обучение, учебная ситуация, деятельность учащихся, начальный класс, источник, метод.*

Key words: *creative activity, pedagogical situation, game activity, didactic tool, education, educational situation, student activity, primary class, source, method.*

Didaktik sharoit tushunchasi ostida biz o‘quv jarayonini boshqarish shart-sharoitlarini tushunamiz. Bu bevosita ta’limning mazmuni va birligi, jarayon uyg‘unligi va bu jarayonda o‘qituvchining boshqaruvchilik nuqtayi nazarini anglatadi. Pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirishning didaktik shart-sharoit-

lariga oid bilimlar – bu maqsadlar va ularni qo‘llash, ularni qurish manbalari, bu jarayonda o‘quv materiallaridan foydalanish yo‘llari, turli turdagi vaziyatlarning vazifalari, o‘quv predmetini o‘rganish jarayonida ularning o‘rni, ularni tashkil etish usullari, natijalarni tekshirish metodlariga oid bilimlar. O‘quv vaziyati haqida fikr yuritilar ekan, o‘quvchiga bo‘lgan munosabatni ifodalovchi tashqi shart-sharoitlar tushuniladi. Bu shart-sharoitlar o‘quvchining faolligini qo‘zg‘aydi, uni jadal harakatlanishga undaydi [1.1].

O‘quvchi o‘z faoliyatini amalga oshirishda qanday vazifalarni hal qilishi alohida ahamiyatga ega. Uning asosini bilish mayllari tashkil qilarkan, mazkur vazifalarning mohiyatini ularni yechish jarayonlarida o‘quvchi o‘zining obrazini tarkib toptiradi, o‘z-o‘zini bilish faoliyatini amalga oshiradi. Bu esa uning faoliyatga bo‘lgan mustaqil intilishlarida namoyon bo‘ladi. Bunday ichki masalalarni yechish o‘zining mazkur vazifalarga qodirligini anglashga ko‘maklashadi. Masalalarni yechishdagi muvaffaqiyat o‘z-o‘zini namoyon qilish imkoniyati hamdir. Bu o‘quvchi shaxsining o‘z oldiga qanday talablar qo‘yishi bilan ham bog‘liqdir. Biz bilish faoliyatini amalga oshirishning 3 ta bosqichini aniqlashga harakat qilamiz:

Birinchi bosqich – bu o‘zining vaziyat bilan bog‘liq imkoniyatlariga berilgan baho. O‘quvchi bunday vaziyat oldida turgan vazifalarni hal qilish asosida ish ko‘radi. Buning uchun o‘quvchi o‘z oldiga quyidagi savollarni qo‘yib, ularga javob beradi: Men o‘z oldimga qo‘ygan maqsadlarni bajarishga tayyormanmi? Men o‘z oldimga qo‘ygan vazifalarni bajarishga qodirmanmi? Bunday sharoitda o‘z imkoniyatlariga berilgan baho o‘quvchi uchun har doim ham ahamiyatli bo‘lavermaydi. O‘zining vaziyatga bog‘liq imkoniyatlariga berilgan baho uning uchun tasodifiy ahamiyat kasb etishi ham mumkin.

Ikkinchi bosqich – bu o‘z-o‘ziga berilgan baho bo‘lib, bu jarayonda o‘quvchi bilish imkoniyatlariga ega muayyan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda shaxsning bilish imkoniyatlari baholash obyekti bo‘la olmaydi. U mazkur imkoniyatlarni egallovchi sub’ekt sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Shuning uchun ham u yechimlar qabul qilishga intiladi. Bu o‘rinda faoliyat shaxsning o‘ziga xos qirralari bilan ajralib turadi. Masalalarning yechilganligi kabi yechilmaganligi ham mavjud belgi sifatida namoyon bo‘lib, u o‘quvchi shaxsiyatini baholashda muhim ahamiyatga ega. Uchinchi bosqich – bu o‘quvchining mavjud imkoniyatlari, uning qismlari, chuqurligini baholash. Bu jarayonda o‘quvchining o‘z mavqeini aniqlashi nazarda tutiladi [2.2].

O‘quvchilar orasida o‘quv munozaralarini tashkil etishda o‘qituvchi quyidagi prinsiplarga tayanishi lozim:

−o‘qituvchi tomonidan munozaraning to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqarilishini o‘quvchilarning mazkur vaziyatni mustaqil boshqarishlari, tashkil etishlari va nazorat qilishlari bilan almashtirish;

−o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlariga maqsadga yo‘naltirilgan holda, muayyan mazmunga tayanib murojaat qilishlarini ta’minlash, munozara qoidalariga amal qilishlariga erishish;

−o‘z nuqtayi nazarini erkin tarzda bayon qilish imkoniyatini ta’minlanishi, o‘zaro bir-birlarining fikrlarini tanqid qilish va inkor etish imkoniyatini ta’minlash;

−o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari, umumiy yechimga olib keladigan hamjihatlik yo‘lini izlash;

−bayon etilgan xulosalarni dalillash va asoslash, muhokama qilinayotgan muammo bilan bog‘liq bo‘lgan qarama-qarshiliklarni anglash;

−o‘zini turli rollarda sinab ko‘rish imkoniyatidan foydalanish kabilar. Bu shuning uchun ham zarurki, munozara jarayoni o‘quvchilarning ichki quvvatlarini yuqori darajada ro‘yobga chiqarish imkoniyatini ta’minlaydi [3.3].

O‘qituvchi munozara maromini belgilar ekan, o‘z nuqtayi nazarini bayon qilishi kerak emas, balki daologik mavqeyini egallab, amalga oshiriladigan muhokamaga mos tarzda hissiy-intellektual kayfiyat hosil qilishi lozim. Buning uchun o‘quvchilarni ma’ruza jarayoniga olib kirishning bir qator usullaridan foydalanish talab qilinadi. Jumladan, muammoni bayon qilish, hodisalar va dalillarni asoslash, slaydlar namoyish qilish, muayyan asarlardan lavhalar o‘qib berish kabi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga ochiq xarakterdagi baholovchi savollar bilan murojaat qilishi lozim. Savol-javoblar orasidagi oraliq masofa olingan 79 natijalarga ko‘ra turlicha kenglikda bo‘lishi mumkin. Muhim masalalardan biri munozara uchun zarur bo‘lgan bahsli, dolzarb muammoni tanlashdan iborat. Bu masala yagona yechimga ega bo‘lmasligi kerak. Munozaralarni o‘tkazish ikki darajada bo‘lishi lozim. .

Birinchi turdagi vazifalar izlanuvchi topshiriqlar sifatida baholanadi. Bunda o‘quvchilar topshiriqlarni yechish usullarini mustaqil tarzda izlashlari nazarda tutiladi. O‘quvchilardagi amaliy tajribalarning ijodiy faoliyatga aylanishi namunaga qarab bajariladigan va qat’iy tartibga asoslangan trening xarakteridagi topshiriqlardan ko‘p variantli va izlanuvchi xarakterdagi topshiriqlarga o‘tiladi. Topshiriqlarning ikkinchi turi shaxslararo muloqot doirasiga kirib o‘quvchilarning o‘quv hamkorligini taqozo qiladi. Bu

o‘rinda o‘qituvchi tashabbuskor sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin bunday topshiriqlarning mazmun jihatdan birinchi tur topshiriqlaridan farqi shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: a) guruhli mahsuldor faoliyat tajribasi; b) mahsuldor faoliyatga rahbarlik qilish tajribasi; d) maslahatchi yoki ekspert mavqeini egallash tajribasi kabilar. Bunday topshiriqlardan foydalanib, o‘quvchilarning faoliyatini o‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchilarni jamoaviy faoliyat jarayonida ijtimoiy moslashtirish, samarali hamkorlikka yo‘naltirish tajribasini o‘zlashtirish lozim.

Topshiriqlarning uchinchi turi predmetli topshiriqlar bo‘lib, ularni o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil tarzda shakllantiradilar. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarda mustaqillik va maqsadga yo‘naltirilganlik ko‘nikmalarini rivojlantirib, mazkur ko‘nikmalarni amalda tatbiq qilish jarayonida shaxsiy erkinlikning tarkib topishiga ko‘maklashadi. Buning natijasida ularda individual faoliyat uslubi shakllanadi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarda tahliliy faoliyatning shakllanishida muhim o‘rin egallaydi.

Mazkur turdagi topshiriqlar orasida o‘quvchilarni tadqiqotchilikka undovchi topshiriqlar alohida o‘rin egallaydi. Ushbu topshiriqlarni yechish jarayonida o‘quvchilar yangi bilimlarni izlaydilar va muammoli vaziyatlarni hosil qilish ko‘nikmasini o‘zlashtiradilar. Bunday topshiriqlarni yechish jarayonidagi pedagogik hamkorlikning o‘ziga xos jihatlari o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning birgalikda tadqiqotchilik harakatlarini amalga oshirishlaridadir.

O‘quvchilarni kreativ faollikka undaydigan muhim vositalardan biri – o‘yinlar. Mazkur didaktik vositalar katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, boshqa vositalarga nisbatan ular ta’lim uchun ijod qilish, testlashtirish, treninglar o‘tkazishga sharoit yaratadi. Mazkur didaktik vositalar bir qator qulayliklarga ega bo‘lib, shunga ko‘ra, o‘quvchilarni ijod qilish va o‘yin jarayonida ishtirok etish ehtiyoji bilan bog‘liqdir. O‘yin faoliyatining asosini uning foydaliligi tashkil qiladi. O‘yin faoliyatining muhim tashkillashtiruvchi tarki-bini o‘yin modelidan iborat [4.4].

Ijod va o‘yin faoliyati orasidagi o‘xshashlik asrlar davomida tan olingan hodisadir. O‘yin jarayonida qat’iy holatlar bilan bir qatorda, tasodifiy holatlar ham modellashtiriladi. Shuning uchun ham, o‘yin faoliyati ko‘p jihatdan kreativ xarakterga ega. O‘yin jarayoni ishtirokchilari uchun har doim tanlov imkoniyati mavjud. Ularning harakatlari muqobil xarakterga ega bo‘ladi. Agar o‘quvchilar uchun tanlov imkoniyati qolmasa, o‘yin o‘zining didaktik mohiyatini yo‘qotadi, ya’ni o‘quvchilarda kreativ faollikni shakllantira olmaydi. O‘yin faoliyatining ijodiy xarakteri uning yo‘nalishi, maqsadlari, atrof-muhitni ifodalash ehtiyoji, tasavvurlarni uyg‘unlashtirish ko‘nikmasi, vaziyatlarni modellashtirish, fikrni tarkib toptirish va uni amalga oshirish, o‘z harakatlarini sheriklarining harakatlari bilan muvofiqlashtirish, ijodkorlikka undovchi fikrning jadalligi va mustaqilligi, shaxsiy fikrlarni tadbiq qilish jarayonini sinovdan o‘tkazish natijasida vujudga keladi. O‘yin o‘quvchilarning fikrlari, harakatlari bilan bevosita bog‘liq jarayondir. O‘z harakatlarini takomillashtirish maqsadida muayyan o‘yin jarayonini takrorlash imkoniyati mavjud. O‘yin faoliyatining ijodiy xarakteri hissiyotlar va kechinmalarning samimiyligida namoyon bo‘ladi. Bu bir tomondan fikriy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, voqelikda har doim ham unga erishish imkonsizligidadir.

O‘quvchilarning aqli va hissiyotlari orasidagi aloqadorlik ularda kreativ faollik shakllanishining muhim shartidir. Mazkur sifatlarni asrash va rivojlantirish o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. Bunda o‘yinlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘yinlarda o‘quvchilarning umuminsoniy, ijodiy, rivojlanuvchi va yashirin quvvatlari mavjud. O‘yinlar o‘quvchilarda kreativ faollikni shakllantirishning muhim vositasi bo‘lib, jarayonli va rivojlantiruvchi xarakterga ega. O‘yin jarayonida kreativ vazifalarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘yinga asoslangan vazifalarni o‘z ichiga olib, ular muayyan sharoitda qo‘yilgan maqsadda namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarda o‘yin faoliyatining rivojlanishi inson jismining izchil taraqqiyotida o‘yin vazifalarini anglash va farqlash, ya’ni o‘yinlardagi qoidalarga amal qilish bilan bog‘liq.

O‘yin jarayoni uning ishtirokchilarida muntazam rivojlantiruvchi kreativ faollikni ro‘yobga chiqaradi. Maqsadlarning shakllanishi ularning harakatlarda amalga oshishi muayyan natijalarni qo‘lga kiritishga asos bo‘lib, o‘yin jarayoni va uning ishtirokchilari uchun ham muhim ahamiyatga ega. O‘yin faoliyatida maqsadni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari fikrlar va maqsadlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, o‘zida ijodiy jarayonlarning mavjud xususiyatlarini namoyon qiladi. Ayniqsa, o‘yin mayllari ichki mayllarning tashqisiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi bilan xarakterlanadi. Bu, o‘z navbatida, ijodiy jarayonlarning rivojlanishi va taraqqiy etish omillarining muhim shartidir. Mazkur holat o‘quvchilar ijodkorligining mahsuldorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin faoliyatining barcha o‘ziga xos xususiyatlari o‘quvchilarni kreativ faollikka undash imkonini beradi. Mashg‘ulotlarda imitatsion hamda ishchan o‘yinlarning tashkil etilishi o‘quvchilarda kreativ faollikni tarkib toptirib, muayyan ehtiyojlar, mayllar, ularning shaxsiy rivojlanishlari uchun zarurligini anglashlariga ko‘maklashadi. Agar biror-bir o‘quvchi o‘yin jarayonida ish-

tirok etishni xohlamasa, u ijodiy imkoniyatga ega bo‘lmaydi. Buning uchun o‘quvchilarning mayllari va ularga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini aniqlash lozim.

O‘yinlarning maqsadi o‘quvchilarning fikriy-kreativ faolliklarini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Ularni quyidagicha shakllantirish mumkin:

1. O‘quvchilarda bilish mayllarining rivojlanishini ta’minlash.

2. O‘quvchilardagi ruhiy to‘siqlarni bartaraf etish, o‘yinlar o‘quvchilarda ichki bosimlarning pasayishi va ularda o‘zlariga nisbatan ishonchning paydo bo‘lishini ta’minlaydi.

3. O‘yinlar vositasida o‘quvchilarda o‘quv faoliyatiga nisbatan mavjud bo‘lgan salbiy qarashlar bartaraf etiladi, o‘quv jarayoni haqidagi eski tasavvurlar barham topadi. Bunday o‘yinlarda ishtirok etish o‘quvchilarda asosiy vazifalardan biri sifatida tahliliy faoliyat tajribasining rivojlanishiga sharoit yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, ijodiy ongning rivojlanishiga olib keladi. Ongning ijodiy faolligi bu mahsuldor idrok va izlanishga asoslangan faoliyat me’yori bo‘lib, betakror fikrning shakllanishini tabiiy yo‘l bilan ochishga asoslangan. Farazlar, yangi g‘oyalar va ideallarning ishlab chiqilishi, amaliy faoliyatni ma’naviy boshqarishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Петровский В.А. Личность в психологии: парадигма субъектности. Ростов-на-Дону, “Феникс”, 1996, с. 512

2. Pedagogik ensiklopediya. I jild, tuzuvchilar: jamoa, Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2015, 320 bet.

3. Nargiza Ne’matjonovna Nazirova, Zarifa Abdulhamitovna Axmadjonova. Scientific progress volume. 3, ISSUE8,2022ISSN:2181-1601Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport:,http://sjifactor.com/passport.php?id=22257 Uzbekistan www.scientificprogress.uz, p. 16.

4. Mamadalieva L.K., Minamatov Y.E. (2021). High Efficiency of a Photoelectric Converter in a Combined Design with a Thermoelectric Converter. Middle European Scientific Bulletin, 19, p. 178 – 186.

Nizamova Shaxnoza Ubaydullayevna (QDPI katta o‘qituvchisi),
Egamova Ravshanoy Suxrovjonovna (QDPI magistranti)

BOSHLANG‘ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada texnologiya darslarida tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan va unga oid tavsiyalar berilgan.*

Аннотаия. *В статье рассматриваются вопросы воспитательного воздействия на учащихся начальных классов посредством внеурочной деятельности, организуемой на уроках технологии, и даются рекомендации по этому поводу.*

Annotation. *The article is focused on the issues of educational impact on elementary school students through extracurricular activities organized in technology classes and gives recommendations regarding it.*

Kalit so‘zlar: *dars, sinfdan tashqari ish, texnologiya, shaxs psixologiyasi, o‘quvchi psixologiyasi, «Baxt-saodatga erishuv haqida», maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar, jamoatchilik fikri.*

Ключевые слова: *урок, внеклассная работа, технология, личностная психология, студенческая психология, «О счастье», внеклассная работа, общественное мнение.*

Key words: *lesson, extracurricular work, technology, personal psychology, student psychology, “About happiness”, extracurricular activities, public opinion.*

O‘quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ish maktabning butun ta’lim-tarbiyaviy ishlarining ajralmas qismi bo‘lib, u bolani har tomonlama rivojlantirish, darslarda egallayotgan bilimlarini mustahkamlab, chuqurlashtirishi, amalda qo‘llanishga yordam beruvchi muhim vositalardan biri bo‘lishi kerak. Sinfdan tashqari ish, ayni bir vaqtda, o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, mehnat ta’lim va tarbiyasi bolalarda fan-texnika, san’atning turli sohalariga qiziqishini o‘stirish masalalarini hal etishga yordam beradi [1.224].

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar inson shaxsining kamol topishida, o‘zi mustaqil ishlashi va ichki hissiyotlarini chiqara olishi shu uzluksiz jarayon davomida shakllanib boradi. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning ota-onasi, maktab, mahalla, do‘stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiat va hokazolar bilan bevosita olib borilishi kerak.

Sinfdan tashqari ishlarni barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o‘zaro hamkorlikning ta’-sir doirasi juda muhim sanaladi. Hamkorlik orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta’minlab, uning shaxs sifatida mukammal shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muhit va odatlardan kuchli himoya qilish juda muhim hisoblanadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ta’lim-tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning qiziqishi va yoshi, xohish va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini unumli to‘ldiradi. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishda sinfdan tashqari ishlarning xosligi shundaki, to‘garak, klub va tadbir dasturlarning rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtlaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi va kengaytiradi, o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlariga, ijobiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishiga imkoniyat yaratadi. Shu sababli ta’lim jarayoni keyingi davrlarda o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini ko‘ngilli uyushtirishga alohida ahamiyat bermoqda. Sinf jamoasi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning hajmi, asosiy yo‘nalishlari, mazmuni har bir yosh bosqichida o‘quvchilarning psixik rivojlanishi darajasiga mos kelishi lozim. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ish pedagogdan bor shijoatini, butun qobiliyatini ishga solishni va tinmay izlanishni talab etadi. Har doim kelajak avlod tarbiyalayotganda, ularni uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizga vatanparvarlik ruhidagi haqiqiy fuqarolari bo‘lishiga erishishi kerak. Boshlang‘ich sinflarda maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib borish va uni amalga oshirish sinf rahbari yoki tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari tomonidan rejalashtiriladi. Bunday tarbiyaviy ishning asosida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashini yanada oshirish, ularni milliy istiqlol va vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash hamda hozirgi yangi texnologiyalar yordamida haqiqiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. O‘quvchilarning ijtimoiy foydali mehnatini, axloqiy madaniyati va ularning o‘z huquq va burchlariga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalashda sinfdan tashqari ishlarning o‘rni kattadir. Har bir o‘quvchida o‘z-o‘zini boshqarish malakalarini shakllantirish va yuksaltirish muhim vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi va sinf rahbari faoliyatining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning ahil tarbiyali jamoasini tashkil etishdir.

Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari jamoa ishi shunday tashkil etiladiki, unda sinfning boshqa jamoalar bilan ham aloqasi doimiy amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda o‘qituvchi va sinf rahbari sog‘lom, ahil bolalar jamoasini shakllantirish bilan bir qatorda, doimiy bolalar qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlab, ularning ijtimoiy foydali faoliyatlarga yo‘naltirib boradilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har doim juda faol va harakatchan bo‘lib, bu ularning faollikka intilishiga bo‘lgan organik ehtiyojidir. Ammo bunda hali bolalar hayotiy tajribaga yetarli ega bo‘lmaydilar va kundalik pedagogik rahbarlikka doimo ehtiyoj sezadilar. Bu vaziyatda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolaning ilk maktabga kelgan vaqtidan boshlab tarbiyaviy ishning jamoatchilik munosabatlarini yaratishga doimo zo‘r imkoniyat beradigan hamda bolalarda individual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadigan usul va metodlarni tanlaydi.

Boshlang‘ich sinflarda yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan sinfdan tashqari ishlar bolalarga o‘zlarini qiziqtiruvchi faoliyat turini tanlashga yordam beradi. Biroq, ko‘pincha, kichik yoshdagi o‘quvchilar, yosh xususiyatlariga ko‘ra, o‘z xususiyatlarini to‘g‘ri baholay olmaydilar. Bu vaziyatda bolalarning jamoatchilik malaka va ko‘nikmalarining shakllanib borishi o‘qituvchi-tarbiyachining bolalar jamoasiga rahbarlik qilishidagi jarayoni o‘zgarib boradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim va tarbiyani tabiiy hamda jamoa faoliyati jarayonida o‘rganadilar. Sinfdan tashqari ish o‘quvchilarga biror maqsadga qaratilgan pedagogik ta’sir vaqtini uzaytiradi, u o‘qituvchiga o‘quvchilarning darslarda egallagan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, bolalarning qobilyatini rivojlantirish, ularning xilma-xil qiziqishlarini qondirish, madaniy dam olishlarini uyushtirish imkonini beradi.

Maktabda bashlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni olib borish, uni yo‘lga qo‘yish sinf rahbari yoki tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari tomonidan uyushtiriladi. Mazkur boshqaruv tashkilotchilik ishi ko‘nikmalarini tarbiyalaydi, umumiy g‘oyalari bilan ahil, jipslashgan o‘quvchilar jamoasini tuzadi. Bu to‘g‘ri taqsimlash, ijro ustidan hisobot va nazoratni yo‘lga qo‘yish, harakatlar, tashabbuskorlikning uyg‘unligini ta’minlash, musobaqalar uyushtirish, o‘z zimmasiga mas’uliyat olish kabi ko‘nikmalardan iborat. Shuning uchun ham o‘quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma’naviy o‘sishi samarali bo‘ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilar jamoada ishlashni o‘rganadilar, ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo‘shiladilar, jamoatchilik fikriga bo‘ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar.

Sinfdan tashqari ishlar orqali bola shaxsiga, tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatishda, albatta, ajdodlar merosiga murojaat qilish yaxshi samara beradi. Forobiy o‘zining «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv haqida» va boshqa asarlarida axloq falsafasi, jumladan, axloqiy tarbiyaning muhim muammolarini hal qilishga harakat qiladi. Mutafakkirning axloq va uning asosida yosh avlodga tarbiya berish g‘oyalari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, aksincha, axloqiy tarbiyaning yangi usul va qoidalarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirishda juda katta ahamiyat kasb etadi [2.76]. «Tarbiya ikki negizga – axloq va oqillikka tayanmog‘i lozim. Birinchisi yaxshi fazilatni o‘stirsa, ikkinchisi o‘zgalar illatidan himoya qiladi. Demak, tarbiya ham axloqqa, ham insoniy munosabatlarga, asrlar osha xulq tajribasidan sinovdan o‘tib, o‘zining umrboqiyligini isbotlagan qadriyatlarga, an’ana va urf-odatlarga bog‘lansagina kuzatilgan natijaga olib keladi» [3.12].

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning o‘rnini alohida ta’kidlab, shunday degan edi: «Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo‘ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil, bir rasvoyi odam bo‘lib chiqadi» [4].

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi shaxsining tarbiyasi nafaqat ota-ona, balki biz pedagoglarning ham muhim vazifasi, mukammal tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar va omillar qaytadan ko‘rib chiqilib zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilishi joizdir. Biz bunda asosiy e’tiborni bola shaxsiga va psixologiyasiga qaratishimiz hamda yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan samarali va unumli foydalanishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Sanaqulov va boshqalar. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. Darslik, T., “Tafakkur bo‘stoni”, 2015, 224-bet.
2. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. T., «Fan», 1975, 76-bet.
3. Temurova M. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 9 – 12-sonlar, 1995.
4. A.Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq (nashrga tayyorlovchi L.Xoliqov). T., “O‘qituvchi”, 1992, 160-bet.
5. Quliyeva Shahnoza Halimovna. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. Buxoro, 2020.
6. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. T., “O‘qituvchi”, 2002.
7. J.G‘.Yo‘ldoshev. O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish (qo‘llanma), T., 2000.

Toshpo‘latov Azamatjon Mehmonaliyevich (QDPI dotsenti, f.f.d.),
Meliqo‘ziyeva Gulruxsor (magistrant)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish ta’lim mazmuni, sinfdan tashqari ishlar milliy qadriyatlar asosida o‘quvchilarning tafakkurida mujassamlanishi masalalari yoritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarning ma’nan va axloqan yetuk bo‘lishlaridagi eng muhim jihatlar sanab o‘tilgan.*

Аннотация. *В данной статье освещаются вопросы реализации духовно-нравственного воспитания в общеобразовательных школах, реализации внеурочной деятельности в мышлении учащихся на основе национальных ценностей. Учителя начальных классов перечислили наиболее важные аспекты интеллектуальной и нравственной зрелости учащихся.*

Annotation. *In this article, the issues of implementation of spiritual and moral education in general education schools, the implementation of extracurricular activities in the thinking of students on the basis of national values are highlighted. Primary school teachers listed the most important aspects of students' intellectual and moral maturity.*

Kalit so‘zlar*: milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, maktab, ma’rifat, salohiyat, mafkura, boshlang‘ich sinf, yosh avlod.*

Ключевые слова*: национальные ценности, духовно-нравственное воспитание, школа, просвещение, потенциал, мировоззрение, начальный класс, подрастающее поколение.*

***Key words**: national values, spiritual and moral education, school, enlightenment, potential, ideology, primary class, young generation.*

Bilamizki, har qanday inson salohiyati tarbiyaviy faoliyatsiz, keng dunyoqarashsiz amalga oshmaydi. Barkamol inson sifatida kamol topishida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘rni va mehnati beqiyosdir. Agar o‘quvchi o‘quv jarayonida faol bo‘lmasa, qabul qilingan choralar hech qanday natija bermaydi. Buning uchun o‘qituvchi ma’naviyatli, ma’rifatli, keng mushohadali bo‘lmog‘i lozim. Chunki endigina maktab ostonasiga kirib kelgan murg‘ak qalblar ustoziga ideal sifatida qaraydi. Uning har bir harakatini, muomalasini kuzatadi va unga o‘xshashlikka harakat qiladi. Ma’naviyati baland ustoz o‘z harakatlarini, eng avvalo, o‘zi nazorat qiladi, toki o‘sib kelayotgan avlod tarbiyaviy jihatdan yetuk bo‘lsin. Ma’naviyat va axloq inson kamolotida muhim sanaladi. Ma’naviyat bu maqsadlar sari intilishi, ongga xos bo‘lgan qadriyat sifatida belgilanishi. Axloq bu bir-biriga va jamiyatga nisbatan xulq-atvorining umumiy tamoyillari majmuasidir. Birgalikda ular shaxs mukammalligi yo‘lida xizmat qiladi [1.1]

Umumta’lim maktabida ma’naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish ta'lim mazmuni, sinfdan tashqari ishlar milliy qadriyatlar asosida o‘quvchilar tafakkurida mujassamlanishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarning ma’nan va axloqan yetuk bo‘lishlarida, eng avval, shaxs sifatida quyidagilarga alohida e’tibor berishlari kerak: sinfda, eng avval, sog‘lom muhitni tashkil qilish, o‘quvchilar o‘rtasida do‘stona raqobatni yaratish, o‘quvchilarni chalg‘ituvchi, sog‘lom fikrlashga xalaqit beruvchi telyefon, televizor, kompyuter o‘yinlari va hokazolarni cheklash, o‘quvchilarni vatansevarlik ruhida tarbiyalash; o‘quvchilar tafakkurida mehnatsevarlikni targ‘ib qilish, sinfdan tashqari intellektual faoliyatni tashkil etish, axloqiy tarbiya garovi sifatida o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shart-sharoitlar yaratish [2.2].

Maktab o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash sharti sifatida tadbirlar, individual yig‘ilishlar va ota-onalar yig‘ilishlari tizimi orqali oila va maktabning o‘zaro hamkorligini mustahkamlashdan iborat. Sinfrahbarlik mas’uliyatini his qilgan holda, sinf ko‘rgazmalariga alohida e’tibor berishi lozim. Sinf rahbar eng avval sinfda qulaylikni, o‘quvchilar uchun yetarli sharoitni yaratib berishi lozim, toki maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan kichkintoy bilim olishiga hech bir halaqit bermasin. Oilaviy kitobxonlik kutubxonasi bilan faol hamkorlik qilish orqali bolalarning madaniy qadriyatlar tizimida ro‘yobga chiqishi uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jismoniy tarbiya va sportga alohida e’tibor bergan holda sifatida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy vazifalaridan sanaladi. Ma’naviy va axloqiy tarbiyaning mohiyatida vatanparvarlik, erkinlik, muomala madaniyati, bilimga intilishi – bularning barchasi yoshlar mafkurasida yetakchi rol o‘ynaydi.

Chunki istiqlol mafkurasi o‘zbek xalqining asliy orzu-intilishlarini hayotiy ko‘rinishlarini o‘zida aks ettiradi. Insoniyat tarix sahifalarini varaqlaganida, beixtiyor ma’naviy yodgorliklarni o‘rganishga ehtiyoj sezadi. Umri davomida unga tayanadi, talpinadi, undan xulosa chiqaradi va yosh avlodga o‘rgatadi. Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan kamolotida o‘z-o‘zini anglash fazilati ham muhim sanalib, bu tuyg‘u boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari dunyoqarashi va ma’naviy olamining boyligiga borib taqaladi. Bu yo‘lda pedagog xodimlar darsliklarda berilgan materiallardan tashqari tarbiyaviy saboq beruvchi yoshlar ma’naviyatiga ta’sir qiluvchi badiiy asarlar tahlili kitobxonliklar va tadbirlarga ham alohida e’tibor berishlari lozim. Xalq ma’naviyati va ma’rifati yo‘lida milliy o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalangan har qanday yosh avlod kelajakda haqiqiy inson bo‘lib yetishadi [3.3].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida ma’naviyatni shakllantirish bo‘yicha ishlar samaradorligini oshirish vazifasi ular uchun chop etilayotgan barcha darslik va o‘quv qo‘llanmalarning matnini xalqimizning asrlar sinovidan o‘tgan urf-odatlari, axloqiy qarashlarini ifodalovchi qonun, qoidalar, pand-nasihatlar, hadislar bilan izchil boyitib borishini taqozo etadi. Ayni paytda, boshlang‘ich sinflardan boshlaboq, o‘quvchilarda jahondagi boshqa xalqlarning qadriyatlari, urf-odatlariga ham hurmat va qiziqishni shakllantirish maqsadi ustuvorlik qilishi zarur. Shuning uchun ham darsliklarda boshqa xalqlarning tarixi, urf-odatlari, qarashlari ifodalangan matnlarning o‘rin olishi, agar shunday materiallar bayon etilgan o‘quv vositalari yaratilgan bo‘lmasa, ularni o‘quvchini o‘zi tayyorlashga burchli bo‘lishi muvofiqdir. Eng muhimi, mazkur xalqlarning taraqqiyot darajasini, yuksalishini tan olishga, ularning turmush tarzidagi ijobiy jihatlarni ijodiy o‘zlashtirishga o‘quvchilarni pastki sinflardan boshlab odatlantirib borish bag‘rikenglikni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi [4.4].

O‘quvchi shaxsi ma’naviy qiyofasini belgilashda fidoyilik tushunchasi bosh omil ekanligini hisobga olib, har bir boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi ta’lim tarbiya jarayonida Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk shaxslarning adabiyot, san’at, fan, madaniyat, Vatan mudofaasi, yurt obodligi sohasida ko‘rsatgan fidokoronaligi, jonbozligi bilan tanishtirib borish zarur. Boshlang‘ich sinflarda

o‘quvchilar ma’naviyatini yaxlit tizim asosida shakllantirish vazifasi nafaqat I–IV sinflarda o‘qitiladigan o‘quv materiallar mazmunini boy merosimiz bilan boyitish, o‘quvchilarga ko‘proq ularning ma’naviy olamini boyitadigan badiiy, tarixiy, memorial asarlari, o‘zbek va jahon xalqlari ertaklari, qissa, hikoyalar o‘qishni tavsiya etish, tarixiy yodgorliklar, muqaddas qadamjolar, ularning tarixi, bunyod etilishi bilan, balki zamonamiz qahramonlari, fidoyi insonlar, yozuvchi, olimlar, san’atkorlar, sportchilar ularning bevosita mehnat jarayonlari natijalari bilan tanishtirib borishni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quv rejasida «Musiqa madaniyati» o‘quv faniga alohida e’tibor berilgan bo‘lib, u yosh avlodni ma’naviy, axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xalqimizning milliy kuy va qo‘shiqlari odamlarning orzu-umidlari, hayotiy kechinmalari, boy ma’naviy dunyosini o‘zida aks ettirgan. O‘zbek milliy musiqa madaniyatining bu sohadagi imkoniyatini nihoyatda katta ekanligini birgina ona allasi qo‘shig‘ida ko‘rsatamiz. «Alla» ashulasida onaning naqadar sodda, mazmunan boy, o‘z bolasiga cheksiz mehr-muhabbati, uning istiqbolini o‘zining dil izhori bilan tarannum etgan orzu-umidlari yotadi. «Alla»da ilgari surilgan yuksak g‘oyani farzandning ongli, aqlli, es-hushli, shirinsuxan, oqibatli, mehribon, kelgusida ota-ona suyanchig‘i, madadkori bo‘lish istagi ifoda etilganligi uni qanchadan qancha avlodlarni yuksak ma’naviyatli bo‘lib shakllanishida muhim vositalaridan biriga aylantirdi. Shu munosabat bilan, musiqiy merosimiz, qadriyatlarimiz, ustoz-shogirdchilik an’analarini, milliy musiqa san’atimizning rivoji uchun beqiyos xizmatlarini ayamagan buyuk musiqiy allomalarimizning hayoti va ijodiy faoliyatlarini o‘quv dastur va o‘quv-metodik komplekslarga muntazam kiritish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich talim tizimida va maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida atoqli bastakorlarimiz – M. Mirzayev, K.Jabborov, F.Sodiqov, S.Kolonov, N.Hasanov, Y.Rajabiy kabi bastakorlarning musiqiy merosini targ‘ib etish maqsadida o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlov hamda tadbirlarda o‘quvchilarni bevosita ishtirok etishlariga erishish, shubhasiz ularda milliy qadriyatlarimizga, buyuk milliy musiqiy merosimizga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish uning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi [5.5].

Boshlang‘ich maktabda ta’lim-tarbiya berish orqali o‘quvchilarning rivojlanishiga yordam beradigan asosiy omillarga: dars mashg‘ulotlari, darsdan tashqari tadbirlar, jamoat topshiriqlari va o‘quvchilarning dam olishlarini reja asosida tashkil qilish va hokazolar kiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga ma’naviyatni singdirishni amalga oshirishda uchraydigan qiyinchiliklarga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ma’naviyatdan dars o‘tishga doir ilmiy jihatdan asoslangan maxsus qo‘llanmalarning yetarli darajada emasligi;

– boshlang‘ich sinflarda fanlararo uzviylik va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash omillari keng o‘qituvchilar jamoasiga tushunarli tarzda yetkazilmagan, bu sinflarda ishlayotgan o‘qituvchilar bilan o‘quvchilar, ota-onalar o‘rtasidagi aloqa muayyan pedagogik tizimga solinmagan, nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilmagan;

– boshlang‘ich maktabda o‘quv mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun yetarli sharoitlar yaratilmagan;

– ma’naviy-axloqiy tarbiya sinfdan tashqari ishlarni o‘tkazishda jamoatchilikning yetarli darajadagi ishtiroki ta’minlanmagan;

– boshlang‘ich maktabda ma’naviyatdan ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish bo‘yicha olib borilgan maxsus ilmiy izlanishlar zamon talabiga ko‘ra qayta ishlab chiqilmagan.

Boshlang‘ich maktabda o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi samaradorligini oshirish quyidagilarni ko‘zda tutadi:

– boshlang‘ich sinflarda ma’naviy ta’lim-tarbiyani amalga oshirishning hamda fanlararo uzviylikning o‘ziga xos maqsadi va vazifalari to‘g‘ri belgilanishiga erishish;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda yaratilgan pedagogik tizim asosida ish olib borish;

– o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlari, psixologiyasi, turmush tarzi hamda har bir maktabning mahalliy sharoitini hisobga olgan holda ma’naviy ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish jarayonining o‘ziga xosligini hisobga olish;

– boshlang‘ich sinf ta’lim-tarbiya jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini joriy etish va hokazo. Maqollar xalqimizning nodir ma’naviy boyligi bo‘lib, o‘quvchilarda milliylikni tarbiyalashga, ularni o‘zligini anglashga da’vat etadi hamda yosh bolalarning fikrlarini chuqur, ixcham, aniq va obrazli qilib ifodalashga o‘rgatadi [6.6].

Bugun yoshlar o‘z milliy tarixini o‘rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf-odat va an’analarining qayta tiklanib borayotgani ularni o‘zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yu-

tiqdir. “Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma’naviy qadriyatlarini o‘rganib qolayotgani yo‘q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo‘lmoqda. Xorijiy davlatlarda o‘qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg‘or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar” [7.7].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mavzuni yoritishda voizlik san’ati, nutq madaniyati, ritorikaga oid adabiyotlar, badiiy adabiyot namoyandalarining so‘z, so‘zning yuki va so‘zlovchi odob-axloqlariga oid fikrlari, shuningdek, mamlakatimizda mavjud radiokanallarning boshlovchilari faoliyatini kuzatish, o‘rganish va xulosa qilish metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Radioboshlovchilik kasbi radio va televideniya rivojlanishi bilan paydo bo‘lganligi ma’lum. Radio efirga chiqa boshlagan dastlabki davrlarda ular diktor, deb atalgan. Diktor oldindan tayyorlangan matnni o‘zining yoqimli, o‘ktam ovozi bilan me’yoriga yetkazib o‘qib bergan. U paytlarda matnlarni ana shunday o‘qish talab etilar edi. Hozirda kommunikatsiyalar rivojlanib, dasturlarga qo‘yilayotgan talablar ham o‘zgargan. Endi mikrofon oldidagi shaxsdan erkinlik va improvizatsiya ham talab qilinmoqda. Bu borada taniqli radiosuxandon Shokir Yusupov “Boshlovchilik mahorati”[3] o‘quv qo‘llanmasida shunday yozadi: “Erkin muloqot, savol-javob ...boshlovchidan juda katta mas’uliyat, kuch, g‘ayrat va eng muhimi, intellektual salohiyat talab etiladi....”

Nazarimizda, bu vazifani bajarish uchun radioboshlovchida o‘ziga xos alohida jihatlar bo‘lishi lozim:

1. Chiroyli ovozga ega bo‘lishi va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qila olishi.
2. Tafakkuri baland va o‘z fikrini ishonarli tarzda bayon eta bilishi.

[1] Qobusnoma. Nashrga tayyorlovchi S.Dolimov, U.Dolimov. T., “O‘qituvchi”, 2006, 53-bet.
[2] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim). T., “Fan”, 1971, 86 – 87-betlar.
[3] Yusupov Sh. Boshlovchi mahorati. T., O‘zDSMI, 2014, 62-bet.

3. Improvizatsiya – ya'ni efirda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda holatlarda vaziyatdan ustalik bilan chiqib keta olishi.

4. Biroz hazilkashroq, xushmuomalalik.

Radioboshlovchining tashqi ko‘rinish mutlaqo ahamiyat kasb etmaydi. Uning ko‘rinishini har bir tinglovchi ovoziga, muomalasiga qarab tasavvurida g‘oyibona shakllantirib oladi. Esimda bor, hali o‘quvchi edim, o‘sha paytda juda mashhur bo‘lgan “Yoshlar” radiokanali va uning boshlovchisi Vahobiddin Ziyo bilan Toshkentdagi “Xalqlar do‘stligi” saroyi olidan o‘tib ketayotgan edik. Vahobiddin aka nimalar haqidadir gapirayotgan edilar. Yonimizdan o‘tib borayotgan qizlar undan “Siz Vahobiddin Ziyo, emasmisiz” deb so‘rab qolishdi. Ovozidan tanishgan. Tasdiqni eshitgach, ikkinchi qiz beixtiyor ravishda: “Men sizni butunlay boshqacha tasavvur qilar edim” deb yubordi... Mana shu holat ham tinglovchi o‘zi yoqtirgan radioboshlovchisining ko‘rinishini xayolan yaratishiga misol bo‘la oladi.

“Vikipediya”da[1] ham radioboshlovchilarga qo‘yiladigan talablar bayon etilgan. Biz uni rus tilidan biroz erkinroq tarjima qildik. Unga ko‘ra:

– tembr va modulatsiyasi bilan ajralib turuvchi yaxshi, toza ovoz.

– tinglovchilar bilan muloqot uchun kommunikativ va kreativ (amaldagi g‘oyalar, qoidalardan chetga chiqish) ko‘nikmalarning ajralib turishi;

– sodir bo‘layotgan voqealardan, yangiliklardan va ijtimoiy tendensiyalardan yaxshi xabardor bo‘lishi;

– ijodiy fikrga, shou dasturlar uchun yangi g‘oya yoki mavzu borasida tinmay izlanishi;

– improvizatsiyaga moyillik va “joyida” o‘ylash qobiliyati;

– o‘z shaxsiy uslubini shakllantirishga intilishi;

– hazilni tushunish.

Tembr va modulatsiyasi bilan ajralib turuvchi, toza ovoz shirasi e’tiborni tortadi. O‘sha yoqimli ovozga biroz quloq tutib turgan tinglovchi diliga ma’qul, ko‘ngilga xush so‘zlar aytilayotgan bo‘lsa, beixtiyor shu to‘lqinda qoladi va eshitishda davom etadi. Xuddi mana shuning uchun ham radioboshlovchiga qo‘yiladigan birinchi talab chiroyli, yoqimli ovoz va aniq talaffuz.

Agar radioboshlovchi kitobga oshno, keng tafakkurli, kundalik voqea-hodisalardan xabardor bo‘lsa, mikrofon oldida to‘ti holatiga tushmaydi. Mavzuni aniq va ravshan tushuntirib berishdan tashqari, sodir bo‘lish ehtimoli mavjud favqulodda holatlardan bemalol chiqib keta oladi. Ya’ni, aytaylik, efirga telefon orqali tinglovchi ulandi. U ssenariyda nazarda tutilmagan, biroq mavzuga taalluqli savol berib qoldi. Vaziyatdan qanday chiqib ketish radioboshlovchining zimmasidagi mas’uliyat: ehtimol, hazil bilan, ehtimol, aniq fakt yoki chiroyli muomala bilan. Bu uning o‘ziga havola. Agar radiotinglovchi chuqur fikrlaydigan, dunyoqarashi keng bo‘lsa, vaziyatni juda osonlik bilan o‘z foydasiga hal qila oladi. “Endi nima bo‘ladi?” deb shoshib qolgan muharrirning ham, rejissorning ham va savol bergan tinglovchining ham bundan ko‘ngli to‘ladi.

Radioboshlovchi kamida ikki yoki 3 tilni bilgani, kompyuter texnikalarini tushungani ma’qul. Agar chet tillarini bilsa, internet olamidan o‘zi izlayotgan mavzu bo‘yicha ancha keng ma’lumotlarni to‘play oladi. Tinglovchi uchun yangi fikr, g‘oya bera oldimi, demak, uning “reytingi” oshishi aniq. O‘z tinglovchilarini, ya’ni, uning qachon efirga chiqishini kutib turuvchi muhlislarini shakllantira oladi.

Ma’lumki, radioboshlovchilar turlicha bo‘ladi. Ularni umumlashgan holda ikki turga bo‘lish mumkin:

1. Efirdagi navbatchi boshlovchi. U ma’lum vaqt oralig‘ida, aytaylik, 2, 3 yoki 4 soat mobaynida dasturlarni bir-biriga bog‘laydi, ob-havo, ko‘chalardagi vaziyat, ayni vaqtdagi soat ko‘rsatkichlari kabi turli ma’lumotlarni berib boradi.

2. Mavzuli dasturlar boshlovchisi. Uning vazifasi sal boshqacharoq: eshittirish xoh yozuvda, xoh to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lsin, radioeshittirishning har jihatdan to‘laqonli efirga uzatilishi uchun mas’uldir. Qolaversa, yoritilayotgan mavzu bo‘yicha kamida ekspert darajasida bo‘lganlari ma’qul.

Radioboshlovchilar yuqorida aytilganlardan tashqari, radioapparaturalar bilan ishlay olishlari, musiqani yaxshi tushunishlari va musiqa sanoati yangiliklaridan xabardor bo‘lib borishlari kerak.

Tahlil va natijalar (analysis and results). Radioboshlovchilar faoliyatini, ilmiy va badiiy adabiyotlarni o‘rganish jarayonida ular dunyoga mashhur bo‘lgan, xalqning hurmatini qozongan, ko‘nglini topgan notiqlarning, so‘z ustalarining, davomchilaridir, degan xulosaga keldik. Shu ma’noda, ular o‘z kasblarini

[1]https: en.wikipedia.org/wiki/Radio_personalityh

sevishlaridan tashqari, ana shu mas'uliyatni ham his qilishlari, eng kamida ritorika ilmini jiddiy o'qib-o'rganishlari lozim.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Keltirilgan misollar, dalillardan aniqlanadiki, "radioboshlovchi" fenomeni ilmiy nuqtayi nazardan, chuqur o'rganishni talab qiladi. Ilmiy xulosalar esa radiojurnalistika sohasiga yangilik olib kirishi, boshlovchilar ishi rivojiga hissa qo'shishi, shubhasiz.

Abishova Gulxan Matjanovna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Nemis tili va adabiyoti kafedrasi stajor o'qituvchisi; email: gulkhan.abishova@mail.ru)

NEMIS TILIDAGI NOMINATIV KELISHIGINING QORAQALPOQ TILIDA IFODALANISHI

Annotatsiya. *Qiyosiy o'rganish orqali bir-biriga bog'liq bo'lmagan tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni tahlil qilish mumkin. Nemis tilida kelishiklarning berilish usullari mavjud. Ularning qoraqalpoq tillaridagi kelishiklar bilan qiyosiy o'rganish hali to'liq o'rganilmagan. Bu maqolada nemis tilidagi nominativ kelishigi qoraqalpoq tilidagi ataw (bosh) kelishigi bilan qiyosiy o'rganiladi. Ularning o'xshashliklari va farqlari aniqlanadi.*

Аннотация. *С помощью сравнительного исследования можно проанализировать сходства и различия между неродственными языками. В немецком языке существует множество способов выразить падежи. Их сопоставительное изучение с падежами в каракалпакских языках до конца еще не изучено. В данной статье сравнивается номинативный падеж в немецком языке с именительным падежом в каракалпакском языке. Выявлены их сходства и различия.*

Annotation. *With the help of a comparative study, it is possible to analyze the similarities and differences between unrelated languages. There are many ways to express cases in German. Their comparative study with cases in the Karakalpak languages has not yet been fully studied. This article compares the nominative case in German with the nominative case in the Karakalpak language. Their similarities and differences are revealed.*

Kalit so'zlar: *qiyosiy tipologiya, nemis tili, qoraqalpoq tili, nominativ kelishik, atov (bosh) kelishigi.*

Ключевые слова: *сравнительная типология, немецкий язык, каракалпакский язык, номинативный падеж, именительный падеж.*

Key words: *comparative typology, German language, Karakalpak language, nominative case, common case.*

Qiyoslanayotgan tillar orasidagi e'tibor berilishi lozim bo'lgan farq shundaki, izohlanmish-izohlovchi munosabatida qo'llaniladigan ism+to'g'ri yoki kuchma ma'noda ishlatiladigan qarindoshlik oti faqat qoraqalpoq, shuningdek, deyarli barcha turkiy tillarga xos bo'lgan grammatik konstruksiya. Turkologiya bo'yicha ayrim manbalarni o'rganishimiz ham shundan dalolat beradiki, turkiy tillarda, shuningdek, qoraqalpoq tilida ham qarindoshlik atamalari nemis tiliga qaraganda keng rivojlangan.

Turkiy xalqlar o'zidan katta tanish-bilishlarga ko'chma ma'noda bo'lsin yoki to'g'ri ma'noda ism +qarindoshlik oti bilan muomala qiladi: *Jiyenbay aǵa, Sabır jezde, Dospan ata, Aygúl ájapa* va boshqalar.

Boshqa ko'pchilik xalqlarda, shuningdek, nemislarda ham unday xususiyat yo'q. Muammolarda ular qarindoshlik atamalar emas, balki faqat o'z ismlari yoki ism, familiyasi oldiga *Herr*, *Frau Fräulein* so'zlarini qo'yib gapiradi. Boshqa xalqlarning asarlarini oq'iganda yoki kinofilmlarni tomosha qilganda ham bilib olsa bo'ladi. Yuqoridagi misollardagi qarindoshlik bilan (izohlovchi ma'nosida, albatta, ism qarindoshlik oti) qo'llanishiga kelsak, ularda xalqlarning milliy koloriti saqlangan, degan fikr isboti bo'la oladi.

Nemis tilida ataw kelishik boshqa kelishiklar bilan qo'llangani kabi *als* ham *wie* bog'lovchilari bilan birgalikta turib ishlatiladi. Bunday hollarda o'sha birikma gapda turli vazifada keladi. Gapda ataw kelishik ikki marta uchraydi. Birinchisi asosiy ataw kelishik, ya'ni, ot yoki ot o'rnida ega funksiyasini bajaruvchi so'z, ikkinchisini esa bog'lovchi bilan birgalikda qo'llanadigan ikkalamchi ataw kelishik, so'z yuritilayotgan birikmalar qiyosiy yoki taqqoslash qisman o'xshatish kabi ma'nolorni anglatadi.

Als va *wie* so'zlari bilan ataw kelishik quyidagi funksiyalarda qo'llaniladi:

1. Predikativ: *Du bist wie eine Blume. Sen tap gúldeyseń.* Misolning qoraqalpoq tiliga o'girilishi uning ataw kelishigida turib xuddi o'sha funksiyani bajarishni ko'rsatib turibdi. Bu ikkala tilga xos bo'lgan grammatik hodisa sanaladi.

2. Predikativ aniqlovchi: *Er arbeitet als Lehrer. Ol muǵallim bolıp isleydi. Mein Bruder ist als Arzt tätig. Meniń aǵam vrach (vrach bolıp isleydi)*.

Misollardan ko‘rinib turganiday, nemis tilidagi *als* ataw kelishikga qoraqalpoq tilida fe’lning ravishdosh formasıp- un+*ataw* kelishigida kelgan konstruksiyaga mos keladi.

3. Nemis tilida ikki narsa – predmet yoki shaxsni qiyoslash uchun *als* yuklamasi+predmet yoki shaxsni anglatuvchi so‘z ataw kelishik kelishigida keladi. Qoraqalpoq tilida esa bu‘nday funksiyani chiqish kelishigidagi ot yoki jo‘nalish kelishigidagi ot *qaraǵanda, góre* ko‘makchi so‘zlardan tuzilgan konstruksiya bajaradi. Bu birikma hozirgi zamon nemis tilida juda keng qo‘llanilmaydi.

Er ist älter als mein Bruder. Ol aǵamnan úlkenirek. Ol oǵan qaraǵanda úlken.

Mein Freund Spricht deutsch besser als ich. Dostım nemissheni maǵan qaraǵanda jaqsıraq sóyleydi.

4. Hol vazifasida: *Er kämptt wie ein Löwe Ol arıslanday gúresedi. Er benimmt sich wie ein dummer Junge. Ol ózin jilli baladay tutadı.*

Qoraqalpoq tilida o‘xshatish ma’nosi, ko’pincha, otga bog‘lanib keladigan *-day, -dey, -tey, -tay* suffikslari orqali izohlanadi.

Nemis tilida *als* va *wie* yuklamalari bilan qo‘llaniladigan ataw kelishikdagi otlar, asosan, ular izohlovchi, predikativ aniqlovchi va hol vazifasida kelganida kelishiklarini o’zgartirishi, ya’ni boshqa kelishiklarda kelishi ham mumkin.

Als junges Mädchen (Nom) verließ sie ihre Heimatstadt Jaslay (jaslıǵınan jas qız gezinde) ol tuwılıp ósken qalasınan shıǵıp ketti.

Ich konnte ihn als kleinen Knaben (Akk). Men onı bala waqtınan tanıyman.

Du benimmst dich wie ein dummer Junge (Nom). Sen ózińdi tap jilli baladay tutasań.

Man gehandelt dich wie einen dummen Jungen (Akk). Seni bir awsar bala dep esaplaydı. Seni jilli dep oylaydı.

Misollarning qoraqalpoq tiliga o‘girilishi bunday til hodisalarining ikki tilda birday emasligidan, umirning bir-biridan farqlanishidan dalolat beradi. Bu esa har bir tilning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlaridan kelib chiqadi. Tillarning birinchisida yuklamali konstruksiyalar rivojlangan bo‘lsa, ikkinchisida shu ma’noda ishlatiladigan kelishiklar, ravishlar til taraqqiyoti bilan bog‘liq.

Qiyosiy o‘rganilayotgan tillarining ikkalasida ham xos xususiyatlar shuki, gazeta, jurnal, badiiy asarlar, tashkilotlar, shahar va qishloqlar, kema, transport qurollari va boshqa nomlarni bildiruvchi otlar nemis tilida ataw kelishikda, qoraqalpoq tilida esa ataw kelishigida keladi.

Die Zeitung “Erkin Karaqalpaqstan”erscheint dreimal in der Woche.

Erkin Qaraqalpaqstan gazetası háptede úsh ret (márte) shıǵadı.

Der Roman “Drei Kameraden” wird gern gelesen.

“Úsh dos” romanı súyip oqıladı. Die Schule “Berdach” betindet sich in der Altstadt. Berdaq mektebi góne qalada jaylasqan.

Shahar korxona, qishloq, ko‘cha, mukofot kabi ma’nolarda keladigan shaklan qaratuvchi-qaralmish konstruksiyasi juda keng qo‘llaniladi. Bunday hollarda ikki tilda komponsitlarning joylashishi birdek emas. Qoraqalpoq tilida qaratuvchi-qaralmish shaklida bo‘lsa, nemis tilida uning teskarisi, ya’ni qaralmish-qaratuvchi shaklida uchraydi.

Die Stadt Nukus – Nókis qalası, das Werk Tschkalow – Chkalov zavodı, die Haltestelle Park-park bándirgisi, das Berdach Theater – Berdaq teatrı, der Kolchos “Namuna” – kolxozı.

Ayrim hollarda nemis tilida ham komponentlarning joylashishi xuddi turkiy tillardagiga o‘xshab ketadi, ammo qo‘shma so‘zga aylanadi. *Rashidov kóshesi – Raschidowstraße, Berdaq mektebi – Berdachschule, Navoyi bándirgisi – Nawoihaltestelle* va boshqalar.

Nemis tilida ataw kelishikda kelib, o‘rin ma’nosini anglatuvchi so‘z birikmalari mavjud, lekin ular qoraqalpoq tiliga o‘girilsa, ataw kelishigida emas, balki iyelik (qaratqich) kelishigidagi ot+ot+egalik affiksi konstruksiyası shaklida yoki keyingi so‘z orın kelishigida bo‘lishi ham mumkin. *Ende November – noyabrdiń aqırı, Anfang Juli – iyuldıń ası, Ende August kommen wir von Urlaub zurück – Avgusttıń ayaǵında (aqırında) biz dem alıstan qaytamız.*

Ende Juli muß ich zu Hause sein – Iyuldıń aqırında men úyde bolıwım kerek.

Ataw kelishikning atash funksiyasi otning umumiy kelishigi (“Gemeinschaftskasus”) yoki “nol shakli” (Nullform) bilan bog‘liq. Umumiy kelishikning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri kelishik suffiksini olmasligida emas, balki uning artiklsiz qo‘llanishida seziladi. Bu esa unga “nol shakli”da bo‘lishiga asos bo‘ladi.

Tilshunos olima O.Moskalskaya otning “umumiy kelishigi” yoki “nol shakli”da bo‘lishlarini quyidagi so‘z birikmalarida ko‘rsatib beradi: *Zwei Sack Mehl – eki qapshıq un, einige Glas Tee – bir neshe stakan chay, eine Flasche Wein – bir shiyshe vino, eine Mengeleute–bir topar adam, zwei stück Brot – eki tislem nan* va boshqalar [3.166]. Bunday birikmalar, misollarning qoraqalpoqcha tarjimasidan ko‘rinib turganidek, turkiy tillariga ham xos til hodisasi: *eki kese shay, bir awız sóz, úsh saat shaması waqıt* kabi birikmalar numerativ deb ham nomlanadi. Birikma shaklan ataw kelishigida bo‘lsa ham, undan yaxlitligicha belgi ma’nosi anglashiladi, demak, sifatlovchi formasida keladi. «Umumiy kelishik» muammosini so‘nggi yillarida tilshunoslik bo‘yicha chop etilgan asarlarda ham ko‘rish mumkin. Lingvist olimlardan ko‘pchiligi nemis tilidagi “umumiy kelishik”ni beshinchi kelishik emas, balki ataw kelishikning atab ko‘rsatish xususiyatining bir ko‘rinishi deb qarashni ma’qul ko‘radi. Unday so‘z birikmalarida moslashuv ham, boshqaruv ham, shuningdek, artikl ham yo‘q, deb ko‘rsatishadi. Turkiy tillarda birinchi kelishikning turlicha atamalari mavjud. Masalan, o‘tgan asrning o‘rtalarida chop etilgan asarlarda, ataw, absolut, noaniq, asosiy gap atamalarni uchratishsa bo‘ladi. Tilshunos olima N.P.Direnkova ham shor tilida bu kelishikning beshta atamasini asosiy, ataw, o‘zakli, noaniq, affikssiz deb ta’kidlab o‘tgan [1.40]. Ataw-birinchi kelishikning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda, ataw kelishigi deb yuritish ma’qul ko‘rilgan. Ataw kelishigi boshqa kelishiklar uchun asosiy baza hisoblanadi, boshqa kelishiklarning affikslari ataw kelishigi shaklida keladi. Bu so‘zning negizi atamoq bo‘lib, narsa-predmetlarning nomini atab ko‘rsatish degan fikrini anglatadi. Bizningcha, bu eng ma’qul varianti hisoblonadi. Hatto ataw kelishikning ataw deb nomlanishi boshqa turkiy tillardagiga qaraganda ham munosibroq, nazarimizda. Yuqorida biz nemis tilida ataw kelishik kelishigini, unga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar to‘g‘risida so‘z yuritdik. Aytib o‘tilganidek, ko‘pchilik hollarda, ataw kelishik va ataw kelishiklari deyarlik birday grammatik xususiyatlarga ega bo‘lib, birday vazifani bajarib va birday sintaktik funksiyaga ega. Quyida biz ataw kelishigining o‘ziga xos bo‘lgan, qoraqalpoq tili xususiyatlaridan kelib chiqadigan grammatik hodisalar to‘g‘risida to‘xtab o‘tmoqchimiz.

Ataw kelishigi bilan birga keladigan boshqa ko‘makchi birikmalar to‘g‘risida ham xuddi shunday fikrni aytish mumkin.

Ataw kelishigidagi *-ǵan, -qan, -gen, -ken* sifotdoshi joq yordamchisi bilan birlashib, kesim vazifasida keladi. Bunday holda sifatdosh egalik affiksini qabul qiladi: *aytqanım joq – ich habe es nicht gesagt: kelgen joq er ist nicht gekommen; Barǵan joq – barǵan joq – er ist nicht gegangen* va hokazolar. Bu o‘rinda joq so‘zi inkor yuklamasi holatida kelib, *-pa, -pe, -ba, -be, -ma, -me* morfemalarga sinonim bo‘ladi, analitik grammatik formaning tug‘ilishiga olib keladi.

Nemis tilida esa bu birikma mutlaq boshqa tarzda, ya’ni fe’l zamonlari orqali ifodalanadi. Shuningdek, ataw kelishigining analitik grammatik formasi kerek+egalik affiksi – ataw kelishigi+joq konstruksiyası bilan ham yasaladi: *Onıń maǵan keregi joq. Das brauche ich nicht.*

Bu formaning yuqoridagi formadan farqi shuki, u qatnashgan gap bir sostavli topilmas gapga teng buladi. *Saw adamǵa dárinińkeregi joq. Der Gesunde braucht heine Arznei.*

Bunday gaplar nemis tiliga ko‘chirilganda bir sostavli emas, balki ikki sostavli gap holatida keladi. Chunki gapning ikki sostavliligi nemis tili grammatikasi uchun xos xususiyat.

Ataw kelishikdagi harakat nomi zárúriyat, imkoniyat anglatuvchi (zárúr, tiyis, lazım) so‘zlari bilan birlashib qoraqalpoq tilida bir sostavli gap vazifasida yoki kesim vazifasida keladi. Bunday gaplarni nemis tiliga tarjima qilganda ikki sostavli, ya’ni, egasi umumlashgan gap tarzida man noaniq olmoshi (yoki kelishik olmoshlari) orqali beriladi.

Aytıw kerek: Man muß sagen, Barıwım tiyis. Ich muß gehen.

Bunday gaplarda nemis tilida eganing ifodalanishi qoraqalpoq tilida ataw kelishigida keladigan sifatdoshning shaxs ko‘rsatkichiga bog‘liq. Masalan, barıwım bolsa – men, barıwıń bo‘lsa –sen, barıw shaklida kelsa, man orqali beriladi.

Qoraqalpoq tilida gapga teng konstruksiyalar ham ataw kelishigida turib ega vazifasida keladi. Unday konstruksiyali gaplar nemis tiliga yo kengaytirilgan aniqlovchili gap yoki ega ergash gapli qo‘shma gap orqali beriladi.

Keshe jıynalısta qatnasqanlar búgin keliwleri kerek. Die gestern an der Versammlung nicht teilgenommen haben, sollen heute kommen. Die gestern an der Versammlung nicht teilgenommenen Menschen sollen heute kommen.

Qoraqalpoq tilida ot *bar, joq* so‘zlari bilan ataw kelishigida qo‘llanadi. Bu so‘zlar, asosan, nemis tilida “es gibt”, es gibt nicht iboralari yoki haben fe’li orqali o‘giriladi [2.46].

Ularning qaysi biri orqali ifodalansa ham, ot nemis tilida ataw kelishikda emas, balki akkuzativda turadi.

Bul jerde úlken kanal bar. Hier gibt es einen großen Kanal. Onıń kitabı joq. Er hat kein Buch. Turımbay maqsımnıń úyinde digirman bar (E.Ótepbergenov. «Qumar»).

At kóterer abıroyım bar, aytaber – dep tákirarladı Bazar (J.Aymurzayev. «Qızketken»).

Qoraqalpoq tilida, shuningdek, ko‘pchilik turkiy tillarda turli-turli konstruksiyalar bor. Ularda birinchi komponent ataw kelishigida, ikkinchisi esa egalik affiksini qabul qilgan ma’no iborat bo‘lib, ular orqali ifodalangan ma’no xilma-xilliligi bilan xarakterlanadi. Ulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Bunday konstruksiyalarda birinchi komponent ikkinchi komponent anglatgan predmetning:

a) nomini bildiradi; gruzin vinosı, rus milleti, ózbek xalqı, ǵárezsizlik bayramı, sentyabr ayı, shembi kúni; bunday component, odatda, qaysi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Ularni biz nemis tiliga tarjima qiladigan bo‘lsak, birikma shaklida qilish mumkin: *georgischer Wien, das usbekische Volk, das Fest der Unabhängigkeit, der Monat September, Sonnabend* va boshqalar;

b) tu‘rini bildiradi; *qalalıq keńesi – der Stadtrat, awıl keńesi – der Dorfsrat, miywe teregi -der Fruchtbaum* va boshqalar;

d) shug‘ullanish predmetini bildiradi: *meditsina institutı – das institut für Medizin, die medizinische Hochschule, paxtashılıq brigadası – Baumwollbrigade* va boshqalar;

e) nimaga xoslanganini bildiradi: *júk mashinası, Lastauto, gazeta kioskası – Zeitungsstand, Zeitungskiosk* va boshqalar.

Bu tur konstruksiya komponentlarida leksik ma’no mustaqilligi ancha so‘nib, semantik jihatdan yaxshilanadi, bo‘linmas holga keladi. Bunday konstruksiyalar, tilshunos olimlarning fikricha, ko‘pincha, ruscha sostavli terminlarning kalkasi sifatida bo‘ladi, ruscha birikmadagi sifat komponenti turkiy tillariga ot bilan tarjima qilinadi. Mana shu nuqtayi nazardan ham ularning ko‘pchiligi nemis tiliga bir so‘z, ya’ni, ko‘shma so‘z orqali beriladi, ayrim hollarda esa sifat ot birikmasi tarzida.

Umuman, tillarda sifatlovchi bo‘lib kelish – sifat, son kabi turkimlarga xos vazifa. Agar ot bu vazifada kelsa u sifatlashadi. Sifatlashish sintaktik jarayon bo‘lib, bunday holatda kelish uchun ot o‘zi mansub turkumning grammatik kategoriyalaridan xoli bo‘lishi kerak. Bunday holat ot leksema uchun ikkilamchi forma. Agarda ot leksema sifatlovchi vazifasida kelsa, u sifatlagan ot negiziga egalik affiksi qo‘shilmaydi, vaholanki, yuqorida keltirilgan punktlardagi birikmalarda bo‘lsa, egalik affikslarning qo‘shilishi shart edi. Sifatlovchi bo‘lib kelish har qanday otga xos xususiyat emas, bunday ot, odatda, sifatlanmishdan anglashiladigan predmetning materialini, ya’ni nimadan tayyorlanganligini bildiradi.

Birikma komponentlarining ikkalasi ham ataw kelishigi formasida bo‘ladi. Ular ma’no jihatdan yaxlitlanib xuddi qushma so‘zdek bir ma’noni anglatdi. Shuning uchun ular nemis tiliga ko‘pchilik hollarda bir so‘z – qo‘shma so‘zdek bilan o‘chiriladi: *temir jol – die Eisenbahn, ılay jay - das Lehmhaus, altın taj - die Goldkrone, tilla júzik - der Goldreit, altın saat - goldene Uhr, jipek kóylek -seidenes Kleid* va boshqalar.

Yuqorida bayon qilinganlarni hisobga ola o‘tirib, xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, nemis va qaraqalpoq tillaridagi ataw kelishik va ataw kelishiklarining qiyosiy tipologiyasida o‘xshashliklar ham, shuningdek, har bir tilning o‘zicha xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan farqlar ham mavjud.

Tipologik o‘xshashliklar shundan iboratki, ikkala tilda ham so‘z yuritilmayotgan kelishiklar so‘z negizidan yasalib, hesh qanday qo‘shimcha affiks qabul qilinmaydi (Bu yerda kelishik qo‘shimchalari nazarda tutilmoqda). Xuddi shuningdek, ular tomonidan ifodalangan ma’no va sintaktik funksiyalari ham ikkala tilda o‘xshash. Ularning gapda ega, kesim, predikativ aniqlovchi, izohlovchi vazifasida, shuningdek, o‘z xolicha gap bo‘lib kelishlari ikkala tilga ham xos bo‘lgan til hodisasi sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, ikkala tilda asosiy kelishik hisoblangan ataw kelishik va nominativ kelishiklarini tahlil qilish, ularni qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, qoraqalpoq tilida ataw kelishigi yasalishi va qo‘llanish sferasi nemis tilidagi ataw kelishik kelishigiga qaraganda ancha keng va taraqqiy topgan. Bunga esa yuqorida keltirilgan punktlardagi misollar isbot bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дыренкова Н.П. Грамматика шорского языка. М.– Л., 1941.
2. Мирсоатов Т.З. Немис тили грамматикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1974.
3. Москалская О.Ж. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. Москва, 1975.

Sulaymanova Nilufar Jabbarovna (SamDCHTI, PhD, dotsent)

OLAMNING PAREMIOLOGIK MANZARASIDA BAHO KONSEPTLARINING O‘RNI

Annotatsiya. *Etnik o‘zlik har qanday lisoniy jamoaning eng muhim xususiyati va uning tahlili, har bir lisoniy madaniyatga oid konseptual maydon o‘ziga xos ravishda tarkib topishi, buning oqibatida hosil bo‘lgan madaniy konseptlarning nutqdagi faollashuvi bir xilda kechmasligiga, jamoaviy ongning mahsuli bo‘lgan olamning lisoniy manzarasida milliy o‘zlik hamda ma’lum millatga xos ma’naviy hayot “iz”larini topish lisoniy madaniyatshunosliknnig asosiy vazifalaridandir. Zamonamizning muhim muammolaridan bo‘lgan millatlararo muloqotning samarasini oshirishda turli olam lisoniy manzaralarini qiyosiy o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Turli madaniy an’analar qurshovida bo‘lgan jamoalarning olam idrokidagi farqi ma’lum til jamoasining lisoniy-madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq.*

Аннотация. *Этническая идентичность является важнейшим признаком любого языкового сообщества. Нахождение «следов» конкретной духовной жизни является одной из основных задач лингвокультурологии. Сравнительное изучение языковых картин мира разных народов имеет особое значение в повышении эффективности межнационального диалога, что является одной из важнейших проблем современности. Различие в восприятии мира сообществами, ок-руженными разными культурными традициями, обусловлено языковыми и культурными особен-ностями того или иного языкового сообщества.*

Annotation. *Ethnic identity is the most important feature of any linguistic community and its analysis. Finding the “traces” of a particular spiritual life is one of the main tasks of linguoculturology. Comparative study of the linguistic landscapes of different worlds is of particular importance in increasing the effectiveness of interethnic dialogue, which is one of the most important problems of our time. The difference in the perception of the world by communities surrounded by different cultural traditions is due to the linguistic and cultural characteristics of a particular linguistic community.*

Kalit so‘zlar: *antropologiya, jahonning lisoniy manzarasi, etnik, etnos, lingvomadaniyatshunoslik, folklor axloqi, ma’naviy axloq, konsept, paremiologiya, aksiologik me’yor, semiotika, nominativ vosita.*

Ключевые слова: *антропология, языковая картина мира, этнический, этнос, лингвокультурология, фольклорная этика, духовная этика, концепт, паремиология, аксиологическая норма, семиотика, номинативный инструмент.*

Key words: *anthropology, language landscape, ethnic, ethnos, linguoculturology, folklore ethics, spiritual ethics, concept, paremiology, axiological norm, semiotics, nominative instrument.*

Har qanday ilm sohasida bo‘lganidek, antropotilshunoslikda ham ma’lum metodologik talablarga amal qilinadi. Ulardan ba’zilarini eslatamiz: til tizimini tadqiq etmasdan turib insonni o‘rganib bo‘lmaydi; tilning tabiatini aniqlashga faqat insonni tushunish orqali erishish mumkin. Eslatilgan talablarning har ikkalasida ham til va inson munosabati olamni bilish uchun muhimligi ta’kidlanmoqda. Inson atrofdagi voqelikni va o‘zini bilishi jarayoni olamning lisoniy manzarasi shakllanishi bilan yakunlanadi. Lekin ushbu manzara hamma uchun, ayniqsa, turli etnoslar uchun bir xil emas. Olamning etnik lisoniy manzaralari o‘rtasida farqlar, albatta, turli sabablar ega, ammo eng asosiy sababdan biri realiyalar va ularni ifodalovchi lisoniy vositalar o‘rtasidagi bog‘liqlik bir xil emasligidandir. Ayni paytda, ushbu muammoni faqat tilshunoslik doirasida o‘rganish maqsadga muvofiq emasligi aniq bo‘lib qoldi. Keyingi yillarda tez sur’atlarda shakllanib borayotgan lingvomadaniyatshunoslik sohasi tilshunoslikning chegarasini kengaytirib, uning imkoniyatlarini boyitmoqda.

Etnik o‘zlik har qanday lisoniy jamoaning eng muhim xususiyati va uning tahlili dolzarb masalalardandir va uning har tomonlama o‘rganilishi kognitiv tilshunoslikning bo‘lajak taraqqiyotiga katta hissa qo‘shishiga aminmiz. Har bir lisoniy madaniyatga oid konseptual maydon o‘ziga xos ravishda tarkib topadi. Buning oqibatida hosil bo‘lgan madaniy konseptlarning nutqdagi faollashuvi ham bir xilda kechmaydi.

Jamoaviy ongning mahsuli bo‘lgan olamning lisoniy manzarasida milliy o‘zlik hamda ma’lum millatga xos ma’naviy hayot “iz”larini topish lisoniy madaniyatshunosliknnig asosiy vazifalaridandir. Zamonamizning muhim muammolaridan bo‘lgan millatlararo muloqotning samarasini oshirishda turli olam lisoniy manzaralarini qiyosiy o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Turli madaniy an’analar qurshovida bo‘lgan jamoalarning olam idrokidagi farqi ma’lum til jamoasining lisoniy-madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq. Bularning barchasi olam manzarasini ongda modellashuvining asosiy vositasi bo‘lgan tilda aks topadi. Qiyosiy tahlilda o‘z paytida M.M.Baxtin taklif qilgan “o‘zga madaniyat ko‘zgusi” tamoyiliga

amal qilish samara berishiga ishonamiz. Chunki har “bir madaniyat faqat begona madaniyat ko‘zgusida o‘zini to‘liqroq namoyon qiladi” [1].

U yoki bu etnosning voqelik haqidagi tasavvurini aks ettiruvchi olamning lisoniy manzarasini va uni shakllantiruvchi til birliklarining tadqiqi turli madaniy qiymatga ega elementlar tahlilini talab qiladi. Shunday elementlar qatoriga u yoki bu lisoniy madaniyatning aksiologik me’yorlarini yaqqol namoyon etguvchi paremiologik birliklar (maqol va matallar) kiradi.

Maqol – millat tafakkur va aql-farosatini, xalqning ko‘p asrlik hayot tajribasi va maishiy turmush tarzini “hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan” nutqiy tuzilma [11.3].

Paremiologik birliklar, bir tomondan, kommunikativ vaziyat, ikkinchi tomondan, semiotik tizim belgisi sifatida shakllanib, turli darajada umumlashtirilgan bilimlarni jamlaydi va lisoniy ifoda etadi. G.V. Kolshanskiyning fikricha, inson ongidan joy olgan olamning manzarasi – obyektiv olamning ikkilamchi mavjudligi [7.15]. Semiotikaning asoschilaridan bo‘lgan Ch.Pirsning talqinicha, semiotik belgi inson tafakkuri va voqelikni bog‘lab turuvchi universal vositadir. Demak, olamning paremiologik manzarasi olamning aks topgan manzarasini tasvirlovchi ikkilamchi belgilar tizimidir. Ushbu tizim birliklarining aksiologik mundarijasi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Masalan:

Aybi borning tizzasi qaltirar.
Asli qora oqarmas.
Baliq boshidan sasir.
Bigizni qanorga yashirib bo‘lmas.
Bir tulkining hiylasi necha yerda pand berar.
Bir xotinning hiylasi qirq eshakka yuk bo‘lar [21].

Keltirilgan maqollarda insonlar xarakteri to‘g‘rilik va egrilik qadriyatlari nuqtayi nazaridan baholanmoqda. Quyidagi guruhdagi maqollarda xatti-harakatlar jamiyatda qabul qilingan me’yorlar, axloqiy qoidalar nuqtayi nazaridan baholanadi:

Achchiq bo‘lsin, qalampir bo‘l, totli bo‘lsang, bolday bo‘l.
Besh panjangni og‘zingga tiqma.
Behuda yig‘laganing yuragingni dog‘laganing.
Bo‘z yamog‘i-bo‘zcha, qop yamog‘i-qopcha.
Ko‘p boy bo‘lgan bir sinar.
Ko‘p egilma, bosirlar, ko‘p bo‘y cho‘zma, osarlar [21].

Har bir lisoniy madaniyatning paremiologik fondida millat va uning alohida guruhlari vakillarining axloqiy xatti-harakatlari ko‘rsatkichlarini jamlovchi universal va idioetnik qonun-qoidalar, qadriyatlar aks topadi. Madaniyatlarning universal qadriyatlari qatoridan butun bir avlod hamda millatlar dunyoqarashini anglashga asos bo‘ladigan qadriyatlar o‘rin oladi. Jumladan, rostgo‘ylik, ishonch, ezgulik, yaxshilik turli millat vakillari uchun bir xil bahoga ega. Qiyoslang:

The good is due (Fergusson. 2004) – Oqqan ariqdan suv oqar [21].

Love is blind (Fergusson. 2004) – Muhabbatning ko‘zi ko‘r [21].

Ma’lumki, jamiyatda qabul qilingan axloq tamoyillari o‘zgarib turadi va ushbu o‘zgarishlarning sababi madaniyat qonunlariga borib taqaladi. Zero, “axloqiy tarbiya doimiy va davrga xos qadriyatlarga asoslanadi” [12.106]. Axloqning boshqa ijtimoiy me’yorlardan farqli jihati uning inson faoliyatining har bir qirrasida ko‘rinish berishidadir. Insonning harakatlari esa jamiyat tomonidan baholanadi. Ushbu harakatlar ijobiy yoki salbiy bahoga ega bo‘lishi mumkin. Ulardan biron-biri jamiyat tomonidan qoralansa, o‘sha kishining ijobiy ijtimoiy munosabatlardan chetga so‘rilishi va jamoa himoyasidan mahrum bo‘lishi muqarrar. Axloq qoidalarini bilish har bir shaxsning mas’uliyatidir [12.109].

Y.V.Rojdestvenskiy axloqni ikki hududga taqsimlashni ma’qul ko‘rdi. Uning fikricha, “folklor axloqi” va “ma’naviy axloq” turli xususiyatlarga ega bo‘lib, turli tarbiyaviy maqsadlarni ko‘zlaydi. Ulardan birinchisida bevosita amaliy-maishiy maqsad rejalashtirilib, oila, qarindoshlar, urug‘ kabilarning moddiy behbudligi, farovonligi himoyasi ko‘zlanadi. Ma’naviy axloq, aslida, oldingisida amalda bo‘lgan tamoyillarni inkor etmasdan turib, ularni o‘g‘irlik, qotillik, xiyonat kabi harakatlarni ta’qiqlash orqali to‘ldiradi. Bu hududda, shuningdek, nutqiy faoliyat va muomala tamoyillari yetakchi o‘rinlarga chiqadi [12.117].

Qadriyatlar tizimiga asoslangan maqollar, ezgulikni jaholatdan farqlayotib, baho konseptlari tizimini boyitishga hissa qo‘shadilar. Insonning xatti-harakatlari va dunyoqarashini izmga soluvchi manbalardan biri bo‘lgan maqollar xalqlar hayotiy tajribasini ifodalovchi turg‘unlashgan nutqiy tuzilmalardir. Tabiiyki, dunyoda va alohida madaniyatlarda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy hamda madaniy o‘zgarishlar axloqiy qoidalar tizimidagi o‘zgarishlarga sabab tug‘diradi. Buning aks sadosi olamning paremiologik man-

zarasida ham iz qoldirishi kutilgan holdir. Bunday siljishlar, ayniqsa, turli lingvomadaniyatlar paremiologik zaxirasi qiyosida yaqqol namoyon bo‘ladi. Binobarin, erkinlik, optimizm, tejamkorlik, tartib (ambition, liberty, optimism, descipline) baho tushunchalari universal ko‘rinsa-da, lekin ingliz madaniyatida ular baho konseptlari tizimida o‘ziga xos ravishda tasvirlanadi: When one doorshuts, another opens [19]. Lean liberty is better than fat slavery (Op.cit.). Ambition makes people diligent (Op.cit.).

O‘zbek madaniyatida ushbu xislatlar biroz boshqacharoq baholanadi.

“Bir boshoq don – bir savat non”. “Daryo-daryo qabul qil, tomchi-tomchi yubor”. “Otni ayagan ot minar, to‘nni ayagan to‘n kiyar”.

Shuning bilan birgalikda, o‘zbek xalqi uchun “tejamkorlik” pul yoki boshqa moddiy boylik bilan o‘lchanmasdan, balki axloqiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Shu sabab bo‘lsa kerakki, o‘zbek maqollarida tejamkorlik oiladagi, jamoadagi tarbiya natijasi sifatida baholanadi. Qiyoslang:

Yaxshi o‘g‘il biylar ota molini, yomon o‘g‘il sochar ota molini.

O‘lgan o‘zbekning qo‘ynida noni bor.

Usta ovchi chumchuqqa o‘q otmas [21].

Optimizm (nekbinlik) tushunchasiga keladigan bo‘lsak, ushbu hislatning barcha xalqlar tafakkurida bir xilda konseptlashuviga hech ham ishonib bo‘lmaydi. Buyuk Volterning “Kandid yoki optimizm” asaridan bir parchani keltiramiz:

– O Panglos! – hayqirdi Kandid.

– Siz bu qabihliklarni fahmlamagansiz. Bundan buyon men sizning optimizmingizdan voz kechaman.

– Optimizm degani nima? – deb so‘radi Kakambo?

– Evoh! – dedi Kandid.

– Bu barchasi yomon bo‘lganida ham, barchasi yaxshi deb tasdiqlash ishtiyoqidir [15.57].

Xo‘sh, Volterning qahramoni tushunmagan “optimizm”ni boshqalar qanday qabul qilishi kerak ekan?!

Inglizlar kelajakka yana o‘sha moddiy foyda nuqtai nazaridan boqishni odat qilganlar.

Look before you leap; Know what to expect before you connect; You cannot tech an old dog new tricks; In God we trust, etc [17].

O‘zbeklarda kelajakka umid mehnat bilan bog‘liq holda tasavvur qilinadi yoki Ollohdan iltijo qilinadi:

Dard bergan darmonini ham berar.

Bu yil izi bo‘lsa, kelasi yil o‘zi bo‘lar.

Mol topmas yigit bo‘lmas, o‘g‘il topmas ayl bo‘lmas.

Umidi yo‘qninig imoni yo‘q.

Umidli ish umidsiz bo‘lmas.

Lingvomadaniyatga xos universal va etnik tizimi turli madaniyat vakillarining olam idrokida umumiylik va xususiylik aloqaga kirishuvidan darak beradi. Bunda universallik ko‘proq nominativ vositalar ko‘lamida namoyon bo‘lib, millatning diniy, moddiy-maishiy va ijtimoiy tajribasi negizida shakllanadigan baho konseptlari mundarijasiga ta’siri bilvosita, ya’ni til tizimi birliklari vositasida aks topadi. Shu bois paremiologik birliklarning an’anaviy tasavvurlar, qadriyatlar bilan bog‘liq holda shakllanadigan semantik assotsiatsiyalarini o‘rganish kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi [6.297].

Assotsiatsiyali obrazlar, baho konseptlari xuddi shu semantik hududda shakllanib, universal va milliy-madaniy qadriyatlarning negizida turadi. Yaxshilik qilish xayrli ekanligini hamma biladi, ammo ushbu qadriyat har doim ham ijobiy baholanmasdan, ba’zan qandaydir kuchsizlik, idroksizlik namunasi sifatida ham qaraladi. Qiyoslang:

Kind hearts are soonest wronged.

Good folks are scarce, make much of one.

Chairity covers a multitude of sins.

Bir ko‘ngil imorati–ming Makka ziyorati.

El yaxshilikni unutmas.

Yaxshi bilan yo‘ldosh bo‘lsang, ishing bitar.

Yaxshilik qil daryoga tashla, baliq bilar, baliq bilmasa xoliq bilar.

Ingliz millatining mentalitetiga xos ko‘rsatkichlarni maxsus tadqiq qilgan J.Gorer ushbu millat vakillari o‘z hissiyotlarini qattiq nazorat qila olishini va ular sermulozamatli bo‘lishni, boshqalarga iltifot

ko‘rsatishni yoqtirishlarini qayd etgan [3.8]. Ingliz madaniyatida hissiyotlarni ochiq izhor qilish taqiqlanishi baholovchi birliklari mazmunida voqelanadi. Binobarin, emotsional, effusive, demonstrative, excitable kabi so‘zlar salbiy bahoni ifodalaydi (Stop behaving so emotionally! Her effusive welcome made us feel most uncomfortable – LDELC).

A.Verjbiskaya salbiy baho konnotatsiyasiga ega bo‘lgan emotsional so‘zining ma’nosida nazoratsiz hissiyot jamoada o‘zini tutish me’yoridan chekinish borligini ta’kidlayotib, bunday holat boshqa tillarda qariyb kuzatilmasligini ma’lum qiladi:

…there is a certain unconscious “ideology” written in English word emotional – an “ideology” which assumes that showing feelings over which one had no control is a departure from normal behavior. The word had pejorative overtones, and even when it is used in a “tolerant” tone it implies that there is something there “in the emotional outburst”, which needs to be excused (the list of control over one’s feelings and over their display) [16.19].

Bu qabildagi xatti-harakatlarning sababi turlicha izohlanadi. V.I.Karasikning fikricha, “hissiyotlarni oshkora namoyon qilish bir-biriga yaqinlikda yashaydigan jamoa vakillariga xos”. Madaniyatshunos G. Xofshtede emosiyani erkin namoyish qilish noaniqlikni yoqtirmaydigan madaniyatlar uchun odat tusiga kirgan (strong uncertainty avoiding cultures), hissiyotlardan o‘zini tiyish esa noaniqlikka moyil madaniyatlarda tarqalgan odatdir (weak uncertainty avoidance cultures) [4.125].

Jumladan, his-hayajonni oshkora ifoda qilish odati o‘zbeklarda ham mavjud bo‘lib, bizning millatimizga ko‘proq andisha va kamtarlik tamoyillari ustunlik qiladi:

Andishaning otini qo‘rqoq qo‘yma.
Birov burib gapirar, birov qarab gapirar.
Oldingga osh tortsa, otashining xunidan kech.
Sen birovdan kulma, senga ham kuluvchilar bor.
Kamtarlik ko‘kka ko‘tarar, manmanlik yerga kiritar.
Kamtar bo‘lding – gavhar bo‘lding.
Boshing osmonda etsa ham, yerga qarab yur.

Muhabbat turli madaniyatlarda turlicha izhor qilinadi. G‘arbda bu harakat oshkora bajarilsa, sharqda muhabbat, ko‘pincha, ramziy ma’noda anglashiniladi. Buni, ayniqsa, ishq-muhabbat mavzusidagi she’riy asarlar matnida yaqqol kuzatish mumkin:

Har xazon bargi erur zoreki dahr ozoridan
Sarg‘ayib menda tushar ayru sihiqad yoridin.
Har qurug‘an shox Majnundurki tufrog‘ uyiga
Topshirur har dam iliq yub nozanin bemoridin.
Bog‘aro, demang, xazonkim oshiq o‘lmish sen kibi,
Bilgurur sovug‘ nafas birla sarig‘ ruhsoridin.
Har oqar suni xazon tiyg‘i qilibdir zarafshon,
Keskali mehru vafo naxlin jahon gulzoridin.

Hazrat Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘or” devonida xazon paytidagi bog‘ning tasviri oshiqning ahvoliga tenglashtirilmoqda. Ma’lumki, kuzgi xazo fasli g‘amginlik, ayriliqdan xabar beradi. Oshiqlik – oson emas, unda quvonch va hijron hissiyotlari yonma-yon turadi. Sarg‘aygan bargning uzilib tushishi o‘z yoridan ajralgan chog‘idagi dahr azobini eslatadi. Adabiyonshunos K.Mullaxo‘jayeva sharhlayotganidek, Majnun – ishqning, oshiqlikning timsoli, shu bois qurigan shoxning uryon turishi Majnunga o‘xshatilmoqda [23.222].

Muhabbatning nafaqat baxt, quvonch hissiyotlari bilan bog‘lanmasdan, balki azob-uqubat, dard, alam tushunchalari vositasida baholanishini paremiyalar misolida ham ko‘ramiz. Qiyoslang:

Great love, great without suffering (Op.cit). Bevafo yordan vafodor it yaxshi. Bevafo yordan osilgan dor yaxshi. Suluv bo‘lgan bilan yor bo‘la olmas, tuya bo‘lgan bilan nor bo‘la olmas. Sevgining bahori bilan shodlanma, yozi-qishi ham bordir [21].

Oshiqlik azobi shu qadar ta’sirliki, hatto bunga duchor kishilar o‘z joniga qasd qilishdan ham qaytmaydi va dardga davo topish muammodir. Masalan:

Gulga boq, tikanni ko‘r, yorga boq-jafoni ko‘r;
Bevafoning asli ko‘ngli begona, bevafoga ko‘ngil qo‘ygan devona;
Hamma dardga bor davo-oshiqlik dardi bedavo;
To‘y o‘pkasiz bo‘lmas, yor-firoqsiz;
Po‘lat olovda, sevgi hijronda toplanur [21].

Atrofdagilarning nifoqi, g‘ofilliklari natijasida suyuklilarning o‘z joniga qasd qilishga etib boriish mumtoz adabiyotda ko‘p bora tasvirlangan. Laylining o‘limidan xabar topgan Majnun uning jasadi yonida jon berishga ahd qiladi:

.... Jononiga ul fido qilib jon,
Bu jon beribon nechukki jonon.
Ul azm etti chu topdi yo‘ldosh,
Bu olmadi yo‘lidan aning bosh.
El kirdi uy ichra beshumora,
Majnun sori qildilar nazira.
Jismi yotib erdi erga maqrun,
Layli ila bormish erdi Majnun.
Hayrat qilib ul qabilani lol,
Kim topti vuqu’ bo‘lmogon hom
Aylab bori elni ishq poki,
Ishq ichra bu o‘lmagi haloki.

Romeo o‘z sevgilisining o‘limidan keyin Julьetta yotgan sog‘ona oldida zahar ichadi:

Fogive me, cousin! Ah, dear Juliet,
Why art thou yet so fair? Shall I believe
That unsubstantial Death is amorous,
And that the lean abhorred monster keeps
Thee here in dark to be his paramour?
For fear of that I still will stay with thee,
And never from this palace of dim night
Depart again …
Here’s to my love! (Drinks) O true apothecary!
Thy drugs are quick. Thus with a kiss I die [22].

Etimologik lug‘atlarda ingliz tilidagi love so‘zi qadimda “bog‘lanish”, “yig‘ish, intilish” ma’nolariga ega bo‘lganligi hamda keyinchalik ilohiy olamdagi “sehr” “olov”, “suv”, “suyuqlik” kabi tushunchalar bilan bog‘langanligi haqida izohlar beriladi [9]. O‘zbek tilidagi ishq so‘zi, ayrim ma’lumotlarga ko‘ra arabcha ashaqa, ya’ni “zarpechak” so‘zidan kelib chiqqan ekan [23.222]. Demak, muhabbat–ishqning olovsifat tarqalishi, inson vujudini zarpechakdek o‘rab olishiga beriladigan nisbatlar asosli ko‘rinadi.

Mantiqiy jihatdan umumlashgan “quyma fikrlar” qoliplashuvi zamirida hosil bo‘ladigan paremiyalarda mehr-muhabbat, sevgi haqidagi baho konseptlari voqelanadi [10]. Masalan:

Greater love has hath no man than this,
that a man lay down his life for his friends;
Love is never without jealousy;
Love willcreep where it may not go;
Love lought at locksmiths;
There is not one to be had for live or money [5].
Muhabbatda ko‘z bo‘lmaydi, yurak bo‘ladi.
Muhabbat ko‘zda bo‘lmaydi, yurakda bo‘ladi.
Sevgi pulga sotilmas, ko‘ngil pulga topilmas.
Suyunganimning ko‘ngli uchun suymasimni oshig‘igaman.
Sevgan bilan qo‘shilish-dutorga tor taqqanday,
sevmagan bilan qo‘shilish zaharli ilon chaqqanday (Berdiyorov, Rasulov. 1984).

Muloqotning samarasi olam lisoniy manzarasining axloq, etika va qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini namoyon qiluvchi unsurlarini bilish va ulardan o‘rinli foydalanishni talab qiladi. Baho konseptlari olam lisoniy manzarasining aynan shu qismini tashkillashtiradi. Assotsiativ-obrazli tasavvurlar negizida shakllanadigan baho konseptlarining mohiyati ularning nutqiy faoliyat jarayonida turlicha lisoniy konseptuallashuvida namoyon bo‘ladi. Bundan olamning paremiologik manzarasi ham istisno emas. Jumladan, maqollar mazmunida saxiylik ko‘pincha saxiylik yoki baxillikka qarama-qarshi qo‘yib baholanadi:

Saxiyning xayriga baxilning boshi og‘rir.
Saxiy topsa o‘rtada, baxil topsa xaltada.
Xasisdan don tilaguncha, gadoydan non tila.
Baxil bo‘lma, saxiy bo‘l, o‘smog‘inga to‘g‘ri yo‘l.

Baxil ehsondan qochar, xasis mehmondan qochar.

Ushbu turdagi konseptual qarama-qarshiliklar baho konseptlarining lingvomadaniyatlardagi konnotativ belgilarini aniqlashga asos tug‘diradi. Olamning paremiologik manzarasida bunday kannotasiyalar, albatta ma’lum guruhdagi leksik derivatlar ma’nosida o‘rinlashadi. Assotsiativ-semantik maydon elementlari bo‘lgan bu turdagi leksik birliklar paremiya tarkibida “ma’no ochqichi” vazifasini bajaradi. Masalan, “saxiylik” konseptual maydonida ingliz tilidagi goodness, kindness, hospitality, spending kabi birliklar etakchi o‘rinni egallab, saxiylikni maqollarda ijobiy va salbiy baholash vositasi rolini bajaradi. Qizig‘i, Ingliz va Amerika madaniyatlarida xasislik (miserliness), ko‘pincha, tejamlilik, foyda qilish, mablag‘ jamg‘arish tushunchalari bilan bog‘liq holda assotsiasiya qilinadi. Qiyoslang:

A penny saved is a penny earned;

Many makes the pot, though the devil pisses on fire.

They say the best things in life are free, but I what money.

Money doesn’t talk, it swears.

Assosiativ obrazlarni faollashtiruvchi baho kategoriyasining o‘zbek lisoniy madaniyatida saxiylik va uning teskari bo‘lgan baxillik puldan ko‘ra ko‘proq imkoniyatlar darajasida o‘lchanadi:

Bor bo‘lsa-kabob, yo‘q bo‘lsa javob.

Sig‘inganingdan suyunganing kuchli bo‘lsin.

Taom topilganida egan yaxshi, kafan topilganida o‘lgan yaxshi.

Yuz qopni bog‘lab bo‘lar, yuz og‘izni bog‘lab bo‘lmas.

Ignaning chizig‘i bor, ipning uzug‘i.

Paramiyalarning baho kategoriyasini ifodalashdagi o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ularning mazmuni tanlangan timsolning madaniy ma’nosi bilan belgilanibgina qolmasdan, balki so‘zlovchining maqsadi va qo‘llanish vaziyati bilan ham bog‘liq. Alohida bir maqol turli vaziyatlarda qo‘llanishi hamda shu muloqot kontekstlarida turlicha mazmunga daxldor bo‘lishi kuzatiladi. Variantlilik va ma’no ko‘chimlari maqollar zahirasining asosiy ko‘rsatkichlaridandir.

Professor S.G.Ter-Minasova turg‘un tuzilmalar variantlashuvining ikkita turini farqlaydi: 1) tuzilma yangi ma’noda faollashadi; 2) davr o‘tishi bilan siyqallashgan yoki yo‘qolgan ma’no qaytadan faollashadi [14.71–72].

Ayrim misollarni keltiramiz:

A friend need is a friend indeed/A friend in need is a friend to be avoided; Virtue is the own reward / Vice is its own reward./Asli dushman do‘st bo‘lmas, qaynab qoni quyilmas/Asli dushman el bo‘lmas, etakni kessang, eng bo‘lmas. Do‘st yig‘latar, dushman kuldirar/Do‘st kuldirib aytar, dushman-suydirib.

Keltirilgan variantlarning ikkinchisida maqolning bir qismi o‘zgartirilishi yo‘li bilan yangi baho hukmi qo‘shimcha qilinayotgani kuzatilmoqda.

Navbatdagi guruhda paremiyaning dastlabki varianti saqlanib, unga baho konseptini izohlovchi yana bir tuzilma qo‘shilayotganini kuzatamiz:

Honesty is a fine jewel/Honesty is a fine jewel, but much out fashion. History repeats itself, History repeats itself, the first time as fragedy, the second time – as farce; Man’s home is his castre/Man’s home is his castre, let him clean it. Never marry for money/Never marry for money, you will borrow it cheaper/ Never marry for money, but marry where money is. The more the merrier/The more the merrier, the fewer the better fare. Ko‘p qarining ichida, bir bola dono bo‘lur/ko‘p bolaning ichida bir qari bola bo‘lur. Urush-yo‘qlik, tinchlik-to‘qlik/Urush ofat, tinchlik farog‘at. Yomon do‘st-ko‘lanka/Yomon do‘st-qora bulut soyasi.

Nihoyat, maqollar tarkibidagi lug‘aviy birliklarning so‘z o‘yini usulida almashtirilishi yoki paronimlardan foydalanish hamda ikkita maqolni biriktirish orqali hosil bo‘ladigan variantlar mavjud. Bunday struktur transformasiyalar bahoning komik yoki kinoyali mazmun olishiga sabab tug‘diradi. Qiyoslang:

A man is as old as he feels, and woman as old as she looks/A man is only as old as a women he feels; Marry in haste, but repent a leisure/Marry in haste, but repent in the suburbs; There is no place like home / There is no police like Holmes. A women’s place is in the home/A woman’s place is in House…. and senate; Time heals all wounds/Time wounds all heels. Arpa ekib, bug‘doy kutma/Arpa ekkan arpa olar, bug‘doy ekkan-bug‘doy. Emayman degan kelin, engdan haspni er/Emayman degan kelin, rapida bilan rapichani er. Tubsiz quduq bo‘lmas, tuzsiz oshni it ichmas/Tubsiz quduq bo‘lmas, tuzsiz xamir tandirda turmas. Borida pora-pora, yo‘g‘ida-siqa-siqa/Borida-chilik-chilik, yo‘g‘ida qo‘riqchilik/Borida-Hotam, yo‘g‘id – motam-Borida – kuldiring, yo‘g‘ida qarab o‘tiring.

Paremiyalarda ma’lum millat, madaniyat doirasida qiymatga ega bo‘lgan hodisalar borasidagi fikr-mulohaza, xulosalar konseptuallashuvini aytgan edik. Ammo qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlarga fan va texnologiyaning rivoji ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ham yoddan chiqarmaslik kerak. Jumladan, kompyuter texnologiyalarining keskin taraqqiyoti, internetning insonlar turmushi, faoliyatidan muhim o‘rin egallashi ingliz tili paremeologik zahirasida mehnat, ish faoliyati mavzusidagi maqollar tizimida yangicha mazmundagi baho konseptlarining faollashuviga turtki berdi. Masalan, Don’t pull all your eggs into one basket maqomining Don’t pull all your hypes in one home page - “Hamma giperizohlarni bir sahifaga joylashtirma” ko‘rinishining olishi natijasida eng muhim ma’lumotni saqlash chalkashliklardan saqlashi haqidagi baho mazmuni yuzaga keladi. Aslida, Art is long, life is short ko‘rinishida bo‘lgan maqolning Pentium wise, pen and paper foolish variantining olishida “Peptium” shaxsiy kompyuteri a’lo darajadagi san’at asariga qiyoslamoqda, qog‘lz-qalam o‘tkinchi dunyo asorati. Bu erda yuzaga keladigan baho-yangilari turganda, eski vositalardan foydalanish noma’qul

Xuddi shunday holatlar boshqa yangi paremiyalar qo‘llanishida ham kuzatiladi:

Too many cooks spoil the broth/Too many clicks spoil the browse:

A cat has nine lives/A chat has mine lives;

Don’t bite more than you can chew/Don’t byte off more than you can view;

You cannot teach an old dog new tricks/You can’t teach a new mouse old clicks;

In God we trust/In Gates we trust.

Oxirgi paremiyada Bill Geytsning xudo darajasiga ko‘tarilishi sababi, birinchidan, uning korporasiyasi yaratayotgan dasturlarga yuqori baho berilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, uning timsolida “amerikaliklar orzu”sining amalga oshirilishini ko‘rishdir.

Shunday qilib, tahlillar ingliz va o‘zbek madaniyatlarida olamning faollashuvi turlicha kechishidan guvohlik beradi. Ingliz paremiyalarida shu madaniyat uchun tipik realiyalar o‘zbek tilidagiga nisbatan kamroq uchraydi. Umuman olganda, maqollar mavzuiy guruhlarida muqobilliklar ko‘proq kuzatiladi, lisoniy madaniyatga xos farqlarga kelsak, ular xalqlar dunyoqarashiga nomuqobilliklardan ko‘ra, qadriyatlar qiymatini belgilash mezonlaridagi nomutanosibliklar bilan bog‘liq. O‘zbek maqollarida milliy-madaniy kolorit yaqqolroq ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. 1989.
2. Berdiyorov X., Pasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. T., “O‘qituvchi”, 1984, 288 bet.
3. Gorer J. Exploring English Character. N.Y., Criterion Books, 1955.
4. Hofstede G.N. Cultures and Organizations: Software of the mind. L., McCow- Hill Book, 1991.
5. Karomatova K., Karomatov X.S. Proverbs. Maqollar. Poslovisi. T., “Mehnat”, 2000, 398 bet.
6. Красных В.В. «Свой» среди «Чужих»: миф или реальность? М., “Гнозис”, 2003, с. 375.
7. Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. М., “Наука”, 1990, с. 108.
8. Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации. М., Гнозис.
9. Маковский М.М. Историко-этимологический словарь современного английского языка. М., Диалог, 2000. - 645 s.
10. Mardiev T. Ingliz va o‘zbek tillarida inson tuyg‘ulari ifodalanishining konseptual tahlili. Filol.fan.falsafa doktori (PhD) diss.avtoref., Samarqand, 2019, 49 bet.
11. Mirzayev T. So‘zdan so‘zning farqi bor. O‘zbek xalq maqollari. T., “Sharq”, 2005, 512 bet.
12. Рождественский Ю.В. Принципы современной риторики. М., Изд-во МГУ, 1999.
13. Shomahmudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. T., O‘zbek sovet ensiklopediyasi, 1990, 528 bet.
14. Тер-Минасова С.Г. Словосочетание в научно-лингвистических и лингводидактических аспектах. М., 2004.
15. Volter. Kandida yoki optimizm. T., “Paradigma”, 2014, 112 bet.
16. Wierzbicka A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals Cambridge: CUP, 1999.
17. Wilson A. Dictionary of popular English Proverbs. 1., 1990.

Manbalar:

18. АРСС 1999. Англо-русский синонимический словарь. М., “Русский язык”, 1999.
19. Fergusson R. Dictionary of proverbs. L., Penguin Books, 2000. – 370 p.
20. Odob–oltindan qimmat (O‘zbek xalq maqollari). T., “O‘zbekiston”, 1990, 112 bet.
21. O‘zbek xalq maqollari. T., “Sharq”, 2005, 512 bet.
22. Shakespeare. Romeo and Juliet. M., Higher School Publishing House, 1972.

23.To‘xliyev B. Navoiy g‘azallari (nasriy bayon, sharh va izohlar). T., “Bayoz”, 2014, 257 bet.

Xalikova Mohigul Xalimjanovna (BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi)

RAQAM VA SONLARDA QANDAY MAZMUN YASHIRIN?

Annotatsiya. *Maqolada raqamlarning insoniyatning ma’lum bir holati – kasbi, yashash tarzi, taqdiri, kelajagi yoki boshqalarga ta’sirini o‘rganadigan numerologiya fani haqida mulohaza yuritilgan bo‘lib, raqamlarning magik, falsafiy, tasaffuviy ma’nolari xususida so‘z boradi.*

Аннотация. *В статье рассматривается наука нумерология, изучающая влияние чисел на определенное состояние человечества – род занятий, образ жизни, судьбу, будущее и др., и рассказывается о магическом, философском, мистическом значениях чисел.*

Annotation. *The article discusses the science of numerology, which studies the influence of numbers on a certain state of humanity – occupation, lifestyle, fate, future, etc., and talks about the magical, philosophical, mystical meanings of numbers.*

Kalit so‘zlar: *numerologiya, soha leksikasi, semantik xususiyatlar, konnotativ ma’no, raqam, son, ezoterik fan, so‘fizm, salbiy va ijobiy ma’no, she’riyat.*

Ключевые слова: *нумерология, отраслевая лексика, семантические признаки, коннотативное значение, число, эзотерическая наука, суфизм, отрицательное и положительное значение, поэзия.*

Key words: *numerology, branch vocabulary, semantic features, connotative meaning, number, esoteric science, sufism, negative and positive meaning, poetry.*

Bugun globallashuv jarayonlarida ustuvor vazifa o‘zbek tilshunosligida til madaniyati, leksikografiya, terminologiya, soha lingvistikasi bilan bog‘liq yangi ilmiy izlanishlar olib borishni va ularning amaliy tatbiqiga erishishni talab qilmoqda.

Jahon tilshunosligida inson lisoniy zaxirasining katta qismini tashkil etuvchi, muayyan sohalarga oid tushunchalarni ifodalab, ushbu soha mutaxassislarining muloqoti uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi terminologik birliklarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj XX asr o‘rtalarida kuchaydi. Bugungi kun uchun muhim bo‘lgan, ijtimoiy muhit taqozo etayotgan tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bu sohalar leksikasi, ya’ni terminologiyasini tadqiq qilishdir.[1]

XXI asr boshlaridagi global o‘zgarishlar boshqa fanlarda bo‘lgani kabi, dunyo tilshunosligida ham istiqbolli ilmiy qarashlar, g‘oyalar va yondashuvlarga ega bo‘lgan yangi integratsion fanlarning (fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni shakllanishiga va taraqqiy etishiga sababchi bo‘ldi. Bugungi kunda davr bilan bog‘liq o‘zbek tilshunosligida ham fanlararo, sohalararo integratsiyalashuv jarayoni kechmoqda. Lingvistika va madaniyatni bog‘lab turuvchi lingvomadaniyatshunoslik, lingvistika va ma’naviyatni bog‘lab turuvchi lingvoma’naviyatshunoslik, lingvistika va ekologiyani bog‘lab turuvchi lingvoekologiya, lingvistika va shaxsni bog‘lab turuvchi lingvopersonalogiya, tillarning tarqalish hududlari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi areal tilshunoslik, etnik madaniyat muammolarini o‘rganuvchi etnolingvistika, nutqni shakllantirish jarayonlarini, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirishni til tizimi bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganadigan psixologik tilshunoslik, lingvistik vositalardan foydalanishning huquqiy jihatlari bilan shug‘ullanadigan huquqiy tilshunoslik yoki sud tilshunosligi, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi va boshqa shunga o‘xshash qo‘shma fan va sohalar shakllanmoqda hamda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.[2]

Darhaqiqat, numerologiya ham sohalar kesishuvi, integratsiyasi natijasida shakllangan fanlardan biri sanaladi. Numerologiya – bu raqamlardan foydalanadigan ezoterik fan bo‘lib, raqamlarning insoniyatning ma’lum bir holati – kasbi, yashash tarzi, taqdiri, kelajagi yoki boshqalarga ta’sirini o‘rganadigan fan bo‘lib, raqamlar falsafasi qonuni asosida ish ko‘radi.

Ezoterizm (yunoncha ėsserekkus –“ichki”) – tasavvufiy ta’limotlardan bexabar odamlar uchun tushunarsiz bilimlar, ma’lumotlar to‘plami tushunchasini anglatadi.[3] Yashirin mazmun va ifodaga ega bo‘lgan voqelikni idrok etishning maxsus usullari sanaladi.[4] Asrlar osha ezoterizm yashirin ta’limotni amaliy

[1] Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси. Филол. фанлари ...фалсафа доктори (PhD)... диссертацияси, Т., 2020, 152 бет.

[2] Абузалова М.К. Соҳавий-тавсиявий тилшунослик йўналишлари хусусида. “LINGUISTICS OF THE XXI CENTURY: analysis and interpretation”. December, 2022, № 1, Vol. 1, p. 21 – 26.

[3] https://ru.wikipedia.org/wiki/

[4] https://ru.wikipedia.org/

talqin qilishning turli shakllarini olgan, jumladan, magiya (sehr-jodu), alximiya (bir substantsiyaning boshqa substantsiyaga aylanishi haqidagi “ilmiy” va falsafiy ta’limot bo‘lib, moddalar va ularning o‘zgarishi sehr va astrologiya bilan qanday bog‘liqligini o‘rganadi.

Alkimyo bilan shug‘ullanadigan odamlarni alkimyogarlar deb atashgan), astrologiya (ilmi nujum, ya’ni, inson taqdirini osmon yoritgichlari holati va vaziyatiga qarab belgilaydigan ta’limot), kabbala (iudaizmning o‘rta asrlardagi mistik ta’limoti, u hamma narsaning asosini ibroniy (yahudiy) alifbosidagi raqamlar va harflardan izlashni targ‘ib qilgan), sufizm (insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillikka yo‘llovchi ta’limot), yoga (hindlar diniy-falsafiy ta’limoti bo‘lib, ruhiyat va organizmning fiziologik jarayonlarini insonning o‘zi nazorat qilish tizimi, jismoniy mashqlar tizimi) va boshqalar.

Numerologiyaning to‘liq ta’rifini berish juda qiyin. Adabiyotlarda “raqamlarda ramziy shaklda ma’lum bir shaxs, hodisaning xususiyatlari qayd etilgan bo‘ladi”,[1] “numerologiya – bu haqiqiy hodisalar yashiringan raqamli belgilar tili. Bu tasvirlar mavhum bo‘lsa-da, murakkab dunyoning tuzilishini aks ettiradi. Ramzlar voqelikning muhim hodisalari bir-biri bilan qanday munosabatda bo‘lishini, narsalarning chuqur tabiati qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatishga qodir”,[2] deya ta’riflanadi mazkur soha.

Raqam va sonlar o‘zining ichki miqdor, sanoq ma’nosidan tashqari sehrli-e’tiqodiy ko‘plab ma’nolariga egaki, bu olimlarning qiziqishini uyg‘otmasdan qolmagan. Ilmiy tafakkur shakllanishining turli bosqichlarida tadqiqotchilar, jumladan, faylasuflar–Pifagor, Platon, A.Avgustin, A.F.Losev, O.Yespersen, M.Xaydegger; madaniyatshunoslar bo‘lmish – Y.M.Lotman, O.Shpengler va boshqalar turli mifopoetik tizimlarda sonning ma’nosi va funksiyasining ramziyligi muammosiga e’tibor qaratishgan. Qator tilshunoslar–M.A.Biryukova, Y.V.Bopp, L.R.Gizatullina, V.V.Dubrovskaya, S.A.Jabotinskaya, N.L.Jukovskaya, A.B.Karasev, M.M.Makovskiy, M.A.Pshibiyeva, V.N.Toporov tomonidan sonning barqaror iboralar tizimida pragmakognitiv funksiyalari, maqollar tarkibidagi xususiyatlari, ularning diskursdagi o‘rni masalalari, kognitiv hamda mifologik tomonlari tadqiq etilgan.[3]

Sanab o‘tilgan jihatlar hali tilshunoslikda yetarli darajada o‘zining tadqiqini topmagan desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Mazkur hodisalarning bir necha tillar doirasida qiyosiy aspektdagi o‘rganilish jihatlari ham o‘zining yechimini kutmoqda.

Raqamlar dunyoning sodda va ilmiy manzarasini yaratish uchun asosiy elementlardir, chunki ular inson tafakkuri konseptual tizimining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, atrofimizdagi dunyoni tushunishning asosiy vositalaridan biridir.[4]

Matematiklar va fiziklar, kimyogarlar va biologlar, shifokorlar va kosmonavtlar o‘zlarining moddiy jihatlarida raqamlar va sonlardan ko‘p foydalanadilar. Numerologiya esa raqam va sonlarni ma’naviy-madaniy, ruhiy-psixologik jihatdan ochib beradigan fan sifatida e’tirof etiladi. “Numerologiya yoki har bir xalqning tilida alohida o‘rin tutadigan hisob-kitob madaniyat va bilim sirlari bilan to‘la alohida soha-

---

[1] Горбацевич В.В. Нумерология теоретическая и практическая. М., “Мир Урании”, 2005, 160 с.

[2] Се Синьюнь. Национально-культурные особенности нумерологии в русском языке (на фоне китайского языка). Магистрская диссертация, Санкт-Петербург, 2016, 81 с.

[3] Бирюкова М.А. Семантика количественности и средства ее представления в русском и английском языках (на материале произведений И.Бродского). Автореф. дис...канд. филол. наук, Брянск, 2006, 21 с; Бопп Ю.В. Сопоставительный анализ английских числительных в составе паремиологических словосочетаний и их русских аналогов в дискурсе. Автореферат дис... на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Сургут, 2009, с. 28; Гизатуллина Л.Р. Нумерологические фразеологические единицы в английском и татарском языках. Автореф. дис... канд. филол. наук, Уфа, 2004, с. 24; Дубровская В.В. Домен количества в лексико-семантическом пространстве английского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук, Нижний Новгород, 2015, с. 32; Жаботинская С.А. Когнитивные и номинативные аспекты класса числительных (на материале современного английского языка). Автореферат дис... д-ра филолог. наук, 10.02.19, М., 1992, с. 42; Жуковская Н.Л. Категории и символика традиций и культуры монголов. М., «Наука», 1988, с. 198; Карасев А.Б. Когнитивная обусловленность значений числительных в английских и испанских идиомах. Автореф. дис... канд. филол. наук, М., 2005, с. 22; Маковский М.М. Язык – миф – культура. Символы жизни и жизнь символов. «Вопр. языкознания», 1997, №1, с. 73–95; Пшибиева М.А. Прагматический аспект нумерологических фразеологических единиц (на материале русского, кабардино-черкесского, английского и французского языков). Успехи современной науки. № 9. Том 4, Белгород, 2016, с. 11–14; Топоров В.Н. Миф. Ритуал. Символ. Образ. Исследования в области мифоэпического. Избранное. М., «Прогресс – Культура», 1995, с. 624.

[4] Пшибиева М.А. Прагматико-дискурсивные аспекты нумерологических фразеологических единиц (на материале русского, кабардино-черкесского, английского и французского языков). Автореф. дис... канд. филол. наук, Махачкала, 2018.

dir. Bu kodlangan semantik yuk bilan to‘ldirilgan folklor, madaniyat va tilning murakkab toifasidir”, deya ta’kidlaydi R.Dosimbekova.[1]

Numerologiya fani asosida turgan son ilm-fanda ham, kundalik hayotda ham turli vazifalarda ishlatiladi. Sonlar yordamida biz hisob natijalarini qayd qilishda (yigirma nafar, qirq yil), ko‘plikning unsurlari o‘rtasidagi tartibni belgilashda (birinchi so‘zga chiquvchi, millionchi yashovchi odam), biron-bir narsaning o‘lchovi natijalarini ifodalashda (bir yarim kilometrli yo‘l), bundan tashqari, son belgilari so‘zlar, harflar o‘rnida qo‘llanilishi mumkin.[2]

Har bir xalqning o‘ziga xos numerologiyasi bor, u ma’lum bir madaniyatda paydo bo‘lgan va rivojlanadi. Madaniyatlarning mavjudligiga ko‘ra, numerologiyani, shartli ravishda, ikkita katta tizimga bo‘lish mumkin – G‘arbiy va Sharqiy. G‘arb ilmiy sohasida numerologiyaning kelib chiqishi masalasi munozarali bo‘lib qolgan. Ko‘pchilik olimlar S.Pifagorni numerologiya asoschisi deb hisoblashadi va uning izdoshlari bu fanni rivojlantirganligini qayd etishadi. Sharqiy numerologiya tizimi uchun esa umumiy manba mavjud emas. Ammo tasavvufiy qarashlarda numerologiya bilan bog‘liq e’tiqodlarni kuzatish mumkin. Aytish mumkinki, qadimgi grek faylasufi Pifagor Samossiy zamonaviy Yevropa numerologiyasining asoschisi hisoblanadi. U dunyo uyg‘unligini tavsiflovchi qonunlarni kashf etishga (yana qayta yaratishga) muvaffaq bo‘ldi, buning uchun u, aslida, biz hali ham foydalanayotgan matematik qonuniyatni kashf qildi. Pifagorning raqamlar orqali dunyoning uyg‘unligini bilish istagi uni zamonaviy numerologiyaning asoslarini yaratishga olib keldi. “Ular (pifagorchilar) hamma narsaning asosini sonda ko‘rdilar va olamning son qonunlarini mustaqil metafizik substansiyaga aylantirdilar. Pifagorchilar uchun raqam haqiqatning yagona haqiqiy yo‘li – matematik tahlil usuli bo‘ldi”.[3]

Turli tillarda raqamlar nafaqat miqdoriy ma’noga, balki o‘z xalqlari madaniyatida raqamli ma’noni ifoda eta oladigan ajoyib funksiyalarga ham ega. Bu vazifalar insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Manbalarda, raqamlar – bu 0 dan 9 gacha bo‘lgan shartli belgilar bo‘lib, ular ishtirokida hosil bo‘ladigan sanoq va hisob o‘lchovlarining ifodasi – sonlar ekanligi qayd etilgan. Turli madaniyatga mansub xalqlar raqamlarga o‘ziga xos munosabatlarga egadir. Raqamlar nafaqat sanoq atributiga, balki madaniyatning bir qismi sifatida o‘ziga xos belgi ma’nolidir. Keng ma’noga ega raqamlar sifatida 1, 2,3, 4, 7, 9, 13, 40, 63, 99, 100 va boshqalarni, shu bilan birga, sanoq mazmunidagi ayrim so‘zlarni – juft, toq, yagona, yakka va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Raqamlar va sonlar inson ruhiyatiga ham juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Aytish mumkinki, miqdorni ifodalashning universal g‘oyasi va son nominatsiyasining o‘zi turli tizimli til madaniyatlarida o‘ziga xos konnotativ (qo‘shimcha ma’nosi – ekspressiv, uslubiy va boshqa munosabat kabilarni ifodalovchi xususiyatlari) ma’nolariga ega bo‘ladi.

Raqamlar ham milliy-mental xususiyatli bo‘lib, madaniyatlararo muloqotda ulardan foydalanishning o‘ziga xos ajralib turadigan jihatlari mavjud. Dunyoning turli mintaqalarida ma’lum bir xalqning madaniy an’analarini o‘z ichiga olgan va o‘ziga xos ijtimoiy hamda psixologiyani aks ettiruvchi raqamlardan foydalanishning o‘ziga xos milliy usullari mavjud (o‘zbeklar uchun ta’ziyador oilaga toq non olib borilishi, osiyoliklarda to‘rt raqami, yevropaliklarda o‘n uch raqamining “omadsiz” raqam deb hisoblashlari va boshqalar). An’anaga ko‘ra, ruslar talqiniga ko‘ra, juft raqamlar yovuz ruhlarni anglatadi, toq raqamlar (o‘n uch sonidan tashqari) omadli deb hisoblanadi, shunga ko‘ra, rus lisoniy olamida «чертова дюжина»; «черта с два» kabi frazeologik birliklar mavjud va an’anaga ko‘ra, qandaydir bayram tadbiriga olib kelingan gullar soni toq bo‘lishi kerak. Raqamlar ichida ruslar, inglizlar va boshqalar uchun eng omadsizi “13” raqami hisoblanadi. Hatto ayrim davlatlarda ko‘p qavatli uylar solinarkan, uning 13-qavati bo‘lmaydi, mehmonxonalarning mazkur raqamli xonalari boshqalariga qaraganda arzon narxlarda bo‘larkan. Salbiy konnotativ mazmunli raqamlar ichida “666” raqami qayd etiladi. Bu raqam shayton bilan bog‘langan bo‘lib, qadimdan u shaytonning sevgan raqami deb hisoblanib keladi va “666” raqami insoniyat ongida chuqur magik mazmun bilan yashiringandir (misol uchun, “666” raqamini mashinasiga taqqan bo‘lsa, o‘sha zahoti avtohalokatga uchrashi mumkin). Ko‘rinib turganidek, har bir xalqda qo‘llaydigan raqam ostida turli konnotativ ma’nolar tizimi mavjuddir.

---

[1]Досымбекова Р.О. Национальные особенности нумерологической культуры на казахском и китайском языках. Автореферат на соискание степени доктора философии (PhD), Алматы, 2016.

[2] Мавлянова У. Хитой тилидаги сон сўз туркумини ўрганиш даражасининг илмий-назарий асосларига оид. Т., «Sharq mash’ali», 2018, 108; 67 – 72-бетлар.

[3] Волошинов А.В., Рязанова Н.В. Пифагорейское учение о числе: генезис числа как объекта культуры. Вестник Саратовского государственного технического университета, 2011, № 1, с. 336 – 342.

Badiiy asarni o‘qir ekanmiz, ko‘pgina shoir va yozuvchilar o‘z ijodlarida hayotiy kuzatuvlari orqali raqamlarning yashirin sirini yaxshi his etgan holda hodisa tafsilotida xohlagan raqamni qo‘llamaganligini kuzatish mumkin, hatto asar nomlarida raqam qo‘yishda ham hushyorroq turishadi (Ch.Aytmetov. “Qiyomat” romanidagi “Oltovlon va yettinchi” hikoyasi va bo‘lib, “41-yil olmalari”, “Yettincha o‘q” filmlari...).

Sharq lirikasida esa raqamlar aksariyat holatlarda aniq bir miqdor ma’nosini emas, balki ramziy-ilohiy, falsafiy, dunyoviy mazmun kasb etgan. Mumtoz adabiyotimizdan joy olgan raqamlar tilga kirsa, o‘quvchining ko‘z o‘ngida yangi bir ma’no, talqin, ifoda, sir-sinoatlar ochiladi. “1” raqami musulmon olamida o‘zgacha ekstralingvistik ma’no kashf etadi. Masalan, Ahmad Yassaviy hikmatlarining *“Biru borum, diydoringni ko‘rarmanmu?* misralarida qo‘llangan bir Ollohning birligiga ishoradir. Alisher Navoiy g‘azaliyotida ikki raqami boqiy (abadiy) va foniy (zohiriy, o‘tkinchi) semalarini tashiganligining guvohi bo‘lish mumkin. Islom ta’limotiga ko‘ra, bir qancha farishtalar bo‘lib, ularga ma’lum vazifalar yuklatilgan. Jumladan, ikki farishta Munkar va Nakirga inson foniy dunyoni rixlat qilgach, so‘roq berish vazifasi yuklatilgan. Diniy-tasaffuviy adabiyot namunalarida ikki raqami bilan bog‘liq misralar talaygina:

Yetishsa so‘rganli ikki farishta,

Na qilg‘ay bandayi hasrat sarishta (So‘fi Olloyor).

Bu sirani yana davom ettirish, ammo mazkur masala galdagi maqola obyekti bo‘lishi mumkin. Bugun ham insoniyat telefon yoki mashinalariga raqam tanlar ekanlar, uning alohida ajralib turishini istashadi. Buning javobi raqamlar, sonlarning inson ruhiyatiga ta’siri bilan bog‘liq, deb o‘ylaymiz.

Hozirda ko‘pchilik insonlar aynan ular yoqtiradigan yoki, aksincha, yoqtirmaydigan son-raqamlar – ularning taqdiriga allaqanday ta’sir ko‘rsatishini ich-ichidan sezishadi... Biri omad, boshqasi baxtsizlik keltiradi, uchinchisi ko‘z tegishiga sabab bo‘lishi mumkin, to‘rtinchi biri yo‘l ko‘rsatadi, deb taxmin qilinadi.[1]

Xulosa qilib aytish mumkinki, til tizimidagi sonlarga xos ma’no tizimi turli tillar doirasida qisman o‘rganilgan. Ammo o‘zbek-turk hamda rus-ingliz madaniyatlararo aspektda sonlarning semantik xususiyatlari, konnotativ-ekspressiv jihatlari monografik tarzda tahlilga tortilmagan. Kelgusida qardosh bo‘lmagan diskursdagi sonlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish, sonlarning tillar kesimida lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish kabi masalalar oldimizda turgan dolzarb masalalardan bo‘lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sossyur F.de. Заметки по общей лингвистике. M., “Progress”, 1990, c. 91 – 92.

2. Kulikova I.S., Salmina D.V. Введение в металингвистику (системный, лексикографический и коммуникативно-прагматический аспекты лингвистической терминологии). SPb, “Saga”, 2002.

3. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. M., 1987.

4. Aliyeva M. O‘zbek milliy gazlama dizaynerligi terminlarining semantik-grammatik tadqiqi. Filol. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD)... diss., Farg‘ona, 2018, 13-bet.

5. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1985, 93-bet.

Goipova Saidaxon Madaminjon qizi (Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi; e-mail:saida.goipova@mail.ru)

INGLIZ TILIDA “SOUL-KO‘NGIL” KONSEPTIGA EGA BO‘LGAN SO‘ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqola “soul-ko‘ngil”semasiga ega so‘zlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ingliz tilidagi mana shunday leksemalarning axborot roli yoritilgan. O‘rganilayotgan til materiali asosida “soul” semantikasini mazmun-mohiyatini, matnda qo‘llanish xususiyatlarini va ularni o‘rni, ahamiyatini aniqlashdan iborat. “Soul-ko‘ngil” konsepti va ularni tashkil etuvchi birliklarning struktur, semantik (ma’no) va funksional xususiyatlari tadqiq etiladi.*

Аннотация. *Статья посвящена анализу семантических особенностей слов со значением “soul”, в котором подчеркивается информационная роль англоязычных лексем. На основе материала изучаемого языка определяется содержание и сущность семантики единицы “soul”, особенности ее применения в тексте и ее роль и значение. Изучается понятие “soul” и структурные, семантические (смысловые) и функциональные свойства составляющих их единиц.*

[1] http://m.zamin.uz/hayot-tarzi/26655-numerologiya-dost-va-tumor-sonlar-rostdan-ham-omad-keltiradimi.html

Annotation. *The article is dedicated to the analysis of semantic features of words with the meaning of "soul", which emphasizes the informational role of the English-language mashundai lexemes. Based on the material of the studied language, it consists in determining the content and essence of the semantics of "soul", the features of their application in the text and their role and meaning. The concept of "soul" and the structural (structural), semantic (semantic) and functional (functional) properties of their constituent units are studied.*

Kalit so'zlar: *mikrosistemalar, sintagmatik, paradigmatik, arxisema, diktum, modus.*

Ключевые слова: *микросистема, синтагматика, парадигматика, архисема, диктум, модус.*

Key words: *microsystem, syntagmatics, paradigmatics, archiseme, dictum, modus.*

Atrof-muhitdagi real dunyoni bilish jarayonida insonda o'sha atrofdagi narsa va hodisalarni tanish (tushunish) va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqida tasavvur (konsept) hosil bo'ladi. Insonning dunyoni bilishi jarayonida konseptlarning shakllanishi inson sezgi organlarining, uning asab tizimi va miyasi hamkorligidagi faoliyati natijasida hosil bo'ladigan tuyg'u asosida inson ongida bizni o'rab turgan borliqning sub'ektiv obrazi tarzida ro'y beradi.

Hozirgi tilshunoslikning predmeti, maqsadi, izlanish metodlari va ularning yo'nalishlarini anglatuvchi asosiy koordinatlari kesishadigan markaz – inson. Bunda har qanday lisoniy xarakterdagi tadqiqot "inson omili" tamoyili asosida amalga oshiriladi. Dunyoni bilishni inson o'zidan boshlaydi, boshqacha aytganda, tadqiqot antroponimik yo'nalishda amalga oshadi.

Konsept inson va uni o'rab turgan tashqi olam haqidagi bilimlari o'rtasida kognitiv aloqani aks ettirib beradi. Konseptni kognitiv kategoriya sifatida o'rganish ko'p aspektlardan iborat va u tilshunoslar uchun bir til materialida ham, bir necha tillar materialida ham o'rganish obyekti sifatida qiziqish uyg'otadi. Demak, inson faoliyatining turli sohalariga aloqador bo'lgan aynan bir narsa konseptning turli xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

"Konsept" atamasi o'tgan asrning 90-yillari boshlaridan D.S.Lixachev va Y.S.Stepanovlarning ilmiy asarlari tufayli til adabiyotida keng tarqalgan. D.S.Lixachev S.A.Askoldovning innovatsion maqolasi haqida ijobiy gapiradi, ammo konseptning mohiyatini belgilab, undan farqli o'laroq, u konsept so'z uchun mavjud emasligini, lekin har bir lug'at, so'zning alohida ma'nosi borligini va alohida ko'rib chiqishni taklif qiladi. Olimning fikriga ko'ra, inson bir paytning o'zida, so'zning to'liq ma'nosini ifoda etish imkoniga ega emas, ba'zan ijtimoiy xususiyatlar va sharoitlarga qarab, uni o'zicha tushunadi va talqin etadi [1.280–287].

Soul–ko'ngil konsepti deganda invariant *soul* arxisemasi atrofida birlashgan, ushbu maydonda o'z o'rniga ega bo'lgan, turlicha morfologik va sintaktik tuzilish va qolipga ega, invariant ma'noga turli darajada yaqin yoki distant (bosh ma'nodan uzoqlashgan) ma'noviy aloqada bo'lgan, bir va undan ortiq ma'noli yoki polifunksional, o'zaro paradigmatik, sintagmatik aloqada bo'lgan, vazifalariga ko'ra faol va nofaol, ifodaliligi jihatidan turlicha bo'yoqdorlikka ega til birliklari sistemasini tushunamiz.

Soul–ko'ngil umumiy ma'nosi asosida bir tushunchaga jamlangan, alohida paradigmatik qatorlarni tashkil etuvchi til birliklarining lisoniy mazmun xususiyatlarini ochib berish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tili izohli lug'atlari bilan ishlash jarayonida o'tkazilgan tahlillar *soul* leksemasini polisemantik xususiyatga ega ekanligi va ular alohida olinganda ham, so'z birikmalari va frazeologik birikmalar tarkibida kelganda ham turli ma'nolarni kasb etishlari mumkinligini ko'rsatdi. Shuni inobatga olgan holda, lug'atlarda ro'yxatga olingan *soul* va u bilan bog'liq morfologik va sintaktik tuzilishga ega birliklarni ma'noviy nuqtayi nazardan tahlil etishni lozim deb topdik.

Ingliz tilidagi *soul* leksemasiga lug'atlarda berilgan ta'riflarga e'tibor beramiz. Vebsterning "Ingliz tilining uchinchi yangi xalqaro lug'ati" (Webster's third new international dictionary of the English Language". Könemann, 1993, p. 2176)da ot so'z turkumiga kiruvchi *soul* so'zi o'rta asrlar ingliz tilida *soule*, qadimgi ingliz tilidan *sawol, sawl*, qadimgi yuqori nemis tilida *sela, seula, soul*, qadimgi skandinav tilida *sala,* got tilida *saiwala* so'zlariga qarindosh ekanligi, uning asl va yetakchi ma'nosi "the immaterial essence or substance". *moddiy bo'lmagan mohiyat, modda yoki hissiyot*.

Berilgan ta'riflarga qo'shimcha tarzda yana bir lug'at ma'lumotlarini qo'shish mumkin. A.S. Xorinbining 2000-yil chop etilgan "Oxford advanced learner's dictionary of current English" lug'atida berilishicha yana shunday ma'nolarini kuzatishimiz mumkin [8. p. 1233].

♦Spirit of person: *For example: He believed his immortal soul was in peril; The howling wind sounded like the wailing of lost souls;*

♦Inner character: *For example: There was a feeling of restlessness deep in her soul;*

♦Sipiritual/moral/artistic/qualities*: For example: The dark side of the human soul;*

♦Good human feeling*: For example: It was a very polished performance, but it lacked soul;*

♦*Faqat inkorlikni ifodalovchi birlik: There wasn't a soul in sight=(nobody was in sight).*

Soul-ko'ngil konseptini mazmuniy mavzu guruhlarini, ular o'rtasidagi ma'noviy munosabatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, biz, avvalo, *soul-ko'ngil* arxisemasiga asoslangan maydon miqyosini quyidagi mazmun to'dalariga ajratamiz:

1) oq ko'ngil: *chimera, conceit, daydream, delusion, fancy, fantasy (also phantasy), figment, hallucination, illusion, nonentity, phantasm (also fantasm), pipe dream, unreality, vision;*

2) qora ko'ngil: *dire, evil, malevolent, mischievous, ominous, perverse, threatening, adverse, apocalyptic, bad, baleful, baneful, corrupt, deleterious, disastrous, dishonest, disquieting, doomful, foreboding, harmful, hurtful, ill-boding, inauspicious, injurious, lowering, malefic, malign, malignant, obnoxious, pernicious, poisonous, portentous, unfavorable, unfortunate, unlucky, unpropitious;*

3) pok niyyatli ko'ngil: *affection, altruism, benevolence, cordiality, courtesy, decency, forbearrance, gentleness, good will, goodness, grace, graciousness, hospitality, humanity, patience, solicitude, sweetness, sympathy, tenderness, tolerance, understanding, unselfishness, amiability, beneficence, charity, clemency, consideration, delicacy, heart, helpfulness, indulgence, kindliness, magnanimity, mild-ness, philanthropy, serviceability, solicitousness, tact, thoughtfulness, fellow feeling;*

4) g'arazguy ko'ngil: *adamant, determined, dogged, headstrong, inflexible, intractable, ornery, persistent, perverse, relentless, rigid, single-minded, steadfast, tenacious, tough, unshakable, willful, balky, bloody-minded, bullheaded, cantankerous, contumacious, cussed, firm, fixed, hang-tough, hardheaded, inexorable, insubordinate, mulish, obdurate, opinionated, persevering, pertinacious, pigheaded, rebellious, recalcitrant, refractory, self-willed, set in one's ways, stiff-necked, unbending, unmanageable;*

5) ko'ngli yarim: *apathetic, cool, impressive, indifferent, irresolute, lackluster, listless, lukewarm, neutral, passive, perfunctory, spiritless, tame, tepid, unenthusiastic, uninterested;*

6) ko'ngli to'q: *gloomy, glommed, glimmed, claw mark, gleamed, call mark, lame duck.*

Konseptlar sodda va murakkab tuzilishga ega bo'lishlari mumkin. Sodda konseptlar ko'proq semantik ma'noga ega bo'lib, xalqning turmush tarziga unchalik bog'liq emas. Ular barcha tillarda o'zlarining leksik ma'nosiga ega va ularni leksik universaliyalar toifasiga kiritish mumkin. Murakkab xarakterdagi konseptlar esa o'sha tilda so'zlashuvchi xalqning uzoq yillar davom etgan jarayon – xalqning turmush tarzi asosida shakllangan tushuncha, masalan, idiomatik xarakterdagi frazeologik birikma bazasida hosil bo'lgan tushuncha sifatida tasavvur qilinishi mumkin.

Soul so'zi *scot* yoki *shot* so'zlari bilan birlashib, *marhumning mulkidan ruhoniylarga to'lanadigan o'likxona to'lovi yoki ehson* kabi ma'noda keladi; *For example; Other dues equally difficult to identify with exactness were the light-shot and the soul-shot.*

Ko'ngil konseptining quyidagi xususiyatlarini ham ta'kidlash lozimdek ko'rinadi:

Soul semasiga ega bo'lgan leksemalar *searching* fe'l bilan ko'chma ma'noda qo'llanilib, uning birinchi ma'nosi; *Yaqin insoniga chin ko'ngildan berilgan maslaxa"*– ikkinchi ma'nosi; *"o'zga insonni qalbini tekshirish yoki jo'shqinligini tekshirib ko'rish"* kabi metaforik modellar hosil qiladi. *For example; I did a lot of soul-searching, trying to find out what had gone wrong in my life.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лихачев Д.С. Логический анализ языка. Культурные концепты. М., 1991, с. 280 – 287.
2. Safarov Sh. Semantika. T., 2013, 340-bet.
3. Sh.Iskandarova. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni). Filol. fanlari dok. avtoreferati, T., 1999.
4. A.Sobirov. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. T., "Ma'naviyat", 2004.
5. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner*s dictionary. sixth edition. Edited by Sally Wehmeier. Oxford university press, 2000, p. 83.
6. Webster's third international dictionary of the English language. Könemann. 1993, p. 103.
7. Askoldov S.A. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология, М., 1997, с. 267 – 279.
8. Кацнелсон С.Д. Категории языка и мышления: из научного наследия. М., Яз. славянской культуры, 2001, с. 864.
9. Sh.Shokirov. Turli tizimli tillarda «ko'z» leksik-semantik maydoni va uni tashkil etuvchi til birliklari tipologiyasi. F.f.f.dok. aftoreferati, T., 2020.

10. John Galsworthy. Apple Tree and other stories [text]. M., 1961.
11. William Somerset Maugham. Cakes and Ale or the Skeleton in the Cupboard [text]. M., “Menedjer”, 2000.

Kilichev Bayramali Ergashovich (BuxDU professori; e-mail: b.e.kilichev@buxdu.uz)

BUXORO ETNOOYKONIMLARI

Annotatsiya. *mazkur maqolada Buxoro viloyati hududidagi etnooykonimlar tahlil etilgan. Ularning semantik-etimologik hamda areal xususiyatlari o‘rganilgan. Etnooykonimlarga asos bo‘lgan etnonimlar, ularning asoslari va yuzaga kelish sabablariga doir qarashlar bayon etilgan. Asosiy e’tibor Buxoro viloyat etnooykonimlarining asosini tashkil etgan turkiy etnonimlarga qaratilgan.*

Аннотация. *В данной статье анализируются этноойконимы на территории Бухарской области. Изучены их семантико-этимологические и ареальные особенности. Описаны этнонимы лежащие в основе этноойконимов, взгляды на их корни и причины их возникновения. Основное внимание уделяется тюркским этнонимам, составляющим основу этноойконимов Бухарской области.*

Annotation*. this article analyzes ethnooikonyms on the territory of the Bukhara region. Their semantic-etymological and areal features are studied. The ethnonyms underlying ethnooikonyms, views on their foundations and the reasons for their occurrence are described. The main attention is paid to the Turkic ethnonyms, which form the basis of the ethnooikonyms of the Bukhara region.*

Kalit so‘zlar: *nom, atoqli ot, joy nomi, geografik obyekt, etnonim, etnotoponim, etnooykonim, etimologiya, urug‘, qavm, qabila, qishloq, aholi punkti.*

Ключевые слова: *имя, имя собственное, топоним, географический объект, этноним, этнотопоним, этноойконим, этимология, племя, село, деревня, населенный пункт.*

Key words: *name, proper noun, toponym, geographical object, ethnonym, ethnotoponym, ethnooykonym, etymology, tribe, village, locality.*

Geografik obyektlarning aholi yashovchi joylar, maskanlarning atoqli oti oykonimlar deb yuritiladi [3.58]. O‘z navbatida, oykonimlar bir nechta guruhlarga ajratilib, ulardan katta bir qismi etnotoponimlar hisoblanadi. Etnotoponim yasalish negizini etnonim (xalq, millat, qabila, urug‘, qavm nomi)lar tashkil qilgan joy nomlaridir.

Etnonim yunoncha etnos–“xalq” va “onim”–“nom” so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, ularning majmuyi etnonimiya deb yuritiladi hamda etnonimlarni o‘rganadigan fan etnonimika deyiladi [16.75]. Etnosni ifodalaydigan lug‘aviy birliklar har qanday tilning eng qadimgi qatlamlariga oid bo‘ladi. Ularning asosiy qismi joy nomlari, xususan, toponim, gidronim, nekronim, godonim nomi sifatida, shuningdek, toponimning tarkibiy elementi bo‘lib, hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan.

Har qanday etnonimning o‘z ma’nosi bor. Ba’zi bir etnonimlar juda qadimiy so‘zlar bo‘lganidan ma’nosini tushunish qiyin. Odatda, xalqlar, millatlar, shuningdek, qabilara, yirik urug‘larning nomlari qadimiy bo‘ladi. Masalan, o‘zbek, qirg‘iz, qozoq kabi millat nomlari, qo‘ng‘irot, mitan, qangli, qipchoq, uyshun, qorluq, xalaj kabi urug‘-qabila nomlari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan, lekin bu etnonimlarning etimologiyalari ilmiy asosda uzil-kesil hal qilingan emas. O‘zbek–“o‘ziga bek”, qirg‘iz – “qirq qiz”, qozoq – “qochoq”, mitan–“mo‘ytan” (serjun), qangli–“qangli” (aravali), qorluq–“qorluq” (qorda qolgan) ... degan ma’noni bildiradi, deyish g‘ayriilmiy, asossiz izohdir [16.85].

Urug‘, qabila va xalq nomlari asosida paydo bo‘lgan joy nomlari – etnotoponim o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni tadqiq etish, semantik-etimologik jihatdan tahlil qilish xalqimiz tarixini chuqur o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchi N.Adizova etnonimlarning joy nomiga aylanishi ikki ko‘rinishga egaligini qayd etgan: birinchidan, etnonim to‘g‘ridan to‘g‘ri joy nomi ma’nosini ifodalaydi, ikkinchidan esa ayrim nomlar etnik element (etnonim)ning boshqa so‘zlar bilan qo‘shilishidan hosil bo‘lgan [1.80].

Quyi Zarafshon vohasi, xususan, Buxoro viloyati hududida kishilarning qadimgi manzilgohlari – shaharlar, qo‘rg‘onlar, qal’alar mavjud bo‘lib, ularda turli xalq, qabila, elat va qavmlar yashab kelgan. Buxoro hududidagi ko‘plab joy nomlari turkiy qabilalarning nomlari bilan atalishiga guvoh bo‘lish mumkin. Biz quyida viloyatda uchraydigan ayrim turkiy etnonimlrni semantik-etimologik tadqiq qilamiz.

Olot. Ushbu etnooykonim viloyatning Buxoro, Kogon, Olot tumanlarida *Olot, Orlot, Arlot, Olotxona* shakllarida uchraydi. Olot – arlot etnonimining fonetik o‘zgarishga uchragan shakli. Olot o‘zbek xalqi tarkibida uchraydigan urug‘lardan biri bo‘lib, aslida, turkiy va mo‘g‘ul xalqlari uchun umumiy bo‘l-

gan qabila nomidir. Chingizxon o‘g‘li Chig‘atoyga taqdim etgan to‘rtta qabiladan biri – arlot. Bu qabila Afg‘onistonning shimoliy qismiga o‘rnashib qolgan. Movarounnahrda arlotlar kam bo‘lsa ham, nufuzli qabilalardan hisoblangan [7.176–177].

Arlotlar o‘zbek qavmlarining eng ko‘p tarqalganlaridan biridir. Mazkur qavm Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm, va Qashqadaryo viloyatlarida, shuningdek, Afg‘onistonning shimolida keng tarqalgan. Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zining “Shajarayi turk” kitobida orlot urug‘ini “mo‘g‘ul avlodlari” deb atalgan qismida tilga oladi va arlot so‘zining asl ma’nosi “onasining sevgan o‘g‘li” demakdir, deydi.

Arlot qabilasi 92 bovli o‘zbek “qavmlari” qatorida “Jome at-tavorix”, “Ravzat us-safo”, “Shayboniynoma”da, “Abdullanoma”, “Shajarayi turk” yodnomalarida, Alisher Navoiy asarlarida tilga olingan [16.164]. Arlot etnonimi X.Doniyorov ishida *olot* tarzida qayd etilgan [5.100].

Buxoro viloyatining Olot tumani nomi, Peshku tumanidagi Alot aholi punkti nomi arlot bilan aloqador. Olot tumanida Eski Olot, Yuqori Olot toponimlari ham bor.

Bahrin. Viloyatning Vobkent, Romitan tumanlarida uchraydigan joy nomi. Ushbu urug‘ning qoraqalpoq, bahrin, uyali bahrin, nayman bahrin, bag‘anag‘li bahrin kabi tarmoqlari bo‘lgan. Bahrin – turklashgan mo‘g‘ul qabilalardan biri. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida bahrinlar Dashti Qipchoqqa kelib o‘rnashgan. XVIII–XIX asrlardan bahrinlarning katta katta qismi Toshkent vohasi, Farg‘ona vodiysida o‘troqlashib qolgan. Bahrin qabilasi mo‘g‘ullarning avlodidir [4.49].

Bahrin – qush nomi, lochinning bir turi, o‘tmishda uni qo‘lga o‘rgatib, ov qushi sifatida foydalanilgan [12.669]. Demak, bahrin totem bo‘lib, qabilaning muqaddas jonzodi hisoblangan hamda unga sig‘inishgan. Totem shu qabila nomiga aylangan. Aholining etnik mansubligiga, asosan, qishloq Bahrin deb nomlangan.

Kalon. Buxoro tumani hududidagi aholi punkti Kalon deb yuritiladi. Xalq orasida kalon – katta, ulkan (forscha) ma’noga egaligi, bu aholining ko‘pchiligini ulkan gavdali kishilar tashkil qilganligi sababli nomlangan, degan qarashlar ham bor. Aslida, ushbu toponimga etnonim asos bo‘lgan. Chunki turkiy qavmlardan bo‘lgan qo‘ng‘irotlarning qo‘shtamg‘ali va oyinni bo‘limlariga qarashli urug‘ nomlari *kal* deb yuritilgan. Buxorodagi fors-tojik tilida so‘zlashuvchilar nutqida *kallar* (kal urug‘iga mansub kishilar) – kalon (-on – ko‘plik shakli) deb atalgan. Bundan *kal* urug‘iga mansub kishilar yashaydigan qishloq – Kalon (Kallar) paydo bo‘lgan.

Mang‘it. Viloyatning Buxoro, Jondor va G‘ijduvon tumanlaridagi aholi punkti Mang‘it deb nomlanadi. Mang‘it etnooykonimi, aslida, etnonimning toponimizatsiyasi asosida yuzaga kelgan. Mang‘it o‘zbek xalqi tarkibidagi eng qadimiy, yirik qabila bo‘lib, uning *oqmang‘it, qoramang‘it, cholmang‘it, boyg‘undamang‘it, to‘qmang‘it, o‘nikki, chalamang‘it* kabi bo‘linmalari, *temirxo‘ja, esaboy, esat, guvalak, ko‘sa, toz, qorabayir, baqirchi, chovqay, kulatamg‘ali, mang‘itqozoq, galabotir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay* kabi urug‘ tarmoqlari bo‘lganligi haqida ma’lumotlar mavjud [11.160–162]. Mang‘it – turkiy, mo‘g‘ul, tungus-manjur tillariga, ya’ni, ularning o‘tmishdagi oltoy bobotiliga tegishli so‘z. Mo‘g‘ulcha shakli – “myangad”, ya’ni minglar demakdir [2.63–65].

O‘zbekiston toponimiyasida *Mang‘it* (Buvayda, Dang‘ara, Xo‘jaobod), *Mang‘itguzar* (G‘uzor tumani), *Mang‘itto‘p* (Qamashi tumani), *Mang‘itobod* (Urgut tumani), *Mang‘ittepa* (Ishtixon tumani), *Oqmang‘it* (Pastdarg‘om, Urgut tumanlari). *Mang‘itsolma, Mang‘ityop* (Gurlan, Hazorasp) kabi etnooykonimlar uchraydi. Qolaversa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, shuningdek, Moldaviya, Boshqirdistonda *Mang‘it* toponimi mavjud [6.92].

Urganji. Ushbu nom viloyat toponimiyasida *Urganjiy, Urganjiylar, Urganjlik, Urganjiyon, Urganjixona* shaklida uchraydi. Urganji toponimi etnooykonim hisoblanadi. Chunki ushbu nom urganchlik kishilar guruhi (qavmi, qabilasi)ni, Urganchdan ko‘chib kelgan kishilarni, keyinchalik, ularning yashash manzilini atashga xizmat qilgan. Shu asosda *urganji* etnonimidan etnooykonim shakllangan. S.Qorayev *“urganjilar Xorazm poytaxti Urganchni Chingizxon yer bilan yakson qilib tashlagandan keyin Buxoro tomonga kelib o‘rnashib qolgan hunarmandlarning avlodlari. Boshqa bir ma’lumotlarga ko‘ra, XVII asr oxirlarida Urganchdan ketib, Buxoro va boshqa yerlarga o‘rnashgan o‘zbeklar”*[16.225], degan ma’lumotni qayd etgan. Shundan kelib chiqilsa, Urganjixona – “urganji qavmi joylashgan maskan, qishloq” degan ma’no yuzaga chiqadi.

Yobuxona. Ushbu etnooykonim haqidagi batafsil ma’lumot N.Adizova [1.77–78]ning lug‘atida qayd etilgan. Toponim ikki qismdan iborat: yobu+xona. Yobu (jobu) – o‘zbek urug‘i. Yobu qozoqlar tarkibida ham bo‘lgan, tarqoq holda Zarafshonning o‘rta va quyi oqimi (Payariq, Pastdarg‘om, Kattaqo‘rg‘on, Narpay, G‘ijduvon)da, Qarshi cho‘lida yashagan. Chorvachilik hamda dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Yobu avlodlari o‘zbek xalqi tarkibiga singib ketgan. Bu qishloqda yobu urug‘iga mansub ki-

shilar istiqomat qilgani uchun shunday nomlangan. Yobu turkiy etnonim bo‘lib, o‘zbek qabilalaridan birining nomi. Manbalarda *yobu, yovu, yovi, jobili, jobu* shakllarida uchraydi. Shoir Ubaydiy qalamiga mansub quyidagi tuyuq yobularning Sug‘ddagi mavqeyi haqidadir:

Sug‘d ichida o‘lturarlar yobular,
Yobularning mingan oti yobilar.
Yobularning ilkidin el tinmadi,
Yobular tursin bu elda, yo bular.

Turklarning oliy hukmdorlik unvonlaridan biri *yobg‘u* (yabg‘u) deb atalgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida ham “yabg‘u” atamasi uchraydi. Qadimiy turklarda bu unvon qabila boshlig‘i yoki qabilalar ittifoqi boshlig‘iga berilgan. Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlaridan bo‘lgan qarluq xonlari ham *yobg‘u* deb atalgan. Yobular o‘zbeklar orasida kichik guruhni (1926-yil ma’lumotlariga ko‘ra, 4 mingga yaqin kishi) tashkil etgan.

Qarg‘a. Mazkur toponimning Qarg‘ali shakli ham mavjud. Ushbu nom viloyatning Kogon va Qorako‘l tumanida uchraydi. Qarg‘a – turkiy etnonim. G‘arbiy Sibirda turkiy xalqlarning qarg‘a urug‘i bor. Qirg‘izlarda qarg‘a qadimiy urug‘lardan biridir. Shu nomdagi ypyg‘ boshqirdlarda ham qayd etilgan. O‘zbeklarda ko‘p uchraydigan urug‘lardan biri ham qarg‘a hisoblanadi. U turli qabila va urug‘lar tarkibida uchraydi. Xorazm qo‘ng‘irotlari janubiy O‘zbekiston qo‘ng‘irotlari qavjirali bo‘limining qarago‘rsoq urug‘ining bir tarmog‘i – qarg‘a ekanligi, Surxon vohasi turkman juzlari jilon tamg‘ali bo‘limining qarg‘a degan urug‘i borligi, Farg‘ona vodiysida ham bu urug‘ borligi haqida ma’lumotlar bor.

Qarg‘a, aslida, totem, muqaddas hisoblangan jondor (qush). Uning mo‘g‘ulcha shakli xeree(n) kerey, ya’ni qarg‘a [8.593]. Qarg‘a totemi urug‘ nomiga aylangan. Totem ifodalovchi so‘z (qarg‘a), etnonimga o‘tish davrida -li affiksi qo‘shilgan. Qishloq nomiga turkman juzlarning urug‘i nomi asos bo‘lgan bo‘lsa kerak [11.241].

Chandir/Chandirobod. Buxoro, Jondor, Romitan, Qorako‘l tumanlaridagi aholi punkti nomi. Ma’lumotlarga ko‘ra, *chandir* turkman xalqi tarkibidagi qadimiy urug‘, qabila nomidir. *“Turkman qabilasi. Nurota turkmanlari urug‘i. Abu Hayyon chandir so‘zini “qurama”,“duragay” ma’nosini anglatishini yozgan”* [16.236]. Demak, toponim etnonim asosida paydo bo‘lgan.

Chopiq. Buxoro va Qorako‘l tumanlaridagi etnooykonim. Manbada *Chopiq* toponimining etimologiyasi xususida fikr yuritilib, *pomiqlik turkman urug‘laridan biri – chopiq. O‘zbek xalqi tarkibida urug‘lardan biri – chopiq/chopuq/chopig‘/chopug‘. “Boburnoma”da bu so‘z ham kishi ismi, ham urug‘ nomi sifatida uchraydi* [11.309], deya ma’lumot berilgan. X.Doniyorov o‘zbek urug‘lari qatorida *cho‘poq* urug‘i mavjudligi haqida ma’lumot bergan [5.101]. Demak, chopiq – turkiy etnonimga asoslangan toponimdir.

Buxoro viloyatidagi etnooykonimlardan yana biri e’tiborga loyiq. Bu toponim *Shixcha, Shixlar, Shexon, Shexoncha* tarzida uchraydi. Nom shayx so‘zi bilan aloqadordek tuyuladi. Shu sababli shayx, shayxcha, shayxlar so‘zlarining fonetik o‘zgargani, deb izohlash ham kuzatilishi mumkin. Aslida, bu nomlarga shix so‘zi, aniqrog‘i, etnonimi asos bo‘lgan. Ushbu qarashni qomusda keltirilgan fikr ham dalillaydi. Shixlar – turkiy qabila. Shixlarning asosiy qismi o‘rta asrlardan hozirgi Turkmanistonning g‘arbiy qismida, O‘zbekistonning Buxoro, Qorako‘l, Navoiy, Muborak tumanlarida yashaganlar. Shixlar urug‘ sifatida o‘zbeklarning qutchi, qarluq qabilalari tarkibida ham uchraydi. Shixlar o‘z nomlarini shayx (diniy unvon, muqaddas joy, madrasa nazoratchisi va h.k.)larga yaqin qo‘yib, kelib chiqishlarini esa Muhammad payg‘ambar bilan bog‘laydilar. Aslida, shixlar o‘rta asrlarda yirik qabilalardan birining nomi bo‘lib, keyinchalik tarmoqlarga bo‘linib ketganlar. 19-asrning 2-yarmida shixlarning asosiy qismi yarim qo‘chmanchi bo‘lib, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. 20-asrning 20–30-yillarida Turkmanistondagi shixlar turkmanlar tarkibiga, O‘zbekistonda yashagan shixlar o‘zbeklar tarkibiga singib ketishgan [13.80].

Shuningdek, mazkur toponim haqida *shix/shex* – turkiy urug‘ ekanligi, turkman va o‘zbek xalqlarining *shix/shex* urug‘i borligi haqida ma’lumotlar mavjud. Professor X.Doniyorov o‘zining monografiyasida D.N.Logofetning 1911-yilda yozilgan “Buxoro xonligi rus vassalligida” asari haqida so‘z yuritib, unda ko‘rsatilgan 91-raqam ostida “shix” – o‘zbek urug‘i borligini qayd etgan [5.62]. Demak, viloyatdagi *Shixcha, Shixlar, Shexon, Shexoncha* kabilar etnooykonim bo‘lib, ular shix urug‘i bilan aloqador manzil, kichik qishloq tarzida sharhlanishi mumkin.

Yuzon. Buxoro tumani hududidagi aholi punkti nomi. Toponim ikki qismdan iborat: yuz+on. Ma’nosi: yuzlar. juz – yirik o‘zbek qabilalaridan biri. 20-asrning boshlarida yuzlar O‘zbekiston va Tojikiston hududida yashagan (60 ming). Yuzlarning boshqa o‘zbek qabilalari bilan aralash holda yashab kelgan guruhlari ham mavjud bo‘lib, ular, masalan, *qirqyuz, mo‘g‘ulyuz, naymanyuz, turkmanyuz* va boshqalar et-

nik nomlar bilan atalgan. Yuzlarning etnogenezi qadimiy qipchoq o‘zbeklari bilan bog‘liq. Yuzlar, asosan, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida yashaganlar. Yuzlar 3 ta yirik tarmoqqa bo‘linadi: marka bolasi, qorapchi, rajab bolasi. 19-asr davomida yuzlarning ko‘pchiligi o‘troqlashib, dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Cho‘l va tog‘ oldida (Jizzax va O‘ratepa oralig‘ida) yashovchi yuzlarning bir qismi yarim o‘troq holda istiqomat qilishgan. Yuzlarning xo‘jaligida dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik ham salmoqli o‘rin tutgan. 20-asrning 20–30-yillarida yuzlar o‘zbek xalqi tarkibiga qo‘shilib ketganlar. Demak, Yuzon – yuzlar – “yuz qabilasi vakillari yashaydigan joy” ma’nosiga ega.

Ayrim joy nomlari xalq orasidagi turlicha talqin qilinishiga ham duch kelamiz. Shunday nomlar sirasiga Vobkent tumanidagi Qatag‘on toponimini kiritish mumkin. Mazkur toponimni qatag‘on – taqiq, man; bekor qilmoq, yo‘q qilmoq, quvg‘in qilmoq, repressiya ma’nosidagi so‘z bilan bog‘lash holatlari kuzatiladi. Aslida, ushbu toponim ham etnonim asosida shakllangan. Qatag‘on o‘zbek xalqi tarkibidagi qadimiy, yirik qabilalardan biridir. Qozoq va qirg‘izlarda ham qatag‘an qabilasi bor, umumturkiy etnonim. Qatag‘onlar o‘zbek tilining qarluq lahjasida so‘zlashgan. Yashagan joyi (qishlog‘i) va u yerdagi boshqa joylar (ariq, tepa dasht, qir...) qabila nomi bilan atalgan. Qatag‘on qishlog‘i shu tariqa nomlangan [11. 360–361].

Ba’zi toponimlarning fonetik tarkibi talaffuz jihatidan boshqa bir umumiste’mol so‘zga yaqinligi sababli etimologiyasining noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelgan. Jumladan, Romitan tumanidagi Qahramon toponim haqida shunday fikr bildirish umkin. Aslida, ushbu nom Qaraman shakliga ega bo‘lgan.

Tadqiqotchi I.Xolmuratov Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloytidagi Qaraman toponimi haqida fikr yuritib, uning shakllanishi haqida: 1) qahramon so‘zi botir, qahramon va kishi ismi ma’nolarini ifodalagan. Ammo sheva vakillari talaffuzida shu so‘zdagi h undoshi tushib qolgan va qaraman shaklida aytilgan va yozilgan; 2) qaraman va oqman – turkman qabilalarining nomi. Qaramanlar o‘zbek xalqi tarkibiga ham kirgan qabila va urug‘lardan birining nomi; 3) qayrag‘och daraxtining bir turini Xorazmda qaraman (Qora eman) deyishadi, deb qayd etgan [17.111–112].

Mazkur toponimning batafsil etimologiyasi xususida quyidagilarni bayon etish mumkin: *“o‘zbek urug‘laridan biri qaramon. Farg‘ona qipchoqlarida quraman. Boshqa turkiy xalqlarda ham bu etnonim mavjud. Qoraqalpoqlarning qtay qabilasi tarkibida karamanjuli urug‘i bo‘lgan. Turkmanlarda karaman, akman urug‘i bor. O‘zbeklarning ham akman urug‘i borligi ma’lum. Etnonimda “qora” so‘zi uzviy juftlikni tashkil etadi* [10.243–244]. Demak, Qahramon toponimi, aslida, etnooykonim bo‘lib, uning Qaraman deb yozilishi va aytilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, Buxoro viloyati toponimlari ko‘plab ichki ma’no guruhlariga ajralishi, paydo bo‘lish sabablari, motivatsiyasi bilan Quyi Zarafshon vohasi toponimiyasida alohida o‘ringa ega. Viloyat toponimlari sirasida etnonimlar asosida shakllangan joy nomlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Bunda asosiy o‘rinni turkiy qavmlar bilan bog‘liq etnonimlar egallaydi. Ularni o‘rganish, leksik-semantik, etimologik hamda motivatsion xususiyatlarini tahlil etish O‘zbekiston toponimiyasining tadqiqi uchun muhim ahamiyat kasb etib, xalqimizning ko‘p asrlik tarixi bilan aloqador qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адизова Н.Б. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи. Филол. фанл. фалс. доктори диссер. (PhD), Бухоро, 2021, 80-bet.
2. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2005, 63 – 65-betlar.
3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006, 103 бет.
4. Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. Л., 1934, с. 49.
5. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Монография. Иккинчи нашри, Т., “Наврўз”, 2017, 100-бет.
6. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. Т., “Ўқитувчи”, 1977, 174-бет.
7. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории юзных районов Таджикистана и Узбекистана. М., 1976, с. 176 – 177.
8. Монгольско-русский словарь. М., 1957, 716 с.
9. Наимов С. Бухоро вилояти жой номларининг қисқача изоҳли луғати. Бухоро, 1997, 44-бет.
10. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Т., “Ўқитувчи”, 1988, 288-бет.
11. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Т., “Муҳаррир”, 2009, 46-бет.

12. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдлик, 1-жилд, Т., “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2000, 669-бет.
13. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдлик, 10-жилд, Т., “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2005, 80-бет.
14. Қиличев Б.Э. Бухоро этнотопонимлари ва уларнинг этимологик хусусиятлари. “Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotlari”, 2018, 1-son, 64 – 67-betlar.
15. Kilichev Bayramali, Safarova Maftuna The Concept of Totemism and Ethnonym. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE Volume: 03 Issue: 05, May 2022, ISSN: 2660-6828 © 2022, CAJLPC, Central Asian Studies, All Rights Reserved.
16. Qorayev S. Toponimika. Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006, 75-bet.
17. Xolmuratov I. Janubiy Qoraqalpog‘iston oykonimlari va ularning lug‘aviy asoslarining lisoniy tadqiqi. Filol.fanl.fals.dokt…(PhD) dissertatsiyasi, Buxoro, 2020, 111 – 112-betlar.

Muminova Umida Qarshiyevna (Termiz davlat Pedagogka instituti o‘qituvchisi;
e-mail: avazberdiyevismoil@gmail.com)

“MAHBUB UL-QULUB” ASARI LUG‘AT TARKIBINING MAVZU GURUHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so‘zlarning mavzu guruhlarga jamlanishi, tilning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda emas, ko‘proq tashqi belgilari orqali amalga oshirilishi hamda so‘zlarni mavzu guruhlariga ajratishda leksemalarni leksik-semantik guruhlarda bo‘lib o‘rganish usullarining farq qilishi ko‘zda tutilgan.*

Аннотация. *В данной статье предполагается, что слова группируются в тематические группы не по внутренним законам языка, а по внешним признакам, и при разделении слов на тематические группы используются разные методы изучения лексем в лексико-семантических группах.*

Annotation. *In this article, it is assumed that words are grouped into thematic groups, not based on the internal laws of the language, but rather by external signs, and when separating words into thematic groups, the methods of studying lexemes in lexical-semantic groups are different.*

Kalit so‘zlar: *leksema, spesifik munosabat, antroponim, kishilar, inson tana a’zolari, qavm-qa-rindoshlik, yosh tushunchasi.*

Ключевые слова*: лексема, специфическое отношение, антропоним, люди, части тела человека, этническое родство, понятие возраста.*

Key words: *lexeme, specific relationship, anthroponym, people, human body parts, ethnic kinship, age concept.*

Kirish. Yozma manbalar tilini o‘rganish leksikologiyaning nazariy qoidalarini asoslashga yordam beradi, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning boshqa xalqlar bilan o‘zaro aloqa, munosabatlarini belgilash va baholashda muhim vositalardan biri sanaladi. Leksika tilning boshqa sohalariga nisbatan turli ichki va tashqi ta’sirlarni o‘zida mujassam etgani bois, xalqning madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarish va o‘sishni aniqlashga ko‘maklashadi [1.3]. Binobarin, tilning tarixiy rivojlanish jarayoni va lug‘at boyligini o‘rganishning keng tarqalgan usullaridan biri tildagi so‘zlarni mavzu guruhlarni ajratib tahlil qilishdir. Manbalarda istifoda etilgan so‘zlarning qaysi soha tarmoqlariga oidligini aniqlash tilshunoslik uchungina emas, boshqa fanlar uchun ham qimmatli ma’lumot beradi. Shuningdek, yozma yodnomalar tilidagi leksemalarni mavzuiy jihatdan guruhlashtirish asar yaratilgan davr xalqlarining ma’naviyati, huquqiy saviyasi, qo‘shni va qardosh xalqlar bilan olib borgan hamkorlik munosabatlari haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish imkoniyatini beradi [2.16].

So‘zlarni mavzu guruhlarga jamlash tilning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda emas, ko‘proq tashqi belgilari orqali amalga oshiriladi. Bunda so‘zning ma’nosi, qaysi turkumga aloqadorligi yetakchi o‘rin tutadi. Bu jihatdan so‘zlarni mavzu guruhlarga ajratish leksemalarni leksik-semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganish usulidan farq qiladi va u o‘zida tilning spesifik munosabatlarini gavdalantirmaydi [3.56].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turkologiya va o‘zbek tilshunosligida turkiy tillar leksikasini mavzu guruhlarga bo‘lib tahlil qilish borasida E.Fozilov, F.Isxakov, I.Ismoilov, S.Nominxanov, D. Bozorova, B.Bafoyev, E.Begmatov, I.Nosirov, H.Dadaboyev, M.Abdulxayrov, Z.Xolmonova, B.Abdushukurov singari turkolog va tilshunoslar tomonidan turli tadqiqotlar amalga oshirilgan [4]. Mavjud tajribaga tayangan holda, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari leksikasini mavzu guruhlar bo‘yicha o‘rganishga harakat qildik. Kuzatishlarimiz manba tilida quyidagi mavzuiy guruhlar qayd etilganligini ko‘rsatdi.

Tahlil va natijalar. I. Antroponimlar. Yodnomada mazkur guruhga kiruvchi antraponimlar, o‘z navbatida, leksik-semantik xususiyatlariga ko‘ra, quyidagi guruhlarga taqsimlanadi:

1. Diniy antroponimlar:

a) Tangri va uning sifatlarini ifodalovchi so‘zlar: *Allāh, Täŋri, Xudā, Ilāh, Haq*, *Yazdān;*

b) Allohning ismlari: *Xāliq* – «yaratuvchi», *Jabbār* – «isloh etuvchi», *Rahmān* – «rahmli», *Karim* – “karamli”, *Rahim* – “rahimli”;

d) ilohiy kitoblar va boshqa asarlar nomi: *Kalāmullāh, Mushaf, “Masnaviy Ma’naviy”*.

e) payg‘ambarlarning ismlari: *Ādam, Muhammad* (s.a.v.), *Nuh, Isā, Musā, Yaqub, Yusuf;*

2. Tarixiy shaxslar ismi:

a) hukmdor va vazirlar ismi: *Sultān Husayn, Sulaymān, Fir’avn, Namrud, Xārun ar-Rašid, Hāmān, Āsaf;*

b) oddiy xalq vakillari ismi: *Muqbil, Mudbir, Farhād, Majnun, Layli;*

d) ma’naviyat ixlosmandlari, ijod ahli ismi: *Šayx Fariduddin Attār, Šayx Muslihuddin Sa’diy Šerāziy, Mavlānā Jalāliddin Rumiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Kamāl Isfahāniy, Nāsir Buxāriy, Abdurahmān al-Jāmiy*.

3. *Sifat, laqab va taxalluslar: Masih* – Iso payg‘ambarning sifati, *Mahmud* – Muhammad payg‘ambar (a.s.)ning laqabi, *Ruh ul-amin* – Jabroil (a.s.)ning laqabi, *Xalilullāh* – Ibrohim payg‘ambarning sifati, *Šāh Abulğāziy* – Husayn Boyqaroning laqabi.

II. Kishilarga nisbatan qo‘llanuvchi so‘zlar: *ādam, kiši, kim, dost, yār* – «do‘st», *dušman, ortaq, qoldaš* – «hamroh, o‘rtoq», *āšnā*.

III. Inson tana a’zolari nomlari: *bel* – «bel», *ayaq* – «oyoq», *ilik* – «qo‘l», *yüräk, koz, qulaq, avuč, qaš, egin, uča, tiš*.

IV. Qavm-qarindoshlik, yaqinlik ma’nolarini anglatuvchi so‘zlar. Bularni, o‘z navbatida, quyidagi mavzuiy guruhlarga ajratish mumkin:

1) umumiy tarzda «qarindosh» tushunchasini bildiruvchi leksemalar: *qarïndaš* – “qarindosh”, *qavm* – «urug‘, aymoq», *nasl* – «avlod», *uruğ* – «urug‘», *qayaš* – «qarindosh», *avlād* – «nasl», *abnā* - «фарзандлар, авлод»;

2) qarindoshlik tushunchasini indivudual tarzda ifodalovchi so‘zlar: *ata, oğul, ana, egäči* – «opa», *siŋil, xāla*».

V. Yosh tushunchasi bilan aloqador leksemalar: *yaš* – «yosh», *šabāb* – «yoshlik» , *yigit, abušqa* – «keksa, qari», *qarï, uluğ yašlïğ, kičik yašlïğ, yigitlik.*

VI. Jinsiy tafovut tushunchalarini anglatuvchi so‘zlar:

a) insonlar o‘rtasidagi jinsiy farqni ifodalovchi so‘zlar: *xatun, ayal, er, qïz, oğul;*

b) hayvonlar orasidagi jinsiy tafovutni bildiruvchi so‘zlar: *nāqa* – “urg‘ochi tuya”, *nārtuya* – “erkak tuya”; *tavuq* – “tovuq”, *buxti* – “nortuya”.

VII. Kishilarning qo‘li bilan yaratilgan narsa-predmetlar nomlari:

a) asbob-uskunalar: *pïčaq, ignä, ïp, oraq, tayaq, nayza, qïlïč*;

b) kiyim-kechak, gazlama, zebu ziynatlar va ular bilan bog‘liq tushunchalar: *köŋläk* – «ko‘ylak», *börk, tunbān* – «ishton», *ton* – «to‘n, kiyim», *yaqa, kapanak* – «darveshlar kiyimi», *postun*, xirqa – «жанда», *dastār* – “salla”, *čapan, munčağ, böz*;

d) inson faoliyati mahsuli bo‘lgan boshqa xil predmet nomlari: *ipäk, yol, kemä, köprük, tegirmän*;

e) uy-ro‘zg‘or buyumlari: *čöčäk* – “sapol obdasta”*, sāfāl* – “sapol”*, sāğar* – “may qadahi”*, jām* - “qadah, qadah piyolasi; may, sharob qadahi”, *ayağ* – “kosa, piyola”, *minbar, āyina//āyna, parda, qafas, qazan, tabaq, qašuq, piyāla, kiyiz, közgü* – «oyna, *burunjak* – ro‘molcha, *yağlïq* – ro‘mol, *kačkul* – “qavoq idish”;

f) turar-joy va u bilan bog‘liq narsalarni bildiruvchi so‘zlar: *ešik, ev, uy* – «uy», *čādir* – «o‘tov, chodir», *darvāza, ayvān, binā, devār, tanur, kirpič* – «g‘isht».

VIII. Yegulik va ichimliklar: *ötmäk* – «non», *aš* – «ovqat», *suv, may, bāda* – «may», *sut, šarāb, un, ümäč* – taom nomi, *kümäč* – “cho‘g‘da pishirilgan non”, *un, nān.*

IX. Kasb-hunar nomlari: *qaraqčï, yalğančï ayalğučï* – “ashulachi”, *čerikčii, oraqčï, bašaqčï, itmäkči* – “navvoy”, *quščï, bavarčï* – “oshpaz”*, sayyād, šāir, sāqiy, mutrib* – “cholg‘uchi”, *naqqāš.*

X. Etnonimlar: *isrāil, arab, türk, juhud, barlas, sart, fārsiy, qurayš*.

XI. Tibbiyotga oid tushunchalar va nuqsonlarni ifodalaydigan terminlar: *mariz* – «bemor», *maraz* – «bemorlik», *tabib, zahm* – «yara, jarohat», *yara, telbä, guŋ, xasta, bemār, hakim, jarāhat*.

XII. Musiqa asboblari va kuy bilan bog‘liq leksemalar: *ğijjak, ud, nay, čağāna* – “musiqa asbobi”, *qānun* – “musiqa asbobi”, *tanbur, nāla, rubāb, qobuz, čaŋ*.

XIII. Mavhum tushunchalar: *gunāh, hunar, tüš, ābro, ārzu, mehr, qahr, baxt, aql, zavq,* išq, *fikr, anduh, lutf, falākar, vafā, iztirāb, hayā, ğam, ğaraz*.

XIV. Ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni anglatuvchi istilohlar:

1) ma’muriy-hududiy bo‘linishni ifodalovchi terminlar: *davlat, vilāyat, kent, el, mulk, šahar, ulus, millat, kišvar – «davlat, biloyat», xalq, raāyā* – “xalqlar”, *xalāyiq* – “el, xalq”;

2) ma’muriy-siyosiy tartib tushunchasini bildiruvchi leksemalar: *farmān, fatvā, hukm, muhr, yasaq* – «qaror, tartib», *nišān, tartib, amr, majlis, amr, anjuman;*

3) jinoyat va ularga chora ko‘rish bilan bog‘liq istilohlar: *qazi, fitna, oğrï, fāsïq, fasād, jazā, qisās, zindān;*

Xulosa. Asarda hayotning deyarli barcha sohalariga oid narsa-predmet, voqea-hodisa va jarayonlarni ifodalovchi leksemalar uchraydi. Binobarin, so‘zlarni mavzuiy guruhlarga ajratish til lug‘at tarkibini tizimli o‘rganishning qulay usullaridan hisoblanib, qissada qo‘llanilgan leksik birliklarning qaysi sohaga tegishli ekanligini, kelib chiqishini, o‘z qatlamga doir so‘zlarning o‘zlashmalar bilan o‘zaro munosabatini hamda ularning qo‘llanish doirasini aniqlashga, tilning tarixiy va zamonaviy holatini baholashga, qolaversa, xalq tarixini atroflicha yoritishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. Т., “Фан”, 1983, 3-bet.
2. Абдулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик қатламлари. Филол. фан. ном. ...дис. автореф., Т., 1996, 16-bet.
3. Гольдин В.Э. Об одном аспекте изучения тематических групп слов. Язык и обшество. Вып. 2, М., 1970, с. 163.
4. Исхаков Ф. Наблюдения по лексике в области прилагателъных в тюркских языках. Историческое развитие лексики тюркских языков. М., 1961.
5. Fozilov E. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi. T., “Fan”, 1965.
6. Староузбекский язык..Хорезмийские памятники XIV века .Т. I–II, Т., “Фан”, 1966–1971.
7. Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. T., “Fan”, 1966, 150-bet.
8. Номинханов Ц. Исследования по тюркским и монголъским языкам. Avtoref. dis. ...d-ra filol. nauk, Alma-Ata, 1966;
9. Bazarova D. История формирования и развития зоологической терминологии узбекского языка. Т., “Фан”, 1978, с. 223.
10. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. T., “Fan”, 1983, 157-bet.
11. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T., “Fan”, 1985, 200-bet.
12. Насыров И. Лексики «Мажалис ан-нафаис» Алишера Навои. Проблемы лексики староузбекского языка. Т., “Фан”, 1990, с. 87 – 140.

Musayev Abduvali (JDPU dotsenti)

TOHIR MALIK ASARLARIDA DIALEKTAL SO‘ZLARNING LEKSIK-GRAMMATIK QO‘LLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Tohir Malik asarlarida dialektal so‘zlarning leksik-grammmatik qo‘llab-quvvatlanishi haqida so‘z yuritiladi. Qat’iy hududda yoshovchi kishilarqiga xos, adabiy til leksikasiga kirgan so‘zlar dialekt leksikani tashkil etish nutq. Umumxalq tili, adabiyot tildan tashqari, o‘z ichiga bir qancha shevalar, dialektlarga bo‘lindi. Bular ba’zi bir fonetik, leksik va boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri umummilliy tili bilan, o‘z vaqtida, o‘zgarishlardan farqlanishi bilan bog‘liq.*

Аннотация*. В данной статье рассматривается лексико-грамматические особенности диалектных слов в произведениях Тахира Малика. Подчеркивается, что слова, входящие в лексику литературного языка, характерного для народов, проживающих в определенном регионе, составляют диалектную лексику. Помимо языка литературы, национальный язык делится на ряд диалектов. Они связаны с некоторыми фонетическими, лексическими и другими непосредствен-ными различиями с национальным языком, изменениями во времени.*

Annotation*. This article discusses the lexical-grammatical support of dialectal words in the works of Tahir Malik. The words included in the lexicon of the literary language, characteristic of people living in a fixed area, are the formation of a dialect lexicon. The universal language, literature, apart from the*

language, was divided into a number of dialects. These are related to some phonetic, lexical and other direct differences with the national language, changes.

***Kalit so‘zlar**: dialektal so‘zlar, leksik-grammatik so‘zlar, adabiy til leksikasi, shevalar, personaj tili, fonetik, leksik, lug‘aviy birlik.*

***Ключевые слова**: диалектные слова, лексико-грамматические слова, лексика литературного языка, диалекты, язык персонажей, фонетическая, лексическая единица.*

***Keywords**: dialectal words, lexical-grammatical words, literary language lexicon, dialects, character language, phonetic, lexical, vocabulary unit.*

Ma’lumki, milliy til umummilliatga aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Milliy til o‘sha millat a’zolarining barchasiga tushunarli bo‘ladi. Milliy til bunga o‘zining adabiy til shakliga ega bo‘lishi holatida erishadi. Chunki badiiy adabiyot, gazeta va jurnallarimizda yozma asarlar yagona me’yorga solingan tilda yoziladi.

O‘zbek tili dialektlarini ilmiy jihatdan o‘rganishda shu tillarning o‘zi bilangina chegaralanib bo‘lmaydi. O‘rganilayotgan til faktlari qardosh tillardagi o‘xshash faktlar bilan har taraflama chog‘ishtirib o‘rganilishi zarur. Tillarni chog‘ishtirib o‘rganish tilning leksik va grammatik xususiyatlarini yoritish uchun uning taraqqiyot manbalarini aniqlash uchun keng imkoniyat tug‘diradi.[1]

Ma’lum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos bo‘lgan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so‘zlar dialektal leksikani tashkil etadi. Ma’lum dialekt va sheva vakillarigina qo‘llaydigan bunday so‘zlar dialektizm deb ataladi. Umumxalq tili, adabiy tildan tashqari, o‘z ichiga bir qancha shevalar, dialektlarga ham bo‘linadi. Bular ba’zi bir fonetik, leksik va boshqa xususiyatlari bilan umummillat tilidan ham, shuningdek, o‘zaro farq qiladi.

Dialektizmlar hozirgi o‘zbek adabiy tiliga ta’siri sezilmaydi. Ammo badiiy adabiyotda ayrim dialektal so‘zlar uchrab qoladi. Badiiy asarda voqeaga yoki asar qahramonining, personajning belgi, xususiyatiga ishora qilish uchun, ma’lum kolorit berish uchun o‘sha voqelik yuz bergan joy dialekti elementlarini qo‘llash mumkin. Masalan: *ezma-churuk, og‘a-ini, chilla, chilpimoq (chekanna qilmoq) ko‘klamoq, sudlamoq (sud qilmoq) nuchuk, bolish, aya, aga, hamsoya, azza-bazza, hordiq* kabilar.

Adabiy til lug‘atiga birinchi holatda barcha o‘zbeklar uchun umumiy bo‘lgan lug‘aviy birliklar tanlab olinadi. Bu umumiy qatlam ayrim dialektlarning lug‘aviy birliklari hisobiga boyib boradi.

Dialektizmlar umumtil lug‘at boyligining juda oz miqdorini tashkil etadi. Shu oz miqdordagi lug‘aviy birliklardan ham adabiy nutqqa ehtiyotkorlik bilan saylab-tanlab kiritiladi. Dialektizmlarning umumtil boyligiga aylanishi ma’lum shart sharoitlarga bog‘liq. Masalan, shu dialektizm anglatgan tushuncha uchun umumtilda boshqa atama bo‘lmasligi kerak. Agar umumtilda shuning sinonimi bo‘lsa, yangi qabul qilinayotgan so‘z leksik ma’no ottenkasi bilan, stilistik bo‘yog‘i bilan umumtildagi so‘zdan farqlanib turishi kerak.

O‘zbek sheva dialektlarini o‘rganishda keng tarqalgan bu aspektda til sistemasi elementlari (fonetik, leksik-grammatik xususiyatlari) statik holatda tekshiriladi, ya’ni fonetik hodisa va grammatik formalarning qanday paydo bo‘lganligidan qat’iy nazar, tilning hozirgi mavjud sistemasini tashkil qiladigan va tilning hozirgi taraqqiyot bosqichida mavjud bo‘lgan til protsesslari qayd qilinadi.[2]

Biror dialektizmning adabiy nutqqa ko‘chishini boshqa bir hodisadan dialektizmning badiiy asardan ishlatilishidan farqlash kerak. Badiiy asarda ishlatiladigan har bir so‘z yoki ibora adabiy nutqqa qabul qilingan deb qaralavermaydi. Badiiy asar voqelikni aks ettirgani tufayli, unda til (nutq) ham o‘z bor holatida gavdalanadi. Agar dialektizm biror muallif asaridagina uchrab qolmay, barcha ishlatadigan lug‘aviy birlikka aylanib, umumlashib ketsa, bunda adabiy nutqqa kirib boradi. Aks holda, badiiy asarda ishlatilganidan qat’iy nazar, dialektizmligicha qoladi.

–Bu mening otam, – dedi Xongirey. – Sen bilan ichishni xohlayapti. Sen undan *irganma* (T.Malik. 4-kitob, 131-bet). Bu *irkit* tomoshaning nima keragi bor ekan (132-bet). Kutasiga borgan edim, qaytishda *ovulga* kirsam otam yotib qolibdi (131-bet).

Keltirilgan misollardagi dialektal so‘zlar personaj nutqini hayotiy, real tasvirlashga yordam bergan. Keltirilgan so‘zlar *irganma* – jirkanmoq, *irkit* – kir, iflos, *ovul* – qishloq ma’nolarini anglatib kelmoqda. Demak, dialektdagi bu so‘zlar dialektal lug‘aviy birliklari nutqning ta’sirchanligini oshirishga, suhbatdoshlar nutqini individuallashtirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi so‘zlar leksik-grammatik jihatdan qo‘l-

[1] Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент, 1978, 26-бет.
[2] Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент, 1962. 22-бет.

lanib kelayapti. Demak, yozuvchi dialektizmni badiiy asarga kiritadi, bunday so‘zning adabiy nutqning lug‘aviy birligicha aylanish esa til amaliyotining o‘ziga bog‘liq bo‘ladi.

Tilning biror mahalliy ko‘rinishida ishlatiladigan so‘zlarning hammasi shu dialektniki deb qaraladi. Ammo bularning hammasi shu dialektdagi so‘zlar bo‘lsa ham, dialektizm deb shulardan bir qismigina olishadi. Bunda adabiy nutq bilan dialekt uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar hisobdan chiqarib tashlanadi.

Dialektdagi so‘z adabiy nutqdagi so‘zdan, ko‘pincha, fonetik jihatdan farqlanib turadi: ayni bir so‘z adabiy nutqda va turli dialektlarda turlicha talaffuz qilinadi: –Hoy, *adajonisi*, bir minutga to‘xtang, u nas novosti (152-bet). Prosta silaga skuchna bo‘lmasin, deb *kelamiza* (152-bet). Endi *skuchat* qilsangiz o‘ziyz borib ko‘rasiz (152-bet). Birga *yuborsayiz* bo‘lardi, har holda chujoy emasmiz-ku (156-bet). –O‘zi taklif qilmasa, “xotinim billa olib keting”, deb yalinamanmi? (158-bet). –Uydalar. *Do‘xtirlar gipslab* qo‘yishdi (159-bet). Sizning *yo‘rig‘igiz* boshqa. O‘zingiz yaxshi ko‘rib, o‘qib kelyapsiz (161-bet).

Keltirilgan misollardagi so‘zlar fonetik jihatdan farqlanib kelayapti *ada*–dada, *silaga*–sizlarga, *o‘ziyz*–o‘zingiz, *kelamiza*–kelamizda, *yuborsayiz*–yuborsangiz, *billa* – birga, *do‘xtir* – doktor, *yo‘rig‘igiz*– yo‘rig‘ingiz, *kelyapsiz*–kelayapsiz kabilar.

Undan tashqari, grammatik jihatdan ham qo‘llanib kelmoqda: ada-joni-si, silaga-siz-lar-ga, do‘xtirlar kabi so‘zlar.

Yuqoridagi holatlar tilning har xil ko‘rinishlariga xos bo‘lgan so‘zlar, umumtilga xos so‘zlarning turlicha talaffuzidir. Xuddi shuningdek, sinonimiyani ota-ona misolida ko‘ramiz. Masalan, adabiy tilda farzandlar o‘z otasini ota, o‘z onasini ona deb atashadi.

Dialektda *dada, ada, dida, ata, aka deb onasini oyi, aya, buvi, buva, ona, ena* deb ataydilar. –Oy, *papul* keldi, –deb o‘rnida turdi (151-bet).

–Papanglar charchaganlar, – kesakpolvonning xotini shunday deb uyga yaqinlashdi: –Ha adasi, tinchlikmi? (152-bet). *–Adajonisi,* bugun sal neto‘roqmisiz? (155-bet). *Oying* seni garmdorining ustida tuqqanda, a asalim, –Kesakpolvon turib kelib qizini yonog‘idan o‘pdi (152-bet). *–Dadam* otdan yiqilibdilar. Vaqtingiz bemalol bo‘lsa olib ketsam devdim (165-bet). Zohidning-ku *ota-onasi* qishloqda yashaydi (168-bet). Ba’zan hazillashib, “yuvoshligim *dadamdan,* jahlim chiqqanida *ayamga* o‘xshab qolaman”, derdi (169-bet).

Keltirilgan misollardagi dialekt so‘zlar *papul* – ota, *papa*–ota, *ada*–dada, *oyi*–ona, *dada*–ota, *aya*–ona fonetik jihatdan farqlanadi. Ushbu dialekt so‘zlar leksik ma’nodan tashqari grammatik ma’no anglatib keladi: papul, papanglar, adajonisi, oying, dadam kabilar ot so‘z turkumiga oid. So‘zning leksik ma’nosiga qo‘shimchalarning qo‘shilishi ham grammatik ma’nodir: *papa-ng-lar, ada-si, ada-jon-i-si, oyi-ng, dada-m, dada-m-dan, aya-m-ga* kabilar.

Demak, umumiste’moldagi so‘zlardan farqli bo‘lib, ayrim shevalargagina xos bo‘lgan so‘zlar dialektizm so‘z sanaladi. Ular milliy tilning nutqiy uslublarida va adabiy badiiy nutqda ham ishlatiladi. Shu asosda ayrim dialekt so‘zlar so‘zlashuv nutqi uslubiga va undan adabiy tilga ham o‘tib qolganlar.[3]

Yozuvchilar o‘z asarlarida obrazlarni individuallashtirish, personajlarni mahalliy sharoitga mos qilib ko‘rsatish, tipik xarakterlar yaratish, tarixiy sharoitlarni to‘laroq aks ettirish maqsadida dialektizmlarda foydalanadilar, mahalliy odamlarning portretini ularning gap-so‘zlari orqali chizib yorqin obrazlar yaratadilar. Bu bilan yozuvchining o‘ziga xos intonatsiyasi, mimikasi va so‘zlash uslubi hosil bo‘ladi.[4] Bunday holatlar mahoratli, so‘z ustalarining asarlarida aniq kuzatiladi.

Dialektizm individual til yaratishda muhim o‘rin egallaydi. Masalan: Shu *muyulishga* kapa tikib o‘tiramiz. Chapdan ikkinchi *eshik* mosh tabibniki, –dedi (162-bet). –Bu yerning qori xuddi bir *par bolish* kabidir, yiqilajak o‘lsangda bir *huzurlanursan,*–deb qo‘ydi (8-bet). Guluzor begim aytganlaridan, bu yerning qori *par yostiqday* yumshog‘u boshqa yerniki toshday qattiq emas (8-bet). Dadasining “Toychoq” degan xitobini ularning “Biz, do‘stlarimiz, otang xalq dushmani!” degan sovuq *saslari* bo‘g‘ib o‘ldirardi (15-bet). –Shu pakana *oshnangning* turqi sovuq, basharasini ko‘rsam, oyog‘im qichib, “Ten” deb turaveradi (142-bet).

Keltirilgan misollardagi *muyulish*–ko‘chaning burilish joyi; *kapa* – yozlik uy, chayla; *eshiq*–uy; *yiqilajak*–yiqilib, huzurlanursan – huzurlanasan, *bolish*–yostiq, *do‘st* va oshna so‘zlari dialekt so‘zlar personaj nutqini hayotiy, real tasvirlashga yordam beradi. Bu so‘zlar leksik ma’no va grammatik ma’nolarda

[3] Мирзаев М., Усмонов С., Расулов Ш. Ўзбек тили. Тошкент, 1978, 43-бет.

[4] Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик курилиши. Тошкент, 1976, 127 – 128-бетлар.

qo‘llanilgan. Demak, dialektizmda individual til yaratish nutqning ta’sirchanligini oshirishga suhbatdoshlar nutqini individuallartirishga xizmat qiladi.

Ma’lum bir so‘zlar o‘zaro dialektal sinonimiya hosil qiladi. Xuddi shuningdek, sinonimiyani *narv-on-shoti-zanchi* misolida ko‘ramiz. Ammo bu misoldagi birinchi so‘z, har holda, adabiy nutqqa olingan deb qaraladi. Demak, dialektlardan biriniki bo‘lgan so‘z dialektizmdan chiqib, adabiy nutqqa xos so‘zga aylanadi, qolganlari dialektizmligicha qoladi.

Xuddi shunday sinonim so‘zlardan biri *xudo, tangri, yaratgan, olloh, egam* kabi so‘zlar misol bo‘loladi. Masalan: *Xudo* sening joningni qaytib berdi, bir o‘lib, bir tirilding,–dedi Jalil (18-bet). *Olloh* chaqirsa, “Labbay” deb ketaveraman (18-bet). *Egamning* oldiga shu boylik bilan borib ro‘para bo‘lasiz (17-bet). Ne qayg‘uki, *yaratgan* bunday fazilatni barcha bandalariga bir xilda beravermas ekan (23-bet). Kesakpolvon yaxshi bilagn odam *Tangrining* bu mu’jizasiga mol qilib, kichikinagina gavdaga shunchalar ko‘p beshavqatlik, berahmlik, zulm cho‘g‘i qanday jo bo‘lgan ekan, deb yoqa ushlaydi (24-bet).

Keltirilgan misollardagi bu so‘zlar dialektizmdan chiqib, adabiy nutqqa xos so‘zga aylanib bo‘lgan. Bu so‘zlar leksik ma’nodan tashqari grammatik ma’no anglatib ma’lum qo‘shimchalar olib kelmoqda.

Demak, yozuvchi dialektizmni badiiy asarga kiritadi, bunday so‘zning, adabiy nutqning lug‘aviy birligiga aylanish esa til amaliyotining o‘ziga bog‘liq bo‘ladi.

Tilning biror mahalliy ko‘rinishida ishlatiladigan so‘zlarning barchasi shu dialektiki deb qaraladi. Ammo bularning barchasi shu dialektdagi so‘zlar bo‘lsa ham, dialektizm deb shulardan bir qismigina olinadi. Bunda adabiy nutq bilan dialekt uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar hisobdan chiqarib tashlanadi.

Salomova Gavhar Abdinazarovna (Surxondaryo viloyati Yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi; e-mail:gavhar.salomova@mail.ru)

QISQARTMA SO‘ZLARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqola qisqartma so‘zlarning ingliz tilshunosligida o‘rganilishiga bag‘ishlangan rejasi, zamonaviy ingliz tilining qisqartmalarini so‘z tarkibi bilan taqqoslash, ularning tuzilishi va semantikasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu ikkita o‘ziga xos lingvistik hodisani ko‘rib chiqish muqarrar ravishda bir qator asarlarda u yoki bu yoritilgan boshqa muammolar bilan bog‘liq, shuning uchun asosiy muammolarni ajratib ko‘rsatish jarayonida ular bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqiladi.*

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению аббревиатур в английской лингвистике, сравнению аббревиатур современного английского языка со словосочетанием, изучению их структуры и семантики. Рассмотрение этих двух специфических лингвистических явлений неизбежно связано с теми или иными освещенными проблемами в ряде работ, и поэтому в процессе разграничения основных проблем рассматриваются проблемы, связанные с ними.*

Annotation. *This article is dedicated to the study of abbreviations in English linguistics, comparison of abbreviations of modern English with word composition, the study of their structure and semantics. The consideration of these two specific linguistic phenomena is inevitably associated with one or another illuminated problems in a number of works, and therefore, in the process of distinguishing between the main problems, the problems associated with them are considered.*

Kalit so‘zlar: *qisqartma so‘zlar, abbreviatsiyalar, akronimlar, tilshunoslik, apokopa va sinkopa.*

Ключевые слова*: сокращения, аббревиатуры, акронимы, акронимические сокращения, лингвистика, апокопа и синкопа.*

Key words*: abbreviations, abbreviations, acronyms, acronyms, linguistics, apokop and syncope.*

Kirish. Zamonaviy tillarda qisqartirish muammolari bo‘yicha juda ko‘p sonli tadqiqotlar mavjud, lekin qisqartirilgan leksik birliklar ko‘p jihatlari lingvistik nuqtai nazardan sir bo‘lib qolmoqda. Binobarin, ularga nisbatan tilshunoslikning asosiy muammolari, masalan, so‘z tuzilishi, uning ma’nolari, morfemasi, tovush va ma’no o‘rtasidagi bog‘liqlik muammolari, so‘z shakllanishi jarayonida ishlab chiqarish va hosilaviy birlik kabi muammolariga muayyan nuqtayi nazardan qarash kerak. Tadqiqot obyektining bu murakkabligi, ma’lum darajada, fikrlarning xilma-xilligi va ba’zan qisqartirilgan leksik birliklarga mutlaqo qarama-qarshi yondashuv bilan izohlanadi [1].

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, turli tizimli tillar birliklarini chog‘ishtirib tadqiq qilishda leksik birliklardan foydalanish tillarning universal (umumiylik) va unikal (o‘ziga xoslik) xususiyatlari aniqlash uchun hamda taqqoslanayotgan tillarning har birining ichki mexanizmi va ularning milliy xususiyatlarini tushunish uchun chuqurroq kirib borishga yordam beradi.

Shu bois biz yuqorida zikr etilgan muammolarga yechim topish va chog‘ishtirma tadqiqot imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida qisqartma so‘zlarning o‘rganilish tarixini ikki qismga ajratib tadqiq qilishni lozim topdik:

1) ingliz tilshunosligida o‘rganilishi; 2) o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi.

Ingliz tilidagi matnlarda turli xil qisqartmalar muhim o‘rin tutadi. Ular mustaqil ravishda qo‘llanilganligi sababli, ular lektsikografik birlamchi manbalarda mustahkamlanadi, ularning manbalariga qaraganda (radar – радар, laser – лазер), ularni ilmiy-texnik tilning lektsik birliklari deb hisoblash mumkin. Ingliz tilida qisqartmalar tovush va grafik shakliga ko‘ra abbreviatsiya va qisqartmalarga bo‘linadi. Qisqartmalar bir-biriga o‘xshashdir, chunki ikkalasi ham uzunroq so‘zlarning qisqa shakllari, ammo ular ingliz tilidagi nutqning ikki xil qismidir [2].

Abbreviatura (lotin tilida Brevis, “qisqalik” ma’nosini bildiradi) – so‘z yoki iboraning qisqargan holda so‘z yasalishi demak. Abbreviaturalar (abbreviations) iboralar iboraning muhim so‘zlarining bosh harflaridan hosil bo‘ladi: BA (Bachelor of Arts) bakalavr darajasi, BS (Bachelor of Science) fan bakalavri, MA (Master of Arts) magistr darajasi. Ular harflarning nomlari bilan talaffuz qilinganda, urg‘u oxirgi harfga tushadi. Qisqartirilgan harflar nuqta bilan yozilishi mumkin, ammo ular, odatda, zamonaviy ingliz tilida ishlatilmaydi.

Akronimlar (acronyms) abbreviaturalardan farqli o‘laroq, qisqartmalardir (harf nomlari bilan o‘qilishi, talaffuz qilinishi va idrok etilishi), oddiy lektsik birliklar sifatida o‘qiladi va idrok qilinadi. Akronimlar harflarning turli birikmasidan (birinchi harflardan va oxirgi harflaridan olinadi) hosil bo‘ladi. Bularga yuqoridagi qisqartmalar kiradi: radar, laser. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu birliklarning ingliz tilidagi tarjima yozishmalari aniq atamalar emas, balki aynan shu akronimlardir. Radar (Radio Detection and Ranging – radio aniqlash va masofani aniqlash), laser (Light Amplification by Stimulated Emission of Radiatsion – optik kvant generatori). Bu qisqartmalar (akronimlar) ingliz tiliga transliteratsiya yo‘li bilan yangi atamalar sifatida ko‘chirildi [3].

Bunday birliklar terminologiyaga osongina kiritiladi va tezda tilga o‘zlashtiriladi: ASAP – as soon as possible, iloji boricha, tezroq; ADSS–Association of Directors of Social Services–ijtimoiy xizmatlar direktorlari uyushmasi; AE–Age Equivalent–yoshga teng; AEN–Additional Education Needs–qo‘shimcha ta’limga ehtiyojlar; laser – light amplification by stimulated emission of radiation – induksiyalangan nurlanish orqali yorug‘likni kuchaytirish; radar – radio detection and ranging – radio aniqlash va masofani aniqlash; scuba – self-contained underwater breathing apparatus–mustaqil suv osti nafas olish apparati; TESOL–Teachers of English to Speakers of Other Languages–boshqa tillarda so‘zlashuvchi ingliz tili o‘qituvchilari [4].

Akronimlar ikki xil ma’nodagi so‘zni birlashtirish yoki qisqartirish va ularni bitta so‘z bilan birlashtirish orqali bir so‘z o‘rnida qo‘llaniladi. Qo‘shma so‘zlar blends yoki portmanteau words (ikki o‘zakning birikishidan hosil bo‘lgan duragay so‘z) modeliga ko‘ra, ikki so‘zdan bir so‘zning bosh qismini ikkinchi so‘zning oxirgi qismini birlashtirish orqali yangi leksik birliklar hosil bo‘ladi: dramedy – drama comedy (drama+komediya), detectifiction – detective fiction (detektiv+fantastika, informecial – information commercial (tijorat ma’lumotlari), medicare–medical care (tibbiy xizmat), magalog–magazine catalogue (jurnal+katalog) slimnastics–slimming gymnastics (vazn yo‘qotish uchun gimnastika), slanguist–slang linguist (jargon+lingvist) tranceiver–qabul qiluvchi (transmitter+receiver), informatics–informatika (information+electronics) va hokazo. Ingliz tilidagi birinchi birikmalardan biri ikkita sinonimdan tashkil topgan “smog” so‘zi edi: tutun va tuman, bu tuman bilan aralashgan tutun degan ma’noni anglatadi. Birinchi otdan boshlanish qismi, ikkinchi otdan esa oxirgi qismidan olinadi, “o” harfi har ikala qism uchun umumiy hisoblanadi. Ilmiy va texnik matnlarda qisqartmalarning ikki turi qo‘llaniladi: matn qisqartmalari, ular faqat ushbu matn doirasida qo‘llaniladi, ishlaydi va matnda darhol tushuntirish beradi yoki buning uchun qisqartmalarning alohida ro‘yxati shaklida tuziladi; matn, rasmiy ma’lumotnomalarda keltirilgan va tilning leksik tizimining bir qismi bo‘lgan holda qabul qilingan [5].

Qisqartmalarning bir qancha tipologiyalari mavjud. Qisqartmalarning turlarga bo‘linishi ma'lum darajada shartli hisoblanadi, chunki abbreviatura ko‘p qirrali va noaniq jarayondir. Umuman olganda, qisqartmalar uchta katta guruhga bo‘linadi: grafik, leksik va sintaktik. Grafik qisqartmalar standart va keng tarmoqlilarga bo‘linadi, ammo funksional jihatdan ayrim rasmiy ilmiy hujjatlar doirasida cheklangan. Masalan, M.A. “master of arts”–magistrlik darajasi; B.A. “bachelor of arts”–bakalavr darajasi; B.COMM. “bachelor of commerce”–savdo bakalavri. “Lotin tilidagi qisqartmalar tarjimon uchun alohida qiyinchilik tug‘diradi. Bu, ayniqsa, Yevropa tillari uchun, xususan, ingliz tili uchun to‘g‘ri keladi, uning alifbosi o‘zbek tilidan farqli o‘laroq, lotin tiliga to‘g‘ri keladi, bu esa qisqartirilgan atamaning noto‘g‘ri dekodlanishi-

ga olib keladi. Lotin tilidagi qisqartmalar tibbiyot xodimlarining rasmiy yozma va norasmiy biznes so‘zlashuv nutqida keng tarqalgan. Jamiyatda iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va o‘qitish uchun zarur sharoitlarni mamlakatda milliy elitaning rivojlanishiga yordam beradi, fan, san’at yutuqlari va milly iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlaydi [6].

Shuning uchun u gapda turli sintaktik vazifalarni bajarib, ingliz tili grammatikasining barcha qoidalariga muvofiq morfologik shakllantirilishi mumkin. Ko‘pgina qisqartmalar gazeta yoki kundalik so‘zlashuv lug‘atida yorqin stilistik xususiyatga ega va professional darajada berilgan. Argotik, xususan, so‘zlarni ixchamlashtirish maqsadda, kamaytiruvchi qo‘shimchalar qo‘shilgan ko‘plab qisqartmalarni misol qilib olishimiz mumkin. Masalan, Aussies avstraliyaliklar; tellie televizor.

Qo‘llanilishiga ko‘ra qisqartmalar ikkita keng guruhga bo‘linadi: matn qisqartmalari va terminologik qisqartmalar. Matnning qisqartmasi bir yoki bir nechta muallif tomonidan qo‘llaniladi va har bir alohida holatda (ya’ni, har bir kitob yoki maqolada) ular mualliflar tomonidan matnda yoki eslatmalarda tushuntirilishi shart. Bunday matn qisqartmalari odatda tushunarsizdir. Shu ma’noda, ular xuddi “muallif” deyiladi va muallifning o‘zi ularga qanday ma’no qo‘yganiga bevosita bog‘liq. Ular, odatda, u yoki bu universal tilga nisbatan standartlashtirish jarayonidan o‘tgan hollarda qo‘llaniladi. Terminologik qisqartmalar, odatda, qo‘llaniladigan (ba’zan standart) standart atamalarning sinonimik qisqartma variantlari hisoblanadi. Terminologik qisqartmalar, odatda, mutaxassislarga izohsiz tushunarli. Yuqorida aytib o‘tilganidek, ko‘pincha, turli mualliflar tomonidan topilgan matn qisqartmalari an’anaviy bo‘lib, shuning uchun terminologik qisqartmalarga aylanadi.

Xulosa. Yuqoridagi qisqartma so‘zlarning ingliz tilshunosligida o‘rganilishi tarixidan ko‘rinib turibdiki, jahon tilshunosligida qisqartma so‘zlar bir necha guruhlar va turlarga bo‘linadi. Qisqartma so‘zlarning barcha turlariga mansub guruxlari so‘zlashuv va qo‘llanish uchun qulay bo‘lishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabtyotlar:

1. Алексеев Д.И. Сложносокращённые слова в русском языке. Саратов, СГУ, 1979, с. 328.
2. Алексеев Д.И. О словаре сокращений русского языка. Лексикографический сборник. М., 1963, № 4, 1963, с. 34 – 46.
3. Аликулов З.А. Аббревиатуры в современном узбекском языке. Ташкент, 1976.
4. Бирюкова О.И. Термин и его мотивированность. Терминология и культура речи. М., “Наука”, 1981, с. 28 – 37.
5. Борисов. Аббревиация, собственно говоря, и заключается в первую очередь в сокращении материальной (звуковой или графической) оболочки некоторого языкового сообщения, то есть в рационализации использования материальной оболочки, прежде всего в коммуникативных целях. 1970, с. 47 – 48.
6. Маринова Е.В. Иноязычные слова в русской речи конца XX – начале XXI в. Проблемы освоения и функционирования. М., ЭЛПИС, 2008, с. 495.

Internet saytlar:

1. www.abbreviationfinder.org
2. www.myquezbuilder.blogspot.com

Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinovna (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti professori, f.f.d.),
Azizova Xonzodabegim Akmal qizi (talaba)

TERMINLARNING BADIIY O‘XSHATISHLARNI HOSIL QILISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada o‘xshatishli qurilmalarda til egalarining tashqi olamni idrok etish usulining namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslangan. Ko‘proq ilmiy uslubga xos deb qaraluvchi, asosan, to‘g‘ri ma’noda qo‘llaniladigan terminlar ham ba’zan o‘xshatish vositalarini qabul qilib, ekspressivlikni ifodalaydi. Bundan ko‘rinadiki, qo‘llanilishi ma’lum bir uslub (ilmiy) doirasida chegaralangan terminlar ham badiiy matnda turli uslubiy ma’nolarni ifodalab, nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilishi badiiy asardan olingan misollar yordamida tahlil qilingan.*

Аннотация. *В статье научно обосновано проявление способов восприятия внешнего мира носителями языка в аналоговых устройствах. Термины, считающиеся более типичными для научного метода и чаще всего употребляемые в правильном смысле, также иногда выражают экспрессивность путем принятия сравнений. Отсюда видно, что термины, употребление которых ограничено определенным стилем (научным), выражают в художественном тексте разные стилистические значения и служат повышению эффективности речи.*

Annotation. *In the article, the manifestation of language speakers' way of perceiving the external world in analogical devices is scientifically based. Terms that are considered to be more typical of the scientific method and are mostly used in their correct sense also sometimes express expressiveness by adopting similes. It is clear from this that terms whose use is limited to a certain style (scientific) express different stylistic meanings in the artistic text and serve to increase the effectiveness of the speech.*

Kalit so'zlar: *o'xshatishlar, badiiy matn, so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, ekspressivlik, lingvopoetika, uslubiy ma'no, terminlar.*

Ключевые слова: *сравнение, художественный текст, речевой стиль, художественный стиль, выразительность, лингвопоэтика, стилистическое значение, термины.*

Key words: *similes, artistic text, speech style, artistic style, expressiveness, linguopoetics, stylistic meaning, terms.*

O'xshatishlar, asosan, so'zlashuv va badiiy uslublarda keng qo'llanadi. O'xshatishli qurilmalarda til egalarining tashqi olamni idrok etish usuli namoyon bo'ladi. Ko'proq ilmiy uslubga xos deb qaraluvchi, asosan, to'g'ri ma'nosida qo'llaniladigan terminlar ham ba'zan o'xshatish vositalarini qabul qilib, ekspressivlikni ifodalaydi. Bundan ko'rinadiki, qo'llanilishi ma'lum bir uslub (ilmiy) doirasida chegaralangan terminlar ham badiiy matnda turli uslubiy ma'nolarni ifodalab, nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan:

Assalom-u alaykum, Valijon aka, – dedi qo'shqo'llab so'rashib. –Yaxshi ketib qolmagan ekansiz, – u avtomatday tarillab gapira ketdi (S.Anvar. "Qishlog'imiz qiziqchilari").

Ma'lumki, terminlar ishtirokida hosil qilingan o'xshatishli qurilmalar, asosan, murakkab konstruksiya shaklida bo'ladi. Masalan, "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"dan o'rin olgan quyida-gi o'xshatishli qurilmalar murakkab tuzilishga egaligi bilan xarakterlanadi (1.1):

1. Bo'zchining mokkisidek Avliyoota bilan Toshkent orasida yo'rg'alashdan nima *foyda* (Oybek. "Qutlug' qon").

2. Avvaliga bezgak tutgandek dag'-dag' qaltiradim (X.To'xtaboyev. "Sariq devni minib").

Lug'atda keltirilgan ushbu illustrativ materiallarda turli sohaga oid termin-o'xshatishlar qo'llangan bo'lib, ular shunchaki qiyoslash-o'xshatish ma'nosini ifodalab qolmasdan, milliy obrazli tafakkurni, ijobiy yoki salbiy bahoni ham aks ettiruvchi badiiy tasvir vositasiga aylangan.

Badiiy matnda terminlar, shuningdek, alohida fan sohasida termin, ammo nutqda terminlik xususiyatini yo'qotib, umumtil birligiga aylangan leksemalar ishtirokida yaratilgan o'xshatishli qurilmalar voqea-hodisani kitobxon ko'z o'ngida yaqqol gavdalantirishga xizmat qiladi. Masalan:

Aql har qanday fitna ustidan g'olib bo'ladi. Aql-idrokdan mahrum bo'lgan *bosh suvsiz chashmaga*, adabsiz, tarbiyasiz *yigit* esa *egar-jabduqsiz otga*, sharm-hayosiz *juvon tuzsiz taomga*, ilmga amal qilmagan *olim* xushbo'y *guli yo'q bo'stonga* o'xshaydi (T.Malik. "Saodat saroyining kaliti").

Keltirilgan parcha asosida muallifning betakror lisoniy salohiyat egasi ekanligini anglash mumkin. Yozuvchi alohida fan sohasida termin, ammo umumxalq tilida oddiy birlikka aylangan qator leksemalardan foydalangan holda, original badiiy o'xshatishlarni hosil qila olgan. Ya'ni, bosh (aql-idroksiz) *suvsiz chashmaga*, yigit (adabsiz-tarbiyasiz) *egar-jabduqsiz otga*, juvon (sharm-hayosiz) *tuzsiz taomga*, olim (ilmiga amal qilmaydigan) *gulsiz bo'stonga* qiyoslangan, birgina *o'xshaydi* vositasida barcha fikrlar ipga tizilgandek, yaxlit tarzda o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirilgan. Bu oddiy qiyos emas, albatta. Bu – yuqori darajada idrok etiladigan ma'naviy-ruhiy tarbiya mezoni, ibrat timsoli hamdir. Adibning mahorati shundaki, asarda qo'llangan terminlar shunchaki tanlanmagan, ya'ni, uyadoshlik munosabatini hosil qiluvchi so'zlar (suv, chashma; ot, egar-jabduq; tuz, taom; gul, bo'ston) ekanligining o'ziyoq o'quvchidan ifodalanayotgan fikrning mazmun-mohiyatini yanada teranroq anglashga undaydi. Bu holatda metaforik-o'xshatishlar hosil qilingan. Keltirilgan misolda ham alohida fan sohalarida termin, ammo umumxalq tilida oddiy birlikka aylangan birliklar yordamida original o'xshatishlar hosil qilingan:

Agar bola kichikligidan bilim o'rgansa, uning idroki ham yaxshi bo'ladi. Zakovati ortadi. Uquv–idrok kishi uchun kishanday gap. U yomon va yaramas ishlar ishlarga yaqin yo'latmaydi. Uquvli tirikdir, uquvsiz–o'lik. *Kishi uyga, oddiy emas, qorong'i uyga o'xshaydi. Uquv-idrok* esa *mash'al kabi unga nur sochadi*. Ya'ni kishini ravshanlikka eltadi (T.Malik. "Saodat saroyining kaliti").

Texnika va internet asri hisoblangan hozirgi davrda terminlarning badiiy tasvir vositasi sifatida qo'llanilishi o'zbek tili leksikasidagi muhim jihat hisoblanadi. Bunda ayrim termin-o'xshatishlar eng ko'p qo'llanilayotgan vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Masalan, *kserokopiyaday, antivirusday, kompyuterday* kabilar. Ayniqsa, og'zaki nutqda termin-o'xshatishlar juda ko'p ishlatilmoqda. Quyidagi misollar fikrimiz isbotidir. Masalan:

– *Xuddi kserokopiyadek dadasining o‘zginasi.*

– *Aya, antivirusday bizni himoyalab turasiz.*

– *O‘g‘limning miyasi kompyuterday ishlaydi*.

Bu kabi termin-o‘xshatishlar badiiy asarga ham lingvopoetik maqsad asosida olib kiriladi. Negaki o‘xshatishlar badiiy matnning obrazliligini ochishda eng ko‘p qo‘llaniladigan badiiy tasvir vositalaridan biri sifatida xarakterlanadi.

Badiiy matnda yozuvchi g‘oyaviy maqsadini ifoda etish uchun, ko‘pincha, individual termin-o‘xshatishlarni hosil qiladi. Bunday o‘xshatishli qurilmalarda yozuvchining tasvirlanayotgan hodisaga bo‘lgan munosabati, bahosi ifodalanadi. Bu esa badiiy asarning poetik qimmatini yanada oshirishga zamin yaratadi. Ayniqsa, asarda muvaffaqiyatli hosil qilingan o‘xshatishli qurilma va u orqali hosil bo‘lgan assotsiatsiyalar oddiy tasvirga nisbatan ko‘proq ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Masalan:

U o‘zini turmaga olib ketilayotgan mahbusday sezardi: unda qanday xulqlar bor ekanini bilmaydi: bir yoqdan, tuzukroq kameraga tushsam go‘rga edi desa, ikkinchi yoqdan, qanday kamera bo‘lmasin, hozirdan ko‘nikishga majbur (A.Qahhor. “Sarob”).

Matn mazmunidan ma’lum bo‘ladiki, muallif Munisxonning ahvolini gavdalantirish uchun uning bo‘lajak kuyov uyiga ko‘chib o‘tishini qamoqda yashash bilan qiyoslaydi, chunki uning o‘zi xohlamay turmushga chiqayotganligi, qalbida esa boshqa insonni sevishi kitobxon uchun ma’lum. Yozuvchi xuddi shu og‘riq tasvirini keltirish uchun matnda alohida fan sohasida termin, ammo umumxalq tilida oddiy birlikka aylangan *qamoq* leksemasidan o‘z o‘rnida foydalangan.

Matnda berilgan *unda qanaqa xulqlar bor ekanligini bilmaydi* gapi orqali Munisxonning bu nikohdan norizo ekanligi va hech qanday aniq kelajakni ko‘ra olmasligi ifoda etilgan. Munisxon bu nikohning yaxshi bo‘lib ketishiga ishonmaydi, u noiloj, o‘zining baxtsiz bo‘lishini bilib turib, nikohga rozi bo‘ladi. Matnda hosil qilingan *turmaga olib ketilayotgan mahbusday* o‘xshatishli qurilmasi orqali muallif o‘z qahramonining ruhiy holatini tasvirlab bergan. *Turma, mahbus* leksemalari personajning voqea-hodisaga salbiy munosabatini kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

Quyidagi misolda esa yozuvchi kasb-hunarga oid leksikadan foydalangan holda, qahramonlarining qiyofasini yengil kulgi va o‘zgacha o‘xshatish orqali tasvirlagan:

Shoptoli qoqidek burishib, eski mahsidek shalvirab qolibmizu, bizga kim qo‘yibdi, bolam. Shunisiga ham shukur (A.Muxtor. “Opa-singillar”).

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *mahsi* so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan: “Mahsi – qo‘y yoki echki terisidan tayyorlanadigan, uzun qo‘njli, poshnasiz, tagcharmi yumshoq, kavush yoki kalish bilan kiyiladigan milliy oyoq kiyimi” [2.2].

Yozuvchi kitobxonning ko‘z o‘ngida kampirning qiyofasini ro‘y-rost chizib berish uchun kasb-hunarga oid *mahsi* so‘zidan foydalangan. *Mahsi* so‘zining o‘rniga muallif *yuz terisi osilib qolgan* birikmasini ham qo‘llashi mumkin edi. Ammo o‘xshatishli qurilmani hosil qilishda maxsus leksikadan foydalanishi yozuvchining bu tasvirini to‘laqonli chiqishiga xizmat qilgan. Adib mohirona tarzda eski mahsining shalvirab qolishini kampirning o‘ta darajada qari ekanligiga o‘xshatish orqali ekspressivlikning ta’minlanishiga va kitobxonda ham kulgi, ham xayrixohlikni yuzaga kelishiga zamin yaratgan.

Quyidagi matnda ham A.Muxtor tomonidan alohida ilm-fan sohasida termin, ammo umumxalq tilida oddiy birlikka aylangan leksemalar yordamida o‘ziga xos o‘xshatishli qurilma hosil qilingan:

Hozir ham ish chakana emas, mana zavod qilyapmiz, buni hamma ishchilar qilyapti, kasaba soyuzi – hamma ishchilar degan so‘z. Yur, sexlarga olib chiqay, bizning frontni ham bir ko‘rib qo‘y mundoq (A. Muxtor. “Opa-singillar”).

Yuqorida keltirilgan gapda sex va unda amalga oshirilayotgan ishlar frontga nisbatlangan. Chunki frontda hamma qaysi millat bo‘lishidan, tilidan qat’iy nazar, bir maqsad – g‘alaba uchun birlashadi. Bu o‘rinda adib *front* leksemasini qo‘llash orqali bu jarayon jamiyatda insonlar uchun juda muhim ekanligini kitobxonga yetkaza olgan.

Asarning boshqa bir o‘rnida adib *qandala* (biol. ter.) leksemasidan mohirlik bilan foydalanganini kuzatish mumkin [3.3]. U yovuz insonlarni qonxo‘r hasharotga qiyoslab, o‘quvchida ularga nisbatan salbiy munosabatni uyg‘otishga erishgan:

Xalqimiz umrida birinchi marta o‘zi uchun fabrika quradi! Morozovlar, Qudratillaxo‘jalar yoki qayoqdagi begona qandala Kroplar uchun emas, o‘zi uchun! (A.Muxtor. “Opa-singillar”).

Asarda oddiy xalqning qonini so‘ruvchi faqat o‘zini o‘ylovchi Qudratillaxo‘ja, Matqovul, bosqinchi Kroplar haqida gap ketadi. Yozuvchi ularni qon so‘ruvchi qandalaga o‘xshatish orqali qanchalik xalq uchun xavfli insonlar ekanligini gavdalantirishga erishgan.

Ijtimoiy fanlarga oid ilmiy terminlar ham badiiy matnda o‘xshatishlar yaratishda o‘zgachalik kasb etishi bilan xarakterlanadi. Masalan:

Chiqargan kitobi negadir hech qayga o‘tmay qolgan nashriyotimiz endi ana shular hisobidan – ijara haqi evaziga kun ko‘ra boshladi. Tabiiyki, bunday sharoitda, har qancha mohiru tajribali bo‘lmasin, nafaqa yoshiga borib qolgan, buning ustiga “eskicha” fikrlaydigan – qo‘shma gap bo‘laklaridek ergashib yurishga, moslashuvga yo “katta”ga o‘shak tashishga noqobil muharrirga jamoada o‘rin yo‘q (E. A’zam. “Jannat o‘zi qaydadir”).

Keltirilgan parchada E.A’zam tilshunoslikka oid *qo‘shma gap bo‘laklari* terminidan o‘xshatishli qurilma hosil qilishda mohirona foydalangan. Ma’lumki, qo‘shma gaplarning tobelikka asoslangan turida ergash gap doimo bosh gapga ergashish yo‘li bilan bog‘lanadi. Ushbu xususiyat adibning termin asosida o‘xshatishli qurilma hosil qilishiga turtki bergan. Matnda yozuvchi asar qahramonida bunday xususiyatlar yo‘q ekanligini, nashriyotda esa qo‘shma gapga o‘xshab doimo boshliqlarga ergashib yuradigan, rahbar o‘zgarsa ham, hamma rahbarga moslasha oladigan insonlar ishlashi haqida ma’lumot berib ketgan.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, badiiy matnda sof terminlar, alohida fan sohasida terminlik maqomiga ega, ammo umumxalq tilida bu xususiyatini yo‘qotgan leksik birliklar, kasb-hunarga oid leksemalar o‘xshatishli qurilmalarni hosil qilib, yozuvchining lingvopoetik maqsadini ro‘yobga chiqarishda alohida o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2013, 21, 35, 41, 73, 75-betlar.

2. Маҳкамов Н. Ўзбек тилида терминларнинг меъёрлаштириш муаммолари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 1977 ва бошқалар.

3. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1985, 93-bet.

Narzullaeva Dilnoza Sanatovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti tadqiqotchisi, o‘qituvchi)

INGLIZ VA O‘ZBEK BADIIY ADABIYOTIDA INSON RUHIY-EMOTSIONAL HOLATINI TASVIRLASHNING STILISTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola ingliz va o‘zbek badiiy adabiyotida inson ruhiy va emotsional holatini tasvirlovchi til birliklarning tadqiqiga bag‘ishlangan. Muallifning barcha nazariy qarashlari ko‘plab ingliz va o‘zbek badiiy kontekstlar misollari bilan dalillanadi.*

Аннотация. *Настоящая статья посвящается исследованию английских и узбекских языковых единиц, выражающих душевное и эмоциональное состояние человека в художественной литературе. Все теоретические размышления автора подтверждаются соответствующими примерами английских и узбекских художественных контекстов.*

Annotation. *The present article is dedicated to the investigation of English and Uzbek language units which express human’s emotional-psychic state in literary texts. All theoretical explanations of the author are proved by numerous English and Uzbek literary extracts.*

Kalit so‘zlar: *til birliklari, emotsional-ruhiy holat, semantika, pragmatik ma’no, stilistik vosita.*

Ключевые слова*: языковая единица, эмоционально-душевное состояние, семантика, прагматическое значение, стилистическое средство.*

Key words: *language unit, emotional-psychic state, semantics, pragmatic meaning, stylistic device.*

Odatda, badiiy matn quyidagi aspekt doirasida tadqiq qilinadi: semantika, pragmatika va funksional sintaksis.[1] G.G.Molchanova badiiy matn talqinida til birliklarining pragmatik, kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlariga e’tibor berish lozimligini ta’kidlagan.[2]

Har bir yozuvchi dunyo va uning obyektlarini turlicha tasvirlaydi va bu uchun muayyan til vositalaridan foydalanadi. Asardagi leksik, frazeologik, ekspressiv-stilistik, fonetik va sintaktik vositalar muallifning o‘ziga xos badiiy uslubini yaratadi.[3]

[1] Филипская Т.А. Единицы монологического текста. Объединённый научный журнал, 2008, № 12 (218), с. 25 – 26.

[2] Молчанова Г.Г. Холистика текста (на основе триады: система – языковая личность – текст). Языки в современном мире. Том 2, Москва, 2004, с. 67.

[3] Джаббарова Ш.Х. Физулинский этап в развитии азербайджанского литературного языка. Объединённый научный журнал, 2008, № 2 (218), с. 13 – 14.

Yozuvchining uslubi aynan personajlar tasvirida faollashadi. Badiiy asarda lisoniy shaxsning uchta modeli kuzatiladi: 1) real (asar muallifi); 2) potensial (kitobxon) va fiktiv (personaj).[1]

Kognitiv fanida badiiy matnning ahamiyati katta va u mental model, mental tuzilma va konseptlarning lisoniy tizimi sifatida tadqiq qilinadi.[2]

Badiiy matn personajlar hayoti, faoliyati va o‘zaro munosabatlarini bayon qiladi, shuningdek, personajlarning his-hayajonlari va tuyg‘ulari badiiy uslubda va turli ekspressiv-stilistik vositalar yordamida tasvirlanadi. Misol keltiramiz:

Zebi yigitchaning “Ana, o‘zi kelaetir!” degan so‘zlarini eshitgan edi. Agar esi o‘zida bo‘lsa, u ham Qumri singari “Voy, o‘la qolay!” deb qaytib ketishi kerak edi. Holbuki, u o‘zini bilmasdan va hech narsa o‘ylayolmasdan, telba qadamlar bilan bitta-bitta bosib, ilgari yurardi... Uning oyoqlari allaqanday yomon bir kuchning afsuniga ilashganlar, o‘sha kuchning sudragan tomoniga borardilar. Yosh qiz o‘z ko‘nglining birinchi marta o‘ziga begonalashganini, o‘zidan boshqa bir kuchning ko‘ngliga egalik qilganini sezardi.[3] Mazkur parchada “kuch” so‘zi bir necha marta takrorlanadi va Zebi ismli personaj sevgi kuchiga duch kelishini tasvirlaydi. Ko‘rib turinibdiki, Zebining emotsional holati uning harakatlari yordamida ifodalanadi.

Personajning his va tuyg‘ulari uning xayolar va istaklari orqali ham bayon etilishi mumkin:

That this could by any possibility be that small snug chamber of the imagination, which Charles Dickens, Esquire, with the spirit of prophecy strong upon him had always foretold would contain at least one little sofa, and which his lady, with a modest yet most magnificent sense of its limited dimensions[4].

Personajlar bir-biri bilan muloqot jarayonida, ya’ni dialogda turli his va tuyg‘ularini ifodalaydi. Pragmatik nuqtayi nazardan dialoglar farqlanadi: oddiy dialog, faylasufiy dialog, sotsial dialog, ilmiy dialog, dialog-bahs, dialog-nizo, dialog-ishonch, dialog-diskussiya va h.k. Misollarni keltiramiz:

Dialog-baxs: *– Yaxshi kimyogar – har qanday shoirdan yuz karra foydaliroq, – dedi.*

–Shunaqa deng-a, demak, siz san’atni e’tirof etmas ekansiz-da? – dedi Pavel Petrovich va qoshlarini uyqusiragan kabi sal ko‘tarib qo‘ydi.[5] Mazkur dialogda personajlar o‘rtasidagi bahs nafaqat ularning nutqi orqali, balki yuz burushtirishlari tasvirlanishi yordamida uzatiladi.

Dialog-nizo: *– Tekinga pul topish san’ati bo‘lmasa, bavosil ham bo‘lmaydi, – dedi Bazarov tahqiromuz jilmayib.*

–Balli, balli shunaqangi hazillashayapman deng-a. Demak, siz bularni barini bekor kilarkansiz-da? Xo‘p, shunday ham bo‘lsin, binobarin, siz fakatgina fanga ishonar ekansiz-da?![6] Mazkur dialog shu qadar muammoli va hisga to‘liqki, uning bayoni uchun turli til birliklar va sintaksik belgilar talab qilinadi.

Oila a’zolarining munosabatlarini ifodalovchi dialog:

– Zebini nimaga so‘rab edingiz? – dedi yana. Endi bu safar so‘fining achchig‘i keldi va birdaniga:

–O‘z qizimni so‘ray olmaymanmi! – deb baqirdi.[7]

Badiiy matnda muayyan xalqning aniq davrdagi milliy madaniyati, urf-odatlari va yashash tarzi aks etilishi hammaga ma’lum. Misol uchun, o‘zbek romandan parcha keltiramiz:

Mingboshi bu birgina, lekin kutilmagan so‘zga biroz hayron bo‘ldi.

– To‘y?

– Ha, to‘y!

– Nima to‘y? Kim to‘y qilibdi?

– Men to‘y qilmoqchiman...

– Sen? Kimga?

– Sizga!

– A, benamoz-yey! Menga?

– Ha, sizga.

Mingboshi erkin-erkin kuldi:

---

[1] Комарова Л.И. Антропоцентризм художественного текста. Вестник ТГУ, 2008, Выпуск 8 (64), с. 102.

[2] Таджибаева А.А. Основные положения когнитивной семантики. Актуальные проблемы современной лингвистики. Сборник научных статей. Ташкент, 2021, с. 188.

[3] Чўлпон А. Кеча ва кундуз. Роман, Тошкент, “Илм-зиё-заковат”, 2019, 40 – 41-бетлар.

[4] Dickens Ch. American Notes. Delphi classics, 2017, p. 7.

[5] Тургенев И.С. Оталар ва болалар (Малик Раҳмон таржимаси). Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2015, 34-бет.

[6] Ўша манба. 34-бет.

[7] Чўлпон А. Кеча ва кундуз. Роман, Тошкент, “Илм-зиё-заковат”, 2019, 77-бет.

–Tovba de, betavfiq! Astag‘furullo, de! Miryoqub “Astag‘furullo” o‘rniga uyat bir so‘z aytdi.[1] Mazkur kontekstdan ma’lum bo‘ldiki, o‘tgan davrlarda mingboshi kabi boy va badavlat erkaklar bir nechta xotin olishi odatiy hol bo‘lgan. Kontekstda “to‘y” leksemasi lingvokulturema vazifasini bajaradi.

His va tuyg‘ularning tasvirida ham milliy yashash tarzi uzatiladi:

Miryoqubning qulog‘iga egildi.

– Kattaning rashki kelmas-a? – dedi.

– Eng kichigidan boshqa hech qaysisining rashki kelmaydi.

– Har qalay, katta xotiningiz esliroq.[2] Bu yerda Akbarali ismli personajning birinchi xotini tomonidan personaj to‘rtinchi marta uylanadigan yosh qizga nisbatan rashki haqida so‘z yuritgan.

Badiiy matnda insonning ruhiy va emotsional holati turli stilistik vositalar to‘qimasida yorqin tasvirlanadi:

Tong yorishmasdan yo‘lga tushib, qishloqdan chiqar-chiqmas ashulani baland qo‘ygan Zebi necha yillik g‘am-tashvishlardan to‘rt-besh kun ichida ortig‘i bilan yozilib kelarkan, o‘z orqasida o‘ynayotgan o‘yinlardan xabarsiz edi.[3]

Metaforaning yana bir misolini keltiramiz: *Uch-to‘rt kundan buyon ularni avzoi buzuq edi, betlaridan zahar tomar edi* (Oybek). “*Betlaridan zahar tomar edi”* metaforasi badqoqoq va ho‘mraygan, yovuz niyatlarga to‘la obrazni yaratadi. Kontekstdagi negativ mazmun “zahar” so‘zi bilan kuchaytirgan.

Quyidagi kontekstda metafora qo‘llanilgan ingliz matnni ko‘rib chiqamiz:

In persons who were so soon to part, and interpose between their else daily communication the formidable barrier of many thousand miles of stormy space, and who were for that reason anxious to cast no other cloud, not oven the passing shadow of a moment’s disappointment or discomfiture, upon the short interval of happy companionship that yet remained to them – in persons so situated, the natural transition from these first surprises was obviously into peals of hearty laughter; and I can report that I, for one, being still seated upon the slab or perch before mentioned, roared outright until the vessel rang again[4]. Mazkur kontekstda turli his va tuyg‘ular bayon etilgan: hayratda qolish, ko‘ngil qolish, xursandchilik, quvonch, tashvish, xavotirlik.

Matn bayonida badiiy personajlarning emotsional ahvolini kuchaytirish uchun gradatsiya ishlatiladi:

Asta-asta avj olayotgan bu tajang ovozlar allaqachon Zebining qulog‘iga yetib, uning talvasasini besh battar ortirmoqda edi.[5]

And there she is! All eyes are turned to where she lies, dim afternoon; every finger is pointed in the same direction; and murmurs of interest and admiration – as “How beautiful she looks!” “How trim she is!”–are heard on every side.[6]

Badiiy qiyoslash matnda obrazlarga yangi hislat va sifatlarni qo‘shish maqsadida qo‘llaniladi:

“What a relish mulled claret will have down here!” which appeared to strike us all most forcibly; as though there were something spicy and high-flavoured in cabins, which essentially improved that com-position, and rendered in quite incapable of perfection anywhere else.[7]

Es-hushi o‘zida bo‘lmagan bu jonsiz suratning yog‘ochday qotib qolgan qo‘llari va barmoqlari ila ro‘zg‘or ishlarini yana burungiday puxta bajarishlari – onaning qurigan ko‘zlarini ham yana yosh bilan to‘lg‘azib yuboradi.[8]

Badiiy matnda his va tuyg‘ular verbal va noverbal vositalar yordamida ifodalanadi. Agar verbal vositalarga so‘z, ibora va gap kirsa, noverbal vositalarga imo, ishora, mimika, jismoniy harakat va yuz burushtirilar kiradi. Quyidagi kontekstda hayratlanish verbal vositalar yordamida ifodalandi:

Mingboshi mehmonlarni o‘z uyida ekanini eshitib, hayron bo‘ldi:

–Mehmonlar shu yerda? Qachon kelishdi?[9]

Badiiy matnda noverbal vositalar ham personajning ruhiy holatini uzatishda katta rol o‘ynaydi:

---

[1] Ўша манба. 70-бет.
[2] Ўша манба. 72-бет.
[3] Ўша манба. 73-бет.
[4] Dickens Ch. American Notes. Delphi classics, 2017, p. 9.
[5] Чўлпон А. Кеча ва кундуз. Роман, Тошкент, “Илм-зиё-заковат”, 2019, 78-бет.
[6] Dickens Ch. American Notes. Delphi classics, 2017, p. 12.
[7] Ўша манба. 10-бет.
[8] Чўлпон А. Кеча ва кундуз. Роман, Тошкент, “Илм-зиё-заковат”, 2019, 111-бет.
[9] Ўша манба. 73-бет.

– Qishloqqa chiqib ketsa, yana yaxshi! –dedi Zebi. Shu topda uning yuzlariga quvnoq bir kulish yo-yilgan edi.[1]

Badiiy matnda xulq-atvor va yashash tarzining milliy stereotiplar yaqqol koʻrinib turadi. Misol uchun quyidagi parchani tahlil qilamiz: *Otam biror joyda ketayotganda oʻxshaydi,–dedi Zebi quvonganini yashirolmay.*[2]

Mazkur konteksdan ma'lum boʻldiki, yosh qiz mehmonchilikdan qaytganida otasi yoʻqligini koʻrib, quvonadi. Bu xursandchilik qizning otasi qahri qattiq va serjahl ekanligi hamda qizga nisbatan haddan ziyod qattiqqoʻl ekanligi sababdir.

Personajning obrazi yoki lisoniy shaxs sotsial, ruhiy, axloqiy va boshqa komponentlar asosida shakllanadi.[3] Barcha komponentlar uning nutqi va harakatlarida aks etiladi. Personaj nutqi nafaqat boshqa personajlar, balki oʻzi bilan oʻzi suhbatlashganida, ya'ni monologda uzatiladi. Misol uchun, quyi-dagi kontekstda personaj oʻziga savol bermoqda va bunda uning aql-zakovati, mantiqiy fikrlashi va ogʻir vaziyatdan chiqish uchun najot topishi haqida soʻz yuritadi:

What have we here? The captain's boat! And the captain himself. Now, by all our hopes and wishes, the very man he ought to be![4]

Ichki emotsional ahvol personajning harakatlarida ham ma'lum boʻladi:

Before one can too much as wonder, she takes a high leap into the air. Before she has well done that, she takes a deep dive into the water. Before she has gained the surface, she throws a summerset. The instant she is on her legs, she rushes back-ward. And so she goes on staggering, heaving, wrestling, leaping, diving, jumping, pitching, throbbing, rolling, and rocking: and going through all these movements, sometimes by turns, and sometimes altogether: until one feels disposed to roar for mercy.[5] Keltirilgan parchada personajning ilhomlanishi va zavqi uning sakrashi, suvga shoʻngʻishi va boshqa harakatlari vositasida ifodalanadi.

Quyidagi parchada "quloq bermoq", "tinglamoq", "shuv etib ketmoq" kabi oʻzbek fe'llar ma'nosi metaforik tarzda faollashadi:

Astagina quloq berdi: birovning xoʻrsinib yigʻlagani eshitilardi. Yana ham qunt qilib tingladi. Yigʻlagan onasi edi. Koʻngli shuv etib ketdi.[6]

Insonning ruhiy ahvolini muallif tomonidan bayon etishi eng oddiy usul hisoblanadi, chunki kitobxon tayyor ma'lumotni qabul qiladi:

Buni oʻqitdirib eshitgandan keyin mingboshi juda xursand boʻldi.[7]

Zebining bu xursandligi, albatta, kuzatgan maqsadiga erishmoq bilangina paydo boʻlardi. U maqsadga ham, dovon oshuv qadar zoʻr boʻlmasdan, nihoyati devorga osilib, gavron sindirgan yigitni bir koʻrishdan iborat edi....[8]

All happiness be with her for her bright face and her pleasant Scotch tongue, which had sounds of old Home in it for my fellow-traveler….[9]

Bir kontekstda ba'zan turli stilistik vositalar qoʻllaniladi va his-tuygʻularni yanada yorqinroq tasvirlaydi:

– Hazilingni qoʻy endi, –dedi oddiy va hatto bir daraja muloyim ovoz bilan. – Menga maslahat top. Yetti iqlimga yomon nomim ketdi. Miryoqub juda tinchlik bilan, kulib turib, bemalol gapirardi: –Ha, balli, mana bunday deng! Jahli bilan, gʻazab bilan, tutoqish bilan bu tugʻrida hech narsa qilib boʻlmaydi.[10]

Nothing would have surprised me. If, in the momentary illumination of any ray of intelligence that may have come upon me in the way of thoughts of Home, a goblin postman, with a scarlet coat and bell, had come into that little kennel before me….[11]

---

[1] Ўша манба. 106-бет.
[2] Ўша манба. 76-бет.
[3] Комарова Л.И. Антропоцентризм художественного текста. Вестник ТГУ, 2008, Выпуск 8 (64), с. 101.
[4] Dickens Ch. American Notes. Delphi classics, 2017, p. 13.
[5] Dickens Ch. American Notes. Delphi classics, 2017, p. 16.
[6] Чўлпон А. Кеча ва кундуз. Роман, Тошкент, "Илм-зиё-заковат", 2019, 108-бет.
[7] Ўша манба. 95-бет.
[8] Ўша манба. 83 – 84-бетлар.
[9] Dickens Ch. American Notes. Delphi classics, 2017, p 10.
[10] Чўлпон А. Кеча ва кундуз. Роман, Тошкент, "Илм-зиё-заковат", 2019, 91-бет.
[11] Dickens Ch. American Notes. Delphi classics, 2017, p. 17.

Rang timsollari inson ham emotsional holati bilan bevosita bog‘liq:

Hakimjonning ikki ko‘zi mingboshida, uning qizarib-bo‘zargan yuzlarida, jahli bilan, tajanglik bilan qisilgan panjaralarida: g‘ijimlanib bir musht holiga kelgan gazetda....[1]

Rang oqarish, odatda, personajning hayratda qolishi yoki xafa bo‘lishiga ishora qiladi:

Bu shoshilinch savol sho‘rlik onaning bag‘riga tikondek botdi. Rangi darrov olindi.[2]

Xulosa qilib aytamizki, badiiy personajlar shaxsiy yoki jamoaviy xulq-atvor stereotiplari doirasida turli his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Bu uchun verbal va noverbal hamda turli stilistik va sintaksik vositalar qo‘llaniladi.

Yakubov Jamoliddin (O‘zDJTU professori), Ruzimetov Xamid (UrDU dotsenti)

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “ISTAK” KATEGORIYASINING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqola fransuz tilida istak kategoriyasining fransuz va o‘zbek tillarida ifodalanishiga bag‘ishlangan. Istak kategoriyasi tilda leksik-grammatika va modal fe’llar bilan ifodalanadi. Maqolada istak kategoriyasini ifodalovchi uchta semantik guruh ajratilgan: 1) buyruq ma’nosi bilan uyg‘unlashgan istak; 2) biror harakatni amalga oshirish uchun qilingan urinish, ammo amalga oshmagan istak; 3) payt, sabab, natija, qiyos, shart, to‘siqsiz va o‘rin ma’nolari bilan uyg‘unlashgan istak.*

Аннотация. *Данная статья посвящена французским и узбекским выражениям категории желания во французском языке. Категория желания представлена в языке лексико-грамматическими и модальными глаголами. В статье выделяются три семантические группы, репрезентирующие категорию желания: 1) желание в сочетании со значением команды; 2) попытка совершить действие, но неисполненное желание; 3) в сочетании со значениями времени, причины, результата, сравнение, состояние, без препятствия и места желания.*

Annotation. *This article is dedicated to French and Uzbek expressions of the category of desire in French. The category of desire is represented in the language by lexico-grammatical and modal verbs. The article distinguishes three semantic groups that represent the category of desire: 1) desire in combination with the meaning of the command; 2) an attempt to perform an action, but an unfulfilled desire; 3) in combination with the values of time, cause, result, comparison, state, without obstacles and place desires*

Kalit so‘zlar: *istak kategoriyasi, modal fe’l, darak, so‘roq, buyruq, optativ, imperfekt, preterit, indikativ.*

Ключевые слова: *категория желания, модальный глагол, указательный, вопросительный, императив, оптатив, имперфект, претерит, индикатив.*

Key words: *category of desire, modal verb, demonstrative, interrogative, imperative, optative, imperfect, preterite, indicative.*

Istak tushunchasi so‘zlovchining kommunikativ niyati asosida hosil bo’ladigan darak, so‘roq va buyruq gaplar bilan bir lingvistik kategoriyani – gapning ifoda maqsadi kategoriyasini hosil qiladi. Ushbu semantik kategoriyani ifodalashda esa, tabiiyki, gap mazmunida xohish-istakni ifodalovchi fe’llar muhim o’rin tutadi.

Istakni ifodalovchi fe’llar, bir tomondan, his qilish, sezish fe’llariga yaqin bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular xohishni anglatuvchi fe’llarga yaqindir: istak qandaydir ichki ruhiyat talablarini his qilish, tushunib yetish, shuningdek, ularni qondirishga intilish bilan bog‘langan.

Istak lingvistik kategoriyasi bilan tilshunos olimlar doimo qiziqib kelgan, ushbu til obyektiga bo‘lgan munosabat va e’tibor hozir ham susaygani yo‘q. Mazkur semantik kategoriya haqida turli qarashlar mavjud. Masalan, L.M.Vasilyev[3] ushbu kategoriya to‘g‘risida quyidagicha yozadi: «Intilish istakni amalga oshirish jarayonidagi harakatdir. Istakni ifodalovchi fe’llar his-tuyg‘uni vujudga keltiruvchi fe’llar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular odamga yaqinlikni va unga bo‘lgan mehr-muhabbatga moyillikni anglatib keladi».

[1] Чўлпон А. Кеча ва кундуз. Роман, Тошкент, “Илм-зиё-заковат”, 2019, 87-бет.
[2] Ўша манба. 76-бет.
[3] Васильева Л.М. Семантика русского глагола. М., “Высшая школа”, 1981, с. 49.

Y.Kurilovichning fikricha, «istak so‘zlovchining munosabatidan kelib chiqib, u subyektning va o‘z -o‘zining harakatiga bo‘lgan munosabatiga qarshi qo‘yilishi, shuningdek, istak, mumkinlik va zaruriyat ma’nolariga zid holda ichki modal doira sifatida qaralishi kerak».[1]

«Istak, eng avvalo, so‘zlovchining harakatiga yoki holatiga qaratilgan bo‘lib, gapda u o‘zining shaxsiy (xususiy) talab, orzu-umid va niyat ma’nolarini ifodalaydi».[2]

Y.E.Kordi[3] istak ma’nosini fransuz tili materialida tahlil qilish jarayonida istak ma’nosining sodda, darak va to‘ldiruvchi ergash gaplarda ifodalanishiga e’tibor bergan. U leksik-grammatik voluntativ maydonni tashkil qiluvchi 18 ta modal fe’l va fe’l qurilmalarini taklif qilib, ular haqida umumiy-nazariy tushuncha berib o‘tgan. Ammo muallifning ishida istak ma’nosini sodda, qo‘shma va ergash gapli qo‘shma gaplar tarkibida ifodalanishining chuqur tahlil qilmaganligini kuzatamiz.

Keyinchalik, Y.E.Kordi[4] istak ma’nosini rus tili materialida istakni ifodalovchi sodda darak gaplar tarkibida ko‘rib chiqqan. Muallif fikricha, rus tilida istakni anglatuvchi optativ gaplar quyidagi lisoniy birliklar bilan ifodalanadi: 1) istak maylida kelgan mustaqil sodda gaplar; 2) *bo‘* yuklamasi bilan kelgan infinitiv gaplar; 3) istak maylida kelgan sodda gaplarda *bo‘* yuklamasi bilan birga kelgan leksik birliklar; 4) *bo‘* yuklamasi bilan kelgan fe’lsiz gaplar.

Y.E.Kordi optativ gaplarning ichki xususiyatidan kelib chiqib, ularning quyidagi semantik tasnifini beradi: 1) xususiy istak; 2) buyruq ma’nosi bilan uyg‘unlashgan istak; 3) o‘tgan voqelikni ifodalovchi amalga oshmagan istak; 4) shart, maqsad, qiyos ma’nolari bilan birikib kelgan istak. Sodda gaplar tarkibiga optativ leksik maydonni tashkil qiluvchi jelat, xotet, xotetsya modal fe’llarini kiritgan.

N.A.Kozinseva[5] yuqoridagi fikrlarni rivojlantirib, istak ma’nosining istak maylida ifodalanishini arman tilida sodda darak va to‘ldiruvchi ergash gaplar misolida tahlil qilgan. U subyekt amalga oshirishi mumkin bo‘lgan ish-harakat to‘g‘risida o‘z fikrini bildirib, istak munosabatini uch variantga ajratgan: 1) xususiy istak; 2) niyat; 3) urinish.

L.Chapayeva[6] o‘z tadqiqotida istakni keng ma’noda tushunadi. Uning fikricha, har bir tilda ma’lum bir hodisani tasvirlash uchun juda ko‘p sinonimlar mavjud deb hisoblaymiz. Chet tilini o‘rganishning pragmatik maqsadlari uchun faqat istakni aniqlash mantiqiy xususiyatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki istak ot va uning sinonimlari, verbal va nominal konstruksiyalari yordamida ifodalanishiga e’tiborni qaratish lozim.

Tilshunos olimlarning istak ma’nosiga oid fikr-mulohazalaridan ma’lum bo‘lishicha, ushbu semantik kategoriyani o‘rganishga ular kamroq e’tibor bergan, istak kategoriyasining sodda va qo‘shma gaplarning hamma turlarida qo‘llanishini tahlil qilishmagan.

Bizning fikrimizcha, istak kategoriyasi oldindan biror ish-harakatni rejalashtiradigan va epistemik (gumon, taxmin) ma’nolarni ifodalamaydigan, odamning ichki kechinmalari va his-tuyg‘ularini so‘zlovchining tinglovchiga oldindan ma’lum bo‘lgan amaldagi harakatni aks ettiruvchi istak ma’nosining bajarilish-bajarilmaslik xususiyatini maxsus lisoniy birliklar bilan ifodalovchi til obyektidir.

Istak kategoriyasi tilda leksik-grammatik yo‘llar bilan, aniqrog‘i, modal fe’llar bilan ifodalanadi. Masalan, fransuz tilida *vouloir* ko‘p qo‘llanadigan modal fe’l bo‘lib, u istak-xohish ma’nosini ifodalaydi. Istak ma’nosi baholash modalligiga qarashli bo‘lib, unda istak tushunchasi subyekt bilan uning harakati orasidagi ichki munosabatni ifodalaydi. Fransuz tilshunosligida bu fe’lga shunday munosabat borki, unga ko‘ra vouloir fe’li kam o‘rganilganligi qayd etiladi. Masalan, B.Potye[7] bu haqda shunday yozgan: «En français standard *vouloir* est peu polysémique, mais demande une base animée – Fransuz tili normativ grammatikasida *vouloir* fe’lining semantik xususiyati kam o‘rganilgan, ammo kelajakda ushbu muammo-

[1] Курилович. 1962, с. 27 – 28.

[2] Корди Е.Е. Конструкции с глаголом pouvoir в современном французском языке. Категории глагола и структуры предложения. Л., “Наука”, 1990, с. 174.

[3] Корди Е.Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. Ленинград, “Наука”, 1988, с. 176 – 183.

[4] Корди Е.Е. Конструкции с глаголом pouvoir в современном французском языке. Категории глагола и структуры предложения. Л., “Наука”, 1990, с. 174.

[5] Козинцева Н.А. Временная локализованность действия и ее связи с аспектуальными, модальными и таксисными значениями. Л., “Наука”, 1991, с. 87.

[6] Чапаева Л.Г. Лексические средства выражения желательности во французском языке. Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов, “Грамота”, 2016. № 3(57), в 2-х ч, ч. 1, с. 189–192.

[7] Pottier B. Sur la formulation des modalités en linguistique. Languages. № 43,1976, p. 39 – 46.

ni yechish uchun alohida tadqiqot o‘tkazish talab qilinadi – J.Y.». Keyinroq, Y.E.Kordi o‘zining nazariy qarashlarida bu fikrni yanada rivojlantiradi.

Haqiqatda, ushbu fe’l semantik mohiyatini aniq namoyon qilishi bilan boshqa modal fe’llardan farq qiladi. Bu fe’l epistemik (taxmin, gumon, shubha) ma’nolarni emas, balki faqat istak-xohish, niyat, maqsad tushunchalarini ifodalaydi. Ushbu fe’l sodda darak gaplarda S V_m V_{inf} modeli asosida tuzilib, u situativ modallikni ifodalasa, qo‘shma gaplarda esa turli sintaktik modellarni hosil qilib, subyektiv bahoni anglatib keladi. Bunday holda istakni ifodalovchi sintaktik qurilma yordamida subyekt modalligi amaldagi asosiy harakat subyektiga mos tushadi. Subyektiv baho, ya’ni so‘zlovchi obyektiv voqelikni istak tarzida baholaydi. Shunday qilib, situativ va baholash modalligiga bo‘linishda istak ma’nosini ifodalovchi fe’llar qo‘llanadi. *Vouloir* fe’lining *pouvoir* va *devoir* fe’llaridan farqi shuki, u situativ va baholash modalligini hosil qilib, sintaktik ifodani namoyon qiladi. Bu modal fe’l sodda darak gap tarkibida S V_m V_{inf} modeli asosida matnda uchta istak ma’nosini anglatuvchi variantni hosil qilish mumkin: 1) istak; 2) niyat; 3) biror istakni amalga oshirish uchun urinish. Bu tushunchalarning hammasini *vouloir* fe’li qamrab oladi va uning yordamida jonli nutq amalga oshadi. Quyida sodda gaplar tarkibida istak ma’nosining qanday ifodalanishini ko‘rib chiqamiz.

Darak gaplar voqelikdagi biror narsa, voqea-hodisa haqida xabar beradi. Shuning uchun ham bunday gaplar nutqning barcha uslublarida keng qo‘llanadi. Darak gaplarda so‘zlar odatdagi tartibda joylashadi. Ohang gapning bosh qismida ko‘tariladi, oxirida esa pasaya boradi. Darak gaplarning uslubiy xususiyatlaridan biri xabarning tasdiq yoki inkor shaklida ifodalana olishidir. Darak gaplarning sintaktik shakli bilan sintaktik ma’nosi o‘rtasida mutanosiblik mavjud: sintaktik darak ma’nosi gapning sintaktik darak shakli orqali ifodalanadi.

(1) Forestier **voulait acheter** deux vases pour les poser sur sa bibliothèque (MBA, 125).	Foreste o‘zining Parijdagi kabineti uchun ikkita vaza **olmoqchi ekan** (MA, 172).
(2) – Ecoute, ma mignonne, je ne **voulais point** te **blesser**; je nai point songé à ce que je disais (MBA, 76).	Menga qara, asalim, seni sira ham **xafa qilmoqchi emasdim**. Men o‘ylamay gapirib yuboribman (MA, 99).
(3) Il **voulait retourner sasseoir** au bord de la mer, sur la plage, pour dormir (CM, 70).	Uning dengiz bo‘yiga **qaytgisi**, sohilda **uxlagisi keldi** (KM, 57).
(4) John **voulut** le **retourner**, mais sans y parvenir (CM, 133).	Jon uni o‘rnidan qo‘zg‘atishga **urinib ko‘rdi**, biroq uddalay olmadi (KM, 115).

Berilgan sodda gaplarda istak kategoriyasi fransuz va o‘zbek tillarida turlicha ifodalanmoqda. Fransuz tilida modal fe’l *vouloir* mustaqil fe’llar bilan birga kelib, kelajakda amalga oshishi mumkin bo‘lgan niyat, istak (1,3) va amalga oshgan istakni (2,4) ifodalamoqda. Fransuz tili misollarida imperfect (o‘tgan zamon davom fe’li) (1,2,3) va preterit (sodda o‘tgan zamon fe’li) indikativ zamonlari (4) qo‘llangan. Misollarda istak, niyat ma’nolari bilan birga buyruq va inkor (2) ma’nolari ham ifodalanmoqda.

Istak gaplarning semantik subyekti sifatida atoqli otlar (2,4) va kishilik olmoshlari (2,3) qo‘llanib, xususiy istak va niyat ma’nolari ifodalanyapti. Barcha misollarda indikativ mayli va fe’llarning aktiv nisbati qo’llangan. Misollarda ifodalangan istak har xil, ular ijtimoiy (1), axloqiy (2), o‘rin (3) va obyektiv (6) kabi istak turlaridir.

O‘zbek tilida istak kategoriyasi asosiy fe’l va to‘liqsiz fe’l shakllaridan (1,2) *emas, emasdi* yordamida berilgan, ya’ni, asosiga (ol, qil, qayt, uxla) fe’lning maxsus modal shakllari (-moqchi ekan, 1) -moqchi emasdim; 2) -gisi keldi (1) qo‘shilishi bilan ifodalangan. Bundan tashqari, fe’llar o‘zagiga qo‘shilgan o‘tgan zamon maqsad fe’li qo‘shimchasi *-moqchi* shakli ham istakni ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Uchinchi misolda istak ma’nosi asosiy fe’lga q*gi* qo‘shimchasining qo‘shilishi bilan va ko‘makchi fe’l *keldi* yordamida berilgan. Oxirgi misolda (4) esa istakni amalga oshirishga bo‘lgan urinish ma’nosi ta’kidlangan. Bu yerda *urin* yetakchi fe’lining ravishdosh shakli *qib* va ko‘makchi fe’l *ko‘rdi* qo‘shilishi bilan fe’lning analitik shakli hosil bo‘lgan. Bunda istak amalga oshmagan, lekin tugallangan ish-harakat

ifodalanayapti. O‘zbek tilida istak kategoriyasini ifodalashda o‘tgan zamon maqsad (1,2) va yaqin o‘tgan zamon (3,4) fe’l shakllari qo‘llangan.

Demak, misollarda semantik nuqtayi nazardan istak, niyat, buyruq, inkor, urinib ko‘rish, afsuslanish kabi ma’nolar ifodalangan bo‘lsa, grammatik ma’no esa ish-harakatning davom etayotganligi, kelajakka qaratilganligi (1,2,3) va tugallanganligi (2,4) to‘liqsiz va ko‘makchi fe’l shakllari orqali ifodalangan.

Shunday qilib, yuqorida sodda va qo‘shma gaplarda istak kategoriyasining qo‘llanish yo‘llarini fransuz va o‘zbek tillarida qiyosiy tahlil qilib quyidagi xulosaga keldik.

Istak kategoriyasini quyidagi semantik guruhlarga bo‘lish mumkin: 3) buyruq ma’nosi bilan uyg‘unlashgan istak; 4) biror harakatni amalga oshirish uchun qilingan urinish, ammo amalga oshmagan istak; 5) payt, sabab, natija, qiyos, shart, to‘siqsiz va o‘rin ma’nolari bilan uyg‘unlashgan istak.

Modal fe’llar sodda gaplarda (darak, so‘roq va undov) faqatgina istak kategoriyasini anglatib qolmasdan, niyat, maqsad, dilkashlik, xushmuomalalik, taklif va zaruriyat kabi ma’nolarni ham ifodalaydi. Bunday ma’nolar fransuz va o‘zbek tillarida morfologik, leksik va sintaktik yo‘llar bilan ifodalanadi.

Sodda istak gaplarga xos xususiyat shuki, ularda bitta matnda ayni paytning o‘zida uchta modal fe’l (vouloir, pouvoir, devoir) bilan kelib, istak, mumkinlik va zaruriyat ma’nolarini ifodalaydi. Bunday hodisa modal fe’llarning so‘zlovchi bilan tinglovchi orasida yuz beradigan dialogik nutqda qo‘llanishidan kelib chiqadi.

Otajanova Lola Ozodovna (Urganch davlat universiteti Roman-german filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi)

OGAHIY TARIXIY ASARLARI TARJIMASIDA RUTBA VA MANSABLARNING INGLIZ TILIDA IFODALANISH USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asaridagi mansabga oid so‘zlarning Y.Bregel tomonidan ingliz tiliga tarjimasi haqida ma’lumot beriladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается информация о переводе слов, связанных с наименованиеями должностей, в «Фирдавс уль-Икбал» Муниса и Огахи на английский язык Ю. Брегелем.*

Annotation. *This article provides information about the translation of words related to rank in Munis and Agahi’s “Firdavs ul-Iqbal” into English by Y.Bregel.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, tarixiy kolorit, tarjima usullari, transliteratsiya, sarlavha osti izohlari va analogiya.*

Ключевые слова*: перевод, исторический колорит, приемы перевода, транслитерация, сноски и аналогия.*

Key words: *translation, historical coloring, translation methods, transliteration, subtitles and analogue.*

Y.Bregel tarixiy so‘zlarni asliyatda qanday berilgan bo‘lsa, ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida o‘z holicha saqlashga va asliyatning tarixiy koloritini butunligicha yoritishga harakat qilgan. Izlanishlar jarayonida shuni ko‘rishimiz mumkinki, Y.Bregel Xiva xonligining tarixini, xalqning ijtimoiy hayotini shunchaki tasvirlab qolmasdan, tarixiy xarakterga oid har bir so‘z ustida ancha izlangan va aniq xulosalarga tayangan holda so‘z tanlaviga qo‘l urgan. Y.Bregel tarjima ishini boshlashdan oldin xonliklarning yozishma xatlari va hujjatlarini to‘liq o‘rganib chiqqanligini va XVIII asr Xorazmdagi ijtimoiy va siyosiy hayot haqida ma’lumotlar yetarli bo‘lmaganligini eslatib o‘tgan. Bu borada Uiliyam Vudning quyidagi fikrini keltirish o‘rinli: “Y.Bregel muharrirligi ostida siyosiy va iqtisodiy terminlarning ma’nosini yanada aniqroq tushunib olish maqsadida boshqa hujjatlarga, aniqrog‘i, Buxoro xonligi, Eron va Oltin O‘rda hujjatlari borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xiva xonligi va Buxorodagi atamalarning qo‘llanishi o‘rtasida to‘liq mutanosiblik yo‘qligiga taxmin qilgan holda, barcha dalillarga asoslanib, butun O‘rta Osiyo hududi terminlarning fors va turk-mo‘g‘ul ma’muriy shakllari aralashmasiga tayanganligini muqarrar tafovutlarsiz kuzatishimiz mumkin.[1]

Tarjima faoliyatida Y.Bregel “Firdavs ul-iqbol” asarini tarjima qilishda tarjima usullarining barchasidan mahoratli foydalangan. Bu borada N.Adamboyeva o‘z tadqiqotlarida shunday fikr bildirib o‘tgan: “Firdavs ul-iqbol” asarining Y.Bregel tarjimasiga xos xususiyatlarini o‘rganish asosida olimning translite-

[1] WOOD W. A Collection of Tarkhan Yarlïqs from the Khanate of Khiva. Bloomington, Indiana, 2005, p. 31.

ratsiya, transkripsiya, kalkalash, tasviriy tarjima, yaqinlashtirilgan tarjima va transformatsion tarjima kabi tarjima usullaridan foydalanganligi ma'lum bo'ldi".

Tarjimon asliyatdagi ma'lumotlarni bir tildan boshqasiga o'girish jarayonida nafaqat tarjima tili alifbosidagi mavjud harflar yordamida shaklni ko'chiradi, balki uni maqsadli ravishda transformatsiya orqali ham o'zgartirib, ma'no va mazmunni saqlab qolishga harakat qiladi. Y.Bregel boshqaruv tizimining mansab va rutbaga oid terminlari tarjimasida ikkita usuldan keng foydalangan:

1. Transliteratsiya. Tarixiy so'zlarni bu usul orqali tarjima qilish tarjima jarayonida keng tarqalganligining guvohi bo'lamiz. Asliyatda qo'llanilgan tarixiy va madaniyatga aloqador so'zlarning ikkinchi bir tilda – tarjima tilida mavjud emasli transliteratsiya usulidan foydalanishni yuzaga keltirdi. Bu bilan tarjimon kitobxonda lug'at boyligini o'shirishga hamda uning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Boshqa tillardan transliteratsiya usuli orqali kirib kelgan so'zlar vaqt o'tgani sari o'sha xalq leksikasida o'rnashib, asta-sekin keng tarqalib, turmush tarziga singib boradi. Misol tariqasida bugungi kunda inglizzabon kishilarning kundalik nutqida ishlatiladigan arab tilidan kirib kelgan so'zlarni keltirishimiz mumkin: *alcohol, sugar, admiral, coffee, sofa* va boshqalar.

Tarixiy so'zlar leksikasini tarjima qilishda ko'plab tarjimashunos olimlar turli fikrlar bildirganlar. Eng avvalo, shuni aytib o'tish o'rinliki, so'zlarning ma'nosi kontekstdan kelib chiqib tarjima qilinadi. Peter Nyumerkning quyidagi fikrini kelrirish joiz: "In academic texts and educated writing, they are usually (e.g., all the above except *Steele des Lumieres,* lthe Age of Enlightenment1) transferred, with, where appropriate, a functional or descriptive term with as much descriptive detail as is required. In popular texts, the transferred word can be replaced by the functional or descriptive term".[1]

Ogahiy va Munis qalamiga mansub tarixiy asarlarda mansab va rutbalar bir necha guruhlarga ajratilgan bo'lib, biz boshqaruv jihatidan yuqori iyerarxiyada joy olgan unvonlarning tahlilini ko'rib chiqamiz.

Mansab jihatidan eng yuqori deb sharaflangan va Turkiston xonliklarida xonlik boshliqlarining shaxs ismlaridan keyin ishlatilgan *xon* istilohi oliy unvon hisoblangan. Bu unvon saltanat hukmdori va harbiy yurushlarga bosh qo'mondonlik qilgan harbiy daraja egasi ham hisoblangan.

"After 'Abd al-'Aziz *Khan*, he was brouhgt from Bukhara and raised as *khan*"(FI,76) "Ani Abdulaziz*xon*din so'ng Buxorodin kelturub, *xon* ko'tardilar" (FI, 9).

Asliyat va tarjima shaklidagi misollarni tahlil qilish jarayonida shuning guvohi bo'lishimiz mumkinki, ikki tilda ham *xon* istilohi bir xil ma'nolarni anglatgan: *Khan* – a. hist. The specific title given to the successors of Chingiz Khan, who were supreme rulers over the Turkish, Tartar, and Mongol tribes, as well as emperors of China, during the middle ages. b**.** In later use: a title (now of slight import) commonly given to rulers, officials, or men of rank in Central Asia.[2]

Xon – 1) tar. turkiy va mo'g'ul xalqlari hukmdorlari unvoni. Qo'qon xoni. Xon saroyi; 2) tar. xonlik qilgan, xon lavozimidagi shaxs ismiga qo'shilib, unvon ifodalaydi. Bahodirxon – Xivada, Xudoyorxon – Qo'qonda xonlik qilgan.[3]

Khaqan – ingliz tili lug'atlaridan joy egallagan bo'lib, yirik davlatning mutlaq hukmdori, "ulug' xon", "shahanshoh" degan ma'nolarda ishlatilib, turkiy va mo'g'ul xalqlarida imperator maqomiga teng ravishda ishlatilishi ifodalangan. Ogahiy tarixiy asarlarida *xon* va *xoqon* so'zlari sinonim sifatida ishlatilsa ham, *xoqon*da *xon*ga nisbatan ulug'lash, ta'zim ma'nolari kuchliligini kuzatamiz. Solnomalarda *xoqon* so'zining boshqa xonlik xonlariga nisbatan qo'llanmagani fikrimiz isbotidir. Qadimdan "davlat boshlig'i" ma'nosidagi ushbu so'z Turk xoqonligining davlat qurilishiga mos ravishda, ayni paytda, Oliy bosh qo'mondon mazmunini ham anglatgan:[4] "Hazrati *xoqoni* a'zam"(FI, 36) "...the greatest *khaqan*" (FI, 9).

Shuningdek, *sultan* – so'zi ham ingliz tiliga arab, fransuz va o'rta asr lotin tilidan kirib kelgan va aynan o'zbek tilida qanday ma'noga ega bo'lsa, shu tarzda ishlatilib kelmoqda: the title given to Muslim rulers in some countries.[5]

---

[1] Newmark P. A Textbook of translation. Herdford-shire, Prentice Hall, 1988, p. 101.

[2] The Oxford English Dictionary, Volume 8. Oxford, Clarendon Press, 1989, p. 412.

[3] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – 2008, 410-bet.

[4] O'razboyev A.D. Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Toshkent, 1991, 30-bet.

[5] https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/sultan

Sulton – so‘zi ham mutlaq hukmdor ma’nosini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, quyidagicha izohlanadi: 1. X асрларда musulmon mamlakatlarida hukmdorlar *sulton* deyilgan. XI asrda saljuqiylardan boshlab, bu unvonni arab xalifaligidan mustaqil davlat hukmdorlari olgan. Hozirda mazkur unvon davlat boshqaruvi monarxiya bo‘lgan ba’zi islom davlatlaridagina saqlanib qolgan. Masalan, Bruney sultoni. 2. Mo‘g‘ul feodal imperiyasi inqirozidan keyin podshohlik qilmagan chingiziylar sulton deb yuritilgan.[1] Y.Bregel asliyatda qanday keltirilgan bo‘lsa, tarjima matnida ham transliteratsiya usuli orqali shu tarzda ifodalashga harakat qilgan: “...*sultoni* olam”(FI, 36) “...the *sultan* of the world (FI, 9).

Amir – so‘zi ingliz tilida *amir, emer, emeer, emir* kabi shakllarga ega bo‘lib, quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1. A Saracen or Arab prince, or governor of a province; a military commander. 2. A title of honour borne by the descendants of Mohammed.[2]

Amir so‘zi tarixiy asarlarda quyidagi ma’nolarda ishlatilgan:

1. Podshoh, hukmdor,[3] ya’ni, boshqaruv tuzumi amirlik (amorat) bo‘lgan davlat boshlig‘i: *“an **amir** by the name of Khojam Quli Qoshbegi, togather with the troops under his command”*(FI, 39*)–“Xo‘jamquli qo‘shbegi degan **amiriy** o‘zig‘a taaluq sipohi bila eronvul qilib, ilgari yiborib erdi”* (FI, 87).

O‘z-o‘zidan ma’lumki, muayyan xalq turmush tarzini ifoda etadigan so‘zlargina bunday tushunchlarga ega bo‘lmagan xalqlar tillariga betarjima – asliyatdagi shaklida o‘tkaziladi, shu tariqa, tarjimada muallif matnining milliy bo‘yog‘i adekvat talqin etiladi.[4] Xos so‘zlarni transliteratsiya usuli yordamida tarjima qilish, shuningdek, *transferens* va *olinma so‘zlar* usuli deb ham ataladi. Biroq har doim ham tarixiy va milliy ahamiyatga xos tushunchalar transliteratsiya yoki transkripsiya orqali o‘girilmaydi.

Tasvirlanayotgan tarixiy voqea yoki atamaning mohiyatini inglizzabon kitobxon tushunishi uchun tarixiy leksikani tarjima qilish jarayonida tarjimon kompleks usullardan foydalanadi: 1) tarixiy terminning transliteratsiyasi, shu bilan bir qatorda, tarjima variantining nashrida ilova tarzida batafsil sharf berilishi; 2) asliyatdagi tarixiy so‘zning analogini berish. Bu asarda keltirilgan barcha rutba va unvonlar 252-sarlavha osti sharhlari bilan izohlanganligining guvohi bo‘lamiz. Y.Bregel aynan shu izohda Munis asarlari Abulg‘ozi Bahodirxon ma’muriy-boshqaruv tizimi haqida ma’lumot beruvchi yagona manba ekanligini eslatib o‘tgan. Agarda tarjima tilida asliyatdagi tushunchaning muqobili mavjud bo‘lsa, tarjima tilida mavzu tushuncha orqali o‘girish mumkin.

2. Analogiya. Bu asliyatdagi so‘zni tarjima tilidagi boshqa bir o‘xshahslik orqali ifodalash usulidir. Vazifasi nuqtayi nazaridan o‘xshash tushunchalar asliyatdan tarjima tiliga ko‘chganda tarixiy va milliy koloritini yo‘qatadi. Tarjimon bu borada *shohanshoh* so‘ziga tarjima matnida analog hisoblangan *monarch* tushunchasini berish orqali adekvatlikka erishgan:

Monarch – 1) a. In early use, a sole and absolute ruler of a state. In modern use, a sovereign bearing the title of king, queen, emperor, or empress, or the equivalent of one of these.[5]

Hukmdor ma’nosini ifodalovchi leksik birliklar har doim ham mansab va boshqaruv tizimini ifodalash vazifasida ishlatilmagan. *Shohanshoh, shahanshoh shohonshoh*ning o‘zgargan shakli bo‘lib, “shohlar shohi” degan ma’noni bildiradi.[6] Ba’zan ushbu tushuncha yordamida hurmat va ehtirom ham ifoda qilingan: “They attired *the monarch* in a robe of honor (sarupa),”(FI, 259)-“Kiyurdilar *shahanshahg‘a* sarupo” (FI, 262).

Voliy والی – **(**hokim, hokimiyat vakili). O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlarida xon va podshoh tomonidan tayinlanigan viloyat hokimi.[7] Tarixiy asarlarda voliy so‘zining quyidagi ma’nolarda ishlatilganini ko‘rish mumkin: 1) viloyat hokimi; 2) mamlakat hukmdori; 3) XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin yaratilgan forsiy manbalarda general-gubernator ma’nosida.[8] Tarjima matnida tarjimon *voliy* leksemasini ma’no jihatdan o‘zaro bir-biriga yaqin bo‘lgan ikkita tushuncha – *governor* va *ruler* orqali ifodalagan:

Governor – leksemasi ishlatilish jihatidan *ruler* so ‘ziga nisbatan ancha keng ma’noga ega bo‘lib, quyidagi ma’nolarda qo ‘llaniladi: 1**)** an elected official who is the political head of a state in the USA: 1a) an official who governs a country or part of a country that is ruled by another state; 1b**)** an official

---

[1] Choriyev Z. Tarix atamalarining qisqacha lug‘ati. Toshkent, “Sharq”, 1999, 54-bet.
[2] The Oxford English Dictionary, Volume 5, Oxford, Clarendon Press, 1989, p. 180.
[3] Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I jild, Toshkent, “Fan”, 1983, 85-bet.
[4] Qudrat Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2005, 95-bet.
[5] The Oxford English Dictionary, Volume 9, Oxford, Clarendon Press, 1989, p. 986.
[6]. لغت نامه درج۳. بزرگترین کتابخانه شعر فارسی Al-rams. www. mehrahgam.com.
[7] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild, Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – 2008, 467-bet.
[8] Персидско-русский словарь. Том II, М., “Русский язык”, 1983, с. 692.

who is sent by the central government to govern an area of the country: *"**the governor (vali)** of Merv"(* FI, 213*) –"Marv **voliysi**"* (FI, 220).

Ruler – 2 *someone who controls a country*[1] ma'nosini ifodalab, asliyatdagi mamalakat hukmdori vazifasini ifodalovchi shaxsga nisbatan ishlatilgan:

*"Tore Murad Sufi, with the assistance and aid of Mir Haydar Khan, the **ruler (vali)** of Bukhara"* (FI, 283) *–"To'ramurod so'fi Buxoro **voliysi** Mir Haydarxonning muovinat va muozidati bila kelib..."*(FI, 291).

Ruler va *governor* so'zlarining turli ma'no qirralarini sinchiklab tahlil qilgan holda biz asliyatdagi *voliy* tarixiy terminini tarjimada *governor* leksemasi bilan berish barcha holatlarda to'g'ri variant deyishimiz mumkin. Bunda Y.Bregel so'zlarning takrori tarjima sifatiga salbiy ta'sir qilishini nazarda tutib, sinonim so'zlardan foydalanishni ma'qul ko'rgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Hukmdorning o'g'il farzandlari Xiva xonligida *shahzoda* va *to'ra* istilohi bilan nomlangan bo'lib, tarjima matnida bu ikkala termin ham *prince* leksemasi orqali ifodalangan. Prince so'zi tarjima tilida bir-biriga yaqin bo'lgan bir necha ma'nolarni anglatadi:

1) male member of a royal family other than the reigning king. *"Therefore the **princes(torelar)** became embittered and enraged and fighting daily..."*.(FI, 29)*–"Bu jihatdan **to'ralar** mushaddad va g'azabnok bo'lub"* (FI, 79); *"all the princes (shahzada) started war against him"(FI,* 29*) –"barcha shahzodalar anga xusumat paydo qilib..."*(FI, 79);

2) ruler of a small state: "He assigned every country (mamlakat) to a *prince* (shahzada) and every province (diyar) to an amir."(FI, 29) – "Va har mamlakatni bir *shahzodag'a* va har diyorni bir amirg'a tafviz qildi"(FI, 79).

Tarixiy solnomalarda shahzoda, to'ra va inoq so'zlari monarxiyaga taalluqli atama sifatida qo'llanilib, taxt merosxo'ri tushunchasini ifodalagan. Shu bilan bir qatorda, *heir* leksemasi *valiahd* ma'nosida ingliz tilida quyidagi ma'noda ishlatilganligini ko'ramiz: The person who is entitled by law to succeed another in the enjoyment of property or rank, upon the death of the latter; one who so succeeds; in general use, one who receives or is entitled to receive property of any kind as the legal representative of a former owner.[2] Tarjima jarayonida analogdan foydalanish orqali to'liq muqobillikka erishilgan: "*Menglish Bahadur became heir to his father"*(FI, 91) – "*Menglish Bahodir otasi valiahd qilib erdi*"(FI, 120).

Analog usuli "*yaqin tarjima*" deb ham hisoblanadi. Lekin bu termin nomining o'ziyoq asl nusxadagi xos so'zlarning barcha vazifalarini, ma'no qirralarini to'liq ifoda etmasligini ko'rsatib turibdi: o'xshash o'xshash-da, aynan o'zi emas![3]

Tarixiy asarlar tarjimasi nihoyatda mushkul masala hisoblanib, aksariyat hollarda, tarjima tarjimonning mahorati va salohiyatiga bog'liq holda amalga oshiriladi. Bunda tarjimashunoslikda yozilmagan qoidalarga tayangan holda ish olib boriladi. Tarixiy solnomalardagi rutba, unvon va kasb-korga oid leksemalarning tarjimasida Y.Bregel barcha usullardan foydalangan, ammo transliteratsiya va analog usullaridan nisbatan keng foydalanganligi kuzatiladi. Asosan, bu ikkala usuldan foydalanilganligining sababi – asliyat va tarjima tili xalqlarining ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlari turlicha bo'lganligi deb hisoblansa, boshqa tomondan, turli mahalliy realiyalar orqali kitobxonni chalg'itmasdan tarixiy davrni bus-butunligicha gavdalantirish deb ko'rsatish asosli, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Bahriddinova Yulduzxon Bahriddin qizi (TerDU stajyor o'qituvchisi; yulduz.bahriddinqizi@gmail.com)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FITOFRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI ELEKTRON LUG'ATLARDAN TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Hozirgi rivojlangan raqamlashtirilayotgan fan va texnologiyalar davrida har bir sohaga, xususan, tilshunoslik va uning yo'nalishlariga zamonaviy aqlli texnologiyalar bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada leksikografiya, elektron lug'atlar va ularda fitonim komponentli frazeologik birliklarni tarjima qilishda duch kelinadigan muammolarni ingliz va o'zbek tillari misolida muhokama qilinadi.*

[1] Macmillan English Dictionary for advanced Learners. Oxford: Macmillan Publishers Limited, 2006, p. 1242.
[2] The Oxford English Dictionary, Volume 9. Oxford: Clarendon Press, 1989, p. 109.
[3] A'zamov Q. "Mehrobdan chayon"ning ikki tarjimasi. Tarjima muammolari (maqolalar to'plami). 1-kitob, T., 1991, 154-bet.

***Аннотация**. Современные смарт-технологии оказывают прямое влияние на каждую область, особенно, на лингвистику и ее направления в эпоху передовой оцифрованной науки и техники. В данной статье рассматриваются проблемы, возникающие при лексикографии, электронных словарях и переводе фразеологизмов с фитонимическим компонентом на примере английского и узбекского языков.*

***Annotation**. Modern smart technologies have a direct impact on every field, especially on linguistics and its directions, in the era of advanced digitized science and technology. This article discusses the problems encountered in lexicography, electronic dictionaries and the translation of phraseological units with a phytonym component on the example of English and Uzbek languages.*

***Kalit so‘zlar**: leksikografiya, kompyuter tarjima, frazeologik birlik, elektron lug‘at, fitonim.*

***Ключевые слова**: лексикография, компьютерный перевод, фразеологизм, электронный словарь, фитоним.*

***Key words**: lexicography, computer translation, phraseological unit, electronic dictionary, phytonym.*

Kirish. Hozirgi kunda mamalakatimizda chet tillarini o‘qitish va o‘rganish jadal rivojlanmoqda, ayniqsa, ingliz tilini o‘rganish kelayotgan yangi avlodning kundalik hayotida asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda, shu bilan birgalikda, ular chet tillarini o‘rganish uchun yangi turli axborot texnologiyalari va kompyuter texnologiyalarining taraqqiyoti natijasida yaratilayotgan elektron ilovalar, dasturlar hamda videodarslardan foydalanishmoqda. Shuning natijasida yaratilayotgan kompyuter texnologiyalarini ham har kuni yangilash yoki rivojlantirish nafaqat kompyuter dasturchilarning, balki tilshunoslarning ham asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda. Bu elektron darsliklar, dasturlar va ilovalarni yaratishdan asosiy maqsad o‘rganuvchilarga vaqtini tejashga va biror maqsadga erishishiga amaliy yordam berishdan iborat. Bu ishlarni bajarishda biz, albatta, kompyuter lingvistikasining leksikografiya bo‘limiga murojaat qilamiz. Kompyuter leksikografiyasi amaliy tilshunoslikning kompyuter lug‘atlari, lingvistik ma’lumotlar bazalarini yaratish va leksikografik ishlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘limidir. Kompyuter leksikografiyasi – kompyuter lingvistikasining yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kompyuter orqali lug‘at tuzish, lug‘at tuzish prinsiplarini, lug‘atshunoslik ishlarini avtomatlashtirish va ixchamlashtirish, bibliografik ma’lumotlarni avtomatik yo‘l bilan qidirish va ularga qayta ishlov berish kabi masalalarni o‘rganadi [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘tgan asrning 60-yillarida shakllana boshlagan kompyuter lingvistikasining bosh maqsadi ham inson tafakkur tarzini modellashtirish asosida sun’iy intellekt yaratishga xizmat qiladi. Buning uchun oliy o‘quv yurtlarida kompyuter lingvistikasi bo‘yicha matematik, lingvist, kompyuter dasturchilari va muhandislari faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi tuzilma kafedra, laboratoriya)lar shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir. An’anaviy va kompyuter leksikografiyasining asosiy vazifalari lug‘atning tuzilishini va lug‘at yozuvining zonalarini aniqlash, shuningdek, har xil turdagi lug‘atlarni tuzish tamoyillarini ishlab chiqishdir. Lug‘at an’anaviy ravishda ushbu so‘zlarning tuzilishi yoki funksiyasining xususiyatlarini tavsiflovchi sharhlar bilan tuzilgan so‘zlar to‘plami sifatida ta‘riflanadi. Elektron (avtomat, kompyuter) lug‘at – bu inson foydalanishi uchun mo‘ljallangan yoki murakkabroq kompyuter dasturlarining (masalan, mashina tarjimasi tizimlari) tarkibiy qismi sifatidagi maxsus kompyuter formatidagi so‘zlar to‘plami. Shunga ko‘ra, foydalanuvchi uchun avtomatik lug‘atlar va so‘zni qayta ishlash dasturlari o‘rtasida farq mavjud. Bugungi kunda kitob shaklidagi lug‘atlar o‘rnini elektron lug‘atlarga bo‘shatib bermoqda, zamonaviy kompyuter dasturlari xorijiy matn bilan ishlash yoki kerakli ma’lumotlarni chet tiliga tarjima qilish imkonini yaratib bermoqda [2].

Elektron lug‘at – bu ma’lumotlar raqamli shaklda mavjud bo‘lgan va turli xil ommaviy axborot vositalari orqali kirish mumkin bo‘lgan lug‘at. V.Dubichinskiy elektron lug‘at tushunchasini ma’lum darajada tushuntirib, elektron lug‘at atamasini avtomatlashtiril (yo‘naltiril)gan tizimga nisbatan qo‘llashni targ‘ib qiladi, bunda tushunchalar nomlari ma’lum bir tarzda to‘planadi va tartibga solinadi. Uning fikricha, elektron lug‘atlarda odatda jadval, semantik tarmoqlar yoki semantik guruhlar ko‘rinishida tizimli tarzda taqdim etilishi mumkin bo‘lgan atamalar va terminologik iboralar to‘plami mavjud.[3] Foydalanuvchi uchun mo‘ljallangan avtomatik lug‘atlar, odatda, oddiy lug‘atlarning kompyuter versiyalaridir. Avtomatik lug‘atlar, shuningdek, oddiy lug‘atlarning tuzilishini amalda takrorlaydi, lekin ularning prototiplarida mavjud bo‘lmagan funksiyalarni oladi, masalan, saralash ma’lumotlari va lug‘at holati so‘zlarning tez va oson bir necha funksiyalarni bajarish orqali topiladi. Tadqiqotchilar elektron va an’anaviy, ya’ni, bosma materiallar o‘rtasidagi gibridlanish tamoyillarini aniqlaydilar:

1) o‘zgarmas lug‘at materiallari va katta lug‘aviy bazasi bo‘lgan ko‘p jildli qog‘oz lug‘atlardan foydalanishda noqulayliklar tug‘diradi (masalan, ular harakatchan emas va axborotni tez olishda qiyinchilik tug‘diradi);

2) lug‘atga bosma formatda o‘zgartirishlar kiritish va uni o‘zgartirish jarayoni ko‘p vaqtni va ish kuchini talab qiladi [4].

Natijalar. Elektron lug‘atlarda bu kabi muammolar yechilishi juda oson. Kompyuter leksikografiyasi bugungi kunda o‘z dolzarbligini so‘z, frazeologik birlik yoki butun bir matnni avtomatik tarzda tarjima qilishda saqlab qolmoqda. Biz bilamizki, bugungi kunda ingliz tilidan o‘zbek tiliga yoxud o‘zbek tilidan ingliz tiliga so‘zlarni yoki butun boshli matnni tarjima qilish imkoniyatimiz yetarli, lekin o‘sha matnda biror bir frazeologik birlik – idiomalar kelsa, matn tarjimasida va ma’nosida g‘alizlik, ya’ni tushunarsizlik paydo bo‘ladi. Shu munosabat bilan, biz ingliz va o‘zbek tillaridagi fitonim komponentli frazeologik birliklarni asosiy manba qilib oldik va ushbu komponentga ega bo‘lgan frazeologik birliklarni bu tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda yuzaga keladigan bir qancha muammolarning guvohi bo‘ldik, xususan:

1) elektron lug‘atlarda yoki tarjima dasturlarda ingliz tilidagi fitonim komponentli frazeologik birliklarni o‘zbek tiliga tarjimaga berilganda u anglatayotgan konnotativ, ya’ni, ko‘chma ma’nosi emas, balki fitonim so‘zlarning aynan o‘z ma’nosi, yani denotativ ma’nosi chiqib keladi, masalan: *the answer is a lemon – javob – limon*. Aslida esa biz bu frazeologik birlikning konnotativ ya’ni, *biror kishi tomonidan bajarilgan ahmoqona ish yoki voqea-hodisa* degan ma’nosini izlagan edik (4).

2) o‘zbek tilidagi *boshida danak chaqmoq* frazeologik birligini electron dasturlar quyidagicha tarjima berishdi:

♦*boshida danak chaqmoq – danak Lightning on the head* (yandex tarjima dasturi danak so‘zini tarjima qila olmadi);

♦*boshida danak chaqmoq – lightning in the head* (google translate dasturi danak so‘zini, umuman, tarjimada bermadi);

♦*boshida danak chaqmoq – jazolamoq, azob bermoq.*

Bu tarjima o‘zbek tili so‘zlarining elektron etimologik lug‘atidan topildi (https://uz.wiktionary.org/wiki/danak). Bunday misollarni bir nechta keltirishimiz mumkin. Natijada shu narsa aniq bo‘ldiki, o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarni to‘g‘ridan to‘g‘ri konnotativ frazeologik ma’nosini chiqarib beruvchi na ingliz tilida va na o‘zbek tilida bironta ham elektron lug‘atga duch kelmadik.

Muhokama. O‘zi aslida tarjima jarayoni elektron lug‘atlarda qanday amalga oshiriladi? Elektron tarjimada quyidagi funksiya va vazifalar ketma ketlikda amalga oshiriladi:

1. Birinchi o‘rinda so‘z, ibora yoki matn kiritiladi va tarjima qilinadigan til tanlanadi. Qidiruv morfologik tahlil bilan birga olib boriladi, bunda berilgan so‘z shaklining ma’lum leksemaga (lug‘at birligi sifatidagi so‘z) tegishliligi aniqlanadi.

2. Keyingi bosqich quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

–berilgan sohaga oid idiomatik iboralar, frazeologik birliklar yoki qoliplarning tarjimasi [2.7]. Masalan, inglizchadan o‘zbekchaga tarjimada “out of date” iborasi bitta – so‘z “eskirgan” bilan tarjima qilinadi yoki “historical monuments” termin birikmasi o‘zbek tiliga “tarixiy obidalar” deb beriladi. Bular to‘g‘ri tarjimalar uchun misollardir, biroq mashina tarjimasi bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Masalan, “*a tough nut to crack*” iborasi, aslida, “hal qilinishi qiyin, chigal bo‘lgan muammo” deb tarjima qilinadi [5], elektron tarjimada esa *“yorilish uchun qattiq yong‘oq”* deb o‘giriladi. O‘zbek tilidan ingliz tiliga elektron tarjimaga diqqat qarataylik, “bug‘doyga tushgan mitaday” iborasi ingliz tiliga qisman to‘g‘ri, ya’ni, “like a grain of wheat” deb tarjima qilinadi, qisman deyishimizga sabab, o‘zbek tilidagi “mitaday” so‘zi ingliz tilidagi tarjimada hasharot nomi bilan emas, balki “don” so‘zi bilan tarjima qilindi;

–o‘zbek va ingliz tillaridagi farqli madaniy unsurlarga asoslangan holda yuzaga kelgan iboralarning tarjimasida so‘zma-so‘z tarjimalar kuzatiladi: *banana republic* iborasi *“banan respublikasi”* tarjimasini so‘zma-so‘z beradi, aslida, bu ibora *davlat boshqaruvi va iqtisodiyoti tanazzulga uchragan davlat* ma’nosini anglatadi [6].

Kompyuter lug‘atlari va mashina tarjimasi dasturlarida ko‘plab kamchiliklar bilan bir qatorda, ijobiy tomonlari ham mavjud.

Tarjima dasturlarining afzalliklari:

♦tarjima ishining yuqori tezligi, ko‘p sahifali hujjatni tarjima qilish soniyalarni oladi;

♦matnning umumiy ma’nosini tez anglay olish;

♦Mutaxassisliklar bo‘yicha lug‘atlarning mavjudligi, bir vaqtning o‘zida bir nechta tarjima variantlarini ko‘rish imkoniyati [2.10].

Xulosa. Kompyuter leksikografiyasining frazeologiya bo‘limi hali chuqur o‘rganilmagan va ushbu sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina deb aytishimiz mumkin. Yuzaga keladigan muammolarning yechimlarini bartaraf etish esa nafaqat kompyuter dasturchilarining, balki tilshunos va adabiyotshunos olimlarning ham oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Chunki hozirgi kundagi global raqamlashtirish jarayonida bu soha shunchaki e’tibordan qolishi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.B.O‘rinbayeva. Kompyuter lingvistikasidan universal qo‘llanma. Samarqand, 2016, 8-bet.
2. Xudaybergenova Z. O‘zbek va turk tillaridan tarjima qilish vositalarini avtomatlashtirish: muammomi yoki qulaylik? Tarjimashunoslar forumi – 2022. Volume 2, Special issue 28 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947|asi factor=1.7, 337-bet.
3. Sherqo‘zi Qulbulov. Kompyuter leksikografiyasi tilshunoslik sohasi sifatida. https://uza.uz/ru/posts/kompyuter-leksikografiyasi tilshunoslik bo‘limi sifatida
4. Bahriddinova Yulduzxon Bahriddin qizi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi fitonim komponentli frazeologik birliklarning chog‘ishtirma tadqiqi. Monografiya, TerDU NMM nashriyoti, Termiz, 2022, 34-bet.
5. Collins cobuild dictionary of idioms – Helping learners with real English.Printed in Great Britain by Caledonian Inlemational Book Manufacturing 1Jd, Glasgow, G64.Reprinted 1997, p. 281. https://www.Collin-sdictionary.com
6. Heba Abdelraheim Alkady.A Dictionary of English Idioms. assistant lecturer atqena faculty of arts Egypt, 2005.alkady.heba@gawab.com,halkady@svu.edu.eg

Otajonov Qahramon Otajonovich (Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISHDA KORRUPSIYA VA UNGA QARSHI KURASH YO‘LLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada davlat xaridlarini tashkil qilishda korrupsiya va unga qarshi kurashish masalalari qarab chiqiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопросы борьбы против коррупции при организации государственных закупок.*

Annotation. *This article discusses the fight against corruption in the organization of public procurement.*

Kalit so‘zlar: *davlat xaridlari, korrupsiya, moliyaviy yo‘qotish, miqdriy yo‘qotish, sifat yo‘qotish, siyosiy yo‘qotish, davlat buyurtmasi.*

Ключевые слова: *государственные закупки, коррупция, финансовые потери, потери количества, потери качества, политические потери, государственный заказ.*

Key words: *public procurement, corruption, financial losses, quantity losses, quality losses, political losses, state order.*

Davlat xaridi tizimi sohasidagi korrupsiya uzoq davrlardan beri mavjud bo‘lgan va milliy chegara bilmaydigan muammolardan biri hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashga ko‘plab tadqiqotlar bagishlangan va dunyo mamlakatlari bo‘ylab davlat va nodavlat dasturlari amalga oshirilmoqda, ammo ushbu tadbirlardan hali sezilarli natijalarga erishilayotgani yo‘q [1.2].

Davlat xaridi tizimida korrupsiyaning mavjudligi faqatgina moliyaviy zarar bilan chegaralanmaydi. Davlat xaridini joylashtirish jarayonida mavjud korrupsiyadan davlat va jamiyat ko‘radigan zararni shartli ravishda to‘rt turga bo‘lish mumkin [3.4]:

1. *Moliyaviy yo‘qotish*–shartnomalarni davlat va jamiyat uchun moliyaviy zararli shartlarda tuzish. Buni sotib olinayotgan tovarlar narxini amaldagi bozor bahosidan yuqori narxlarda sotib olish, davlat shartnomalarida to‘lovlarni kechiktirish emas, balki oldindan to‘lovni amalga oshirish shartlarini kiritish va boshqa ko‘rinishlarda ko‘rish mumkin.
2. *Miqdoriy yo‘qotish*–yetkazib berilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmini keragidan ortiq yoki kam miqdorda bo‘lishi, tovarlar va xizmatlarni davlat ehtiyojlari uchun emas, balki mas’ul amaldorlarning shaxsiy maqsadlari uchun xarid etish va boshqalar.
3. *Sifat yo‘qotish*–sifatsiz tovarlar yetkazib berish va xizmatlar bajarish kabi zaruriy texnik talablarni buzgan holda shartnomalarni tuzish, kafolat muddati va kafolat muddatidan so‘nggi shartlarni bajarilishining noqulay shartlari, bajariladigan ishlar va xizmatlar sifatini tekshirish uchun yetarli nazoratning talab etilmasligi va hokazo.

4. *Siyosiy yo‘qotish* – mamlakatda investitsion muhitning yomonlashuvi, fuqarolar tomonidan davlat va davlat tuzilmalariga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi, mamlakat iqtisodiy-moliyaviy tizimining izdan chiqishi, erkin raqobat tamoyillarining buzilishi va boshqalar.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlat xaridini tashkil etishda korrupsiyani butunlay yo‘qotishga hali hech bir mamlakatda muvaffaq bo‘linmagan, ammo bu holat korrupsiyaning mavjud darajasini pasaytirish uchun olib boriladigan chora-tadbirlarning samarasiz yoki natijasiz ekan degan fikrni bildirmaydi.

Xarid tizimi sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurash davlat sektoridami yoki tijorat sektorida amalga oshiriladimi, unga kompleks yondoshuv bo‘lishini talab etadi.

Xalqaro amaliyotda mazkur muammo yechimida o‘z samarasini isbotlagan to‘rtta yondoshuv mavjud [3.4]:

Psixologik usullar.

Texnik usullar.

Tartibga soluvchi jarayonlar.

Jazo chora-tadbirlari.

Psixologik usullar korrupsiyaning birlamchi sababi bo‘lgan – xizmatchining ish beruvchi (ushbu holatda davlat hisobidan, ya’ni, butun fuqarolar mablag‘lari) hisobidan noqonuniy boyishini oldini olishga ta’sir etish imkonini beradi. Psixologik usullarga quyidagilar kiradi.

Vazifaga nomzodning anketa ma’lumotlarini, uning biografiyasi va oldingi ish joyidan tavsifnomani tekshirish. Ushbu usul oldingi ish joyidan korrupsion faoliyati yoki jinoyati uchun ishdan bo‘shatilgan, sudlangan shaxslarni korrupsiya imkoniyati mavjud vazifalarga tayinlanishini oldini olishda keng qo‘llaniladigan oddiy usuldir. Hozirda barcha davlat organlarida vakant o‘rinlar uchun nomzodlarni tekshirishda yuqoridagi kabi tekshiruvlar xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Nomzodlarni ishga olishda maxsus chuqurlashtirilgan testdan o‘tkazish (hatto «yolg‘onni aniqlaydigan detektorlar»–poligraf)dan ham foydalaniladi. Juda ko‘plab mavjud maxsus testlar va kompyuter dasturlari ish beruvchiga nomzodning aniq psixologik rasmini gavdalantirish, shuningdek, uning ish beruvchi hisobidan boylik orttirishga bo‘lgan potensial intilish darajasini aniqlashiga imkon beradi. Ushbu turdagi psixologik testlardan tijorat sektori korxonalari va harbiylashgan tueilmalarda ham keng foydalaniladi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, ishga qabul qilishda poligraf («yolg‘onni aniqlaydigan detectorlar»)dan foydalanish ko‘pchilik hollarda insonning konstitutsion huquqlarini poymol etishi to‘g‘risidagi asosli qarshiliklarga ham sabab bo‘ladi [4].

Xodimlarni vaqt-vaqti bilan sadoqatligini tekshirib turish va bunda provokatsion usullardan ham foydalanish tijorat sektorida keng tarqalgan. Aybdorlarni «ko‘rgazma» holda fosh etish va jazolash yuqori samarali antikorrupsion tadbirlardan hisoblanadi. Bosim ostidagi psixologik muhit va xodimlarning yuqori darajadagi ko‘chishi, ushbu usulning qarama-qarshi ta’siri sifatida namoyon bo‘ladi. Ayrim holatlarda, davlat xizmatida mazkur usuldan korrupsiyaga qarshi profilaktik tadbir sifatida emas, balki raqobatchi-amaldorni yo‘q qilish uchun qo‘llaniladigan «g‘irrom» kurashda foydalaniladi.

Xodimlarning o‘z-o‘zini nazorat qilish tizimini tashkil etish (talabgor xabar yetkazuvchilar). Ushbu usuldan yirik tijorat tuzilmalarida maxsus tashkil etilgan usul sifatida keng foydalaniladi. Qanchalik noqulay bo‘lishiga qaramasdan ushbu usul juda samarali hisoblanadi. Davlat sektorida har doim ham qo‘llanavermaydi, ammo o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ladi. Ko‘pchilik holatlarda davlat korxonalari tizimida talabgor xabar etkazuvchilar tizimi rasmiy reglamentga ega emas va u ayrim olingan rahbarlar uchun axborot manbai hisoblanadi.

Xodimlarning samarali motivatsiyasi nafaqat xaridni amalga oshiruvchi amaldorlarni moliyaviy rag‘batlantirishni bildiradi, balki u xodimni ish beruvchi bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish xohishini rag‘batlantiruvchi, masalan tashkilotda o‘z professional karyerasini amalga oshirish kabi, maxsus dasturlardan tashkil topadi. Yevropa mamlakatlarida, davlat xaridi uchun javobgar amaldor, maxsus kategoriyali xodim sifatida boshqa kasbdoshlariga nisbatan yuqori pul mukofoti – vijdonan faoliyat yuritganligi uchun o‘ziga xos tarzdagi mukofot oladilar [3].

Buyurtmani joylashtirish komissiyasi a’zolarini doimiy rotatsiya qilish, amaldorlarni mol yetkazib beruvchilar bilan til biriktirishlarining oldini oladi.

Korrupsiyaga befarq bo‘lmaydigan korporativ etikani shakllantirish (kasbiy kodeks va qiziqishlar to‘qnashuvini boshqarish kodeksini ishlab chiqish, maxsus o‘quv dasturlarini amalga oshirish), xorijiy mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasining muhim elementi hisoblanadi.

Har qanday yirik xalqaro kompaniyada etika kodeksi – har bir xodimning hayot tarzi va axloqini

reglamenti hisoblanadi. Kodeksda xodimlarning axloqiy etikasi va qoidasi, qiziqishlar to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal etish yo‘llari o‘z ifodasini topgan. Ba’zi holatlarda etika kodeksi mehnat shartnomasining tarkibiy qismi hisoblanadi, unga amal qilmaslik xodimni ishdan bo‘shatilishga olib kelishi ham mumkin. Xorijiy mamlakatlar davlat xizmati tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan etika kodekslaridan keng foydalaniladi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, etika kodekslari tashkilotning barcha xodimlari uchun majburiy va doimiy trening dasturlari tashkil etilgandagina o‘z funksiyasini to‘la bajaradi [2].

Texnik usullar bitim ishtirokchilarini bir-birlari bilan uchrashish imkoniyatini yo‘qotib yoki korrupsionerni qo‘lga tushib qolish riskini oshiradi, sotib oluvchi bo‘linmalar va sotuvchilar o‘rtasida til biriktirishlarni oldini oladi va ushbu imkoniyatni sezilarli darajada pasaytiradi.

Xarid bilan shug‘ullanuvchi xodimning muzokaralar olib boruvchi xonalarini nazorat tizimi va videokuzatuv uskunalari bilan jihozlash. Ushbu tizimning analogi sifatida AQSH yo‘l politsiyasida qo‘llaniladigan antikorrupsion tizimni keltirish mumkin. Ya’ni, unga ko‘ra, yo‘l politsiyasi xodimining qoidabuzar bilan munosabati, faqatgina, patrul xizmati mashinasida o‘rnatilgan maxsus videokamera qarshisida amalga oshirilishi lozim [5].

Xizmat pochta yozishmalarini monitoringi. Tijorat sektori tuzilmalarida keng qo‘llaniladi, va asosan, ushbu funksiya ichki xavfsizlik bo‘linmasining vazifasiga kiradi. Ushbu usuldan davlat xizmatida foydalanishning yuridik jihatdan qanchalik muvofiqligi bahsli mavzu bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy informatsion texnologiyalardan foydalanish (elektron savdolar tizimi, internet-do‘kon va elektroi savdo maydonlari) xaridni amalga oshiruvchi xodim va sotuvchini bevosita uchrashish imkoniyatini pasaytiradi va ushbu usuldan ham davlat sektori, ham tijorat tuzilmalari keng foydalandilar. Shuni ham ta’kidlash lozimki, ayrim obyektiv sabablarga ko‘ra xaridni tashkil etishning bu turi hajmi unchalik katta emas va kichik hajmdagi xaridni amalga oshirishda qo‘llaniladi.

Mavjud tijorat yoki maxsus shakllantirilgan kataloglar asosida xaridni tashkil etish ham tijorat, ham davlat sektorida keng qo‘llaniladi.

Bunga yorqin misol sifatida barcha federal bo‘linmalarni joriy ta’minot (material-texnik ta’minot) masalaparini hal qilish bilan shug‘ullanuvchi AQSHning umumiy xizmatlar devoni tajribasini keltirish mumkin. Devon doimiy tarzda turli xildagi tovarlar/xizmatlar uchun konkurs e’lon qilib turadi va uning natijalari (baholar, etkazib berish muddatlari va boshqa shartlar) maxsus kataloglarga kiritiladi. AKDLdagi biror davlat bo‘linmasi «standart» mahsulotni xarid etish zarur bo‘lganda, umumiy xizmatlar devoni tomonidan jo‘natilgan katalogdan zaruriy tovar-xizmatni topib, uni hech qanaqa ortiqcha jarayonlarsiz katalogda ko‘rsatilgan shartlar asosida sotib oladilar.

Tartibga soluvchi usullarni qo‘llash – korrupsiyani yuzaga kelish riskini pasaytirishga qaratilgan barcha rasmiy ichki qoida va jarayonlarni amal qilish orqali xaridni amapga oshirishni bildiradi. Ushbu holatda korrupsiyaga qarshi turuvchi chora-tadbirlar kompleksi ikki xil yo‘nalishda amalga oshiriladi [2,3,4]:

1. Davlat buyurtmasini joylashtirishning potensial jihatdan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi jarayonlarini tartibga soluvchi samarali qoidalar tizimini shakllantirish.

2. Ushbu qoidalarni amal qilishni nazorat etishning aniq mexanizmlarini shakllantirish. Davlat buyurtmasini joylashtirish jarayonlarida korrupsiyani yuzaga kelish riskini pasaytiruvchi qoidalar tizimida mustaqil (dastlabki va so‘nggi) nazoratni amalga oshirishga imkon beruvchi nazorat nuqgalarini (xarid jarayonlariga bevosita aloqador bo‘lmagan bo‘linmalar bilan oldindan kelishib olish va boshqalar) mujassamlashtirish lozim.

Jazo chora-tadbirlarini qo‘llashdan maqsad davlat buyurtmasini joylashtirishga mas’ul bo‘lgan shaxslarning korrupsion faoliyatining «foydasiz» qilib qo‘yadigan muhitni shakllantirish.

SHuni ta’kidlash lozimki, yuqorida sanab o‘tilgan usullarni amaliyotda qo‘llash har bir usulning xususiyatidan kelib chiqib chegaralangan va davlat tomonidan qo‘shimcha moliyaviy resurslar ajratilishini talab etadi. Masalan:

1. Psixologik usullarning qo‘llash samarasi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

–ushbu yo‘nalishga jalb etiladigan mutaxassisning kvalifikatsiya darajasi: suhbat olib borish mahorati, nomzodlarni psixologik testdan o‘tkazish, nomzodlar va xodimlar haqida shaxsiy ma’lumot to‘plash va uni tahlil etish, maxsus asboblardan foydalanish (poligraf, suhbat va yozishmalarni nazorat etish va boshqalar);

–baholash va xulosa berishning subyektivligi: xodimni yoki ma’lum vaziyatni baholash, chora-tadbirlar ishlab chiqishda ushbu sohada ekspert sanalgan mutaxassisning xulosasi katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun xato qilish (yoki bilib turib) ehtimoli mavjud;

–xaridni amalga oshiruvchi bo‘linma xodimlariga (shuningdek, vijdonan faoliyat yuritadigan xodimlarga ham) ushbu usullarning qo‘llanilishi, ularning huquqlarini chegaralashi mumkinligi bilan yoqmasligi mumkin.

2. Texnik usullarni qo‘llashning chegaralanganligi, sotib olinadigan tovar va xizmatlarning xususiyati va potensial mol etkazib beruvchilarda texnik vositalarning qanchalik keng tarqalganligi bilan tavsiflanadi:

–birjadagi standartlashgan va o‘lchash oson bo‘lgan tovarlar hamda xizmatlarga (masalan, neft mahsulotlari, ko‘mir, don, metall va boshqalar) nisbatan qo‘llash oson va samaralidir;

–ushbu usulni o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan aniq o‘lchamlarga ega bo‘lmagan tovarlar va xizmatlar uchun qo‘llab bo‘lmaydi. Bunday holatlarda, iste’molchi va sotuvchi tovar hamda xizmatlarning texnik xususiyatlarini o‘zaro kelishib olishlari lozim bo‘ladi. Misol tariqasida loyihalashtirish, maslahat va qidiruv ishlari kabilarni keltirish mumkin.

3. Tartibga solish usullarining qo‘llanilish samaraliligiga faqatgina tartibga solishni to‘la va aniq bajargandagina erishish mumkin. Shunday qilib, ushbu usul zaruriy qoida va jarayonlar ustidan nazorat mexanizmlarining samarali o‘rnatilishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq.

4. Agar «jazodan qochib qutulib bo‘lmaslik» mexanizmlari yetishmasa, jazo chora-tadbirlarini qo‘llashning amaliylik va biror natija berishi unchalik ham katta bo‘lmaydi.

Davlat xaridi jarayonlarida korrupsiya darajasini pasaytirishga faqatgina kompleks yondashuv, ya’ni, xaridning barcha bosqichlarida uning barcha usullaridan balanslashgan holda foydalanish orqali erishish mumkin. Alohida olingan usullar yoki sohalar bilan chegaralanib qolish orqali faqatgina qisqa muddatli natijalarga erishish mumkin. Ammo ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng, noqonuniy daromad topishning ko‘rinishi va mexanizmi o‘zgaradi va nazorat qamrab olmagan sohalarga o‘tadi. Natijada, korrupsiya natijasida yo‘qotiladigan zararlar oldingi miqyosiga chiqib oladi va hatgo uning ko‘lami yanada kengayishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respiblikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘grisida”gi qonuni//lex.uz.
2. О проблемах управления государственными закупками в Республике Узбекистан и направлениях совершенствования. Аналитическая записка. UNDP, Ташкент, 2008.
3. U.Burxanov, T.Atamuradov. Davlat xaridi. T., «Fan va texnologiya», 2012, 152-bet.
4. Malikov T., Xaydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, T., «Iqtisod-moliya», 2008, 84-bet.
5. www.dgmarket.uz.

Турсунова Гулбахор (студентка 2-курса магистратуры ТерГУ)

ЯЗЫКОВОЙ СТАТУС МЕЖДОМЕТИЯ

Annotatsiya*. Ushbu maqolada undov so‘zlarning lingvistik holati va ularning nutq bo‘laklari tuzilishidagi rolini tushunishning turli xil yondashuvlari muhokama qilinadi. Munozara mavzusi – tilshunoslik doirasidagi alohida gap bo‘lagi sifatida undov so‘zlar.*

Аннотация*. В данной статье обсуждены различные подходы к осознанию языкового статуса междометий и их роль в структуре частей речи. Темой обсуждения представляются междометия в качестве отдельной части речи в рамках лингвистики.*

Annotation*. This publication disperses various approaches to understanding the linguistic status of interjections and their role in various parts of speech. The topic discusses interjections as separate parts of speech within the framework of linguistics.*

Kalit so‘zlar: *undov so‘zlar, muammoli tasnif, leksik-grammatik sinf, ifoda, emotsional undov so‘zlar.*

Ключевые слова: *междометия, проблемная классификация, лексико-грамматический класс, экспрессия, эмоциональная междометия.*

Key words: *interjections, problematic classification, lexico-grammatical class, expression, emotionnal interjections.*

Междометия представляют собой довольно распространенный пласт лексики современного русского языка, они принадлежат к эмоциональной сфере языка, обладают вполне определенной семантикой, общепонятной носителям языка. Несмотря на это в современном русском языкознании междометия являются одной из сложных и спорных частей речи.

Семантически междометия отличаются от всех знаменательных частей речи тем, что они не обладают номинативной функцией. Выражая чувства и волю, междометия, тем не менее, осознаются всеми говорящими на данном языке и всем понятны, так как за междометием закреплено определенное смысловое содержание.

Первые попытки изучения междометий связаны с теориями о происхождении языка, возникшими еще в античной философии. Междометие рассматривалось в качестве образования, пограничного между криком животного и словом человека. В этом смысле показательно рассуждение К.С.Аксакова о том, что междометие «вовсе не есть слово. Это просто восклицание, которое показывает неопределенное состояние боли, ужаса, радости. Тут еще нет слова, тут еще не говорит человек; нет, это крик» [1].

Исходя из этого, на основании теории происхождения междометий и происхождения звукоподражания языка, пришли к выводу, как эмоциональный звук, а не слово.

Например, Н.И.Греч не относил междометия ни к знаменательным словам, ни к служебным и считал невозможным их изучение в системе языка

На различие между словами и междометиями указывал и А.А.Потебня. По его мнению, «междометия не является предметом мысли, все его содержание составляет чувство, которое не может воспроизводиться как мысль. Чувство всегда ново, поэтому и междометие как отражение мгновенного состояния души каждый раз создается заново и не имеет объективной жизни, присущей слову, а, следовательно, не может причисляться к языку» [2].

Характеристика концепций при исследовании происхождения междометий изначально получивший научную трактовку рассматривались в трудах М.В.Ломоносова. Дальнейшие открытие дали о себе знать своих суждениях Х.Востоков, А.А.Шахматов, Ф.Фортунатов и др. Сторонники этого взгляда:

а) они считают, что междометия это слова, а объединяющую их группу, принимают как частью речи;

б) междометия входят в общею систему частей речи, не имея грани между словом выражая мысль передают эмоции и слова:

в) ставится проблема исследования строения междометий, их предназначение в потоке слов говорящего.

Таким образом, учёные считают что междометия, это одна целая половинка самостоятельных частей речи. Так, Ф.Ф.Фортунатов разделяет все слова языка на полные, частичные и междометия, которые «не выражают идей, но выражают чувствования, испытываемые говорящими» [3].

Следователи, придерживающиеся начальной теории сошлись во мнении, что междометия отделяются как самостоятельный тип экспрессии слов-высказываний, естественно неорганизованных, синтаксически не конструированных, однако, сознательно осмысленных. Междометия появлялись и продолжают проявляться не как спонтанные звуки, а как выражения, вдобавок возникающие под естественным влиянием речи для посылки естественного колорита, требуемого речью.

В словарной системе языка, междометия не входят в состав ни наречий, ни к модальных слов, ни словам выражающие категорию состояния, а точнее имеют конструкцию отдельной части речи, имеющей неповторимый облик. Они входят в группу неполнозначных частей речи, так, как у них отсутствуют номинативная функция. Лингвисты считают, что междометия отражают субъективную характеристику речи к действительности, их нужно отнести группе частей речи группирующий слова с направляющей задачей в одном ряду с предлогами, союзами, частицами и модальными словами.

Соответственно, междометия отдельная часть речи, учёные отметили важный статус междометий, как имеющие особый неизменяемый морфологический признак и отсутствием транспозиции слов, имеющею разные оттенки интонации, сочетающийся с мимикой и жестами, имеет своеобразную фонетическую формальность и , отсутствием особенностями номинации слов.

По этой теории другое представление имеют учёные Н.И.Греч, Д.Н.Кудрявцева, Д.Н. Овсянико-Куликовский, В.А. Богородицкий, К.С.Аксакова, А.А.Потебни и др. Сторонники этого взгляда:

а) считают, что междометия не должны входить в состав части речи;

б) оно не являются сознательными и творческими случаями речи;

в) требуют отказа исследования синтаксического свойства междометия.

Но, рассматривался другое отношение, где считается, что междометия входит в синтаксическую группу слов. Его принимают, так, как результат цивилизованной речи, не имеющий смысл идентифицировать с инстинктивными бессознательными выкриками, в связи с этим, что окончательно не имеют вразумительного для производящих значения. Этого взгляда придерживаются Ф.И.Буслаев, А.М.Пешковский, В.В.Виноградов, И.Н.Кручинина, М.В.Панов, О.П.Суник, А.И. Германович и др., Они считают, что междометия составляют отдельную синтаксическую группу.

А.И.Германович, опираясь на учение И.П.Павлова, считает, «что рефлекторный выкрик представляет собой акт первой сигнальной системы и лишен интонации, в особенности выразительного тембра, а междометие – это факт второй сигнальной системы и является средством общения» [4].

А.М.Пешковский также выделяет междометия в отдельный разряд слов, однако, подчеркивает их «инородность в организме предложения». Междометия, как знаки чувствований, а не представлений, не могут вступать в какие-либо отношения с другими словами языка [5]

При изучении междометий в отечественном языкознании нельзя не остановиться на работах В.В.Виноградова, в которых междометия представляются как живой и богатый пласт субъективных знаков, служащих для выражения эмоционально-волевых реакций говорящего на действительность. В.В Виноградов также не относит междометия, как и модальные слова, «ни к частям речи, ни к частицам речи» [6].

Междометия не схожи на других слов языка отсутствием «когнитивный» ценности: они доносят эмоциональное состояние, показывают настроения, волеизъявления, на контрасте слов-названий (существительных, прилагательных, глаголов, наречий), не имеют функцию номинации и обозначения. Сопровождение выразительными жестами и мимикой междометия прибавляют особую интонацию слабовыраженного смыслового содержания. «Ущербность» междометий, по мнению В.В. Виноградова, состоит в отсутствии у них системы грамматических форм и форм словоизменения [7].

По его мнению «междометия отражают в себе эмоциональную жизнь личности, социальной группы или народа, находящуюся в органической связи с деятельностью интеллекта». В последствии этой идеи повлияли на дефиницию междометного класса большинство лингвистами.

В русском и зарубежном языкознании были эксперименты воссоединить междометия с остальными самостоятельными частями речи. Например, по трактовкам О.Есперсен попытался сблизить междометия и наречия на основе их не изменчивости. По мнению основателя первой русской грамматики М.В.Ломоносова, междометие укоренивший в себе несколько целей, -может находится наравне с местоимением и наречием относящийся к «частям слова». Подтверждением и их объединения того, стало какое-то общепринятое сократительное значение. В частности, выражение «ба!» взамен «Я удивлен, что тебя здесь вижу» излагает чёткий, ясный, определенный и кратчайший способ словесного донесения мыслей и отношений говорящего.

Подобные полярные точки зрения на междометие позволили академику Л.В.Щербе назвать его «неясной и туманной категорией», «досадным недоразумением» [8].

В современной русской лингвистике междометия до сих пор приводит к разным мнениям о сложном нерешённом вопросом. Здесь остаётся не раскрытой морфологического определения междометия как отдельно взятая группа. Междометие нестрогая в определении выражается как разнородная группа языковых единиц. Иногда лингвисты вносят в состав междометий разные эмоционально выраженные слова, выражение культуры общения и звукоподражание окружающей среды. У них отсутствует, как мы писали, номинативные части речи, указывают на эмоции или волевые свободные характерные побуждения, и в этом совокупности звуков имеется глубокий смысл, одно или несколько содержаний, например: радость, огорчение, грусть, сожаление и т.д. Одно и то же слово с помощью интонации могут донести разные эмоции и желания. Например: междометие О! может передать восторг говорящего или удивление. Исходя из контекста мы можем понять возмущение, сожаление или большую радость. Как мы говорили, во многих междометиях выраженное впечатление раскрывается именно в контексте. Бывают исключения, например для передачи негодования и огорчения используются специализированные междометии не входящих в состав слов или звукоподражаний. Отличительная сторона междометий в том, что они не

выполняют функции отношений между словами в словосочетании, не сращиваются слова и компоненты предложения. Не носят коммуникативные функции, привычные служебным словам, и т.д.

Сближающими особенностями междометий являются следующие:

– не имеет лексического значения, выражение эмоций и волеизъявлений;

– выражается особой интонацией, подающая основу волю экспрессии, повышение тона;

– есть такие фонетические стороны: это в большинстве случаев односложные слова сочетающиеся с согласными звуками: ш-ш-ш, тссс;

– в основном сопровождаются мимикой или жестами;

–отсутствует обычная форма словообразования и словоизменения;

– свойственная функция, выражаются как самостоятельными репликами неделимыми предложениями или членами предложения.

Проблема классификации междометий вызывает споры и В.В.Виноградов выделил следующие разряды:

– междометия выражающие чувства и эмоции, выражающие эмоциональную характеристику или оценку состояния слова;

– междометия с особым интонацией и смысловыми возможностями происходящие от имен существительных;

– слова со смыслом волевых изъявлений и побуждений;

– междометия с элементами модальности;

– экспрессивно звуковые междометия сопровождающимися жестами, соответственно этикету обмениваются знакомые или встречные люди;

– ругательные междометия;

– (вокативы) междометия предложение-обращение;

Эта классификация имеет достаточно недостатков и приведенная классификация, наряду с положительными качествами, имеет много отрицательных характеристик. Здесь нарушается правила логики, так как одно междометие подходит к нескольким разрядов распределения междометий.

Исходя из этого, Н.М.Шанский и А.Н.Тихонов опираются на классическом разделении двух главных разрядов: эмоциональных (ах, ох, ой, увы, ура, тьфу, батюшки, фи, браво и т.д.) и побудительных (императивных), выделяя в составе последних три под разряда: 1) междометия с общим значением поведения, побуждения (ну, цыц, стоп и т.д.); 2) междометия, служащие сигналом к вниманию, выражающие призыв откликнуться (ау, эй, алло и т.д.); 3) междометия клича и отгона животных или призыва удалиться человека (брысь, марш, вон) [9].

Таким образом, междометия обладают несходными свойствами в трактовке категориальной принадлежности и разнообразностью компонентом классных единиц, что и происходит затруднение разработки типологии. В рассмотренном теориях согласились в том, что междометия отдельная часть речи, так как они производятся и продолжают производиться не как инстинктивно-спонтанное явление, а как слова создающиеся сознательно непосредственным воздействием языка для выражения эмоционального оттенка, необходимого речью.

Использованная литература:

1. Аксаков К.С. Полн. собр. соч. Т. 2, ч. 1, М., Типография университета, 1875, 503 с.

2. Греч Н.И. Чтения о русском языке. Курс лекций. Ч. 1, СПб, типография Н.Греча, 1840, 336 с.

3. Фортунатов Ф.Ф. Избранные труды. Т. 1–2, М., Государственное учебно-педагогическое издательство, 1956, 924 с.

4. Германович А.И. Междометия русского языка. Киев, «Ряданьская школа», 1966, 172 с.

5. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. М., Учпедгиз, 1956, 511 с.

6. Буслаев Ф.И. Историческая грамматика русского языка. М., Учпедгиз, 1959, 624 с.

7. Виноградов В.В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). М., «Высшая школа», 1972, 616 с.

8. Щерба Л.В. О частях речи в русском языке. Избранные работы по русскому языку. М., Учпедгиз, 1957, с. 34–61.

9. Шанский Н.М., Тихонов А.Н. Современный русский язык. В 3 ч, ч. 2. Словообразование. Морфология. М., «Просвещение», 1987, 256 с.

MUNDARIJA

MATEMATIKA

Saidov Doniyor Yusupovich, Qudrat To‘xtaboyev. “Tasodifiy o‘rmon” algoritmining turli toifali alomatlar fazosida qo‘llanilishining o‘ziga xosligi.....3
Bozorov Suxrob Baxodirovich. Oldindan silliqlangan relativ-risk funksiyasi asosida o‘ng tomondan tasodifiy senzurlanishli modelda taqsimot funksiyasini noparametrik baholash.....7
Жураев Турсунбой Файзиевич, Рахматуллаев Алимбай Хасанович, Давлетов Давронбек Эгамбердиевич, Монгиев Абдулхаким Ибрагимович. Гомотопически плотные подмножества компактификации локально компактных пространств и абсолютные ретракты.....20
Xasanov Muzaffar Masharipovich, Ganjayev Otabek Yuldashovich, Omonov Sherzod Shavkat o‘g‘li. A Generalized Direct Methods for the Loaded Nonlinear Degasperis-Procesi Equation.....29

FALSAFA

Bekchanov Zufarbek Madrimovich. Stoitsizm falsafasi va irodaning ijtimoiy-axloqiy fenomen sifatida shakllanishi.....33
Ametov Axmet Qulametovich. O‘zbekistonda inson huquqlarini ta’minlashning falsafiy-axloqiy asoslari.....36
Xudayberdieva Huriyat Karimberdievna. Yoshlarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda vatanparvarlikning ma’naviy-axloqiy asoslari.....38
Qodirov Fazliddin Yuldoshovich. Shaxs fuqarolik madaniyatining nazariy modeli.....42
Boltayev Abdurahim Amonovich. Ibn Arabiy ta’limotida inson va uning kamoloti masalasi.....45
Юсупова Феруза Зойировна. Приоритетные направления социально-духовного идеала в джадидизме.....48

TILSHUNOSLIK

Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinovna, Tillaboeva Xavasxon Zoxidjon qizi. Terminologik tizim xususiyatlari va mohiyati.....51
Xaitbayeva Nazokat Adilbek qizi. Akademik yozuv faniga oid matnlarning psixolingvistik xususiyatlari.....53
Abuzalova Mehriniso Kadirovna, Radjabova Dilnoza Anvarovna. Xrematonimlar onomastika fanining asosiy birligi sifatida.....55
Sarimsokov Sirojiddin Shoyzoqovich. Publitsistik matnda aspektual hodisalarning pragmatik vazifalari.....58

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sabirova Nasiba Ergashevna. XIX–XX asrlarda Xorazm baxshichilik san’ati.....62
Kurbanova Saida, Ibragimova Yorqinoy. Maqolaning janr xususiyatlari.....65
Atadjanova Yulduzxon Dilshadovna. “Muvozanat” romanida xalq hayotining badiiy tasviri.....67
Sharopov Azizjon Azim o‘g‘li, Qodirova Muqaddas Tog‘ayevna. Ilmiy-texnikaviy matnlarni tarjima qilishdagi muammolar.....71
Tursunova Mukhlisa Vakhobovna. Julian Barnsning “Metrolend” asarida sukunatning postmodern isyoni.....73
Otamurodova Dilafruz. Andre Morua novellalarida dialoglarning strukturaviy va funksional xususiyatlari.....77

PEDAGOGIKA

Norboyeva Dilafro‘z Jumaqulovna. Umumta’lim maktablarida rus adabiyoti namunalarini o‘rganishning uslubiy tamoyillari.....80
Yadgarov Baxodir Jumatovich, Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li. Sakrash turlarida mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishda tiklovchi vositalarni qo‘llash orqali optimallashtirish.....82
Salayeva Muhabbat Saburovna, Raximova Dilfuza Nurmetovna. Maktabgabcha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirish.....86
Yadgarova Sadoqat Kenjabayevna. Maktab biologiyasida o‘quvchilar ekologik ko‘nikmasini shakllantirish.....89
Eshchanova Gavhar Otajonovna, Durdiyeva Mohinur Adilbek qizi. Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularning ijodiy-kreativ faolligini shakllantirishda tez aytishlarning o‘rni.....92
Mustafaqulova Feruza Inomovna. Chet tillarni o‘qitishda qo‘llaniladigan usul va metodlar.....95
Soliyev Erkin Mamatkarimovich. Chet tili o‘qitishda ma’no, tushuncha, konsept, lingvokulturema va kulturema atamalarining roli.....97
Atabayeva Mavjuda Rustamovna. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida “O‘zbekiston ichki suvlari va suv boyliklari” mavzusini interfaol o‘rganishda klaster usulidan foydalanish.....99
Musoyeva Aziza Botirovna. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati.....102

Abdulxayeva Musharraf Usmonjon qizi. Diktant va musiqa hamohangligi metodi.....105
Soliyev Oybek Soxibjon o‘g‘li. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining zamonaviy axborot texnologiyalari hamda didaktik o‘yinlar yordamida darslarda faoligini oshirish.....108
Urazova Nafisa Gulummatovna. Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kitobxonlik jarayonini tashkil etish ijtmoiy-pedagogik muammo sifatida.....110
Qalandarov Shuxrat Shokirjonovich, Komilova Farog‘at No‘monjon qizi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni shakllantirishda o‘yin texnologiyasining o‘rni.....113
Nizamova Shaxnoza Ubaydullayevna, Egamova Ravshanoy Suxrovjonovna. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning ahamiyati.....116
Toshpo‘latov Azamatjon Mehmonaliyevich, Meliqo‘ziyeva Gulruxsor. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari.....118
Meliboyev Tavakkaljon Turg‘unovich. Respublikamizda biologiya darslarida uzluksiz ta’lim va ilg‘or ta’lim metodlaridan foydalanish asoslari.....121
Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o‘g‘li. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasini o‘rgatish jarayonida badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi.....124
Умарходжаева Хилола Сирожиддинова, Ходжимуродова Малика Валиевна. Индивидуальный подход в обучении иностранным языкам для неязыковых специальностей.....126
Хамракулов Зафаржон Йигиталиевич. Теоретические основы развития педагогической компетенции студентов по правовым наукам.....128
Karimova Diyora Abduvaxidovna. Native English Phraseological Units in Modern English.....131
Kenjabaev Jahongir Abdisalimovich. On the Features of Problematic Teaching of Foreign Languages.....133
Borisova Elena Anatolievna. Development of Acceptable Risk Skills in Students on the Basis of Interactive Cases when Studying the Topic “Provision of First Pre-medical Aid”.....135

ILMIY AXBOROT

Raximbayeva Muhabbat Dushambayevna. Abdullayeva Xosiyat Erkinboy qizi. O‘zbek va ingliz tillaridagi konseptual metaforalarning elektron lug‘atini tuzish va dasturini yaratish.....141
Boltayev Navfalbek Sodiq o‘g‘li. Radioboshlovchiga qo‘yiladigan talablar.....143
Abishova Gulxan Matjanovna. Nemis tilidagi nominativ kelishigining qoraqalpoq tilida ifodalanishi.....147
Sulaymanova Nilufar Jabbarovna. Olamning paremiologik manzarasida baho konseptlarining o‘rni.....151
Xalikova Mohigul Xalimjanovna. Raqam va sonlarda qanday mazmun yashirin?.....158
Goipova Saidaxon Madaminjon qizi. Ingliz tilida “Soul-ko‘ngil” konseptiga ega bo‘lgan so‘zlarning semantik xususiyatlari.....161
Kilichev Bayramali Ergashovich. Buxoro etnooykonimlari.....164
Muminova Umida Qarshiyevna. “Mahbub ul-qulub” asari lug‘at tarkibining mavzu guruhlari.....168
Musayev Abduvali. Tohir Malik asarlarida dialektal so‘zlarning leksik-grammatik qo‘llanishi.....170
Salomova Gavhar Abdinazarovna. Qisqartma so‘zlarning ingliz va o‘zbek tilshunosligida qiyosiy tahlili.....173
Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinovna, Azizova Xonzodabegim Akmal qizi. Terminlarning badiiy o‘xshatishlarni hosil qilishdagi o‘rni.....175
Narzullaeva Dilnoza Sanatovna. Ingliz va o‘zbek badiiy adabiyotida inson ruhiy-emotsional holatini tasvirlashning stilistik va lingvomadaniy xususiyatlari.....178
Yakubov Jamoliddin, Ruzimetov Xamid. Fransuz va o‘zbek tillarida “istak” kategoriyasining ifodalanishi.....182
Otajanova Lola Ozodovna. Ogahiy tarixiy asarlari tarjimasida rutba va mansablarning ingliz tilida ifodalanish usullari.....185
Bahriddinova Yulduzxon Bahriddin qizi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi fitofrazeologik birliklarni elektron lug‘atlardan tarjima qilish muammolari.....188
Otajonov Qahramon Otajonovich. Davlat xaridini tashkil etishda korrupsiya va unga qarshi kurash yo‘llari.....191
Турсунова Гулбахор. Языковой статус междометия.....194

“ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboyYo‘ldoshev**
Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**
Musahhihlar: **Турумова Тамара,**
Aybek Kalandarov
Ushbu songa mas’ul **Jamoliddin Yakubov**

Terishga berildi: 20.04.2023
Bosishga ruxsat etildi: 29.04.2023.
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.
Rizograf bosma usuli. Tayms garniturasi.
Adadi 250. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma №. 14
Hisob-nashriyot tabag‘i 25
Shartli bosma tabag‘i 23
UrDU matbaa bo‘limida chop etildi.

UrDU matbaa bo‘limi matbaa faoliyatini boshlagani
haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish to‘g‘risidagi
Tasdiqnoma (№3802-835f-ad22-c709-fbd1-1129-1986)
asosida faoliyat yuritadi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.
Telefon/faks: (0362)-224-66-01;
e-mail: ilmsarchashmalari@umail.uz
ilmsarchashmalari@mail.ru
Veb-sayt: www.ilmsarchashmalari.uz
Telegram: https://t.me/ilmsarchashmalari